

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM  
MUASSASALARNING YOSHLARGA “HALOLLIK  
VAKSINASI”NI SINGDIRISHDAGI AHAMIYATI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**

**Qarshi, 2024-yil 23-dekabr**

Mazkur konferensiya materiallari “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejası”ning talablari ijrosiga bag‘ishlangan “**Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining yoshlarga “halollik vaksinasi”ni singdirishdagi ahamiyati**” mavzusida muammolarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va falsafiy muammolarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Anjuman “9-dekabr – Xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlab o‘tkazildi. Anjuman Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining yoshlarga “halollik vaksinasi”ni singdirishdagi maqsad va vazifalari, ahamiyati va uning dolzabr muammolarini o‘rganish, ularni hal etishning nazariy va amaliy yondashuvlarini o‘z ichiga olgan.

Konferensiya materiallari korrupsiyaga qarshi kurash va uni oldini olish bo‘yicha jahonda va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ularning mazmun-mohiyatini asoslashga qaratilganligi bo‘lib, ijtimoiy fanlar, siyosatshunoslik, huquqshunoslar, falsafa va jamiyatshunoslik bilan shug‘ullanuvchi olimlar, tadqiqotchilar hamda talaba yoshlar uchun mo‘ljallangan.

### **Tuzuvchilar:**

Bekmurodova G.H. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Boymurodov Z.Sh. – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### **Taqrizchilar:**

**Choriyev S.A.** – Qarshi davlat universiteti Falsafa va sotsiologiya kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor.

**Tursunov X.M.** – Qashqadaryo viloyat sudi sudyasi, yuridik fanlar nomzodi.

Ushbu konferensiya materiallari Qarshi davlat universiteti rektorining 2024 yil 6-noyabrdagi 182 I-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat etildi.

## KIRISH

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Hozirgi davrda korrupsiya ko‘pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish, muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada jamiyat a’zolarini mazkur davlatning organlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi. Korrupsiya-shaxsnинг o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xi洛f ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xi洛f ravishda taqdim etishi tushuniladi. Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Zero, davlatimiz rahbariadolatli ta’kidlaganlaridek, korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sinqilik qiladigan xatarli tahdiddir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlar shular jumlasidandir.

Shu asosda aholining, xususan, talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rib kelinmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish, oliy o‘quv yurtlariga qabul jarayonining shaffofligini ta’minalash borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. So‘nggi uch yilda oliy ta’lim sohasiga oid 200 dan ortiq qonun hujjalarning qabul qilinganligi, 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy o‘quv yurtlarining yangidan tashkil etilganligi, buning natijasida yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 20 foizga oshganligi sohaga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatmoqda. Umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kengaytirilib, **“Korrupsiyasiz soha”** loyihasi amalga oshirilmoqda. Natijada, ta’magirlik va manfaatlar to‘qnashuviga oid holatlarning oldi olinmoqda, ochiqlik va shaffoflikni ta’minalash ta’minalash imkoniyatlari ortmoqda.

Zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Uning doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta’minalashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish, ushbu illatning har qanday ko‘rinishiga barham berish, oliy ta’lim muassasalarida tajribali, halol, pok vijdonli, mas’uliyatli professor-o‘qituvchi va xodimlar safini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo o‘zimizni o‘zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyanining har qanday ko‘rishnishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarurdir. Jamoatchilik mexanizmini nazoratini yanada

takomillashtirish orqali professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlar hamda barcha xodimlarlarining o‘z vazifalariga nisbatan mas’uliyatini kuchaytirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ogohlagini yanada oshirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi “**Transparency International**” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro reytingida ijobiy o‘zgarishlar qayt etayotgani barchamizni quvontiradi. Ammo, uzlusiz ta’lim tizimini sifat jihatidan yaxshilash halol va vatanparvar kadrlarni tayyorlash, ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta’lim tizimiga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalami joriy etish, yoshlarni halollik ruhida tarbiyalash va ularni korrupsiyaga qarshi kurashishga doir zamonaviy usullari va yo‘nalishlari bilan tanishtirib borish, korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabilar doimiy faoliyatimiz asosiga aylanishi zarur.

Respublikada so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirildi, xususan, ya’ni oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid alohida bo‘linmalar tashkil etildi. Ishga qabul qilish va xizmat ko‘rsatishning shaffof jarayonlarini tashkil etish, xodimlar va talabalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

## “HALOLLIK VAKSINASI” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI, SHAKLLARI.

### JAMOATCHILIK NAZORATI VA BOSHQARUVDA “HALOLLIK VAKSINASINI” REALLIKKA AYLANTIRISH JAMIYAT SIYOSIY-HUQUQIY MADANIYATI TANDEMLIGINI TA’MINLANISHNING OMILI SIFATIDA

**Hakim Mamanovich Rasulov,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma’naviyat asoslari va  
huquq ta’limi kafedrasi professori

**Annotatsiya.** Maqlada korrupsiya qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining o’rnii va ahamiyati, halollik vakisinasini jamiyat hayotining barcha sohalariga tadbiq qilish bilan bog’liq ilmiy-bazari mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** Korrupsiya, “halollik vaksinasini”, jamoatchilik nazorati, tenglik, ijtimoiy-siyosiy yangilanish, dunyoqarash, qonun ustuvorligi.

Ilmiy va siyosiy-huquqiy manbalarda davlat boshqaruv tizimi qonunlarga asoslangan jamiyat demokratik, ijtimoiy munosabatlarda tenglik va qonun ustuvorligi ta’minlangan jamiyat sifatida ta’riflanadi. Qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel “kimki qonun hokimiyat yuritsin, deb talab qilsa, bu go’yoki, faqat tafakkur va ilohiyot boshqaruvini so’raydi. Kimki inson hokimiyat yuritsin, deb talab qilsa, u o’z talabi bilan jamiyatga hayvoniy unsurni olib kirishga uringan bo’ladi. Insonning his-tuyg’ularga berilishi hayvonlikdan o’zga narsa emas, hukmdorlarni ham g’azab to‘g’ri yo’ldan ozdiradi. Qonun esa vazmin idrok demak”.<sup>1</sup> Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy boshqaruvning adolatli bo‘lishligini quyidagicha izohlaydi: “... ba’zi shahar (mamlakat)lar bo‘ladiki, ularda butun xalqning fikr-zikri, aql-idroki boylik to‘plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo’ladi. Shu bois, erta-yu kech mol-dunyo to‘plash harakatida yuradilar. Bunday rahbarlarning qo’li ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuq odatlar shahvoniylar nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo’ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo’lgan avlodlar tug’iladi”<sup>2</sup>. Abu Rayhon Beruniy adolatli, xalqparvar jamiyatni barpo etish uchun unga to‘siq bo‘luvchi ijtimoiy illatlardan qutilish kerak deydi: “Yovuzlikdan qutilish uchun inson tabiiy kuch ochko‘zlikka hirs va g’azab ustidan hukmronlik qilishi darkor. Bular inson uchun eng kuchli va xavfli dushman. Mana shu ochko‘zlik va g’azab ustidan aql va tafakkur kuchlari g’alaba qozonishi kerak”<sup>3</sup> Yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni ham shuni ko‘rsatmoqdaki, “keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o’zgarishi bilan birga, boshqaruv ma’murlari va mulozimlarining ish usslublari, faoliyat yo’nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi”<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, bugungi reallik ham shuni ko‘rsatmoqdagi boshqaruvda qonun hukmron bo‘lgan jamiyatlarda demokratiya, tenglik ta’minlanmoqda. Ilm-ma’rifatga, ma’naviyatga, adolatga, insof va diyonatga asoslangan, ochko‘zlik, hirs va g’azab ustidan hukmronlikka erishgan jamiyatlarda rahbarlar odil va jamoatchilik e’tiborida bo’ladi. Huquq fanlari doktori A.Umirdinov ta’kidlaganidek, “siyosiy masalalardagi mansablarga tayyorlashda xoh rivojlangan davlat xoh oddiy davlat bo‘lsin, ularga ma’lum darajada erkinlik beriladi. Bu konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa-da, davlat organlarining boshqaruv xizmatiga kim tanlanishidan qat’i nazar, ayniqla, siyosatchilar millat va xalq oldida javobgar bo‘lishadi”<sup>5</sup>.

Siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimidan ma’lumki, “siyosiy-huquqiy madaniyat jamiyatning barcha a’zolariga bab-baravar taalluqlidir. Faqat unga rioya etish yoki o’rnatilgan normalarni bajarish usullari har xil bo‘lishi mumkin”<sup>6</sup>. Ayniqla, davlat va jamiyat boshqaruv tizimi, rahbar kadrlar faoliyatida unga bo‘lgan ehtiyoj nisbatan yuqoriyoq bo’ladi. Boshqaruvda yuksak malakali

<sup>1</sup> Аристотель Политика. Сочинения. В 4-х томах. – М.: Мысл, 1983, – Стр. 481.

<sup>2</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т: А.Қодирй номидаги ҳалқ мероси нашриёти. 1993. – Б. 186.

<sup>3</sup> Абу Райхон Беруний. Хиндистон. – Тошкент Фан. 1965. – Б. 104.

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, НМИУ. 2021. – Б.82

<sup>5</sup> Умиддинов А. Давлат фуқаролик хизматчиси ҳалқ ва миллат олдида жавобгардир. // Жамият ва бошқарув №4, (98) 2022. – Б. 133.

<sup>6</sup> Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари // Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертациясини. Тошкент, 2020. 117-б.

kadrlarni tarbiyalashda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va osoyishtaligi, xalq farovonligi, tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlikni ta’minalash, burch va majburiyat hamda kundalik faoliyat qoidasini har bir rahbarning mas’uliyatiga aylantirish kabi tamoyillar asosida tarbiyalash boshqaruv kadrlari siyosiy-huquqiy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlariga aylanib bormoqda<sup>7</sup>. Shu sababli ham rahbar kadrlar faol ishtirokining eng muhim omili sifatida ularning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi – deb ta’kidlaydi president Sh.M.Mirziyoyev – odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og’irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar-u vazir yoki hokim bo‘ladimi, o‘zining odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lishi zarurdir”<sup>8</sup>. Yana bir o‘rinda “ko‘pgina rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o‘rniga keraksiz qog‘ozbozlik va natijasiz majlislar o‘tkazish bilan ovora bo‘lib qolishayotganini afsus bilan qayd etish joiz”<sup>9</sup>ligiga jiddiy e’tibor qaratgan. Davlat rahbarining mas’ullar oldiga qo‘yayotgan bu talablari davlat va jamiyat boshqaruv tizimini modernizatsiyalashtirib borishni hamda har bir rahbarda fuqarolar manfaatlarini o‘zida aks ettirgan siyosiy va huquqiy madaniyat yuksalib borishi lozimligini taqozo etadi. Bugun jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyati o‘zaro tandemligini ta’minalash “davlat siyosatini xalqqa tushuntirish va targ‘ib qilish vazifasi”<sup>10</sup> boshqaruv kadrlarining eng muhim mas’uliyatiga aylanishi kerak.

Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyoti rahbar tafakkuridagi progressiv g‘oya va fikrlarning jamoatchilik bilan uyg‘unlashuvi orqali yuz beradi. Shu orqali xalq ruhiyatida, boshqaruvning barcha bo‘g‘inlarida, mehnat jamoalarida taraqqiyotga, kelajak va mehnatning mahsuliga nisbatan ishonch shakllanadi. Bunday tafakkur, avvalo, rahbar dunyoqarashini to‘la qamrab olishi lozim. Rahbar boshqaruvda har doim yetakchi bo‘lgan. Dunyo tajribasidan ma’lumki, rahbarning mafkuraviy, siyosiy, huquqiy dunyoqarashining qotib qolishi, yoki mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy jarayonlardan orqada qolishi xalqning (jamoaning) nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-huquqiy qaramligiga, uning taraqqiyoti esa rivojiga asos bo‘lgan.

Rahbar kadr faoliyatida siyosiy va huquqiy madaniyat masalalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Unda “davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldir”<sup>11</sup> – deyilgan. Demokratik taraqqiyotning bu tamoyili birdamlik va hamjihatlikning qaror topishini hamda shu asosda davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro uyg‘unlashib borishini ko‘rsatadi. “Demak, bugungi rahbar, avvalo, siyosiy-huquqiy jihatdan yetuk kadr bo‘lishi kerak. Xoh davlat, xoh nodavlat tashkilot rahbari bo‘lsin, o‘zi ishlayotgan jamoada boshqaruv siyosatini yuritadi. Uning rahbarlik siyosati mamlakatda amalda bo‘lgan umumsiyosatga hamohang bo‘lishi shart...”<sup>12</sup>.

Dunyo tajribasi rahbarning doimiy ravishda jamoatchilikning nigohida bo‘lishini talab etmoqda. Hozirgi kunda zamонавији rahbar o‘zida quyidagi jihatlarni mujassamlashtirsagina jamoatchilik bilan to‘la hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi mumkin. 1) Bugungi rahbar mustaqil fikrning egasi bo‘lishi, jamoa oldidagi muammo va vazifalarning mohiyatini ratsional anglagan holda yuksak darajadagi madaniyat sohibi sifatida o‘z faoliyatini tashkil qilishi; 2) boshqaruvda tashkilotchi va tadbirkor bo‘lishi, o‘z a’zolariga tayanadigan, shuningdek, xodimlar bilan hamfikr bo‘lishi, o‘zini jamoaning bir a’zosi deb bilishi; 3) boshqaruvda aniq taktik va strategik yo‘lga ega bo‘lishi hamda kim va nima uchun kurashish, ishlash lozimligini anglashi; 4) boshqaruvni tashkil qilishda bir vaqtda o‘zining salohiyati hamda hudud yoki tarmoqning imkoniyatlardan kelib chiqib ish ko‘rishi; 5) ijtimoiy fikrni kuzatash va baholay olishi ana shu asosda ish ko‘rish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

Prezident mamlakat parlamentiga murojaatida ijro hokimiysi faoliyatida tizimli boshqaruv ta’milanishiga jiddiy ta’sir qilayotgan korrupsiya muammosiga e’tibor qaratib, buning eng muhim

<sup>7</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон НМИУ. 2017. – Б.6.

<sup>8</sup> Мирзиёев Ш.М. Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш мухитини мустаҳкамлаш – хукуқбузарлик профилактикаси самарадорлигининг асосий омилидир. // <https://president.uz/uz/lists/view/1232>

<sup>9</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ. 2021. – Б.89

<sup>10</sup> Паҳрӯддинов Ш.И. Баркарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. Тошкент, “Akadimiya”, 2011. – Б.289.

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2023. 2-модда.

<sup>12</sup> Матлюбов Б.А. Раҳбарнинг маънавий-хукуқий асослари. Тошкент, Ўзбекистон республикаси ИИВ академияси 2018. -Б. 6

yechimi sifatida “aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalg qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo’lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o’z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”<sup>13</sup> deb ta’kidlagandi.

Bizningcha, Davlat rahbari tomonidan o’rtta tashlangan “qo‘l boshqaruvi”dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o’tish” hamda “halollik vaksinasi” borasidagi tashabbuslari O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda bosh omil inson omili, uning manfaatlari barcha narsadan ustunligi tamoyili asoslanganligi bilan farqlanadi. Shu bois bugungi islohotlar jarayoni boshqaruvda, ayniqsa, ijro hokimiyati tizimida rahbar kadrlarga xos quyidagi yangi talablarni ham vujudga keltirishni talab qilmoqda: 1) O’z ishini bilish va har qanday muammoli vaziyatga ratsional yondashish; 2) ish boshqarish va tashkilotchilikni uddalay olish; 3) o’zini jamoaning (jamiyatning) bir a’zosi deb bilgan holda o’z xizmat vazifasidan kelib chiqib boshqarish jarayonida jamoa manfaatlarini inobatga olish.

Demokratik jarayonlar, davlat va jamiyat qurilishini modernizatsiya qilish jarayoni rahbar kadrdan boshqaruvning oqilona usulini tanlashni talab etadi. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat oldidagi vazifalarni (xususan, tegishli sohalarda) amalga oshirish jarayonida xususiy manfaatlari bilan jamiyat (jamoa) manfaatlarini, mayjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda umuminsoniy manfaatlar bilan o’zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladigan boshqaruv uslubiga tayanishni taqozo etadi.

Rahbar kadrlar va jamoa faoliyatida 1) o’zaro tinchlik va hamkorlik; 2) bir-birini tushunish; 3) o’z kamchiligini ko‘ra bilish va o’z o‘rnini anglab olish; 4) mustaqil fikr va yaratuvchanlik faoliyati; 5) rahbarlik faoliyati jarayonida inson manfaatlarining ustuvorligi; 6) boshqaruvning legitimligi kabi jihatlarning ta’milanganligi rahbar siyosiy va huquqiy madaniyatining darajasini ifoda etadi. Boshqacha aytganda, bu tamoyillar rahbar madaniyat tushunchasida o’z ifodasini topadi degan xulosani qilish mumkin. Shu ma’noda rahbarlik madaniyati tushunchasini – bu xodimlarning umumiyligi va individual ehtiyojlari, qiziqishlari va umidlarini qondirish sharti bilan jamoa oldidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan rahbarning bilimi, qobiliyati, tashkilotchiligi, axloqi va boshqaruv faoliyatini ifoda etadi deb ta’riflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, rahbar va boshqaruv kadrlari siyosiy-huquqiy madaniyatining yuksalishi ularning jamoatchilik bilan aloqalarining tizimlashishiga, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining amalidagi qonunlarga qanchalik muvofiqligining ta’milanshiga, shuningdek, mazkur jarayonlarning fuqarolar va fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan muntazam nazorat qilib borilishiga imkoniyat yaratiladi. Bir so’z bilan aytganda, davlat hokimiyati tizimida “qo‘l boshqaruvdan – tizimli boshqaruvga” jarayoni yuz berishiga erishiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”, НМИУ. 2021. – Б.82
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатый тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон НМИУ. 2017. – Б.6.
4. Мирзиёев Ш.М. Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятичиликнинг олдини олиш мұхитини мустаҳкамлаш – хукуқбузарлик профилактикаси самарадорлигининг асосий омилидир. // <http://president.uz/uz/lists/view/1232>
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 24.01.2020. // <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
6. Аристотель Политика. Сочинения. В 4-х томах. – М.: Мысл, 1983, – Стр. 481
7. Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. – Тошкент Фан. 1965. – Б. 104.
8. Умирдинов А. Давлат фуқаролик хизматчisi ҳалқ ва миллат олдида жавобгардир. // Жамият ва бошқарув №4, (98) 2022. – Б. 133.
9. Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари // Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертациясини. Тошкент, 2020. 117-б.
10. Пахруддинов Ш.И. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. Тошкент, “Академия”, 2011. – Б.289.
11. Матлибов Б.А. Раҳбарнинг маънавий-хукукий асослари. Тошкент, Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси 2018. -Б. 61.
12. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти. 1993. – Б. 186.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 24.01.2020. // <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

## **HALOLLIK VAKSINASI - YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MUHIM SHARTI**

**Zoirova Aziza Asomiddin qizi,**  
Termiz davlat pedagogika instituti,  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'limi yo'nalihi 4-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Raxmankulov Farkod Raximkulovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Halollik vaksinasi – taraqqiyot garovi" g'oyasi asosida bugungi rivojlanib borayotgan davrda "halollik vaksinasi"ning dolzarbliji, beqiyos ahamiyati va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ajralmas qismi sifatida tutgan o'rni yoritilgan

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik,"halollik", halollik vaksinasi, korrupsiya.

Halollik va vatanparvarlik yosh avlodning kelajagi uchun asosiy fazilatlar hisoblanadi. Vaksinasiya, bu kontekstda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonidagi ramziy va ma'naviy yondashuvni ifodalaydi. Halollik vaksinasi yoshlarning qalbiga rostgo'ylik,adolat va vijdonli hayot kechirish kabi qadriyatlarni singdirishdan iborat.Ma'lumki, vatanparvarlik dunyodagi eng oliv tuyg'ulardan biridir. Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o'zining hayotini bag'ishlaydi, o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Vatanparvarlik tushunchasi asrlar davomida shakllangan chuqur nazariy an'anaga ega. Aflatunning so'zlariga ko'ra, vatan ota va onadan qimmatroqdir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida vatanga muhabbat, eng oliv qadriyat sifatida qaraladi. O'tmishning ko'plab mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari shaxsni shaxs sifatida shakllantirish jarayonida vatanparvarlikning rolini ochib berib, ularning ko'p qirrali shakllantiruvchi ta'siriga ishora qiladilar. Darhaqiqat, bularniig barchasi vatanparvarlik tuyg'usida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: "Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, Vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimni jahondagi boshqaxalqlarning yutuqlari bilan shunchalik ko'p boyitgim keladi".<sup>14</sup>

Munavvarqorining fikricha "Yosh avlodni tarbiyalash millatni uyg'otish Vatanni ozod qilish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin" deydi. Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi".<sup>15</sup>

Bugungi kunda jamiyatimizda xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani, korrupsiya kabi illatlar kamayayotganligi,davlatimizniig iqtisodiy qudrati ortayotgani vatanparvarlik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqligini anglatadi va bularning negizida "Halollik vaksina"sining o'rni beqiyosdir ."Halollik vaksinasi" tushunchasiga hayotimiz davomida juda ko'p duch kelganimiz. Mansabdor shaxslar nutqlaridan tortib yo'l atrofidagi bannerlargacha "halollik vaksinasi- taraqqiyot garovi" kabi yoshlarni halollikka chorlovchi, vatanparvarlikka undovchi g'oyalari bilan to'ldirilgan. Birinchi o'rinda "halollik"nima? degan savolga javob topishimiz o'rinlidir.

Halollik (insof) – insonning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, rostgo'ylik, printsiplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga sodiqlik, ishning to'g'ri ekanligiga subyektiv ishonch,

<sup>14</sup> Volter. Dictionnaire philosophique, 1764. 165-bet

<sup>15</sup> I.A. Karimov . Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008, - 138 – 140 – bet.

inson boshqaradigan motivlarga nisbatan boshqalarga va o‘ziga nisbatan samimiylikni o‘z ichiga olgan axloqiy sifatdir.<sup>16</sup>

“Halollik vaksinasi” esa harom qilingan ishlarni qilishga undaydigan virusni o‘ldirishga qodir bo‘lgan antivirus rolini bajaradigan g‘oyalar majmui tushuniladi. Korrupsiya illati ana shunday harom qilingan ijtimoiy kasallik hisoblanadi va bu kasallikni keltirib chiqaradigan virus bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz” deydi. Korrupsiya — mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan xuquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiste’mol qilishidan iborat amaliyot. Korrupsiya illati yo‘q qilinmas ekan yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mushkul vazifa sifatada saqlanib qoladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomada “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruptsianing oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”, deb ta’kidlab o‘tgan edi.<sup>17</sup>

“Halollik vaksinasi”ni yaratishda insonning baxt to‘g‘risidagi tushunchasini sog‘lomlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda insonning xulqini belgilaydigan narsa uning baxt to‘g‘risidagi tushunchasi ekanligidan kelib chiqilgan. Inson baxtliligining eng muhim sharti qo‘rquvsiz erkin yashash hissi va xotirjamligi ekanligi asoslab berilgan. Buni anglagan odamda korruptsiyaga qarshi antivirus shakllanishiga imkoniyat paydo bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rilmas ekan yoshlarimiz ma’nnaviy qashshoqlashib boradi va natijada ularda vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanmaydi ,vatanparvarlik asosida tarbiyalanmagan yoshlar esa yurt kelajagi va taraqqiyotini yemiradi,zero korrupsiya -taraqqiyot kushandasidir. Ma’nnaviyat qashshoq bo‘lgan joyda korruptsiyaga sharoit yaratiladi va korrupsiya bu sharoitni asrash uchun ma’nnaviyatning yuksalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki korrupsiya illat sifatida faqat nosog‘lom ijtimoiy muhitdagina mavjud bo‘ladi va bunday muhit odamlar ma’nnaviyati qashshoq bo‘lgan holdagina kelib chiqadi. Korruptsianing sababi ma’nnaviy qashshoqlik, oqibat esa insoniyatning halokati va uning yechimi sababni bartaraf qilish bilan bog‘liq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qatar amiri tashabbusi bilan ta’sis etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mukofotning Toshkent shahrida o‘tkazilgan taqdirlash marosimida “Ongi va qalbi bolalikdan „halollik vaksinasi“ bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifamizdir. Bu borada BMTning Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O‘zbekistonda keng joriy etishdan manfaatdormiz”, — degan g‘oyani ilgari surdi.<sup>18</sup> “Halollik vaksinasi” orqali emlangan yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli shakllanadi va bunday yoshlar yurt taraqqiyotining davomchilari hisoblanadi.

Halollik vaksinasi orqali tarbiyalashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-ma’nnaviy immunitetni oshirish: Halol va vatanparvar insonlar har qanday yomon ta’sirlarga qarshi mustahkam turadi, jamiyat rivojida faol ishtirok etadi.

-vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish: Yoshlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalansa, ular jamiyatga foydali bo‘lishni, vatan uchun xizmat qilishni o‘z burchi deb biladi.

-o‘rnak bo‘lish: Yoshlarning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash orqali kelajak avlodlar uchun halollik va vatanparvarlik namunasi yaratiladi.

“Halollik vaksinasi”ni amalga oshirish uchun quyidagilar muhimdir:

-ota-onalar va o‘qituvchilar halollikni shaxsiy misol orqali ko‘rsatishi.

-ta’lim tizimida ma’nnaviy tarbiyaga e’tibor kuchaytirilishi.

-yoshlarni tarixiy qahramonlar va ularning vatanparvarlik ishlari bilan tanishtirish.

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki “Halollik vaksinasi” nafaqat yoshlarni, balki butun jamiyatni ma’nnaviy jihatdan mustahkam qiladi va millatni kelajakdagisi qiyinchiliklarga qarshi bardoshli qiladi.

<sup>16</sup> O‘zbek tilining izohli lug’ati 197-bet

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak mukofoti”ning tantanali topshirish marosimidagi nutqi

"Halollik vaksinasi" orqali emlangan jamiyat har qanday korrupsiya kabi yozuv illatlarga qarshi tura oladi va uni yo'q qilishga qodir kuchga ega bo'ladi. Zero, "halollik vaksinasi" - yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim shartidir.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20- dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak mukofoti"ning tantanali topshirish marosimidagi nutqi
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008,
5. O'zbek tilining izohli lug'ati
6. Volter. Dictionnaire philosophique, 1764.
7. <https://library.ziyonet.uz/uz>
8. <http://www.e-tarix.uz/shaxslar/446-amir-temur>.
9. <https://www.e-tarix.uz/shaxslar/hukumdorlar/451-hukmdorlar.html>

## YANGI AVLODNI HALOLLIK RUHIDA TARBIYALASHNING USTIVOR VAZIFALARI

Murodova Bibisora,

Temiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari

va huquq ta'limi yo'nalishi

3-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Raxmankulov Farxod Raximkulovich,**

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa, ma'naviyat asoslari

va huquq ta'limi kafedrasi o'qtuvchisi

**"Halollik vaksinasi bilan emlangan yangi avlodni tarbiyalash ustivor vazifamizdir"<sup>19</sup>**

**Shavkat Mirziyoyev**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi avlodni "halollik vaksinasi bilan tarbiyalash, ularni kamolot sari yetaklash, korrupsiyaga qarshi kurashish yoshlarga to'g'rilik va adolatni singdirish orqali ularga halol va pok fazilatlarni shakillantirish zaruratları, yosh avlodlarni ushbu ruhda tarbiyalasda oila va ta'lim muassasalarining roli muhimligi yangi avlodni halollik qadriyatlari asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzARB vazifasi ekanligi aks etadi.

**Kalit so'zlar:** "Halollik vaksinasi" utuvor vazifalari, yangi avlod tarbiyasi, oila, ta'lim tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashish, yoshlar tarbiyasi, poklik, halollik, davlat va jamiyat, adolat, maktab.

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish davrida yangi avlodni halollik ruhida tarbiyalash jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biriga aylangan. Halollik faqat axloqiy sifat sifatida emas, balki jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy ishonch va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy poydevori sifatida qaralishi lozim. Yoshlarda halollik, vijdonlilik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali ularning o'z salohiyatini to'laqonli amalga oshirishi, jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shishi uchun zarur ma'naviy negiz yaratish mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston har sohada jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda bunga doir keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, eng muhum ustivor vazifalar belgilangan. Anashunday ustivor vazifalarimizdan biri O'zbekistonda ta'lim tizimiga berilayotgan katta e'tibordir. O'zbekistonda ta'lim tizimi isloh qilinib yosh avlodga keng ko'lamli imkoniyatlar yarartilmoqda. Albatta yangi avlodni tarbiyalashda halollik birinchi o'rinda turadi. Lekin bunda faqatgina oilaning ro'li emas balki, maktabning o'rni, davlat va jamiyatning ishtiropi, butun bir jamiyatning ro'li turadi. "Bir bolaga yetti mahalla ota-onas" degandek bir bolaning o'sishi, rivojlanishi va to'g'ri yo'ld aborishi uchun hamma javobgar hisoblanadi.

Yangi avlodni tarbiyalashimizda birinchi bo'lib halol, insoflik, ilimli qilib tarbiyalashimiz muhumdir. Shundagina jamiyat rivojlanadi, kamol topadi. Korrupsiya bo'lmagandagina jamiyat

<sup>19</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/19/halollik-vaksinasi/>

rivojlanadi. Agar inson halol bo'lsa, halollik yo'li bilan to'g'ri yo'lida o'ssa vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi. Korrupsiyani yo'qotish uchun ham biz yangi o'sib kelayotgan avlodni "halollik vaksinasi" bilan emlashimiz ya'ni tarbiyalasimiz kerak. Halollik bиринчи набатда ойлана баштади. Xalqimiz tilidan tushumaydigan ushbu maqol ham bunga yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni "Qush inida ko'rganini qiladi" farzandalar ham bosh tarbiyani avvalo, ota-onasidan o'rganadi. Oila bu jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Keyingi bizni to'g'ri yo'lga boshlaydigan komil insin bo'lib yetishishimizga yordam beradigan bu ta'lim maskani hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'limga kata e'tibor qaratilmoqda. Korrupsiyasiz jamiyat qurishga mamlakatimiz harakat qilmoqda. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida aytganlaridek "ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustivor vazifamizdir. Bu borada BMTning korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etishda manfaatormi".

Demak, yangi avlodga yoshlikdan halollik, insonni komillikga yetaklovchi yaxsi sfatlar bilan tarbiyalashimiz kerak. Halollik qadriyatini singdirish va uni yangi avlodga "vaksina sfatida tadbiq etish, jamiyatimizning kelajagini shakillantirishdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon orqali biz shunday jamoyatga rishmoqchimizki, unda ichonch, adolat va halollik kabi asosiy tushunchalar mustahkam o'rinn egallaydi. Bu maqsadga erishishimiz uchun oila, maktab, davlat va jamiyatning barcha vakillari birgalikda harakat qilishi talab etiladi. "Halollik vaksinasi qanday? "Halollik vaksinasi" bu yosh avlodning ma'naviy jihatdan halol, pok, adolatli bo'lib o'sishini anglash demakdir. Ushbu vaksina yoshlarimiz qalbiga vatanparvarlik, halollik, insoniylik, manaviy-axloqiy qadriyatlarni singdirilishini maqsad qiladi<sup>20</sup>.

Agar jamiyatning har bir a'zosi halol va pok bo'lib sunga amal qilsa, davlatimiz iqtisodiyoti v asiyosiy barqaorligi yanada mustahkamlanadi<sup>21</sup>. Halollik bilan tarbiyalangan yoshlar kelajakda davlatimizning taraqqiy etishi, xalqimizning faravon hayot kechirishi korrupsiyasiz jamiyatning qaror topishiga asos bo'ladi.

Yangi avlodni "halollik vaksinasi" bilan emlab tarbiyalash bugungi jamiyatimizning ustivor vazifasi bo'lib, bu vazifa nafaqat ota-onalar balki, o'qituvchilar, yetalchilar zimmasiga yuklatilgan. Bu yo'lida biz har bir kishi o'z hissasini qo'shishi lozim. Bu jarayonda jamiyatimiznin barcha vakillari halollikni targ'ib qilishi, yoshlarga namuna bo'lishi va ular uchun zaruriy shart-sharoyitlarni yaratishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Halollik bilan emlangan avlod- bu mustahkam poydevorli kelajakdir.

Yangi avlodni "halollik vaksinasi" bilan tarbiyalash jamiyatda halol va adolatli muhitni yaratish, milliy va axloqiy qadriyatlarni saqlash yo'lida muhim ahamiyatga ega. Bu g'oya yosh avlodni axloqiy immunitet bilan ta'minlash, ularni halollik va vijdonlilik kabi qadriyatlarga asoslangan hayotiy tamoyillar bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Halollik vaksinasi o'zida yoshlar ongida nojo'ya holatlar, korrupsiya va yolg'onchilikka qarshi tura olish kuchini tarbiyalash, ularni milliy iftixor va vatanparvarlik ruhida yetishtirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ta'lim tizimi, oilaviy muhit va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi lozim.

Bunday yondashuv yoshlarda nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamoat ishlarida ham halol va fidokorona faoliyat olib borishga undaydi. Halollik vaksinasi orqali tarbiyalangan avlod kelgusida jamiyatimiz taraqqiyoti va obodligini ta'minlashda ishonchli va mas'uliyatli liderlar sifatida shakllanadi. Mazkur qadriyatlarni yoshlarga singdirish ularni ijtimoiy mas'uliyatli, halol va mard shaxslar sifatida kamolga yetkazishga zamin yaratadi. Bu jarayon yoshlar ongiga halollikning zarurligi va qiymatini chuqurroq singdirishga xizmat qilib, ularning kelajakda shaxsiy va professional hayotlarida e'tiqod va vijdonga rioxha qilishlariga asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2020). Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plami.

<sup>20</sup> Rakhmankulov, F. R. (2023). Problems of Maintaining a Sense of National Identity in the Context of Globalization. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 218-221.

<sup>21</sup> Rakhmankulov, F. (2022). Globallashuv jarayonida milliy o'zlikni asrash masalalari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 35-39.

2. Karimov, I. A. (2014). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
3. Sharipov, A. (2021). Halollik va ijtimoiy tarbiya. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. www.gazeta.uz
5. Rakhmankulov, F. R. (2023). Problems of Maintaining a Sense of National Identity in the Context of Globalization. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 218-221.
6. Рахманкулов, Ф. (2022). Globallashuv jarayonida milliy o'zlikni asrash masalalari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 35-39.

## MA'NAVIY TARBIYA FENOMENI VA "HALOLLIK VAKSINASI" O'RTASIDAGI SINERGETIK ALOQADORLIK

**Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich**

Termiz davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish  
metodikasi (ma'naviyat asoslari)  
yo'nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada ma'naviy tarbiya fenomeni tarixiy ketma-ketlik asosida halolik tog'risidagi g'oyalar bilan hamkorlikdagi falsafiy-ijtimoiy tahlili sinergetik metodga yordamida o'rjaniladi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy tarbiya fenomeni, sinergetik metod, halollik, bola tarbiyasi.

Ma'naviy tarbiya fenemoni - keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma'naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning etakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqa faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy tarbiya tushunchasi tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, ma'naviy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi.

"Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"-Prizdentimiz Sh.Mirziyoyev<sup>22</sup> so'zlaridan shuni anglashimiz mumkinki davlatning har qaysi sohasi ma'naviy soha rivojisiz tassavur qilish qiyin. Bunda ma'naviy tarbiya oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma'naviy tarbiya fenemon sifatida ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifikat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar. Halollik masasalasi esa axloqiy tarbiya tarkibiy qismi sifadida azaldan rivojlanib kelgan. Halollik fenomeni har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqori darajaga ko'tarilmog'i darkor.

Halollik va tarbiya jarayoni yoshlarni tarbiyalashda, ularni ilmli va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston", "Bahr al-ulum", "Kachko'li sultoniy", "Jovidoni xirad", "Bistu se hikmat", "Hikoyoti dilpisand", "Odob as-solihin", "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir

<sup>22</sup> Mirziyoyev Sh.Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. 2021-yil 19-yanvar. <http://uza.uz/posts/235451>

asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

“Bizga tarixdan ma’lumki, qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o‘z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim”, - degan g‘oyani ilgari surgan edilar.<sup>23</sup> Bu qarash, bizningcha, bir yoqlama qarash bo‘lib hozirgi kundagi ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan muammoni yechishda qo‘llab bo‘lmaydigan tarbiya shakli hisoblanadi. Ammo shuni ham tan olish kerakki, zamonaviy va intelektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashda davlat e’tiborini va ota-onalarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ushbu muammoning yechimini topishini tezlashtiradi.

Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu –tarbiyaning oqibati”,<sup>24</sup> deb yozgan edi. Darhaqiqat chaqaloqlar bir xil yig‘lashsa ham, katta bo‘lganida har bir inson o‘z xususiyatlari, qiziqishlari va axloqiy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Bu farq tarbiyaning natijasi, ya’ni ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat tarbiyachilari tomonidan berilgan ta’sir va tarbiyalash usullari natijasidir. Ma’naviy tarbiyaning samarasi shundaki, u shaxsni nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham rivojlantiradi. Har bir insonning o‘ziga xosligi, tarbiyalash jarayoni davomida shakllanadi va bu jarayonda doimo ijobjiy yoki salbiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, ma’naviy tarbiya jarayoni har bir shaxsning kelajagini belgilovchi muhim bosqichdir.

Olmon faylasufi Immanuel Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.<sup>25</sup>

I.Kantning ma’naviy tarbiya tog‘risidagi qarashlari asosan axloqiy qarashlari negizizda o‘z aksini topgan. Kantning axloqiy qarashlari deontologik axloqiy tizimni yaratdi, ya’ni odamlarning harakati ularning natijasiga emas, balki maqsadi va niyatiga qarab baholanadi.

Insoniyat bir butun sifatida bir xil axloqiy tamoyillarga amal qilishi kerakligi haqidagi fikr zamonaviy global etika va inson huquqlari bo‘yicha muhim tushunchalarga asos bo‘ldi. Kantning “Sapere aude!”<sup>26</sup> – ya’ni, “Aqlingni ishlatishga jur’at qil” degan chaqirig‘i ma’rifatparvarlik harakatining asosiy g‘oyasi bo‘lib, insonning o‘z aqliga tayanib, mustaqil qarorlar qabul qilishga intilishini rag‘batlantirgan. Bu g‘oya jamiyatda tanqidiy fikrlash, ilm-fan rivoji va taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shdi. Kantning axloqiy qarashlari asosan yuqori tamoyillar va qat’iy qoidalar asosida qurilganligi uchun ba’zi tanqidlarga ham uchragan.

Shubhasiz, ushbu fikrlar haqiqat ma’naviy tarbiyaning axloqiy jihatini Kant o‘z falsafiy qarashlari orqali tushuntirgan. Etiborli jihat shuki tarbiya millat va elat tanlamasligini I.Kantning fikridan anglashimiz mumkin. Nemis jamiyatida ham tarbiya masalasi ham alohida shug‘ullaniladigan masala ekanligi ham bor gap. Garchi Yevropa mamlakatlarida ma’naviy tarbiya atamasi ishlatilmasa ham tarbiyaning ma’naviy ko‘rinishi ularning ta’lim, fan va madaniyat bilan bog‘liq jihatlarida ko‘rinadi.

Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan bebafo odob-axloq qoidalari, qadriyatlari mavjud. Ularni qaytadan tiklash va hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biridir. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta’lim-tarbiya masalalari muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e’tibor bergenlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobjiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo‘lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhamad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nosr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhamad Qoshg‘oriy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o‘rtaga qo‘ylgan va ularni hal etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shoir mutafakkirlar

<sup>23</sup> Qosimov Sharofiddin Uralovich MA’NAVIY TARBIYA MUTAFAKKIRLAR TALQINIDA «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 138-bet

<sup>24</sup> <https://n.ziyouz.com/>

<sup>25</sup> Egamberdiyeva Davronoy Rustamjon qizi yevropa mutaffakkirlarining asarlarida tarbiyaga oid qarashlar 1049-bet

<sup>26</sup> Baron, M. (1995). Kant axloqi deyarli uzsiz. Kornell Universiteti Nashriyoti.

qomusiy asarlarida va odob axloqqa bag‘ishlangan risolalarida o‘zlarining halollik tog‘risidagi qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy-didaktik xarakterga egadirlar. Bular jumlasiga Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yughnakiyning “Hibbatul Haqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnom”, Shayx Sa’diyning “Bo‘ston va guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub”, Nizomul-mulkning “Siyosatnom” kabi pandnom, nasihatnom tarzda yozilgan asarları kiradi. Shuningdek, o‘tmishda diniy-tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo‘lib, ular ma’naviyimiz tarixida munosib o‘rin egallaganlar.

Tarbiya borasida Sa’diy Sheroyi shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,  
Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam.  
Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.  
Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsa ham.<sup>27</sup>

Ushbu misra tushunilishi juda oson bo‘lgan sher tarzidagi misradan shuni anglashimiz mumkinki, o‘rta asrlarda ham ma’naviy tarbiya masalasi aktual hisoblangani va qiyos sifatida hayvonlarga o‘xshatitish davrning ijtimoiy-falsafiy xarakterini belgilab bergen. Fan, adabiyot va san’atning rivojlanishi ham bevosita tarbiya tizmimi bila bog‘langan.

Globallashuv - mafkuralar kurashini ham global darajada kattalashtirib yuborgan ayni paytda, aynan OAV, ijtimoiy tarmoqlar, umuman axborotlar orqali keladigan ma'lumotlar eng o'tkir qurolga aylandi. Bunda inson ongi nishonga olinadi. Qandaydir yashirin g'oya, targ'ibot jo bo'lgan media mahsulotlar ongga boshqa ko'rinishda kirib, uni egallahsga xizmat qiladi. Bolalikda bir tomchi qon, yo vahshiy hayvonning ojiziga bo'lgan hujumini ko'rsak, etimiz junjikar, biror ko'rsatuvdagi vahshiylig sahnalari tushimizga ham kirib chiqardi ba'zan. Bu bola ruhiyatining o'ta ta'sirchan bo'lishi, dunyoni ko'rgan narsalaridan anglab, xarakter, xususiyatlar shakllanib borishiga bog'liq ekan hozir o'ylasam. Ammo bugun yosh bolalar ko'rayotgan media mahsulotlar, o'yinlarning deyarli hammasi butunlay boshqacha – "bag'ritoshroq", "beshafqatiroq". Ular "urush" o'yinida kim ko'p odam o'ldirishdan bellashadi, ekrandagi dushmanining chinqirib, azoblanib, qonga belanib o'layotgani ularni zarracha ham hayiqtirmaydi. Xo'sh, bugun qo'rqlas, onlays tig' sanchib, odam o'ldirayotganlar, buni shunchaki tomosha qilayotganlar ertaga kim, qanday odam bo'lishadi? Hayotda ham xuddi o'yindagi singari zarra ham seskanmay, birovga tig' sanchmasligiga kafolat bera olamizmi? Azaldan biror filmda erkak kishi ayolning bilagidan ushlasa va ayniqsa, shu namoyishni ko'rayotgan vaqtimizda yonimizda ota-onalarimiz, kattalar bo'lsa, uyatdan qizarib ketadigan millat edik. Hozir-chi? Multfilmlardayoq bolakaylar sevishib, o'pishyapti! Buni ko'rib katta bo'lgan bolalarda uyat instinctining o'zi shakllanmayapti, nazarimda. Bu borasida bugun butun jamiyat qayg'urmog'i albatta o'rnlidir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev, Shavkat. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari/4-jild. -Toshkent. O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev, Shavkat. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz/1-jild. - Toshkent. O'zbekiston. 2019.
3. Mirziyoyev Shavkat. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak (o'zbek va rus tillarida) -Toshkent. O'zbekiston. 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 80 b
5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz / - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
6. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 - jild. - T.: "O'zbekiston" , 2018.
7. B. Qosimov. Uyg'ongan millat ma'rifati. - T.: " Ma'naviyat ", 2011.
8. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot /A.Navoiy nomidagi O'zbekiston MK; A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat inti; Mas.muharrir M.Bekmurodov.-Toshkent: Fan, 2004.-194 b.
9. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi). -//Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
10. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 6-jild. – T.: G'. G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 179. - B. 178.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari: [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz). uz/rus/knigi/.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi sayti: [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: [www.senate.gov.uz](http://www.senate.gov.uz)
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi hujatlari
- 15.<http://www.natlib.uz>
- 16.<http://taqvim.uz>
- 17.<http://kitob.uz>
- 18.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı

## АДОЛАТ МАЗМУНИНИ ОЧИШДА ҲАЛОЛЛИКНИНГ ЎРНИ

*Элдор Боратов,  
ҚарДУ таянч докторанти*

**Аннотация.** Мақолада адолат тушунчаси, унинг мазмун-моҳиятини ифодалашда ҳалоллик тушунчасинин ўрни ва аҳмияти билан боғлиқ фикр-мулоҳазалар билдирилган. Масалага нисбатан аҳлоий-хуқуқий ёндашувлар, мавжуд муаммолар ва сабаб-оқибат диалектикаси асосланган.

**Калим сўзлар:** Адолат, ҳалоллик, қадр-қиммат, тарбия, бурч, эҳтиёж, нафс, аҳлоқ, хуқуқ, ижтимоий муносабатлар.

Адолат тушунчаси мазмунини очиб беришда ҳалоллик тушунчасидан фойдаланиш яхши натижга беради. Адолат ва ҳалоллик бир-бирини тақозо этадиган қадриятлардир. Адолатли инсон деб ҳаётда ҳалоллик қоидаларига амал қиласидиган, ўзгалар манфаатига, қадр-қимматига зиён етказмайдиган инсон тушунилади. Ҳалоллик биринчи навбатда оила муҳитида шаклланади. Бу тушунча фарзандларда ота-онаси тарбияси ва амалий намунаси орқали шаклланади.

Бугунги глобаллашув жараёни инсоннинг эҳтиёжлари чеагараланмаган, ва муттасил ўсиб бораётган давр десак хато бўлмайди. Эҳтиёжлар ҳам ўз навбатида адолат нуқтаи назаридан иккига соғлом ва носоғлом эҳтиёжларга бўлинади. Уларни бир биридан фарқлашнинг эса аниқ мезонлари йўқ. Натижада улар инсон онгига ва ҳаётга муносабатларида кўпинча аралашиб кетган. Оддий инсон уларни чалкаштириб юбориши мумкин. Нафс ва ҳирс билан боғлиқ носоғлом эҳтиёжлар кўпинча одамларнинг баъзи бир эҳтиёжларини қондиради. Акс ҳолда улар вужудга келмас эди. Лекин носоғлом эҳтиёжларни қондириш учун айрим инсонлар кундалик ҳаётда ноҳалол усувлардан фойдаланади. Шу сабабдан аҳлоқий ва хуқуқий назардан шахс хатти-харакатлари адолатга қай даражада мослигини баҳолашда аввало ҳалоллик тушунчаси мезон сифатида олинади. Кўплаб ота-оналар фарзандлари қандай қилиб бўлмасин, ютуқларга эришишини рағбатлантироқдалар. Натижада ютуққа эришиш айрим ёшлар учун бирдан бир мақсадга айланиб “воситалар мақсадни оқлайди” деган тамойилнинг ғайриахлоқий ва ғайрихуқуқий, бинобарин аксилмаънавий эканлиги ўқитилмоқда. Афсуски, одамларнинг бегоналашуви, бефарқлиги, индивидуализм кучайиб бораётган ҳозирги жамиятда истеъмолчилик психологияси авж олмоқда. Бунинг устига жамиятда фаровонлик, эҳтиёжларни тўла қондириш имкониятлари ўсиши нафс ва ҳирс ўсишидан доимо ортда қолади. Малакалар, билим ва касбий даромадлар ўртасидаги фарқ ҳам одамлар таъминотига таъсир қиласиди. Бу эса ўз навбатида айрим кишиларда ноҳалол даромад олишга интилишни юзага келтиради.. Оқибатда пораҳўрлик, фирибгарлик, ўғирлик каби иллатлар пайдо бўлмоқда.

Юқорида айтганимиздек, ҳалоллик дастлаб оилада тарбия орқали шакллантирилади. Фарзандларининг ҳаётда ҳалол инсон бўлиб улғайишлари учун ота-оналарнинг ўzlари ҳалол бўлишлари талаб этилади. Бу тушунча фарзандларда ота-онаси насиҳатидан кўра амалий намунаси орқали шаклланади. Ҳалқимизнинг бу борада ибратли мақоли бор: «Куш уясида кўрганини қиласиди». Рус адиби Антон Чехов ўз ҳаётий тажрибаларидан келиб чиқиб шундай деган: «Фарзандларингизга тарбия берманг, улар барибир сизга ўхшаб улғаяди. Шу сабаб, аввало ўзингизни тарбия қилинг»<sup>33</sup>. Файласуф Пьер Абеляр «Инсон ҳис-туйгулари кўпинча сўзга нисбатан ибратдан куч олади ёки сусаяди»<sup>34</sup> дейди. Америкалик болалар шифокори, педагог ва файласуф Бенжамин Спок: «Ота – она оилада ўзини қандай тутса, болалар ҳам шунга қараб ҳаракат қиласидилар. Ҳар бир ота-она ўз фарзандига ҳаётнинг энг баҳтли, лаззатли ўчоги оила эканлигига ишонч руҳида тарбияламоқлари лозим»<sup>35</sup> - деб ёзган. Бундан

<sup>33</sup> Ойгул Кажанова, Миллат қандай тарбияланади. Тафаккур, 3/2024. Б.115.

<sup>34</sup> Жамшидхон Шаропов. Оилада шариат қоидалари ва хуқуқий маданият. Т.2010: Б.22.

<sup>35</sup> Ўша манба. Б. 28.

келиб чиқадики, тарбиясиз тарбиячига айланиб қолмаслик учун ота-оналарнинг ўзи тарбияли бўлишлари керак.

Ота-оналар фарзандларини ҳалол инсон этиб тарбиялашлари учун тўғри воситаларни қўллашлари лозим. Бундай воситалардан бири эртаклардир. Эртаклар болаларга яхшилик ва ёмонликни фарқлашга ўргатади. Ундаги қаҳрамонлар ҳар қандай ёвузликлардан қўрқмасдан, буни ақл-идрок, жасурлик, мардлик, номус ва ғурур ёрдамида енгиги ўтади. Бундай эртаклар болаларни адолатли ва ҳалол бўлиб улғайишлари учун жуда муҳимдир. Эртакларнинг болалар ҳаётида тутган ўрни борасида Алберт Эйнштейн шундай деган экан: «Агар болаларингиз ақлли бўлишини истасангиз, уларга эртаклар ўқиб беринг»<sup>36</sup>.

Бугунги кундаги ота-оналарнинг қанча қисми фарзандларига эртак ўқиб бераётган экан-а? Афсуски, фарзандларига эртак айтиб бераётган ота-оналар саноқли. Улар фарзандлари тарбиясини унугиб, ўз қўлидаги телефонлар орқали ижтимоий тармоқлардан ортмаяпти. Ҳаттоқи, болаларига ҳам интернетдан фойдаланиш имкони бор телефонларни олиб бормоқда. Ота-оналар томонидан назорат қилинмаётган телефон ва компютерлардаги қимор кўринишидаги ўйинлар, жангариликни тарғиб қилаётган ўйинлар, қандай қилиб бўлмасин ҳаётда бадавлат яшашнинг тарғиботчисига айланаётган ишбилармон фирибгарлар, зўравонлик қилиб бўлсада, кўчада ўз ўрнига эга бўлишга интилаётган зўравонлар болаларнинг руҳиятига сабий таъсир кўрсатиб, уларда тақлидни пайдо қилмоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек: «Бугунги шиддатли, ўта мураккаб замон шуни корсатмоқдаки, бу борада фақат таълим – тарбия тизимининг ўзи мавжуд мънавий таҳдидларга қарши туролмайди. Бу масалага бутун жамиятнинг куч ва имкониятларини сафарбар этмас эканмиз, кутилган натижага эришолмаймиз. Чунки бугунги кунда болаларимизни ота – она, боғча, мактаб ёки институт эмас, аксарият ҳолларда қўлидаги телефон «тарбияламоқда». Афсуски, ана шу кичкинагина телефон энди оддий алоқа воситаси эмас, кўпинча ёт мағкуруни тарғиб этадиган катта қуролга, зўравонлик, ёвузлик «вируси»ни тарқатадиган манбага айланмоқда, десак айни ҳақиқатни айтган бўламиз»<sup>37</sup>.

Ҳалолликни шакллантирувчи яна бир асосий воситалардан бири ҳалол меҳнат йўналтиришдир. Ота – оналар фарзандларига бирор касбни эгаллашлари учун муносиб шароит яратиб беришлари жуда муҳимдир. Чунки ҳалол меҳнат қилган инсон ўзга меҳнатини ҳам қадрлай билади, уни адолатли баҳолайди. Дангаса киши эса бирор маҳсулот баҳосини ва қадрини етарлича билмайди. Шунинг учун ҳам ҳалолликни шакллантириш учун ёшлар меҳнатсеварликка ўргатилиб, бирор касбга йўналтирилиши керак. Меҳнат болаларда ҳалолликни, ор-номусни, бардош ва иродани тарбиялайди. Қадимги юонон файласуфи Демокрит меҳнат тарбияси ҳақида шундай деган экан: «Агар болалар меҳнат қилишга ундалмаганларида, на саводхонликка, на мусиқа, на гимнастика, ҳаттоқи, инсонда эзгуликни мустаҳкамловчи номусга ҳам ўрганмаган бўлар эдилар. Одатда номус ана шу машғулотларнинг етарлилигидан дунёга келади»<sup>38</sup>.

Ҳалоллик тушунчаси эркинлик ҳалоллик тушунчаси билан ҳам боғлиқ. Негаки, эркин фикрламайдиган, қотиб қолган тушунчаларга суюнадиган инсоннинг ҳалоллиги чекланган, ҳаётдан ортда қолган, мўрт бўлади. Ҳалол инсон жамият талабларини тўғри тушунади, уларнинг айримларига танқидий қараса-да, фикрлаб адолатли қарорлар қабул қиласи. Ҳалол инсон ҳаётда инсонийлик қоидаларига ва касбий фаолиятига содик бўлади. Ҳалоллик йўлини танлаган инсон ҳаётда кўп қийинчиликларга дучор бўлади.

Ҳалолликни ташкил этувчи воситалардан бири бу – иродадир. Иродада катта ишонч жамланган, бу ишонч ҳалолликка хизмат қиласи. Иродаси заиф инсон оғир шароитда ҳалол бўлмаслиги мумкин. Инсонга экстремал, оғир шароитларда қийинчиликларни енгиги ўтишда ирода кўмакчи бўлади. Иродаси заиф киши доимо ўзгалар ёрдамига муҳтож бўлади.

Ҳалолликни таъминловчи яна бир хислат бу – виждондир. Виждон инсонга доимо аввало инсоний ва касбий бурчини бажариш лозимлигини эслатиб туради. Виждон ўз

<sup>36</sup> Маънавий ҳаёт журнали. 2022 йил 3-сони. Б. 109.

<sup>37</sup> Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик- миллий ғоямизнинг пойдеворидир. Т.2021. Б. 9.

<sup>38</sup> Вл.Воронцов. Тафаккур гулшани. – т.: 1981. – Б. 413.

эгасини назорат қилиб туради. Арасту виждон ҳақида шундай деган экан: «Виждон олижаноб инсоннинг одил ҳакамидири<sup>39</sup>».

“Ҳалоллик вакцинаси” билан ёшларни эмлаш уларни виждонли ва адолатли инсонлар этиб тариялашнинг асосий шартидир. Ноҳалол инсон ёвузлика, хунрезликка, сотқинликка мойил бўлади. Ўз манфаати йўлида ҳеч нимадан қайтмайди. Бундай инсонлар учун муқаддас нарсанинг ўзи йўқ.

Ҳалолликни тарғиб қилишимиз учун унинг юзага чиқишига тўсиқ бўлиб келаётган, қон-қонимизга сингиб кетган уруғ-аймоқчилик, маҳаллийчилик иллатларидан қутулиш бўйича тизимли ишларни ташкил этмоғимиз даркор. Уруғ-аймоқчилик ва маҳаллийчилик ўта кучли бўлган ҳудуднинг ривожланиши жуда қийин. Негаки, у ёки бу соҳада ўтирган раҳбар ўзига яқин одамни ишга олишга ҳаракат қиласди. Улар орасида лавозимига нолойиқ, касбий савияси паст, ҳатто ноҳалол, қўли эгри кимсалар учраб қолиши мумкин. Уруғ-аймоқчилик, гуруҳбозлик иллатига хайриҳоҳ раҳбар нафақат кадр танлашда адолатга хиёнат қиласди, шунингдек адолатсизлик занжири узлуксиз давом этишига ҳам шароит яратади. Чунки мансабни ноҳалол эгаллаган таниш-билиш, уруғ-аймоғи хизмат вазифасини ҳалол бажара олмайди. У кимларнингдир ёрдамига, кўмагига муҳтож, уларни ўзига ноҳалол усуллар, ноҳалол рағбатлар, ёки талон-тарожликка шароит яратиб ағдаришга уринади, аксинча, бунга қарши чиққанларни жазолашга, ишдан ҳайдашга уринади. Уруғ-аймоқчилик ва гуруҳбозлик адолатнинг кушандасидир. Нопок кишилар соҳа ривожи учун холис хизмат қилолмайди. Аксинча бу жамоада қарама-қарши маҳаллийчилик авж олади. Маҳаллийчилик ўз навбатида катта-катта гуруҳбозлик юзага келишини тезлаштиради.

Ҳалолликни келтириб чиқарувчи воситаларни мустаҳкамлаб, ҳамда ҳалолликка тўсиқ бўлувчи иллатларга қарши курашмас эканмиз, жамиятда адолат тушунчасининг томиротиши қийин бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ойгул Кажанова, Миллат қандай тарбияланади. Тафаккур, 3/2024. Б.115.
2. Жамшидхон Шаропов. Оилада шариат қоидалари ва хукукий маданият. Т.2010: Б.22.
3. Мальавий ҳаёт журнали. 2022 йил 3-сони. Б. 109.
4. Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик- миллий гоямизнинг пойдеворидир. Т.2021.
- Б. 9.
5. Вл.Воронцов. Тафаккур гулшани. – т.: 1981. – Б. 413.
6. 96 мумтоз файласуф. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 102.

## **OLIY TA'LIMDA KORRUPSIYANING SALBIY TA'SIRINI BARTARAF ETISH: GLOBALASHUV VA MINTAQALARARO INTEGRATSİYADAGI ZAMONAVİY YONDASHUVLAR**

**Yoqubboyeva Sevara Qurbondurdiyevna,  
"Muhandistlik grafikasi va dizayn  
nazariyasi" yo`nalishi magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola, oliy ta'lim muassasalarida korrupsianing salbiy ta'sirini bartaraf etish yo'llarini o'rganadi, bu jarayonlarda globalashuv va mintaqalararo integratsiya muhim rol o'yinaydi. Korrupsiya, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi global muammo sifatida tan olingan. Oliy ta'lim tizimida korrupsianing oldini olish va uni yo'q qilish, ta'lim sifatini yaxshilash, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Tezis, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlik imkoniyatlardan foydalanishni, shuningdek, huquqiy va institutsional islohotlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamlı strategiyalarni taklif etadi. Bu yondashuvlar, nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali bo'lishi mumkin. Prezidentimiz Mirziyoyevning kuzatuvlari asosida, ushbu ishda korrupsiya muammosi va unga qarshi kurashishning zamonaviy usullari, shu jumladan, globalashuv va mintaqalararo integratsiya kontekstida yechimlar muhokama qilinadi.

<sup>39</sup> 96 мумтоз файласуф. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 102.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lif, korrupsiya, globallashuv, mintaqalararo integratsiya, shaffoflik, hisobdorlik, ta'lif sifati, huquqiy islohotlar, institutsional islohotlar, xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar, ta'lif tizimi, barqaror rivojlanish, jamiyat barqarorligi, korrupsiyaga qarshi kurash.

Oliy ta'lif tizimida korrupsianing mavjudligi, uning ta'lif sifatiga va jamiyatning umumiyligi barqarorligiga tahdid soluvchi jiddiy muammo hisoblanadi. Korrupsiya, ta'lif muassasalarida adolatsizliklarni keltirib chiqaradi va ishonchsizlik muhitini yaratadi, bu esa o'z navbatida ta'lif jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv va mintaqalararo integratsiya jarayonlari yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, korrupsiani yo'q qilish uchun yangi qiyinchiliklar va tahdidlarni ham olib kelmoqda. Ushbu kirish qismi, oliy ta'lifdagi korrupsianing salbiy ta'sirini bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlarini va bu boradagi xalqaro hamkorlikning ahamiyatini muhokama qiladi, shuningdek, korrupsiya muammosiga global va mintaqaviy miqyosda yechim

“Ayniqsa, hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini tug`dirmoqda”<sup>40</sup>. Shavkat Mirziyoyevning globallashuv va mintaqalararo integratsiya jarayonlarining jadallahushi korrupsiya muammosini yanada murakkablashtirayotganlini alohida ta'kidlagan holda, bu jarayonlar davlatlar o'rtaisdagi chegaralarni siyraklashtirib, xalqaro hamkorlikni kengaytirmoqda. Ammo biroq shu bilan birga korrupsiya uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Korrupsianing bunday keng tarqalishi davlatlarning ichki barqarorligiga zarar yetkazib, jamiyatning asosiy tuzilmalarini zaiflashadirishi mumkin. Bu muammo iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatning umumiyligi taraqqiyotini to'xtatib qo'yishi va xavfsizlikka jiddiy tahdid solishi mumkin. Prezidentimizning aytishicha, korrupsiyaga qarshi kurashish choralar global miqyosda hamkorlikni va birgalikda ishlashni talab qiladi. Shu sababli, O'zbekiston xalqaro hamjamiat bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish, shuningdek, uning oldini olish maqsadida shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlashga intilmoqda. Bunday yondashuvlar, o'z navbatida, jamiyatda ishonchni mustahkamlashga va davlat tuzilmalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-sonli 2017-yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuniga ko‘ra “Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi”<sup>41</sup>. (4-modda). Ushbu iqtibosda keltirilgan prinsiplar, oliy ta'lif muassasalarida korrupsianing oldini olish va unga qarshi samarali kurashishning muhim omillarini o'z ichiga oladi. Ochiqlik va shaffoflik, masalan, oliy ta'lilda moliyaviy operatsiyalar va qabul jarayonlarida muhimdir, chunki, bu amaliyotlar ko'pincha suiste'mol uchun zaif joylar hisoblanadi. Javobgarlikning muqarrarligi esa ta'lif xodimlarining har qanday noqonuniy harakatlar uchun javobgar bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari qonunda belgilanganidek, “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalgalashirish”<sup>42</sup>. (5-modda). Ushbu iqtibosda keltirilgan davlat siyosatining yo'nalishlari oliy ta'lif tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining muhim qismlarini bildiradi. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish orqali talaba va o'qituvchilarni korrupsiyaga qarshi turishga tayyorlash mumkin, bu esa nafaqat ta'lif sohasi, balki kengroq jamiyatda ham ijobjiy o'zgarishlarga olib keladi.

<sup>40</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -418 bet

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son

Ushbu qonunda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yishga to'xtalinar ekan "Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korruptsianing holatini va tendensiylarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik." (25-modda)<sup>43</sup> deya ta'kidlanadi. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalarida korruptsianing oldini olish va uni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni ta'kidlanadi. Bu, ta'lim muassasalarining ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlashda davlat organlarining rolini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ta'lim sohasidagi adolat va shaffoflikni ta'minlashga yordam beradi.

**"Bugun xalqaro hamjamiyat korruptsiyaga qarshi kurashishning eng to'g'ri va samarali yo'li - korruptsianing sodir etilishiga imkoniyat yaratayotgan sabab va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish, deb hisoblaydi"**<sup>44</sup>. Prezident Shavkat Mirziyoyev fikrlariga ko'ra, korrupsiyaga qarshi samarali kurashning asosiy strategiyasi bu illatni keltirib chiqarayotgan asosiy sabab va omillarni aniqlash va ularni yo'q qilishdan iborat. Bu jarayonda xalqaro hamjamiyatning yondashuvi shaffoflikni oshirish, huquqiy va institutsional tuzilmalarni mustahkamlash va fuqarolarning korruptsiyaga nisbatan sezgirligini kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Korruptsianing asosiy sabablari orasida noshaffof boshqaruv tizimlari, qonun ustuvorligining zaifligi, jamoatchilik nazoratining yetishmasligi va jazolash tizimining samarasizligi mavjud. Shunday qilib, Mirziyoyevning tavsiyalariga muvofiq, korruptsiani yo'q qilish uchun mazkur omillarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, shuningdek, korruptsiyaga qarshi global standartlar va eng yaxshi amaliyotlarni qabul qilish zarur. Bundan tashqari, korruptsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Davlatlar o'rtasida ma'lumot va tajriba almashish, xalqaro huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, transmilliy korruptsiyaga qarshi kurashda birgalikda harakat qilish jamiyatlar va davlatlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda kalit omillardan biridir.

"Korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy adolat, qonun ustuvorligiga putur yetkazib, izchil barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sishga, jamiyat va davlatlar barqarorligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Korrupsiya allaqachon lokal muammodan butun dunyo hamjamiyati va barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, transmilliy hodisaga aylangan. U uyushgan va transchegaraviy jinoyatlar uchun ham imkoniyat yaratib bermoqda"<sup>45</sup>. Prezident Mirziyoyevning qayd etishicha, korruupsiya nafaqat milliy, balki, global muammoga aylangan va u demokratik institutlarga, ijtimoiy-siyosiy adolatga va qonun ustuvorligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Korrupsiya tufayli davlatlarning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi to'xtab qolishi mumkin, shuningdek, bu jamiyat va davlatlarning umumiylar barqarorligi va xavfsizligini xavf ostiga qo'yemoqda. Korrupsiya endilikda mahalliy darajadagi muammo emas, balki u transmilliy xarakterga ega va butun dunyo iqtisodiyotini ta'sirlantirmoqda, shuningdek, uyushgan jinoyatchilikka yo'l ochmoqda. Ayniqsa, global mashuv sharoitida korruptsianing salbiy ta'sirlari yanada kuchayadi, chunki davlatlararo va mintaqalararo aloqalarning kengayishi bilan birga, jinoyatchilar ham o'z faoliyatlarini xalqaro miqyosda kengaytirish imkoniyatini topmoqdalar. Shu sababli, korruptsiyaga qarshi kurash butun jahon miqyosida hamkorlikni talab qiladi. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, bu borada xalqaro hamkorlik va transmilliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, qonun ustuvorligini ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin.

Korrupsiya, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida, jiddiy muammolar yaratadi, chunki, bu soha kelajak avlodlarining ma'naviy va professional tayyorgarligiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu ilmiy ishda

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son

<sup>44</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -421 bet

<sup>45</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -418 bet

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari asosida korrupsiyaning oliy ta'lif tizimiga ta'sirini bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi, jumladan, globallashuv va mintaqalararo integratsiya sharoitida yangi yondashuvlar taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya faqat milliy muammo emas, balki u global va transmilliy hodisaga aylangan. Shu sababli, unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va integratsiyani chuqurroq tahlil qilish zarur. Korrupsiya, oliy ta'lif muassasalarida adolatsizlik va ishonchsizlik muhitini yaratadi, bu esa ta'lif sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Sh.Mirziyoyevning fikricha, oliy ta'lifda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, ta'lif sifatini yaxshilash hamda zamonaviy texnologiyalardan va xalqaro tajribadan unumli foydalanish muhimdir. Bunday yondashuvlar nafaqat milliy, balki, xalqaro darajada ham samarali bo'lishi mumkin, chunki korrupsiya hozirgi kunda har qanday davlatning ichki barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, oliy ta'lif tizimida korrupsiyaga qarshi samarali kurashish, globallashuv va mintaqalararo integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, keng ko'lamli huquqiy va institutsional islohotlar orqali amalga oshirilishi lozim. Bu islohotlar nafaqat ta'lif tizimini, balki butun jamiyatni yanada barqaror va adolatlilik qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lif muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llarini izlash, kelajakda bu muammoni butunlay yo'q qilish uchun zarur bo'lgan asosiy qadam hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -418 bet
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -421 bet

## «HALOLLIK VAKSINASI» BILAN EMLANGAN YANGI AVLODNI TARBIYALASH USTUVOR VAZIFAMIZDIR.

### “KORRUPSIYA: JAMIYATIMIZ TARAQQIYOTINING KUSHANDASI”

**Arolova Zarina Lochin qizi,**  
SHDPI “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va  
huquq ta’limi” 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqlada korrupsiyaning ijtimoiy ahamiyati, uning salbiy oqibatlari haqida yoritilgan. Ayniqsa, bugungi kunda korrupsiyani oqibatida yoshlar ongiga ta’siri va uni oldini olish chora tadbirlarni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, parlament, huquq, lobbizm, makroiqtisodiy, oliv ta’lim.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliv o‘quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta’minalash, ta’limdagi korrupsiya va poraxo‘rlikning oldini olishga ham astoyidil kirishilgan. Oliy ta’lim sohasida korrupsiya tushunchasini yoritishdan avval “korrupsiya” tushunchasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Korrupsiya lotincha-aynish, poraga sotilish, ya’ni mansabdor shaxsnинг o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlariga bevosita suiste’mol qilishidan iborat amaliyotdir. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Hattoki biz korrupsiyani hayotimiz davomida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, shifokordan yaxshiroq maslahat olish uchun, reytinglar daftarchasida yuqori darajada bo‘lish uchun, imtixon vaqtida a’lo baholarga topshirish uchun va hokazolar misol bo‘ladi. Xalqaro oliv ta’lim tadqiqotchisi E.Denisova oliv ta’lim sohasidagi “korrupsiya” tushunchasiga “akademik halollikni mavjud emasligini” deb ta’rif bergan. Uning fikricha korrupsiya tushunchasi zamon bilan bir meyorda o‘zgarib boradi. Misol uchun, o‘rta asrlarda Yevropa universitetlarida talabalarni o‘qituvchilar va universitet mansabdorlariga odatiy to‘lovlar berishgan bo‘lsa, muammo” sifatida qaralgan. Oliy ta’lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbazarliklar boshqa sohadagi korrupsiyaviy huquqbazarliklardan ijtimoiy munosabatlar obyekti, munosabat subyektlari, huquqbazarlik motivi va maqsadi qarab farq qiladi. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo‘yicha “Lokxit ishi” eng yirik Korrupsiya ko‘rinishlariga misol bo‘ladi. Makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan, korrupsiya iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta omildir. Keyingi yillarda xorij, jumladan, MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘llari haqida maqlolalar paydo bo‘la boshladi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandas, davlatlar o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to‘siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Shunday qudratli imperiya Usmoniyalar saltanatida poraxo‘rlik oqibatida shu bo‘ldiki, qo‘sishlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotadi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi. Xullas, Qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko‘ngildagidek natija bermagan. Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Bunday yomon illat dinlarda ham qoralanadi. Qur’oni Karimda poraxo‘rlik bevosita taqilanganadi: “Bir-birlaringizning mollaringizni bobil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” ( Baqara surasi, 188 oyat). O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurash maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF6013-sonli “O‘zbekiston respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning

Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi; 2000 yil 15 noyabrdagi qabil qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya; 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiya; 1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiyalari va boshqalar. Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2004 yildan beri har yili 9-dekabrda nishonlanib keladi. Ushbu Xalqaro kunni belgilashdan asosiy maqsad, Bosh Assambleya rezolyutsiyasida qayd etilganidek, korrupsiya muammosi va Konvensianing korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishdagi rolini chuqurroq tushunish bo‘lgan. Bundan asosiy maqsad, bunday yomon illatni har bir davlatdan yo‘q qilishdir. CHunki davlatni yuksaltirish va uni vayron etish ham xalqining qo‘lidadir. Kelajak yosh avlodga korrupsiyaning oqibatlarini maktabdanoq tushuntirish lozim. Ya’ni jamiyatda huquqiy ong tushunchasini axoli ongiga singdirish lozim. Jamiyatdagi yosh qatlama esa vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, ishonch, xalqsevarlik kabi go‘zal hislatlarni o‘rgatishimiz lozim. Ayniqsa, kasbiga bo‘lgan sadoqat insonni hech qachon yomon yo‘llarga kirishga undamaydi. Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O‘zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020-yil bo‘yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o‘rinni egallab, 6 pog‘onaga ko‘tarilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir. Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog‘liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog‘liq 590 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganligi, korrupsiyaga qo‘l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari Respublika, 36 nafariviloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta‘lim, davlat xizmati ko‘rsatish, sohalarida hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir. Ta’kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning, turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydonidagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘Isak, ko‘plab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek, sudyalarning xatti-harakat me’yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodeklari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. E’tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo‘lgan sovg‘a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, AQSHda ushbu miqdar 20 AQSH dollarni, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko‘rinishdagi sovg‘alar qabil qilishi qat’yan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog‘ozlar kabi to‘lovlarni olishi taqiqlangan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo‘lib unga ko‘ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyuştiriladigan xizmat safarlari davomida sovg‘alar olishi taqiqlandi. Bundan tashqari, bugungi kunda ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boorish jarayonida qo‘llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsa mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul 150 dan ortiq mamlakatlarda qo‘llaniladi. Ta’kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Albatta, 2017-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi” qonun O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy huquqiy asosi hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasida ham bu haqida keng

ko‘lamli bayonot berilgan.O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali moliyaviy, huquqiy va institutsional mexanizmlarini yaratish yo‘li o‘z samarasini bermoqda. Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat, ta’lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korruption harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bunday usullarni O‘zbekistonda ham qo‘llash lozimdir. Chunku yangi texnologiyalar asosida davlatni yanada rivojlantirish mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasidagi barcha fuqarolarning burchidir. Biz yoshlar korrupsiya degan buzg‘unchi va yomon illatning yo‘q bo‘lib ketishi uchun qo‘limizdan kelgan barcha ishlarni qilamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytamanki, oliy ta’lim sohasidagi “korrupsiya” umumiy “korrupsiya” tarkibiga kiruvchi korrupsiyaviy huquqbuzarlik turlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot olib borish jarayonlarida “korrupsiya”, “oliy ta’lim sohasida korrupsiya” tushunchalariga oid zarur ttushunchalarni aniqlashtirib olish ilmiy jarayonda nazariy jihatlarga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni ta’minalashga xizmat qiladi. Bu illatni yo‘qotish har bir insonning burchidir. Sababi, bir korrupsiyaga qo‘l urgan inson butun bir davlatni zaxarlaydi. Davlatimiz rivojlanishi va butun dunyoga tanilishi uchun har bir shaxs o‘z kasbiga vijdonan, sodiq xizmat qilishi lozim. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash faqat bir necha yillik vazifa emas. Bu to‘xtovsiz jarayondir va O‘zbekiston hukumati bu boradagi xalqaro standartlarga muvofiq korrupsiyaga qarshi islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minalash bo‘yicha yangi qadamlarni qo‘yishga intilmoqda.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Sattorov Oybek- “Oliy ta’lim sohasida korrupsiya tushunchasi” 2022yil.
2. To‘laganova-“Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqingiz bor?” 2021yil
3. A.Y.Tadjibayeva-“Korrupsiyaga qarshi kurash” 2021yil
4. S.S.Mamanov- “Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqingiz bor” 2021yil
5. Shohjahon Kulturayev- “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida Davlat siyosatini takomillashtirish masalalari”. Ombudsman.uz
6. “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”. Vikipediya.uz
7. Nilufar Doniyorxo‘jayeva “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish uzluksiz jarayondir” 2024yil.  
[info@strategy.uz](mailto:info@strategy.uz)

## **MILLIY YUKSALISH JARAYINIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASIGA “HALOLLIK VAKSINASI” NING AHAMIYATI**

**Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi,  
Muhammad al- Xorazmiy nomidagi  
TATU Qarshi filiali mustaqil tadqiqotchisi  
1-kurs talabasi Boboqulov Nurmuhammad**

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada “Halollik vaksinasi”ning bugungi kundagi ahamiyati yoritib berilgan. Bundan tashqari jamiyatdagi korrupsiya va unga yechimlar o‘rganilgan.

**Kirish so‘zlar:** “Halollik vaksinasi”, jamiyat, immunitet, yuksalis, korrupsiya.

Halollik vaksinasi bu jamiyatda halol adolatli to‘g‘risòz va mas‘uliyatli harakatlarni shakllantirishga qaratilgan konsepsiya hisoblanadi. Insonlarning axloqiy immunitetini kuchaytirishga xizmat qiladi. Halollik vaksinasi jamiyatdagi qonunbuzarliklar yolg‘on o‘g‘irlik yoki boshqa shu kabi yomon illatlarni yo‘qotish uchun insonlar ongiga shakllantirish kerak bo‘lgan immunitetdir. Har qanday jamiyatga bu vaksina kerak. Qaysidir jamiyat insonlari bu vaksina bilan to‘liq emlangan bo‘lsa bu xalq barcha xalqlarning eng afzali bo‘ladi. Insoniylik aslida halollik bilan uzviy bog‘langan. Bundan kelib chiqadiki agar insoniylikni shakllantirmoqchi bo‘lsak avvalo biz halollik tushunchasini shakllantirishimiz va halollik vaksinasi bilan emlanishimiz zarur bo‘ladi.

Halollik vaksinasi asosan axloqsizlikka korrupsiyaga va boshqa shunga o‘xshash illatlarga qarshi qo‘llaniladigan metafora hisoblanadi. Bugungi kunga kelib bunday illatlarning ortib borishi faqatgina jamiyatning tanazzulli bilangina tugashi mumkin.Bu albatta juda ham katta xavfdir

Bugungi kunda jamiyatda bir necha yirik xavflar mavjud bulardan biri bu korrupsiya xavfidir. Korrupsiya shakllangan jamiyatda haqqoniylik hech qachon bo'lmaydi. Korrupsiya òz manfaati yo'lida boshqalardan moliyaviy tomondan foydalanishi desak xato bo'lmaydi. Korrupsiya bugungi kunda butun dunyoda eng birinchi o'rindagi muammolardan biridir. Uning oldini olish maqsadida ko'pgina mamlakatlarda shu jumladan yurtimizda ham ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Korrupsiya bu eng xavfli qonunbuzarliklardan biri hisoblanib unga qarshi choralar ham ko'rilmoxda. Yurtimizda ham mustaqillik yillarda korrupsiya xafini yo'qotish maqsadida bir necha qonunlar ham ishlab chiqildi. Korrupsion holat sodir etgan har qanday shaxs qonun oldida javob beradi va u konstitutsiyada ko'rsatilgan qonunlar bilan jazolanadi. Aynan korrupsiya sababli bиргина та'lim sohasida anchagina muammolar sodir bo'lmoqda ko'pgina bilimli yoshlar aynan korruptsiyasi sababli jamiyatda o'zining órnini topolmayotganligi achinarli holat.

Korrupsiyaga qarshi kurashish eng ustuvor vazifalaridan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Buning uchun esa bizga albatta halollik vaksinasi zarur bo'ladi. Halollik vaksinasi insonlarni korrupsiyaga qarshi chiqishga undaydi bu esa albatta insonlarda korrupsiyaga qarshi immunitet hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladigan bòladigan illatlardan biri bu axloqsizlikdir. Bu insoniyat uchun eng xavfli bo'lgan illatlardan biri hisoblanadi. Chunki axloqsizlik har qanday buyuk shaxsning ham obro'sini yer bilan bitta qiladi.

Axloqsizlikni yo'qotish yaxshi jamiyat uchun juda ham foydali. Buni yo'qotishda ham halollik vaksinasining ahamiyati yuqori ekanligini aytib o'tishimiz zarur. Millatni bu illatdan qutqarish zarur bu uchun esa ular orasida bilim va tarbiyasi yaxshi bo'lgan insonlarning roli yuqori bo'ladi ular yordamida qolganlarida hamaxloqsizlikka qarshi immunitetni hosil qilish mumkin

Halollik to'g'risida juda ham ko'plab insonlar o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Bunday insonlardan biri birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksalish yo'lida" [1] asarida halollik to'g'risida aynan halollikni tarqib qilish haqida aytib o'tadi. Bu asarda Islom Karimov halollikni davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga egaligi haqida yozadilar. Karimovning so'zlariga ko'ra jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun halollik juda ham katta ahamiyatga ega. U siyosatchilardan vijdonli bôlishni va xalq manfaatlariga mos ishlashni talab qiladi. U halollik har qanday siyosatchida bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

Halollik haqida yana bir yozuvchi Chingiz Aytmatov o'zining oq kema asarida shunday deydi "Insonning haqiqiy kuchi boyligida emas uning halolligida namoyon bòladi" [2]. Bu gapning o'zidan biz juda ham katta bir mazmunni anglashimiz mumkin.

Halollik vaksinasi bilan emlashda albatta o'zining halolligi bilan ajralib turadigan va qolganlarga ham o'nak bo'ladigan shaxslarning yordami kerak. Halol inson haqida buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy o'zining "urush va tinchlik" asarda shunday deydi, "Halol inson o'zini aldashdan qo'rqadi chunki bu uning butun hayotini ma'nosi qilib qo'yadi" [3]. Bu insonning halol inson haqida shunday gaplari bilan yaxshi fikrlari borligini bilishimiz mumkin. Bugungi kunda halol insonlarning ko'payishi albatta xalq va jamiyatning yuksalishiga sabab bo'ladi.

Jamiyatda halollik vaksinasining qo'llanishi albatta uning yuksalish uchun asosiy qurol vazifasida keladi. Har qanday millatda bo'lgani kabi yurtimizda ham ba'zi bir illatlarning mavjudligi jamiyatning rivojlanishiga to'siqlik qilmoqda. Bizning xalqimiz birlashishi va korruptsiyaga yoki shunga o'xshash bo'lgan illatlardan qutilish yo'llarini izlashi zarur. Buning uchun esa albatta siyosatchilar birinchilardan bo'lib halollik vaksinasi bilan emlanishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Islom Karimov "Yuksalish yo'lida" asari. "O'zbekiston nashriyoti". 1998
2. Chingiz Aytmatov "Oq kema" asari. "Noviy jir". 1970
3. Lev Tolstoy "urush va tinchlik" asari. "Russkiy Vestnik" 1865 -1869

## JAMIyatda KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ MUHITNI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI

**Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi,**  
TATU Qarshi filiali o'qituvchisi  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali "Axborot ta'lim va texnologiyalar  
va gumanitar fanlar" kafedrasi erkin tadqiqotchisi  
1-kurs talabasi **Boymurodova Munisa**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyatda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya holatlarini oldini olish yechimlari va u uchun eng avvalo yosh avlodni "halollik vaksinasi" bilan emlash darkorligi va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish kerak ekanligi muhokama qilingan va o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, "Halollik vaksinasi", jamiyat taraqqiyoti, fuqarolar, firibgarlik.

So'nggi yillarda axloq va ma'naviyat masalalari jamiyatning asosiy masalalardan biriga aylandim va shunday holatda bizning jamiyatimizga "halollik vaksinasi" atamasi kirib keldi. "Halollik vaksinasi" bu firibgarlik, poraxo'rlik yoki shunga o'xshash bo'lgan salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida insonlarda hosil qilinadigan immunitetdir. Bugungi kunga kelib halollik vaksinasining ahamiyati juda ham yuqori ayniqsa so'nggi yillarda poraxo'rlikning ortib borishi yoki shunga o'xshash holatlarining yuzaga kelishi achinarli holatga aylanmoqda. Halollikni targ'ib qilish barcha insonlarda immunitetning hosil qilinishi jamiyatning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Jamiyatdagi ma'lum bir muammolar ham aynan halollik vaksinasi bilan emlanish natijasida hal qilinadi.

Bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri firibgarlik yoki o'g'irlik holatining ortib borishidir. Bu holatlarni yo'qotish uchun esa birinchi navbatda yosh avlodni "halollik vaksinasi" bilan emlash zarur bo'ladi.

Chunki o'g'irliklarning katta qismini yoshlar sodir qilmoqda. Bu esa ularga yetarlicha ta'limgartarbiya berilmayotganligidan dalolat va shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, jamiyat a'zolarini yoshlik vaqtlaridan boshlab halollik tushunchasini bolalar ongiga singdirish zarurdir.

XXI asrga kelib eng avj olib borayotgan illatlardan biri bu korrupsiya hisoblanadi. Bugungi kunda biz jamiyatning barcha sohalarda korrupsiya illatiga to'qnash kelishimiz mumkin. Uning yechimi ham "halollik vaksinasi" bilan uzviy bog'liq. Chunki qaysidir jamiyatda halol insonlar ko'p bo'lsa shu jamiyatda jinoyat va qonunbuzarliklar ham kam bo'ladi.

Halollik tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak bu borada bizga bir necha buyuk shaxslarning asarlari yordam beradi. Bularidan biri Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida halollik haqida yozilgan. "Odamlar halollik vaadolat yo'lidan yursa jamiyatning taraqqiyoti muqarrar bo'ladi" [1] deydi Farobi. Bu jumladandan anchagina xulosa chiqarishimiz mumkin.

Yana bir o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov ham "Ikki eshik orasi" nomli asarida halollik haqida yozib o'tadi."Halol yashashga intilmagan odam hayotda hech qachon chinakam ma'no topolmaydi hayotda hamma narsa vaqtinchalik lekin halollik va rostgo'ylik mangu qadriyatdir" [2]. Asarda bu fikrda ham juda katta ma'no mavjudligini anglashimiz mumkin.

Jamiyatda halollik vaksinasi bilan xalqni millatni emlashda birinchi navbatda davlat rahbarlari, hokimlar, o'qituvchilar asosiy rolini bajarib beradi. Bugun biz zamonaviy axborot texnologiyalari zamonida yashayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda ham ko'rishimiz mumkinki har kuni korrupsiya holatlari yoki o'g'irlik holatlarini ko'rib qolishimiz mumkin. Bu esa biz uchun ayanchli holatdir .Jamiyatni halollika undash uchun biz ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanishimiz mumkin. Masalan katta auditoriyaga ega bo'lgan inson o'zining shaxsiy sahifasiga aynan halollikni targ'ib qiluvchi materiallarni joylashishining o'zi katta yordamdir.Uni ko'rayotgan yoshlar hatto keksalar ham to'g'ri xulosa chiqarishi mumkin bo'ladi. Inson hayoti tug'ilishi bilan o'g'ri yoki jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi yoki aksincha bilimli yoki dono holatida dunyoga kelmaydi. Atrofidagi insonlar yoki auditoriya shu holatga olib keladi. Shuning uchun yoshlarga ko'proq ota-onasi yoki ustozlari halollikni tushuntirishi zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamiyatni qoloqlikka yetaklovchi, uni ma'naviy qashshoqlashuviga olib kelivchi korrupsiya bugungi kundagi bizni tahlikaga soluvchi eng yomon illatlardan biridir. Jamiyatimizning har bir a'zosi bu illatni tahlika bilan qabul qilishi va bizga barcha fuqarolar bir bo'lib kurashmog'i lozimdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliv majlisdagi murojaatnomasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan yoki jamiyatimizning barcha a'zolari "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruksianing oqibatlari bilan kurashishda uning barvaqtli oldini olishimiz kerak" deb ta'kidlab o'tgan davlatimiz rahbari [3]. Bu so'zlar bilan yurtimizdag'i barcha halollik vaksinasi bilan emlamas ekan biz o'zimiz rejalashtirgan yuksak natijalarga yetishi olmaymiz. Korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashganimizdan foya bo'lmaydi demoqchi bo'lganlar prezidentimiz. Davlatimiz rahbari tomonidan korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha qator islohotlar olib borildi. Bu esa ushbu illatga qarshi kurashish uchun davlat siyosati yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abu Nosis Farobi. "Fozil odamlar shahri" 2016 "Yangi asr avlod" 134-b
2. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi". Sharq, 2012 -624-b
3. Gazeta.uz Sh.Mirziyoyev 2023-yil murojaatnomasi

## **KORRUPSIYA – JAMIYATNING YASHIRIN DUSHMANI**

**Zaripova Gulnoza Zahreddin qizi,**  
SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola korruksianing jamiyatga ta'siri va uning zararli oqibatlarini tahlil qiladi. Korrupsiya, davlat amaldorlari va boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlash orqali yuzaga keladigan huquqbazarliklar sifatida ta'riflanadi. Maqolada uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarga bo'lgan ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi. Korrupsiyaning keng tarqalishi jamiyatda ishonchning yo'qolishiga, iqtisodiy o'sishning to'xtashiga va adolatning buzilishiga olib keladi. Shuningdek, maqolada korruksianing sabablari, jumladan, iqtisodiy notekislik, siyosiy barqarorlikning yo'qligi va huquqiy kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan .Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun siyosiy islohotlar ,ta'lim va xabardorlik darajasini oshirish, shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola jamiyatni korruksiyaga qarshi birlashishga chaqiradi va uning yo'q qilinishi uchun kompleks yondashuvni taklif qiladi.

**Kalit so'zlar.** Korrupsiya, jamiyat, iqtisodiy ta'sir, siyosiy barqarorlik, ijtimoiyadolat, huquqiy tizim, korruksiyaga qarshi kurash, ishonch, siyosiy islohotlar,ta'lim, shaxsiy mas'uliyat , resurslarning notekis taqsimlanishi.

Korrupsiya jamiyatning eng jiddiy va ko'pincha yashirin dushmanidir. Uning oqibatlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarga zarar yetkazadi, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiadolat va taraqqiyotiga ham tahdid solidi. Korrupsiya inson huquqlarining buzilishiga, resurslarning notekis taqsimlanishiga, jamiyatda ishonchning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun bu fenomenni chuqur tahlil qilish va unga qarshi kurashish uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Korrupsiya –bu davlat amaldorlari, xususiy sektordagi vakillar yoki boshqa jamoat shaxslarining o'z lavozimlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlarni ko'zlashidir. Korrupsiya har xil shakllarda bo'lishi mumkin: pora olish, lavozimni suiste'mol qilish, soxta hujjatlarni rasmiylashtirish, tenderlarni manipulyatsiya qilish va boshqa ko'plab holatlar. Korrupsiya iqtisodiyotning samaradorligini pasaytiradi ,resurslar notekis taqsimlanadi va davlatning xalq oldidagi ishonchliligi susayadi. Pora olish-davlat xizmatchilari yoki shaxslar xizmatlarini bajarish yoki imtiyozlar berish evaziga pora oladi.

Soxtalashtirish-resurslar yoki hujjatlar soxtalashtiriladi, masalan,tender hujjatlarida noto'g'ri ma'lumotlar kiritish.

Lavozimni suiste'mol qilish-xodimlar lavozimlariga shaxsiy munosabatlar yoki pora orqali tayinlanadi ,bu esa ish joylarida malakali kadrlarning yetishmasligiga olib keladi.

Taqsimotdagi xatoliklar-qonunchilik yoki qarorlar korrupsiyaga asoslangan holda amalga oshiriladi, shunda resurslar kamdan-kam holatlarda to‘g‘ri va teng taqsimlanadi. Iqtisodiy ta’sirlar-korrupsiya iqtisodiy tizimning samaradorligini jiddiy ravishda zaiflashtiradi. Resurslar noto‘g‘ri taqsimlanadi, investitsiyalar qochib ketadi, biznes va tadbirkorlik rivojlanishiga to‘sinqlik qilinadi. Korrupsiyalashgan tizimda, haqiqiy malaka va ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar emas, balki o‘z manfaatlari uchun ish qilayotganlar Ilgari suriladi. Bu holat natijasida iqtisodiy o‘sish sekinlashadi va umuman jamiyatning farovonligi pasayadi.

Korrupsiya siyosiy tizimni zaiflashtiradi. Davlat amaldorlari o‘z lavozimlaridan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlashda davom etishar ekan, ular o‘zgarishlarga qarshi turishadi. Bu esa demokratik jarayonlarni susaytiradi, adolat va tenglik tamoyillarini yo‘q qiladi. Korrupsiyaning keng tarqalishi, davlatning samarali boshqaruvini va xalqni himoya qilish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Korrupsiya jamiyatda ishonchni yo‘qotishga olib keladi. Davlat idoralari, sudlar va boshqa muhim tashkilotlar o‘z vazifalarini bajarishda korrupsiya tufayli ishonchsiz bo‘lib qoladi. Bu ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi, fuqarolarni siyosiy faoliyatdan chetlashtiradi va ularda ”hammasi sotiladi” degan ruhni shakllantiradi. Bunday muhitda jamiyatning adolatga bo‘lgan ishonchi so‘nadi.

Korrupsiya sud tizimining ishonchlilagini yo‘qotadi. Adolatning buzilishi, qonunlarning tasodifiy va noto‘g‘ri qo‘llanilishi jamiyatda huquqiy beqarorlikka olib keladi. Korrupsiyaga qarshi kurshish o‘rniga sudlar va boshqa huquqiy institutlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab qoidalarni buzadilar. Korrupsiyaning yuqori darajasi davlat amaldorlari va siyosatchilarning o‘zgarishlariga qarshi turishiga sabab bo‘ladi, chunki ular tizimdagagi imtiyozlardan voz kechishni xohlamaydi.

Korrupsiyaning sabablari –Korrupsiyaning paydo bo‘lishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Ularning ba’zilari quyidagilar;

1.Iqtisodiy noto‘g‘riliklar-kam daromadli va qashshoq jamiyatlarda korrupsiyaning darajasi yuqori bo‘ladi. Bunday sharoitda odamlar o‘z hayotlarini yaxshilash uchun pora olishni oson deb bilishadi .

2.Siyosiy barqarorlikning yo‘qligi: -siyosiy muhitdagi beqarorlik, jamiyatdagi korrupsiyaga nisbatan qarshilikni susaytiradi. Hukumat o‘z vazifalarini bajarishdan ko‘ra, o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga harakat qiladi.

3.Huquqiy va qonunchilik kamchiliklari- Qonunlar va ularni amalga oshirishdagi bo‘shliqlar korrupsiya uchun maydon yaratadi. Ommaviy nazoratning yetishmasligi ham korrupsiyaning keng tarqalishiga olib keladi.

4.Madaniy va ijtimoiy faktlar - Ba’zi jamiyatlarda korrupsiya ijtimoiy qabul qilingan holat sifatida qaraladi. Madaniyatdagi bu yondashuv korrupsiyani normal holatga aylantiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Bu kurashda davlat,jamiyat va har bir fuqaroning o‘rni muhimdir.

Siyosiy va huquqiy islohotlar –davlat boshqaruvi va qonunchilikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi qonunlarni qattiq joriy etish zarur .Ayniqsa korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish va jazolash tizimi mustahkamlanishi kerak .

Ommaviy ta’lim va xabardorlik-jamiyatda korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish muhimdir.Ommaviy ta’lim va axborot vositalari orqali korrupsiyaning zararlarini tushuntirish ,fuqarolarni korrupsiya bilan kurashishga chaqirish zarur .

Shaxsiy mas’uliyat-har bir fuqaro o‘ziga mas’uliyatli bo‘lishi va korrupsiyaga qarshi kurashda o‘z hissasini qo‘sishi kerak. Fuqarolar o‘z huquqlarini bilib ,qonunlarga rioya etishlari va korrupsiya holatlariga nisbatan noroziliklarini bildirishlari muhim. Korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyatni rivojlantirish va adolatni tiklash uchun muhimdir. Bu uchun quyidagi yondashuvlar taklif qilinadi;

Samarali nazorat tizimlari yaratish –korrupsiyaga qarshi kurshish uchun mustahkam huquqiy va boshqaruvi tizimlarini yaratish zarur.

Korrupsiyaning oldini olish uchun shaffof davlat boshqaruvi va qonunlar joriy etilishi kerak;

Xalqni xabardor qilish –ta’lim va axborot tarqatish orqali korrupsiyaning zararlarini jamiyatga tushuntirish va uni ildizdan yo‘q qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak;

Ommaviy monitoring –fuqarolar va jamoat tashkilotlarini korrupsiyani kuzatish va ma ‘lumotlarni oshkor qilish jarayonlariga jalb qilish. Xalqaro tashkilotlar va siyosiy kuzatuvchilar ham shu jarayonlarda faol ishtirok etishlari lozim.

Boshqaruvni avtomatlashtirish va raqamlashtirish –davlat xizmatlari va tenderlar kabi jarayonlarni raqamlashtirish orqali korrupsiyani kamaytirish mumkin Yagona elektron tizim orqali barcha faoliyatlar va qarorlar shaffof bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korrupsiya jamiyatning yashirin dushmanidir, chunki u jamiyatni ichidan yemirib boradi, uninf barqarorligi va taraqqiyyotiga jiddiy tahdid soladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning mas’uliyatidir. Ijtimoiy adolat, huquqiy tartibot va iqtisodiy o’sish uchun korrupsiyaga qarshi birlashish zarur. Jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda harakat qilsa, korrupsiya tizimida izsiz yo‘qolishi mumkin. Shaxsiy mas’uliyat, samarali qonunlar, ta’lim va ommaviy monitoring –bu korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vositalardir. Faqat barchaning birgalikda kurashi natijasida korruksianing oldini olish va jamiyatni rivojlantirish mumkin. Korrupsiya innovatsiya va texnologik taraqqiyotga to’sqinlik qiladi. Korrupsiya ko‘pincha muhim resurslar va investitsiyalarini notejis taqsimlashga olib keladi. Masalan, kichik va o’rta bizneslar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalar yoki yechimlar ko‘pincha davlat organlarining korrupsiya tizimi tufayli qo’llab –quvvatlanmaydi. Bu esa yangi g’oyalarning rivojlanishiga to’siq bo‘ladi va iqtisodiy o’sishni susaytiradi. Korruksianing ta’lim tizimiga ham salbiy ta’siri sezilarli. Ta’lim sektori korrupsiyaga uchraganda, o’qituvchilar, adminstratorlar va boshqa amaldorlar o’z pozitsiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarni sotish yoki ularning baholarini sotib olish kabi amaliyotlarni amalga oshirishlari mungkin. Bunday sharoitda o‘quvchilar faqat moliyaviy imkoniyatlari bo‘lganlar yaxshi ta’lim olishadi, boshqalar esa kamsitiladi. Shuningdek, ta’lim sohasidagi korrupsiya uzun muddatda jamiyatning malakali kadrlar yetishtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro tashkilotlar tomonidan korruksiyaga qarshi kurashishda bosimga duchor bo‘ladi. Bu bosim va xalqaro miqyosda korruksiyani jazolash amaliyotlari, mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko‘rsatishda va sanksiyalarini joriy qilishda ta’sir qiladi. Bu jarayonlarda qaysi davlatlarning korrupsiya tizimlariga tayanishini aniqlashda turli siyosiy va iqtisodiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Korrupsiya jamiyatning barcha jabhalarini o‘zgartiradi va uning natijalari har bir fuqaroden tortib, global miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga qadar ta’sir qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashning samarali usullari faqat milliy va xalqaro siyosat darajasida emas, balki jamiyatning har bir a’zosining faolligi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon uzlusiz va qat’iy bo‘lishi kerak, shunda korruksianing oldini olish va jamiyatda adolatni tiklash mumkin bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev.Sh.M.”Korruksiyaga qarshi kurashishda davlat siyosati: masalalar va yechimlar.”Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi. 2017.
2. Karimov.I.A.”O‘zbekiston-mustaqillik yo‘lida.”Toshkent:1997.
3. Abdug‘aniyev.O.”Korruksiya:tushuncha sabablari va o‘zbekistondagi holati.”Toshkent:O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi-2015.
4. Qodirov.D.”O‘zbekistondagi korruksiya:ijtimoiy-iqtisodiy asoslar va unga qarshi kurash usullari.”Toshkent:O‘zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti noshirligi-2004.
5. Rahmonov.M.”Korruksianing ijtimoiy ta’siri va o‘zbekistondagi vaziyat. ”Toshkent: fan va texnologiyalar akademiyasi-2018
6. Ismailov.E.(2013). ”Korruksiyaga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi.”Toshkent:O‘zbekiston yuridik akademiyasi.-2013.

## KORRUPSIYA VA MILLIY TARAQQIYOT: MUAMMO VA YECHIM

**Ibragimova Dilsora,**  
Qarshi davlat universiteti  
Falsafa va sotsiologiya kafedrasи  
o'qituvchisi Ibragimova Dilsora

**Annotatsiya.** Maqlada korrupsiyaning milliy taraqqiyotga ta'siri va uni oldini olish, qarshi kurash masalasi o'rganilgan. Muammoni hal qilishning turli asoslari va yechimi bilan bog'liq qarashlar asoslangan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, globallashuv, konvensiya, poraxo'rlik, davlat, jamiyat, tarixiy o'zak, rivojlanish, davlat apparati, markaziylashuv, halollik standartlari, axborot platformasi, yangi nizom.

Hozirgi, mintaqa va davlatlararo integrasiya jarayonlari jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya chegara bilmas muammoga aylanayotgani hammamizga ma'lum. Aytish lozimki, keltirib chiqarayotgan oqibatlar jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, demokratik va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o'ta xavfli bo'lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi. Bu esa jamiyat hayotiga katta xavf to'g'diradi.

Korrupsiya mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy huquqiy hodisadir. Bu millat, elat har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Jamiyatning ma'naviy axloqini yemiradi, qonun ustuvorligini kuchsizlantiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa tahdidlarning o'sishiga yordam beradi. Uning domiga ilingan amaldor shaxsiy manfaatini davlat manfaatidan ustun qo'yishi natijasida, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi, chet elliq sheriklarda ham ishonchsizlik uyg'otadi va ularni hamkorlikdan qaytaradi.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan g'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Jamiyatni har tomonlama rivojlantirish har bir mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday davlatlar borki, ularning har birida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va unga qarshi kurashish to'g'risida normativ hujjatlar qabul qilingan. Haqiqatan, korrupsiya muammosi bugungi kunda dunyo miqyosida o'z yechimini talab etayotgan birinchi masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham, jahon hamjamiyati bu illatga qarshi keskin kurashmoqda.

Mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish izchillik bilan olib borilmoqda. Bu borada so'z yuritar ekanmiz avvalo, mamlakatimiz 2008 yilda Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga qo'shilganligini, Oliy Majlis tomonidan 2011 yilda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimni ratifikasiya qilinganligini ko'rsatib o'tish lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlarining qabul qilinganligi yurtimizda korrupsiya bilan bog'liq xuquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga Qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 maydag'i PF-

5729-son Farmoni bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investisiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Afsuski, yurtimizda bu borada yetarlicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda.

Ayni shu maqsadlardan kelib chiqib, asosiy vazifasi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi ham yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol ifodasidir.

Rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan Singapur, Shvesiya, Finlandiya davlat islohotlarini aynan mazkur illat - korrupsiyani ildiziga bolta urish bilan boshlaganligi va bu borada tizimli ravishda ish olib borishni o'zlarining asosiy vazifalari deb belgilaganligi uchungina jahonda korrupsiya darajasini o'rganuvchi "Transparency International" tashkilotining korrupsiyaning yo'qlik indeksida har doim yuqori pog'onalarida turishini ta'minlaydi. Bu albatta mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, jumladan investisiya faoliyatining taraqqiyotiga, investisiya muhitiga ijobiy ta'sir qilib, davlatni har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir tm q lm di; ikkinchidagi, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'rsatish tir di; uchinchidagi, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, o'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Korrupsiya-tamagirlirkning yuqori nuqtasi. Unga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berilishi lozim.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi-yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun 2016-yil 13-dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasi.

### KORRUPSIYANING JAMIYATGA PSIXOLOGIK TA`SIRI

**Ibragimova Zarnigor Orifjon qizi,**  
Qarshi shahridagi Turon universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqlada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi va mazmuni, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlari, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida faoliyat olib boruvchi davlat organlari va ularning vazifalari, korrupsiyaning jamiyatga psixologik ta`siri tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, iqtisodiy ta'sir, siyosiy ta'sir, ijtimoiy tasir, psixologik ta'sir.

Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki korrupsiya jinoyatchilik, ayniqsa uyushgan jinoyatchilik bilan bevosita bog‘liqdir. “Bugungi kunda faqat iqtisodiyotga emas, balki, eng avvalo, respublikaning siyosiy va xalqaro nufuziga, jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy nufuziga katta zarar yetkazayotgan eng xavfli illat - korruptsiyadir. U ayrim hollarda o‘ta xavfli tusga kirmoqda”. Korrupsiya va poraxo‘rlik jinoyatning yopiq va eng qabih turi bo‘lib, u boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod qilishi mumkin. Mansabni suiiste’mol qilish orqali mulkni talon-toroj qilish yoki poraxo‘rlik jinoyatlari korruptsiya jinoyatchiligining eng xavfli ko‘rinishlari bo‘lib hisoblanadi.

Korrupsianing jamiyatga ta’siri ko‘p jihatdan salbiyidir. Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan hollarda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy salohiyatning to‘liq amalga oshirilishi mumkin emas. Keling, bu ta’sirlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

**Iqtisodiy ta’sir:** Korrupsiya iqtisodiy o‘sishni to‘g‘rilashda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda, masalan, Germaniya va Shvetsiyada, iqtisodiy rivojlanish yuqori darajada bo‘lishi, shaffoflik va korruptsiyaga qarshi qat’iy choralar bilan bog‘liq. Korrupsianing yuqori darajasi investitsiyalarning kelishini cheklaydi va mahalliy biznesni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Bunda xususiy sektor o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishlata olmaydi, natijada ish joylari va daromadlar kamayadi.

**Ijtimoiy ta’sir:** Korrupsiya ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Rivojlangan davlatlar, masalan, Norvegiya va Finlyandiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni teng taqsimlashga intilishadi. Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilganda, resurslar notog‘ri taqsimlanadi va qashshoq qatlamlar zarar ko‘radi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ishonchni yo‘qotadi.

**Siyosiy ta’sir:** Korrupsiya demokratik jarayonlarni zaiflashtiradi. Rivojlangan davlatlar, masalan, Kanada va Avstraliya, fuqarolar ishtiropini rag‘batlantirish va demokratik tizimlarni rivojlantirishga e’tibor qaratishadi. Korrupsiya sababli fuqarolar o‘z ovozlarini berishdan o‘zini chetlatadi va siyosiy jarayonlarga ishonchini yo‘qotadi. Bu, natijada, avtoritar rejimlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

**Psixologik ta’sir:** Korrupsianing ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida jamiyat uchun yuzaga keltirayotgan xavfxatarlarini kamaytirish bo‘yicha qo‘sishmcha ma’lumotlar quyidagilar: Yetakchilikni rag‘batlantirish. Jamiyatning barcha darajalarida etakchi yetakchilikni yo‘Iga qo‘yish ijobiy o‘rnak bo‘lishi va ishbilarmonlik madaniyatini yaratishi mumkin. Shaffoflik, javobgarlik va etakchi qaror qabul qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan rahbarlar korruptsiyaga qarshi kurashishga yordam beradi va xalq ishonchini ilhomlantiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish institutlarini mustahkamlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari, ombudsman idoralari kabi korruptsiyaga qarshi kurashish institutlarining imkoniyatlari va mustaqilligiga investitsiya kiritish korruptsiya holatlarini tergov qilish va sud qilishda ularning samaradorligini oshirishi mumkin. Korrupsianing tarkibiy, huquqiy, madaniy va xulq-atvor omillarini bartaraf etuvchi kompleks va muvofiqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirish jamiyat uchun yuzaga keladigan xavfxatarlarni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasida korruptsiyaga oid jinoyatlar salmog‘ida o‘tgan yilga nisbatan kamayish tendensiyasi kuzatildi. Mamlakatimizda korruptsiyaviy jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha bir qancha Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinayotganligiga qaramasdan, bu turdagи jinoyatlar kamayishning o‘rniga yildan yilga ko‘payib bormoqda edi. Ammo, O‘zbekistonda sodir etilgan korruptsiyaga oid jinoyatlar 2023-yildan boshlab kamayganligini statistik ma’lumotlarni kuzatish asosida guvohi bo‘ldik. Davlatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan Qonunlar va qonunosti hujjatlari, amalga oshirilayotgan islohotlar niyoyat o‘z samarasini ko‘rsata boshladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Бурханов А., Маманов С. Коррупцияга карши ички назорат (комплаенс) тизимини жорий етиш бўйича қўлланма. – Тошкент: Baktria press, 2021 – 60 б.
2. Зуфаров Р.А., Ахрапов Б.Ж., Мирзаев У.М. Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография // Масъул мухаррир: ю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбаев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. – Б. 11.

3. G'Aniyeva, X.A., & Qambarova, M.A. Q. (2023). intellektual salohiyatlari yoshlarni tarbiyalashda o 'qituvchi ijtimoiy intellektining ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 449-454.
4. Ganieva, K.A. (2022). Psychophysiology of addiction of nervous processes and rapidity of recycling of information in youth. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(12), 607-613.
5. Ахматхоновна, F.X. (2022). Шахс ўз-ўзини англашининг ижтимоий психологияк механизлари. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 3(5), 89-95.
6. Ganieva, K. Iqboljon O'g'li, TJ (2022). Social psychological characteristics of the dysfunctional family. Academica Globe: Inderscience Research, 3(7), 71-75.

## MA'NAVIY QADRIYATLAR ORQALI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: TARIX VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI

**Sapayev Valisher Odilbek o'g'li,**  
Ma'mun universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Maqola, korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy qadriyatlarning rolini va bu jarayonda tarixiy tajriba bilan zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishning ahamiyatini urganishga bag'ishlangan. Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asaridan olingen iqtiboslar orqali o'tmishdagi va bugungi kurash usullari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiyaga qarshi kurash, ma'naviy qadriyatlar, tarixiy tajriba, zamonaviy yondashuvlar, Yangi O'zbekiston, adolatli jamiyat, jamoatchilik nazorati, globallashuv, iqtisodiy o'sish, demokratik institutlar, poraxo'rlikka qarshi kurash, ma'naviy immunitet.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ma'naviy qadriyatlar va ularning tarixiy ildizlarining ahamiyatini qayta ko'rib chiqish, zamonaviy globallashuv sharoitida yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Korruptsiya - bu nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va madaniy muammo sifatida ko'riladi, chunki u davlatlar va jamiyatlar o'rtasidagi adolat va tenglik tuyg'usiga jiddiy putur yetkazadi.

Tarixan olganda, turli madaniyatlar va davlatlar korruptsiyaga qarshi turli usullar bilan kurashgan. Misol uchun, Qadimgi Yunoniston va Rimda korruptsiya davlatga xiyonat deb qaralgan va bu jinoyat uchun qattiq jazolar qo'llanilgan. Bu davrlarda jamiyatning etik norma va qadriyatlar korruptsiya holatlariga nisbatan noloyiq harakat sifatida qaralib, ularni qattiq qoralagan.

Zamonaviy dunyoda, ayniqsa globallashuv va transmilliy aloqalar davrida, korruptsiya muammosi yanada murakkablashmoqda. Global iqtisodiyot va moliyaviy tizimlar orqali korruptsiya ko'laming kengayishi, davlatlararo hamkorlikni ta'minlashda yangi qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, hozirgi zamon globallashuv jarayonlarida ma'naviy qadriyatlar orqali korruptsiyaga qarshi kurashish usullarini modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Ma'naviy qadriyatlar, jumladan halollik, adolat, mas'uliyat hissi kabi qadriyatlar korruptsiya holatlariga qarshi samarali kurashning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Bu qadriyatlar, ayniqsa yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi, chunki ular kelajakda jamiyatning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Korruptsiya, ta'magirlilik, byurokratiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotda ham oyog'imizga bolta urmoqda. Bu illatlarga qarshi keng ko'lamli kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurashmas, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas ekanmiz, bu muammolardan xalos bo'lolmasligimizni hayotning o'zi ko'rsatmoqda"<sup>46</sup>. Shavkat Mirziyoevning ta'kidlashicha, korruptsiyaga qarshi kurash faqatgina davlat darajasida emas, balki jamoatchilikning faol ishtiroki bilan ham amalga oshirilishi kerak. Bu muammoga qarshi samarali kurashning kaliti – barcha fuqarolarning ogohligi va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli normativ hujjatlarida "Ma'naviy qadriyatlar va ta'lim korruptsiyaga qarshi samarali vosita sifatida qaraladi, bu esa fuqarolarning korruptsiyaga nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi"<sup>47</sup> deya ta'kidlaniladi. Ma'naviy qadriyatlar va ta'limning korruptsiyaga qarshi kurashda qo'llanilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan juda muhim deb qaraladi. BMTning bu ta'kidlashi asosida, fuqarolarning

<sup>46</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, - 266 b.].

<sup>47</sup> <https://www.unodc.org/>

korruptsiyaga qarshi turish qobiliyati oshiriladi. Ta'lim orqali insonlar korruptsiyani tanib, unga qarshi turish yo'llarini o'rganadilar va bu jarayon ularning qarashlarini o'zgartirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali jamiyatda adolat va halollik g'oyalari ustuvor bo'lishiga hissa qo'shadi.

Shuningdek, "Adolatli jamiyat qurish uchun ma'naviy qadriyatlar korruptsiyaga qarshi kurashda asosiy qurilish toshi hisoblanadi."<sup>48</sup> Adolatli jamiyat qurishda ma'naviy qadriyatlar, fuqarolarning korruptsiyaga nisbatan munosabatini shakllantiradi va bu esa korruptsiya holatlarining kamayishiga olib keladi. Bu tashkilotning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qadriyatlarni yoqlagan va ularni joriy etgan jamiyatlar korruptsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga muvaffaq bo'lishgan.

"Globallashuv davrida korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va milliy qadriyatlarni birlashtirish muhimdir."<sup>49</sup> Globalizatsiya jarayoni davlatlararo chegaralarni yo'q qilmoqda va bu holatda korruptsiya bilan kurashish uchun xalqaro hamkorlik zarur. Milliy qadriyatlar esa har bir davlatning o'ziga xos tomonlarini o'z ichiga oladi va bu qadriyatlar korruptsiyaga qarshi turishda mahalliy jamiyatning turli qatlamlarini jalb etish imkonini beradi. Shunday qilib, global va mahalliy yondashuvlar uyg'unlashganda korruptsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin.

"Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq misollarni insoniyat tarixidan ko'plab keltirish mumkin"<sup>50</sup>. Shavkat Mirziyoevning bu fikrlari jamiyatda ma'naviyat va g'oyaning muhimligini ta'kidlaydi. U ko'rsatgan misollar orqali ma'naviyatsizlik va g'oyasizlikning jamiyatni parchalovchi ta'sirini anglash mumkin. Bu jarayonlar korrupsiya va boshqa ijtimoiy illatlarning paydo bo'lishini tezlashtirib, davlat tizimini zaiflashtiradi. Mirziyoevning ta'kidlashicha, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash orqaligina jamiyat va davlat tizimlarini barqarorlashtirish va korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Bunday yondashuv bilangina jamiyat taraqqiyot va farovonlik sari ilgarilashi mumkin.

"Yer yuzida davlat va jamiyat paydo bo'lganidan buyon odamzot poraxo'rlik va korruptsiyani taraqqiyot va farovonlikning kushandasasi, jamiyatda adolat, tenglik, sog'lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo'lishiga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan va unga qarshi kurashib yashagan"<sup>51</sup>. Prezident Mirziyoevning ta'kidlashicha, poraxo'rlik va korrupsiya ijtimoiy tizimlarning zaifligini ko'rsatib, jamiyatning umumiy taraqqiyot va farovonligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu illatlar adolat, tenglik va halollik kabi tamoyillarga to'siq qo'yadi, bu esa o'z navbatida davlat va jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muallifning fikricha, bu muammolarga qarshi kurash barcha davrlarda davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan va bu kurash faqat qonunlar va qat'iy jazolar bilan emas, balki jamiyatning ma'naviy o'sishi va fuqarolik javobgarligini oshirish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Mirziyoev keltirgan asoslarga ko'ra, poraxo'rlikka qarshi kurashda ta'lim va tarbiyaning roli beqiyos. Ta'lim tizimi orqali yosh avlodga adolat va halollik qadriyatlarini singdirish, ularda korrupsiyaga qarshi tura oladigan ma'naviy immunitetni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, u davlat va jamiyat rahbarlarining shaffofligi va hisobdorligini oshirish, korruption harakatlarga doir ma'lumotlarni oshkor qilish va bunday holatlarga qarshi jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar, jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qiladigan va umumiy farovonlikni ta'minlaydigan barqarorlikni oshirishga qaratilgan.

"Xalq orzu qilgan adolatli jamiyatni qurish uchun korrupsiyani hattoki xoinlik bilan, poraxo'rlni esa yetti avlodigacha - xoinlar bilan tenglashtirish, la'natlash siyosati ham qo'llanilgan"<sup>52</sup>. Prezident Mirziyoevning yozishlarida ko'rsatilganidek, korrupsiyaga qarshi kurashda keskin choralar qo'llanilishi, jamiyatning adolatga bo'lgan intilishini va poraxo'rlikning

<sup>48</sup> Transparency International on Values and Corruption

<sup>49</sup> <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruption>  
<https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruptionbank.org>

<sup>50</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -270 bet

<sup>51</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -413 bet

<sup>52</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O'zbekiston 2021, -415 bet

og‘ir oqibatlarini namoyon etadi. Bunday yondashuv tarixan ham ko‘plab madaniyatlarda kuzatilgan, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda faqat huquqiy jazolarning o‘zi yetarli emasligini, balki ma’naviy va ijtimoiy jazolarning ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Mirziyoev ta’kidlaganidek,adolatli jamiyat qurish uchun korrupsiyani xoinlikka tenglashtirish va poraxo‘rlarni jiddiy la’natlash orqali jamiyatda bu illatga nisbatan kuchli norozilik hissini uyg‘otish maqsad qilingan. Bu yondashuv, jamiyatning har bir a’zosini korrupsiyaga qarshi kurashishga chorlaydi va ularning mas’uliyatini oshiradi, shu bilan birgaadolatli jamiyat qurish yo‘lidagi umumiy maqsadlarga erishishga yordam beradi. Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy qarshilik hamda ijtimoiy-huquqiy choralarning integratsiyasi, jamiyatni poraxo‘rlikdan xoli qilish va uning ijtimoiy tuzilmalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar, shuningdek, fuqarolar orasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga, korrupsiyaga qarshi umumiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, - Toshkent : O‘zbekiston 2021, - 266 b.]
2. <https://www.unodc.org/>
3. Transparency International on Values and Corruption
4. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruption><https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruptionbank.org>
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, - Toshkent O‘zbekiston 2021, -270 bet

## JAMIYATNI KORRUPSIYADAN HIMOYA QILISHDA AHOLI FAOLLIGI VA IQTISODIY INSENTIVLARNING ROLI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

**Matchanova Barno Irkinovna,**

Urganch davlat pedagogika instituti  
Filologiya va tarix fakulteti Milliy g‘oya  
va falsafa kafedrasi dots.v.b.f.f.d.,(PhD)

**O‘razmatova Fotima Maximud qizi**

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi(ma’naviyat asoslari) yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda jamoat ishtirokining ahamiyati, iqtisodiy rag‘batlar va raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilingan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning fikrlariga asoslanib, jamiyatning barcha qatlamlari ushbu jarayonga jalb qilinishi zarurligi ta’kidlanadi. Maqolada, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashdagagi to‘sqliar, jumladan, madaniy stereotiplar, xavfsizlikdan xavotirlar va qonun ustuvorligining kamchiligi kabi muammolar ko‘rib chiqilgan. Maqolaning maqsadi korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun faol jamoat ishtiroki va zamonaviy mexanizmlarning ahamiyatini yoritishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, Jamoat ishtiroki, Iqtisodiy rag‘batlar, Raqamli texnologiyalar, Huquqiy mexanizmlar, Shaffoflik, Hisobdorlik, Madaniy stereotiplar

Korruptsiyaga qarshi kurashish jamiyatdaadolatni ta’minalash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va davlat organlariga ishonchni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatning barcha qatlamlari, xususiy va davlat sektorlari faol ishtirok etishi lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy rag‘batlar, raqamli texnologiyalar vaadolatli huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Bu maqola korrupsiyaga qarshi kurashda jamoat ishtirokining ahamiyati va mavjud to‘sqliarni tahlil qilishga qaratilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Korruptsiyaga qarshi kurashishda axolining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, «halollik vaksinasasi» bilan emlanmas ekan, uz oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”<sup>53</sup>. Ya’ni davlat rahbari O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash jarayonida aholining keng qatlamlari ishtirok etishi va hamjihatlik bilan harakat qilishining

<sup>53</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalkimizning xayot darajasi va sifatini yangi boskichga kutarish - eng muxdm vazifamiz. «O‘zbekiston» NMIU, 2020. -B. 42

zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu g‘oyani amalgga oshirish uchun, jamiyatning har bir a’zosi o‘z mas’uliyatini anglashi va korrupsiyaga qarshi turishi muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyani oldini olish maqsadida ta’lim va tarbiya sohasida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor berish kerak. Jamiyatdagi har bir individ korrupsiyaga qarshi kurashishda faol rol o‘ynashi uchun kerakli ma’lumot va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart. Bu jarayonda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari orqali korrupsiyaga qarshi ta’lim dasturlarini amalgga oshirish va jamoatchilikni korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida xabardor qilish talab etiladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda adolatli huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va bu mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish ham muhimdir. Jazo choralarining adolatli va tizimli ijro etilishi, shuningdek, korruption harakatlar uchun mas’uliyatni kuchaytirish jamiyatda korrupsiyaga nisbatan bardoshlikni pasaytiradi va huquq ustuvorligini mustahkamlaydi. Nihoyat, korrupsiyaga qarshi kurashishda transparentlik va hisobdorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish va ochiq ma’lumotlar tizimlari korruption holatlarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish imkoniyatini kengaytiradi. Hukumat faoliyatining ochiqligi korrupsiyaga qarshi kurashda aholi ishonchini oshiradi va fuqarolarning davlat idoralariga nisbatan mas’uliyatini kuchaytiradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytishicha “Shubhasiz, aholini ragbatlantirish uchun pul tarqatishdan oson yo‘l yo‘q. Lekin ertaga buning oqibati nimalarga olib kelishini hali biror-bir iqtisodchi bashorat qila olmayapti. Bu borada korrupsiya illati avj olish ehtimoli ham yuqori”<sup>54</sup>. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlari O‘zbekistonda iqtisodiy rag‘batlantirishning korrupsiyaga ta’siriga oid muhim masalalarni ko‘tarmoqda. Uning ta’kidlashicha, iqtisodiy rag‘batlarni berish, ya’ni pul tarqatish orqali aholini jaib qilish eng oson yo‘ldir. Biroq bu usulning kelajakdagi oqibatlari hali noma’lum bo‘lib, bu siyosat korrupsiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy rag‘batlantirish choralar, masalan, naqd pul tarqatish yoki subsidiyalar berish, ko‘pincha davlat resurslaridan foydalanishda korrupsiyaning kuchayishiga olib keladi. Agar bunday chora-tadbirlar yetarli nazorat va shaffofiksiz amalga oshirilsa, bu davlat mablag‘larini suviste’ mol qilish holatlarini oshiradi va davlat institutlariga ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Jamiyatni korrupsiyadan himoya qilishda aholi faolligini oshirish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va aholini jaib qilishda duch kelinayotgan asosiy to‘siqlar murakkab va ko‘p qirrali masalalardir. Bu borada samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida turli cheklovlar va muammolar mavjud bo‘lib, ularni tushunish va hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Aholi faolligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar bor

1. **Ta’lim va ogohlilikni oshirish:** Korrupsiyaga qarshi kurashda aholining bilim darajasini oshirish muhimdir. Bu maqsadga erishish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ma’lumot berish kampaniyalari va seminarlar tashkil etilishi mumkin. Bunday tadbirlar aholini korrupsiyaning illatlari va uning jamiyatga salbiy ta’sirlari haqida xabardor qilishga qaratilgan.

2. **Qonunchilikni isloh qilish:** Shaffoflik va hisobdorlikni ta’minalash uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash talab etiladi. Yangi qonunlarni qabul qilish va mavjud qonunlarni takomillashtirish orqali korruption xatti-harakatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish mumkin.

3. **Texnologiya va Innovatsiyalardan Foydalanish:** Raqamli texnologiyalar va elektron hukumat tizimlarini joriy etish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini shaffof va tezkor qilish mumkin. Bu o‘z navbatida, korrupsiya imkoniyatlarini keskin kamaytiradi va jamoatchilik ishonchini oshiradi.

#### Aholini jaib qilishda duch kelinayotgan quyidagi to‘siqlar mavjud.

1. **Madaniy va ijtimoiy cheklovlar:** Ko‘p hollarda korrupsiya mahalliy madaniyatning bir qismi sifatida ko‘riladi va bu uni qabul qilishga olib keladi. Jamiyatning ba’zi qatlamlari korrupsiyani oddiy hodisa sifatida qabul qilishlari mumkin, bu esa ularni korrupsiyaga qarshi faol kurashishga undamaydi.

2. **Xavfsizlik va qo‘rquv:** Korrupsiyani fosh etishdan qo‘rqish yoki shaxsiy xavfsizlikdan xavotirlanish aholini korrupsiyaga qarshi kurashishga faol ishtirot etishdan to‘siq qiladi. Hukumat va jamiyat bu xavotirlarni kamaytirish uchun zarur choralarini ko‘rishi kerak.

<sup>54</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning hayot darajasi va sifatini yangi bosqichga ko‘tarish - eng muhim vazifamiz. «O‘zbekiston» NMIU, 2020. -B. 224

**3. Qonun ustuvorligining yo‘qligi:** Agar fuqarolar huquq tizimiga ishonmasalar va korrupsiyon harakatlar uchun jazo choralari samarali qo‘llanilmasa, ular korrupsiyaga qarshi kurashishga faol qatnashmaydi. Hukumatning adolatli va samarali qonun ijro etish tizimini ta’minlashi juda muhimdir.

Shu tarzda, jamiyatni korrupsiyadan himoya qilishda aholi faolligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va ularning amalga oshirilishidagi to‘siqlarni aniqlash va ularni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat ishtirokining roli va iqtisodiy hamda texnologik yondashuvlarning samaradorligi bo‘yicha hozirgi kunda jahon miqyosida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada turli muassasalar va tashkilotlarning qarashlari jamiyat va davlat organlariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

BMTning Giyohvand Moddalar va Jinoyatlar Bo‘yicha Idorasi tomonidan ta’kidlanishicha, “jamoatning korrupsiyaga qarshi kurashishga ishtiroki, ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirishi mumkin. Bu jamiyatning o‘z hukumati ustidan nazoratini mustahkamlashga va davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi”<sup>55</sup>

Shaffoflik Xalqaro tashkiloti korrupsiyaga qarshi kurashishda iqtisodiy rag‘batlarning muhimligini urg‘ulaydi. Ularning fikricha, iqtisodiy rag‘batlar, jumladan, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy yordamlar, davlat va xususiy sektorni shaffofroq ishlashga undaydi (“Shaffoflik Xalqaro tashkiloti,” 2021). [Batafsil ma’lumot](<https://www.transparency.org/en/reports/economic-incentives-for-combating-corruption>).

Jahon banki raqamli texnologiyalarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. “Raqamlashtirish jarayoni fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida ishtirokini osonlashtiradi va shu bilan birga korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi”<sup>56</sup>.

The Economist jurnali iqtisodiy rag‘batlarning korrupsiyaga qarshi kurashishda qanday samara berishiga oid ma’lumotlar beradi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rag‘batlarni to‘g‘ri qo‘llagan davlatlarda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlik yuqori”<sup>57</sup>.

Harvard Kennedy Maktabining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, “fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida ishtiroki korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Bu ishtirok esa boshqaruvning shaffofligini va samaradorligini oshiradi”<sup>58</sup>.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoat ishtirokining ahamiyati, iqtisodiy rag‘batlar va raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bugungi kunda jahon miqyosida eng samarali vositalar sifatida e’tirof etilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, jamiyatning barcha qatlamlarini ushbu jarayonga jalb qilish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatning bilim darajasini oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi tashabbuslarning samaradorligini oshirish mumkin.

BMT Giyohvand Moddalar va Jinoyatlar Bo‘yicha Idorasi jamoat ishtirokining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyatini alohida urg‘ulagan bo‘lsa, Shaffoflik Xalqaro tashkiloti iqtisodiy rag‘batlarning xususiy va davlat sektorlarida shaffoflikni ta’minlashdagi muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Jahon banki raqamli texnologiyalarning ahamiyatini yoritib, ularning boshqaruv jarayonlarida ishtirokni osonlashtirish va korrupsiyani kamaytirishdagi afzalliklarini ta’kidlaydi. The Economist jurnali esa iqtisodiy rag‘batlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni oshirishini ta’kidlaydi.

Biroq, madaniy stereotiplar, xavfsizlikdan xavotirlar va qonun ustuvorligining kamchiligi jamoatning faol ishtirok etishida to‘siq bo‘lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etishda adolatli huquqiy tizim, jamoat ishonchini oshirishga qaratilgan tadbirlar va raqamli boshqaruv orqali shaffoflikni ta’minlash muhimdir.

<sup>55</sup> "BMT Giyohvand Moddalar va Jinoyatlar Bo‘yicha Idorasi," 2022). [Batafsil ma’lumot] (<https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/public-participation.html>)

<sup>56</sup> "Jahon banki," 2021). [Batafsil ma’lumot] (<https://www.worldbank.org/en/topic/governance/publication/digital-technologies-in-public-governance>)

<sup>57</sup> ("The Economist," 2020). [Батафсил маълумот] (<https://www.economist.com/special-report/2020/using-economic-incentives-to-fight-corruption>).

<sup>58</sup> ("Harvard Kennedy Maktabi," 2021). [Batafsil ma’lumot] (<https://www.hks.harvard.edu/more/policy-topics/public-leadership-governance/c>)

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoat ishtiroki, iqtisodiy rag'batlar va texnologiyalardan samarali foydalanish orqali O'zbekistonda korrupsiyaning oldini olish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. Bu jarayonda barcha qatlamlarning birgalikdagi harakati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning xayot darajasi va sifatini yangi bosqichga ko'tarish - eng muhim vazifamiz. «O'zbekiston» NMTU, 2020. -B. 42
2. "BMT Giyohvand Moddalar va Jinoyatlar Bo'yicha Idorasi," 2022). [Batafsil ma'lumot] (<https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/public-participation.html>)
3. "Jahon banki," 2021). [Batafsil ma'lumot] (<https://www.worldbank.org/en/topic/governance/publication/digital-technologies-in-public-governance>)
4. ("The Economist," 2020). [Батафсил маълумот] (<https://www.economist.com/special-report/2020/using-economic-incentives-to-fight-corruption>)
5. ("Harvard Kennedy Maktabi," 2021). [Batafsil ma'lumot] (<https://www.hks.harvard.edu/more/policy-topics/public-leadership-governance/c>)

## **JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJI UCHUN KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING MUHIMLIGI: O'ZBEKISTON MISOLIDA TAJRIBALAR VA STRATEGIYALAR**

**Matchanova Barno Irkinovna,**

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti Milliy g'oya va falsafa kafedrasi  
dots. v.b.-f.f.d. (PhD)

**Atoxonova Dilfuza Botirboy qizi,**

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish milliy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatning barcha qatlamlari orasida adolatga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosati asosida davlat boshqaruvi tizimining shaffofligini oshirish va korrupsiyaga barham berish maqsad qilingan. Maqolada davlat rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirgan islohotlari va ularning samaradorligini tahlil qilinadi.

Agar farzandlarimiz halol bo‘lib voyaga yetsa jamoatchilik o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega, hurmatga sazovor bo‘ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko‘paysa, o‘scha yerda baxt va farovonlik hukm suradi. Halollikning mavjudligi fidoyilik, rostgo‘ylik bilan shartlanadi. Doimo halollik qilishi yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so‘z bilan ish birligiga erishishi kerak. Shu bois halol inson jamiyat uchun uni yuksalishi uchun ham o‘zining farovonligiga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Farzandlarimizni halol tarbiya berishimiz uchun amaliy quyidagi tavsiyalarini beramiz:

Ota-ona farzandlarini halol rizq bilan rizqlantirish lozimligi;

Halollikning ahamiyati va uni harom narsadan farqlantirishimiz kerak;

Maktabda mahallada tarbiyani hamkorlikda amalga oshirish;

Mehnatni va halol rizqning qadrini tushuntirishimiz;

Halol va harom masalasida diniy tomondan ham, kerakli ma’lumotlar berishimiz;

Bollalarga halol mehnat qilish va uning natijasida halol rizq topish qanchalik muhim ekanini o‘rgatish kerak. Zero har qanday muvaffaqiyat faqat halol va halol mehnat orqali kelsa inson yanada go‘zallahadi tarbiyasi ham go‘zal bo‘ladi.

<sup>65</sup> Qur'on Karim. Baqara surasi. 168 oyat

Inson hayoti davomida ikki yo‘lda bo‘ladi. Biri to‘g‘ri, biri egri, biri halol va yana biri esa xarom. Umr davomida kishini juz’iy tanlash ixtiyori o‘zida ekan albatta, kam bo‘lsa ham halol bo‘lsin. Chunki halollik har doim baraka eshigini ochuvchi kalit hisoblangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- Umumiy o‘rtta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/>
- Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur.

## JAMIYAT RIVOJIGA G‘OV BO‘LUVCHI ILLAT

**Usmonova Mohidil,**  
Qardu talabasi  
mohidilusmonova365@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakat taraqqiyotining kushandasini bo‘lgan korrupsiya va uning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Xususan, mamlakatimizda va jahonda ushbu salbiy illatga qarshi amalga oshirilgan amaliy ishlari haqida so‘z yuritiladi. Bunday holatlarning kuzatilmasligi uchun bir nechta yechimlar taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, jamiyat, illat, antikorruptsiya haftaligi, taraqqiyot, shaxsiy manfaatlar.

Hamma zamonda ham o‘z dolzarbliji va ahamiyatini yo‘qotmaydigan masalalar borki, jamiyat taraqqiyotining kushandasini bo‘lgan korrupsiya ana shunday muammolar sirasiga kiradi.Korrupsiya bugun yoki kecha paydo bo‘lgan emas.Uning vujudga kelishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.Qaysi zamon va makonda bo‘lmisin, bu illat jamiyatni ichdan yemirib, taraqqiyotga to‘sinqilik qilish bilan bir qatorda insonlar ongiga, dunyoqarashiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Hattoki, dinimizda ham poraxo‘rlik, ta’magirlilik keskin qoralanadi. Qur’oni Karimdagagi quyidagi misralarga e’tibor qaratsak: “Bir- birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang.Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyish uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang”.(Baqara surasi, 188)

Korrupsiya atamasi 2017- yil 4- yanvardan kuchga kirgan 6 bob 24 moddadan iborat “Korrupsiyaga qarshi kurash” to‘g‘risidagi qonunning 3- moddasida quyidagicha izohlanadi: “Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanish , xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”. Yuqoridaqiz izohdan ham ko‘rinadiki, korrupsiya markazida inson omili va uning manfaatlarini yotadi. Har yili dunyo miqyosida korrupsiya holatlari eng ko‘p kuzatilgan davlatlar reytingi tuziladi. BMT tashkiloti ham bu masalada qator nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirmoqda va bu jarayon hozirgi kungacha ham davom etib kelyapti. Birgina yurtimiz misolida oladigan bo‘lsak, har yili 9- dekabr ”Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, tegishli vazirlik va idoralar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 24- noyabrdan 9- dekabrga qadar Antikorruptsiya haftaligi o‘tkaziladi va joylarda tushuntirish ishlari olib boriladi.Bu ishlardan maqsad yurtimiz rivoji va xalqimiz farovonligini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda o‘z mansabini suiste’mol qilayotgan va korrupsion holatlarga sabab bo‘layotgan shaxslarni deyarli barcha sohada uchratishimiz mumkin.Ijtimoiy sohalarda ham, iqtisodiy sohalarda ham bunday holatlari kuzatilyapti. Bejizga, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev korrupsiyani “mamlakat rivojiga to‘sinq bo‘layotgan yovuz illat” deb baholamaganlar. Negaki, korrupsiyaga qarshi kurashish inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bu kabi holatlarning oldini olish va kelajagi buyuk davlatni qurish uchun , bиринчи galda, yosh avlod ongida korrupsiya qarshi immunitet shakllantirish kerak.Ya’ni, оммавиу ахборот виситалари орқали бу каби иллатлarning salbiy oqibatlari aks etgan maxsus reportajlar tayyorlash, faqatgina Antikorruptsiya haftaligida emas, balki butun yil davomida mактаб, kollej va олий о‘quv yurtlari talabalari bilan ochiq muloqotlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.Chunki ma’naviy jihatdan qurollangan har qanday inson hech qachon bu kabi holatlarni sodir etmaydi, aksincha, unga qarshi

kurashuvchi bo‘ladi. Shuningdek, korruption holatlarning guvohi bo‘lgan yoxud bevosita shu vaziyatga duch kelgan insonlar uchun anonim murojaat bo‘ylari yoki saytlarning yaratilishi ham bu kabi vaziyatlarni oldini olishda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya qarshi kurashish har bir fuqaroning, ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e’tiqodiga aylanishi kerak. Zero, qonun talablarining to‘laqonli amalga oshirilishi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidining zararli oqibatlarini doimo esda tutmog‘i va unga qarshi kurashmog‘i shart. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonni qurish va Uchinchi Renessansni yaratish uchun biz yoshlar mamlakat taraqqiyotiga g‘ov bo‘libchi korrupsiya illatiga yo‘q deyishimiz va unga qarshi bor kuchimiz bilan kurashishimiz lozim va darkor.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev: Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent ; O‘zbekiston 2017 (110- bet)
2. <https://lex.uz/docs/>

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ: АДОЛАТЛИ ВА ШАФФОФ ҚАБУЛ ЖАРАЁНЛАРИ

**Б.Ганиев,**

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим,  
фан ва инновациялар вазирлиги  
хузуридаги Билим ва малакаларни  
баҳолаш агентлиги Комплаенс  
назорат бўлими маъсули

**Ш.Хонимқулов,**

Билим ва малакаларни  
баҳолаш агентлиги Қашқадарё вилоят  
бўлими мутахассиси

**Аннотация.** Мақолада олий таълим тизимидағи ислоҳотлар хусусан, қабул жараёнидаги ўзгаришлар мазмун-моҳияти баён этилган. Эришилган ютуқлар ва уларнинг натижаларига оид фикр-мулоҳазлар асосланган.

**Калим сўзлар:** коррупция, ислоҳот, олий таълим, қабул жараёни, Билим ва малака-ларнинг боҳолаш агентлиги.

Бугунги кунда жаҳоннинг деярли ҳар бир мамлакатида коррупция ҳолатларига қайсиdir даражада дуч келиш мумкин. Коррупсия иллати давлатнинг турли соҳаларига, хусусан, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий жабхаларида амалга оширилаётган ислоҳотларга ҳамда мамлакатнинг халқаро майдондаги имиджи ва инвестициявий жозибадорлигига салбий таъсир кўрсатиши шубҳасизdir. Жонажон Ўзбекистонимизда коррупсиянинг ҳар қандай кўринишларига чек қўйиш мақсадида қаттиқ кураш олиб борилмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг 2020-йил 24-январ куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномасида та’кидлаганидек, “Жамиятимизда коррупсия иллати ўзининг турли кўринишлари билан тараққиётимизга ғов бўлмоқда. Бу ёвуз балонинг олдини олмасак, ҳақиқий ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яратиб бўлмайди, умуман, жамиятнинг бирорта тармоғи ривожланмайди”.

Ўзбекистон Республикаси Олий та’лим, фан ва инновациялар вазирлиги хузуридаги Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг коррупсияга қарши курашиш соҳасидаги 2023-йил якунлари бўйича фаолияти “яхши” баҳоланди, бунда ташкилотда жорий этилган “комплаенс-назорат тизими”нинг аҳамияти катта.

Агенлиқда комплаенс-назорат тизими самарали жорий этиш мақсадида Коррупсияга қарши курашиш агентлигининг тавсиялари асосида ҳамда ИСО 37001:2016 коррупсияга қарши стандартлардан келиб чиқиб, ташкилотда коррупсияга қарши курашиш борасидаги ишларни тартибга солувчи 12 та ички норматив-хуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилиб, амалда жорий этилди.

Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлигида ислоҳатлар натижасида 2000 йилда 5 хил турдаги тестлар ўтказилган бўлса 2017 йилда 15 хил, 2018 йилда 29 хил, 2019 йилда 30 хил, 2021 йилга келиб 35 хил, 2022 йилга келиб 41 хил, 2023 йилга келиб 50 дан ортиқ турдаги тестларни ўтказилиш хам Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги фаолиятини давлат ва жамият хаётида муҳимлигининг кўрсатади. Албатта тест жараёнларинингadolatli ва шафоф ўтиши биргини Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги ходимлари билан эмас бунга давлат хокимияти органлари айникса жамоатчилик назорати муҳим аҳамият касб этади.

Кенг жамоатчилик ва мутахассисларнинг таклиф истакларидан келиб чиқиб Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлигида тестологлар фаолиятини самарали ишлаши тизимини ислоҳ қилиб натижада тест топшириқларида ўзига хос янгиликларни жорий қилди. Натижада 2020 йилдан бошлаб тест топшириқларини такомиллаштиришда янгиликлар мунтаззам жорий этиб борилмоқда.

Ёшлиарнинг билим салоҳиятига қараб олий таълим муассасаларига танлаб олиш учун рўйхатдан ўтишда таълим йўналишини танлаш имконияти ҳам оширилиб борилаётганлиги кенг жамоатчилик тамонидан эътироф этилмоқда.

- 2018 йилгача 1 та таълим йўналиши
- 2019 йил 3 та таълим йўналиши
- 2020-2021 йиллар 5 та таълим йўналиши

“Давлат гранти”, “Давлат гранти ва шартнома” асосида ўқишларини танлаш имкониятларининг 2021 йилдан берилганлиги, 2024-2025 ўкув йилидан бошлаб эса «аввал тест кейин танлов» тизимида ўтилиши ёшлиар учун катта имконият бўлиш билан биргаadolatli ва шафоф тизимни анада ривожлантиришга эришилди ва бу жараён дастлабки йилнинг ўзида халқимиз ва кўп сонли абитуриентларимиз томонидан ижобий қабул қилинди.

Бугунги кунда мамлакатимизда ахборот технологияларининг давлат ва жамият ҳаётига кенг жалб этилаётган бир вақтда Билим ва малакаларнинг боҳолаш агентлиги томонидан 2020-2021 йилларда ишлаб чиқилган ва такомиллаштирилган, жумладан;

- Диагностик тест синовлари учун талабгорларни рўйхатга олиш тизими
- Абитуриентлар маълумотлари ва аризаларини электрон рўйхатга олиш тизими
- ОТМлар учун паспорт ёшига етмаганларни рўйхатга олиш тизими
- Вазирлик ва идоралардан имтиёзга эга абитуриентлар базасини шакллантириш тизими
- Чет тилидан сертификатга эга абитуриентлар маълумотларини текшириш тизими
- Ҳарбий олий таълим муассасалари учун номзодларни рўйхатга олиш тизими
- Тест синовлари жараёни учун гуруҳ назоратчиларини шакллантириш тизими
- Махсус сиртқи таълим шакли учун номзодларни рўйхатга олиш тизими
- Ҳарбий лицейлар ва Темурбеклар мактабларига номзодларни рўйхатга олиш тизими
- Адлия вазирлигининг юридик техникумларига номзодларни рўйхатга олиш тизими
- Тошкент давлат юридик университети академик лицейига номзодларни рўйхатга олиш тизими
- Чет тили имтиҳонларига талабгорларни рўйхатга олиш тизими

Миллий тест тизими учун номзодларни рўйхатга олиш ахборот тизимлари жорий этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бошқаруви соҳасида коррупсиявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизmlарини такомиллаштириш ва ушбу соҳада жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022-йил 11-майдаги ПҚ-240-сон қарори ижросини та’минлаш мақсадида Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигида коррупсиявий хавф-хатарларни баҳолаш Услубиётига мувофиқ агентликка юклangan барча функциялар бўйича коррупцион хавф-хатарлар таҳлил қилинди.

Бугунги кунда Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги кўпгина халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатган бўлиб, фаолият сифатини оширишга, тестология соҳасини ривожлантиришга, баҳолаш тизимини янадаadolatli ва шафоф бўлишига эришилмоқда. Буни Германиянинг Тошкент шаҳридаги Гёте институти (Goethe институт), Россиянинг Педагогик ўлчовлар федерал институти (FPI), АҚШнинг Эдусатионал Тестинг Сервисе (ETS) ташкилоти ва «SCANTRON» корпорацияси, Кореянинг Корея таълими ва дастурларини баҳолаш институти, Япониянинг Университетларга кириш имтиҳонларини ўтказиш миллий маркази, Туркиянинг Баҳолаш, танлаш ва жойлаштириш маркази (OSYM), Буюк Британиянинг Норвич тилни ўрганиш интститути (NILE), Британия Кенгаши (British Council),

Cambridge Assessment English ва бошқа шу каби халқаро ташкилотлар билан яқындан ҳамкорлик үрнатганида күриш мүмкін.

Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги халқаро фаолият доирасини кенгайтириш мақсадида яна бир йирик халқаро ташкилот – АЛЬТЕ билан ҳамкорликни йўлга қўйди.

ALTE Европа ва бошқа мамлакатларда лингвистик қобилиятни адолатли ва аниқ баҳолашга кўмаклашиш учун ҳамкорликда фаолият олиб борадиган тест олишга масъулларнинг бирлашмаси бўлиб, 1989 йилда Кембридж университети (Буюк Британия) ва Универсиадад де Саламанса (Испания) томонидан ташкил этилган. У Европа тиллари бўйича имтиҳонларнинг сифатли аудиторлик тизимини бошқаради.

Бугунги кунда ALTE ташкилоти таркибида 25 та Европа тилларини баҳоловчи 33 та тўлиқ аъзо ташкилот, шунингдек, 68 та ҳамкор ташкилот, 15 нафар юқори малакали эксперталар ва дунё бўйлаб 800 дан ортиқ мутахассислар мавжуд.

Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги ALTE ташкилотининг расмий ҳамкорига айланди ва келажакда АЛЬТЕ ташкилоти билан ҳамкорликда бир нечта истиқболли вазифаларни амалга оширишни режалаштирган. Шуни эслатиш жоизки, ривожланган мамлакатлар эътиборидаги бу ташкилоти билан ҳамкорлик Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги учун баҳолаш тизимини янада такомиллаштиришга хизмат қиласди.

Билим ва малакаларнинг боҳалаш агентлиги ALTE ташкилотининг ҳамкорига айланиши тўлиқ расмий аъзолигини қўлга киритишнинг биринчи босқичи ҳисобланади. ALTE нинг халқаро сифат белгисини (Q-Марк) қўлга киритиш ва тўлиқ расмий аъзосига айланиш жуда мураккаб жараён бўлиб, кейинги босқичга ўтиш учун камида 1 йил давомида унинг расмий ҳамкори сифатида фаолият олиб бориш лозим. Шунингдек, халқаро ўрганиш ва текширувлардан ўтиш каби бир қатор талабларни бажариш керак. Шундан сўнг, Давлат тест маркази томонидан бериладиган чет тили бўйича миллий сертификат хорижий давлатларнинг таълим ташкилотлари томонидан тан олинишига еришилади.

Таҳлил натижаларига кўра, Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигига қонунчилик ҳужжатлари билан юклатилган 46 та вазифа ва функсиялардан 30 таси бўйича хавф-хатар даражаси “паст” ва қолган функсиялари бўйича “ўрта” даражада баҳоланди ҳамда уларни камайтириш юзасидан тегишли чоралар белгиланди.

Бунда Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги фаолиятида коррупциявий хавф-хатарларни умуман олганда паст баҳоланиши агентлик томонидан тест синовларини ўтказиш бўйича давлат хизматларини қўрсатиш, харидларни амалга ошириш ва ишга қабул қилиш бўйича қарорларнинг коллегиал тартибда қабул қилиниши, фаолиятнинг тўлиқ норматив-хуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинганлиги ва иш жараёнларининг автоматлаштириш чоралари кўрилгани билан изоҳланади.

Баҳолаш натижалари асосида шакллантирилган Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг Коррупциявий хавф-хатарлар харитаси “Е-антикор” электрон платформасига юкланиб, кенг жамоатчилик муҳокамасига қўйилди. Электрон платформа орқали шакллантирилган Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг коррупсияга қарши курашиш чора-тадбирлари тасдиқланди.

Мазкур чора-тадбирлар ижроси натижасида, талабгорларнинг билим ва малакаларини баҳолаш тест синовларини босқичма-босқич сунъий интеллект ёрдамида, инсон омилини аралаштирган ҳолда ўтказиш йўлга қўйилмоқда. Курилиш ва уй-жой коммунал ҳўжалик вазирлиги хузуридаги Компетенцияни ривожлантириш институти тингловчилари учун ўтказиладиган тест синови, “Ел-юрт умиди” жамғармасининг очиқ стипендия танлови бўйича тест синови, хорижий мамлакатларда берилган та’лим тўғрисидаги ҳужжатларни тан олиш бўйича тест синовлари, чет тилини билиш ва эгаллаш даражасини баҳолаш СЕФР имтиҳонларида гапириш кўникмасини аниқлаш имтиҳонлари шулар жумласидандир.

Амалдаги норматив-хуқуқий ҳужжат асосида агентлика манфаатлар тўқнашувини тартибга солиши механизми йўлга қўйилди. Ушбу тизим потенсиал манфаатлар тўқнашуви ҳақида хабар бериш, ишга кириш ёки ротация вақтида манфаатлар тўқнашувини аниқлаш ҳамда манфаатлар тўқнашувини ошкор қилиш бўйича йиллик декларацияларни тўлдириш механизмларини ўз ичига олади.

Мазкур тизим асосидаги таҳлиллар натижасида манфаатлар тўқнашуви ҳолатларининг олди олинди. Агентлик тизими бўйича умумлаштирилган “Манфаатлар тўқнашуви реестри”

шакллантирилиб, тегишли ма'лумотлар “Е-антикор.уз” электрон платформасига жойлаштириб борилмоқда.

Тизимда коррупсияга қарши кескин ва муросасиз курашиш, турли бюрократик ва инсон омили билан боғлиқ тўсиқларга барҳам беришга қаратилган қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, агентлик қошида манфаатлар тўқнашуви ва коррупсия ҳолатлари бўйича тезкор хабар бериш, хато-камчиликларнинг ўз вактида олдини олиш ва уларни бартараф этиш мақсадида республика бўйича ягона 1195 рақами «Ишонч телефони» фаолияти йўлга қўйилган.

Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги томонидан хизмат кўрсатиш бўйича хўжалик субектлари бўйича 159 та шартнома тузилган бўлиб, барчасига коррупсияга қарши қоидалар киритилган.

Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги фаолияти билан боғлиқ барча маълумотлар “Очиқлик индекси” бўйича ташкилотнинг расмий веб-сайтига жойлаштирилиб, янгилаб борилиши таъминланмоқда.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак ёшларнинг олий таълимга кириш масаласи уларнинг билим ва салоҳияти бўйича тегишли таълим муассасаларини танлашда коррупцион ҳолатларни юзага келтирмаслик Билим ва малакаларнинг боҳолаш агентлигининг умуман олганда давлатимизнинг асосий вазифаларидан бири бўлиб мамлакат тараққиёти йўлида давлат ва жамият тузилмалари билан яқдил. Зоро, иқтидорли ва салоҳиятли ёшларни давлат ва жамият манфатларига уйғунлаштиришга эришган давлатларда тараққиёт таъминланган.

## МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИГА ЭЪТИБОР-ЖАМИЯТ МАЊНАВИЙ ПОКЛАНИШИ ВА ҲАЛОЛЛИКНИНГ МУҲИМ БЕЛГИСИ

З. Фозиев,  
ЖДПУ катта ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада жамият мањнавиятини юксалтириш, ҳалоллик ва покликга оид мањнавий фазилатларнинг соғлом ижтимоий-мањнавий мухитни шакллантириш борасидаги фикрлар таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Мустақиллик, мањнавият, қадрият, поклик, ҳалоллик, тараққиёт.

Мустақиллик мамлакатни том мањнода соғломлаштириш, миллий бир бутунликни таъминлаш, мањнавий яхлитликни юзага келтириш масаласини энг долзарб вазифаси сифатида белгилаб берди. Бугунги куннинг ҳаётий зарурияти ўз халқимиз феъл атвори, интилишларини англашга жиҳдий эътибор қаратишга ундайди.

Демак, замонавий таълим-тарбия тизими ва миллий, диний ҳамда ахлоқий мерос асосидаги гоявий уйғунлик аждодлар меросини ўрганишнинг амалий аҳамиятини асослаб беради.

Аслида эса ўтмишни идеалларга ёки ўтмишдаги адолатли ижтимоий тенглик, мањнавий поклик замонларига қайтиш-инқилобий ҳалқ ҳаракатларининг кўпчилигига барчамиз шоҳидмиз.

Ўтмишдаги яхши замонларга қайтишига орзу қилиш, аслида ангиланишга бўлган эҳтиёжнинг оқибатидир. Бу муайян даражада тарихий тараққиётнинг бурилиш моментлари, вақтларига хос қонуний жараёндир<sup>66</sup>.

Халқимиз ва умуминсоният томонидан яратилган илмий-фалсафий қарашлар, тарихий, бадиий санъат асарлари ва диний амоллар; урф-одатлар, анъаналар, байрамлар, маросимлар; инсонпарварлик, ватанпарвалик, меҳнатсеварлик, яхшилик, бурч, виждон, тўғрилик, ҳалоллик каби ахлоқий меъёрлар инсонни мањнавий камолотга элтувчи мањнавий-ахлоқий қадриятлар саналади.

Ўзбек ҳалқининг меҳнатсеварлик, ерга чексиз мұхабbat, меҳмондўстлик, катта ўшдагиларни ҳурмат қилиш, нонни, сувни эъзозлаш билан боғлиқ бўлган жуда кўп қадимий мањнавий қадриятлар чуқур ҳаётий мазмунга эга бўлиб бугунги кунда мањнавий баркамол инсонларни тарбиялашда ҳам мұхим аҳамият касб этмоқда.

<sup>66</sup> Жакбаров М. IX-XII аср Мовароуннаҳр фалсафий фикрида ижтимоий идеал ва комил инсон муаммоси. Фалсафа фанлари доктори илмий даражаси учун диссертация. Т.: 2000, 50-бет.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов бу борадаги асосий вазифаларни белгилаб, қўйдаги фикрларни айтган эди: «Мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ аждодларимиз томонидан қўп асрлар давомида яратиб келинган гоят улкан, бебаҳо маънавий ва маданий меросни тиклаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган ниҳоятда муҳим вазифа бўлиб қолди.

Биз маънавий қадриятилизни тиклашни миллий ўзликни англашнинг ўсишидан, халқнинг маънавий сарчашмаларига, унинг илдизларига қайтишдан иборат узвий, табиий жараён деб ҳисоблаймиз»<sup>67</sup>.

Истиқлол туфайли халқимиз бой маънавий меросимиз ва қадриятларимизнинг илдизларига назар ташлаш, тўлақонли суратда ўрганиш, улар орқали ёшларимиз онги ва шуурини, маънавиятини бойитиш имконига эга бўлдик. Ислом Каримов таъкидлаганидек, маънавият «...Инсонга она сути, ота намунаси, аждодлар ўғити билан бирга сингади»<sup>68</sup>. Биринчи Президентимизнинг мазкур сўзларида чуқур фалсафий фикрлар мужассам.

Диний қадриятларимиз ҳам инсон маънавий камолотнинг муҳим омилларидан биридир. Асрлар мобайнида халқимизнинг маънавияти, инсонпарварлик,adolatparvarlik, маърифатпарварлик каби эзгу фазилатлари Шарқ фалсафаси ва ислом диний таълимоти билан узвий равишда ривожланиб келгани ҳозирги кунда ҳаммамизга аён. Вазифа эса халқимизни, хусусан ёшларимизни маънавий камолот чўққиларига етказиша исломий қадриятлардан ҳам бекаму кўст фойдаланишдан иборат.

Биринчи Президент Ислом Каримов доимо қайта-қайта таъкидлаганидек: «Биз ислом дини ота-боболаримиз дини эканини, у биз учун ҳам иймон, ҳам ахлоқ, ҳам диёнат, ҳам маърифат эканини доимо юксак қадрлаймиз.... Динга хурмат ва эътиқод биз учун ўлмас қадриятдир»<sup>69</sup>.

Диний қадриятларимиз инсон фаолиятини оқилона бошқариш, жамият ҳаётида тинчлик,adolat, инсонпарварлик, халоллик, диёнатлилик, инсофилик, меҳр-шафқатлилик каби кўплаб инсоний фазилатларни инсон қалби ва руҳиятида қарор топтиришга йўғрилган. Уларнинг ҳар бири инсон қалбida чуқур томир отган, руҳиятини харакатга келтирадиган маънавиятдир.

Ўзбек халқининг ҳозирги миллий маънавияти ва қадриятлари ўтмиш миллий маънавиятининг давоми бўлиб, уларга дўстлик, ўртоқлик, меҳмондўстлик, одамгарчилик, инсонпарварлик, ахлоқий теранлик, тадбиркорлик, фазилатлилик, саҳийлик, хушмуомалалик, жамоа ичида ўзини тута билишлик, она-юрт ва халқига муҳаббатлилик, ростгуйлик, ота-она ва катталарни хурмат қилиш, меҳнатеварлик ва бошқа миллий, маънавий, ахлоқий фазилатлар киради.

Миллий мустақиллик туфайли жамиятимизда миллий маънавий покланиш, ўнгланиш, тикланиш жараёнлари юз берди.

Ҳозирда ватанпарварлик, инсонпарварлик, миллатпарварлик руҳида тарбиялаш, миллий ғурур туйғусини кучайтириш, имон, виждон, поклик, халоллик, меҳнатеварлик, ишбилар-монлик сингари ҳислатларни шакллантириш, мустақилликнинг онгли фидоийсига айлан-тириш ҳозирги кундаги миллий маънавий тарбия ишининг асосий мақсадидир.

Миллий тикланиш жуда кенг, мураккаб тарихий жараён былиб, у миллатимиз ҳаётининг ҳамма соҳаларини : иқтисодиётни ҳам, сиёсий фаолиятни ҳам, маънавиятни ҳам, илм-фан, тил, тарих, урф-одатлар, ҳунармандчилик, меъморчиликни ҳам, инсон камолоти билан бевосита даҳлдор барча масалаларни ҳам ўз ичига қамраб олади.

Миллий тикланишга бирданига эришиб бўлмайди. Миллий тикланиш узоқ давом этадиган, қўп йилларни қамраб оладиган мураккаб жараёндир.

Ҳозирда Ўзбекистон шу йўлдан бормоқда ва бизнинг руҳиятимиз, туйғуларимиз, энг нозик ҳиссиётларимиз тиниқлашмоқда, турли чангу ғуборлардан тозаланмоқда. Зиммамиизда

<sup>67</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1977, 137-бет.

<sup>68</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992, 71-бет.

<sup>69</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард максадимиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 20-21-бетлар.

йиллар давомида йул қўйилган хатоликлар ва келажак олдидағи қарздорликнинг улкан, залворли юки бор.

**Поклик**-бу зеҳн ва идрок тиниқлигидир. Маънавий поклик бу ахлоқ зиёсидир. Унда рух шаффоғлиги, сезги, туйгулари, юксакдир. Покиза ақл инсонни айб ва камчиликлардан қутқаради. Руҳий ҳаётга рағбатлантиради, шодлик келтиради.

Киши ҳаётида ахлоқий поклик биринчи даражали вазифадир. Ахлоқий поклик таъма ва молпарастликка мутлақо зиддир.

Термизий ривоят қиласидар: «Оллоҳ покдир, покни севади ва озодаликни яхши кўради ҳамда куч саховатлидир. Саховатликни севади ва марҳаматлидир, марҳамат унга маҳбубдир...».

Покизаликнинг ҳар бир даврнинг, ҳар бир замоннинг талаби бўлган. Поклик ва тозалик ўзбек ҳалқи онги, ғурурига сингиб кетган. Ҳалқимизнинг асрий анъаналарини давом эттириб, поклик деган ҳаёт тарзи, турмуш қечириш, шууримизни, онгимизни тазиқлардан холос этиб, янги замон талабига мос пок инсон бўлиб яшашга амал қилишимиз керак.

Юқоридаги ҳадис ва фикрларда ахлоқий покликга оид миллний ва умуминсоний маънавий фазилатлар улуғланган. Агар миллний маънавият бўлмаса, умуминсоний маънавият йўқ, умуминсоний маънавиятларсиз эса ҳозирги замон илғор миллатлари йўқ. Миллатлар умумжаҳон, умумбашарий маънавиятнинг яратувчиларидир.

Шу ўринда умуминсоний маънавият – бутун инсониятга, жаҳон ҳалқларига тегишли бўлган маънавий бойликлар эканлиги эътиборлидир. Умуминсоний маънавият узоқ ва яқин ўтмишдаги ҳозирда эса маънавий жиҳатдан жуда қимматли, инсон қалбидан ўчмас из қолдирадиган, мангу яшайдиган, инсоният ижтимоий манфаати, эҳтиёжи учун хизмат қиласидиган, уларни эзгуликка йуллайдиган маънавий бойликлардир. Умуминсоний маънавий бойликларга эса илм-фан, жумладан фалсафий тафаккур ютуқлари, адабиёт ва санъат асарлари, қашфиёт ва ихтиrolар, маънавият, маданият дурдоналари, хурфикрилик, умуминсоний ахлоқий меъёрлар ва бошқалар киради.

Умуминсоний маънавият ўз ижобий аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайди. Олтин зангламас, қуёш қораймас деганларидек, умуминсоний маънавият ҳам доим қадимиј ва навқирон бўлиб тураверади. Улар умумбашарий маънавият деб ҳам юритилади. Инсон озодалиги, саломатлиги, ҳар бир шахснинг яшаш, билим олиш, кексайгандা ижтимоий ҳимояланиш имкониятлари ва у хақда ғамхурлик қилиш каби маънавий масъулият аҳамиятини доим сақлаб қолаверади. Адолат, тенглик, аҳил қўшничилик каби маънавий қадриятлар асрлар оша яшаб келмоқда, уни бутун инсоният авайлаб-асраб келмоқда. Мехнатсеварлик, эзгулик, яхшилик қилиш, тинчлик, дўстлик, ҳалоллик, ватанпарварлик ва бошқалар ҳам умуминсоний маънавият саналиб, у ҳар бир ҳалқ, миллатда ўзига хос равишда номоён бўлади.

Ўзидан катталарни, ота ва онани ҳурмат қилиш, фарзандлар ҳақида ғамхўрлик қилиш ҳам умуминсоний маънавий жиҳатлари билан ажralиб туришини ёддан чиқармаслик керак. Виждон, бурч, байналминалчилик ҳам умуминсоний маънавият тизимидан ўрин олгандир.

Умуминсоний маънавиятда биз миллний маънавиятнинг энг олий жаноб, энг юксак кўрсаткичларининг умумжаҳон миқёсида мужассамлашган бирлигини кўрамиз.

Ўз тараққиёти учун ҳар бир миллат умуминсоний маънавият бойликларидан, ҳази-насидан фойдаланиши, унга суяниши тарихий заруратдир. Бунингиз замонавий илғор миллат ҳақида орзу қилиш мумкин эмас. Умуминсоний маънавият бойликларидан фойдаланиш миллний чекланганлик қобигидан четга чиқишига, оламни кенгрөқ қуриш ва кузатишига ундайди. Умумжаҳон умуминсоний маънавият эса ҳозирги замон илғор миллатлари тараққиётининг замини таянчи ва негизидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Жакбаров М. IX-XII аср Мовароуннахр фалсафий фикрида ижтимоий идеал ва комил инсон муаммоси. Фалсафа фанлари доктори илмий даражаси учун диссертация. Т.: 2000, 50-бет.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1977, 137-бет.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992, 71-бет.
4. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 20-21-бетлар.

## ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ КУШАНДАСИ

Р.Бойматов,

Қарши давлат университети,  
фалсафа ва социология кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада коррупция мамлакатнинг ижтимоий-иктисодий тараққиётини издан чиқарадиган, маънавий-ахлоқий асосларини емирадиган иллат эканлиги ҳамда унга қарши самарали курашиш учун жамиятнинг барча гурӯҳ ва қатламларининг ҳамкорлиги муҳим аҳамит касб этиши таҳлил қилинганд.

**Таянч сўзлар:** пораҳўрлик, бюджет маблағлари, талон-тарож, мансаб ваколатлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, сиёсий иродада, ҳуқуқий маданият, муросасизлик мухити.

Асосан мансабдорларнинг пораҳўрлиги, мансаб ваколатларини суистеъмол қилиши ва бюджет маблағларини талон-тарож қилиши коррупция деб аталади ҳамда аксарият давлатларда коррупция жиноят ҳисобланади.

Коррупция – жамият барқарорлигини издан чиқарувчи, унинг тараққиётига энг хатарли тўсиқ бўлувчи балою-оғат эканлиги дунё мамлакатлари тажрибасида жуда кўп марта ўз исботини топган ҳақиқатлардан бири ҳисобланади. Унинг инсоният жамиятнинг барқарор тараққиётига кўрсатган ва кўрсатаётган салбий оқибатларининг кўламини тасаввур қилиш анчагина мушқул. Энг ачинарлиси эса, бизнинг жамиятимиз ҳам холи эмас ва коррупция мамлакат хавфсизлигига таҳдид сифатида баҳоланмоқда.

Юртининг обод бўлишини, халқининг фаровон яшашини мақсад қилган давлатлар қадим даврлардан бошлаб коррупцияга қарши турли йўллар билан курашиб келади. Тарихий манбаларда қайд этилишича, коррупцияга қарши курашган биринчи давлат Шумер давлати бўлган экан. Шундан буён ўтган асрлар давомида коррупцион жиноятларни фош қилиш ва унга қарши кескин курашиш бўйича дунё миқёсида катта тажриба тўпланди. Кўпгина давлатларнинг етакчилари қатъий сиёсий иродани намоён этиб, коррупцияга қарши курашда катта муваффақиятларга эришди ҳамда ўз давлатларида коррупциянинг минимал даражага тушишига олиб келди.

Мамлакатимизда ҳам 2016 йилдан бошлаб коррупцияга қарши жиддий кураш олиб борилмоқда. 2017 йил 4 январда “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги фармонига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ташкил этилди. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан ушбу иллатга қарши қарши кураш олиб борилмоқда. Буни кунда, кунора оммавий ахборот воситаларида турли лавозимдаги амалдорларнинг пора олиш, бюджет маблағларини талон-торож қилиш жиноятларни содир этиб, жавобгарликка тортилганлари тўғрисидаги ахборотлар ҳам яққол кўрсатиб турибди.

Аммо жамиятимизда коррупцион жиноятларнинг илдизини қуритиш учун курашни янада кучайтириш зарурлигини мавжуд вазиятнинг ўзи тақозо этмоқда. Кўзланган мақсадга эришиш учун ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, фуқаролик институтлари, таълим муассасалари, оммавий ахборот воситалари ва бошқа жамоат ташкилотлари ўртасида ҳамкорликни кучайтириш, бошқача айтганда, бу оғатга қарши бутун жамият бир тану бир жон бўлиб курашиши шарт. Астойдил қурашибгина бу балою оғатга бас келиш мумкин.

Табиийки, бу борада асосий масъулият ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралари зиммасига тушсада, жамиятнинг ҳар бир аъзоси, ҳар бир касб эгаси масъулият ҳис қилган ҳолда ўз ваколати ва имконияти даражасида коррупцияга қарши курашда фаоллик кўрсатиши мақсадга мувофикдир.

Шундай экан, жамият ҳаётининг асосий тузилмаларидан ҳисобланган таълим тизимида, жумладан, олий таълим муассасаларида коррупцияга қарши курашишда нималарга алоҳида эътибор қаратиш лозим, деган савол туғилиши табиий.

Қатъий ишонч билан айтиш мумкинки, олий таълим муассасалари коррупцияга қарши самарали курашишда энг муҳим бўғинлардан биридир. Бугун бу ерда ўқиётган талаба эртага

жамиятнинг турли соҳаларида фаолият кўрсатади. Уларнинг онгига ҳалоллик, поклик каби юксак идеалларни сингдира олишимиз керак. Уларнинг руҳиятига коррупцияга нисбатан муросасизлик кайфиятини сингдира олиш зарур. Коррупцияга берилишнинг охиривой эканлиги уларнинг қалбидан мустаҳкам жой олиши керак. Ҳар қандай вазиятда коррупцияга аралашгудек бўлса жамиятни жарлик сари етаклашга ҳисса қўшишдан ташқари ўз тақдирини ҳам хатарга қўйиши тайинлигини онги шуури билан англаб этиши лозим.

Маълумки, ижтимоий онг ўзгармаса ижтимоий борлиқнинг ўзгариши мушкул. Коррупцияга қарши самарали курашиш учун ҳам аввало ижтимоий тафаккурни ўзгаририш, уни иллатлардан тозалаб, замон талабларига мос равишда янгилаб бориш керак. Коррупциянинг жамиятни емирувчи иллат эканлигини билсада, кўплаб мамлакатларда ундан қутула олмаётганлигининг сабабларини сиёсий, иқтисодий, ижтимоий омиллардан ташқари инсон табиатидаги қусурлардан ҳам излаш излаш керак. Нафс, манфаат, осон бойлик тўплаш, мавқеидан, мансабидан фойдаланиб қолиш, мушкулини заҳмат чекмасдан ғирром йўллар билан бўлсада осон битказиш каби истаклар унча мунча одамни ўз ортидан эргаштириб кета олади. Қатъий иродали, виждони уйғоқ инсонларгина бу зайлдаги қутқуларга қарши тура олади.

Афсуки, миллий зеҳниятимизга сингиб кетган: “Берганинг бетига қарама”, “Узумини е боғини сурештирма”, “Берган худога ёқибди”, “Юзта сиз-биздан битта жиз-биз яхши”, “Куруқ қошиқ оғиз йиртар”, “Одамгарчилик қилиш керак” каби “ҳикмат”лар замирида ҳам қайсиидир жиҳатдан коррупцияга мойиллик сезилади. Бу зайлдаги фикрлашни ёшлар дунёқарашидан буткул ўчириб ташлаш орқали тараққиётимизга тўсиқ бўладиган иллатлардан қутулсак ажаб эмас. Шунинг ўзи “ҳалоллик вакцинаси”хисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, коррупция жамиятнинг ўзи аралашган ҳар қандай соҳасини мукаррар таназзулга етаклайдиган жиноий иллатdir. Катта ниятларни кўзлаган ҳар қандай жамият мақсад сари дастлабки қадани ана шу заарли иллатдан холос бўлишдан бошлиши керак. Ана шунда кўзланган манзига этиши шубҳасиз. Бу ҳаётий муҳим вазифага ўз ҳиссасини қўшиш эса жамиятнинг ҳар бир аъзосининг фуқаролик бурчи ҳисобланади.

## КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ СОҲАСИДА ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИ ТИЗИМИ

**Тонгатаров Миржалол Шермурод уғли**

Карши давлат университети  
тарих факултети 3 - боскич талабаси

**Аннотация.** Мазкур мақолада коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари тизими таҳлил қилинган. Унда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонун ва бошқа меъёрий-хукукий ҳужжатларнинг мазмуни ва аҳамияти кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, коррупцияга қарши курашиш бўйича давлат сиёсати, миллий стратегия ва халқаро ҳамкорликнинг ўрни таъкидланган. Мақолада коррупциянинг олдини олиш, уни аниқлаш ва жазолаш механизми, шунингдек, жамоатчилик назоратини кучайтириш бўйича таклифлар ҳам илгари сурилган. Мазкур таҳлил Ўзбекистонда хукукий ислоҳотлар жараённida коррупцияга қарши курашишнинг самарали усусларини шакллантиришга хизмат қиласи.

**Калим сўзлар:** Коррупция, коррупцияга қарши курашиш, қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонун, давлат сиёсати, миллий стратегия, хукукий ислоҳотлар, жамоатчилик назорати, халқаро ҳамкорлик, профилактика, назорат механизмлари, жавобгарлик, шаффоффлик, қонун устуворлиги.

Давлат ва жамият бошқарувини янада демократлаштириш ҳамда модернизация қилиш, давлат бошқаруви соҳаларини либераллаштириш шароитида давлат хизматчилари томонидан пораҳурлик, мансаб мавқеини суистеъмол қилиш билан боғлиқ жиноятларнинг содир этилиши давлат ҳокимиятининг обўйсизланишига, давлатнинг сиёсий, иқтисодий,

хукуқий тизимиға пугур етишига сабаб бўлади. Шунингдек, коррупциянинг ривожланиши давлат томонидан олиб борилаётган ислоҳотлар натижаларига салбий таъсир кўрсатади. Шу боис, давлат томонидан коррупцияга қарши фаол ҳукуқий сиёсат юритилиб, унинг олдини олишга қаратилган зарур норматив-ҳукуқий хужжатлар қабул қилинмоқда. Давлатимиз раҳбари ўзининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ушбу соҳага алоҳида тўхталиб, “шу йилнинг 9 ойида коррупция билан боғлиқ жиноятлар ўтган йилга нисбатан 33 фоизга камайди. Биз бундай натижаларни коррупцияга қарши кураш борасидаги узоқ ва давомли фаолиятимизнинг дастлабки самараси, деб қабул қилишимиз, бу йўлда янада қатъий иш олиб боришимиз шарт” деган эди. Албатта, коррупциянинг вужудга келиши, умумий жиҳатлари, ўхшашибликлари ва ривожланиш сабаблари турли мамлакатларда тарихий босқич ва ижтимоий-иктисодий эврилишлар даражасига мутаносиб равишда турлича бўлиши мумкин. Шу сабабли, коррупциянинг олдини олиш ва унга барҳам беришнинг ҳаммабоп, ягона йўриқномаси мавжуд эмаслиги боис, унга қарши универсал маъмурий-ҳукуқий воситаларини ишлаб чиқиши амалда мураккаб масала. Дарҳақиқат, агар коррупция соф иктисодий ҳодиса бўлганида эди, дунёнинг энг ривожланган мамлакатлари бу иллатдан буткул холи бўлар эди. Ваҳоланки, жаҳоннинг етакчи илмий тадқиқот марказлари ҳамда Жаҳон банки маълумотларига қараганда, коррупция даражаси Италияда-57 %, Грецияда-31 %, АҚШда-26 %, Японияда -24 %, Буюк Британияда-22 %, Германияда-21 %, Канадада эса 19 %ни ташкил этади. Эътиборли жиҳати, бу борадаги кўрсаткичнинг энг қуи даражаси билан Дания, Швеция, Финляндияда 8 %ни, энг юқори даражаси – 92 % билан Сомали, Жанубий Суданда ташкил этмоқда. БМТ Тараккиёт дастури жаҳон иктисодиёти айнан коррупция ҳолатлари туфайли йилига 2,6 триллион доллар маблағ йўқотаётганини, жамият тараққиётининг энг хавфли кушандасига айланган бу иллатга қарши фақат биргаликда кураш олиб боришина кутилган самарани келтиришини бот-бот таъкидлаётгани ҳам бежиз эмас.

МДҲ мамлакатларида ҳам коррупция даражаси жуда юқори. Шу сабабли ҳам 2010 иили Россия Федерациясида “Коррупция биринчи

ракамли душман” деб эълон қилинган. Масалага бундай кескин ёндашув бежиз эмас, албатта. Ҳозирги вақтда идеал, ҳар томонлама мукаммал бўлган мансабдор шахсни шакллантириш методологияси мавжуд эмас. Аммо коррупцияни кескин камайтириш чораларини кўриб, ривожланган давлатлар тажрибаси унга қарши курашиш орқали иктисодиётни кўтаришга, халқнинг ижтимоий ҳаётини тубдан яхшилашга эришиш мумкинлигини кўрсатади.

Сингапур, Гонконг, Португалия, Швеция каби давлатлар тажрибаси бунга мисол бўлади. Шубҳасиз, агар коррупция иллати соф ҳукуқий ҳодиса бўлганида эди, унга қарши қонун-қоидаларни кўпайтириш ва жазо чораларини кучайтириш орқали уни мағлуб этиш мумкин бўлар эди. Дейлик, Хитойда коррупция жиноятини содир этганлик учун ўлим жазоси белгиланган. Аммо шунга қарамай, бу иллатнинг илдизи буткул йўқ бўлмаяпти. Зоро, ҳар қандай мамлакатда коррупцияга қарши кураш ва унинг жамиятдаги салбий оқибатларининг олдини олиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Айниқса, давлат бошқарув органларининг самарали ва натижали фаолият юритиши учун қонун устунлиги тамойилига амал қилиниши шахс, жамият ва давлатнинг ҳуқуқ ҳамда қонуний манфаатларини амалга оширилишини таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Жаҳон мамлакатлари ва нуфузли халқаро ташкилотлар томонидан коррупцияга қарши курашиш мақсадида кўплаб конвенция, пактлар ва бошқа турдаги халқаро хужжатлар қабул қилиниб келмоқда. Ушбу хужжатлар ҳақида кейинги мавзулар доирасида тўхталиб ўтамиз. XX асрнинг иккинчи ярмига келиб, коррупция муаммоси алоҳида бир давлат миқёси билан чекланибгина қолмай, балки ушбу иллат давлатлар ўртасида кенг тарқалиб, халқаро муаммога айланди. Бир мамлакат доирасида илдиз отган коррупция бошқа мамлакатларнинг ривожланишига ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсата бошлади. Ушбу омиллар халқаро жамоатчиликнинг бирлашиб, коррупция муаммосига қарши курашишини тақозо этди. Бунинг натижасида, 1994 йилнинг 31 декабрида чоп этилган “Finansial Times” газетаси дунё аҳолисида коррупцияга оид саводхонликни ошириш мақсадида, 1995 йилни “Коррупцияга қарши кураш йили” деб эълон қилди. Шунингдек, БМТ томонидан (2003 йил 21 ноябр, № A/RES/58/4-сонли резолюция)

9 декабрь “Халқаро коррупцияга қарши курашишнинг куни”, деб таъсис этилиб, ушбу кун 2004 йилдан бошлаб алоҳида нишонланиб келинмоқда. Шу билан бирга, халқаро миқёсда коррупцияга қарши курашиш йўлида ташланган энг самарали қадамлардан бири – бу 2003 йил 31 октябрь куни БМТнинг Коррупцияга қарши конвенциясининг қабул қилиниши бўлди<sup>41</sup>. Мазкур Конвенция лойиҳаси икки йил давомида 130 дан ортиқ давлат иштирокида муҳокама этилди ва барча иштирокчи давлат томонидан қўллаб-куватланди. Ушбу Конвенция коррупция офати билан глобал даражада курашишга имкон берадиган муҳим хуқуқий асос бўлиб хизмат қилди. Конвенция дунёвий тараққиётга кўмаклашишда ҳамда барчанинг фаровонлиги учун кишилик дунёсини такомил-лаштиришга қаратилган ишларда ҳалоллик, хуқуқ устуворлигини ҳурмат қилиш, ҳисбот юритиш ва ошкоралик каби фазилатлар муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлайди. Бугунги кунда 180 дан ортиқ давлат ушбу конвенцияни ратификация қилиб, унда қайд этилган талабларни ўзининг миллий қонунчилигига имплементация қилиб бормоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясининг қабул қилиниши халқаро ҳамжамият коррупциянинг олдини олиш ва илдизини қуритишга дадиллик билан киришаётганини яққол акс эттиради. Мазкур Конвенция коррупция билан шуғулланган шахслар жамият ишончини оқламасалар, бундан кейин уларнинг кирдикорларига ҳеч ким чираб турамаслиги ҳақида қатъий огохлантиради. Конвенция ривожланишга кўмаклашишда ҳамда халқларнинг фаровонлиги учун ҳалоллик, хуқуқ устуворлигини ҳурмат қилиш, ошкоралик каби фазилатлар муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлайди.

Ўзбекистоннинг олдида турган қўплаб ижтимоий-иктисодий ва сиёсий-хуқуқий муаммолари орасида коррупцияга қарши кураш алоҳида ўрин тутади. 2008 йил 7 июль куни Ўзбекистон Республикасининг “Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясига (Нью-Йорк 2003 йил 31 октябрь) қўшилиши тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Шу тариқа мазкур ғайриижтимоий ҳодисанинг олдини олиш, унга қарши кураш бўйича халқаро мажбуриятлар қабул қилинди. Мамлакатимизда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши муросасиз курашишнинг илғор халқаро стандартларга асосланган тизимини жорий этиш бўйича изчил чоралар кўрилмоқда. Суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш шароитида коррупцияга қарши курашиш давлатимиз сиёсатининг асосий йўналишларидан бирига айланди. Негаки мазкур иллат натижасида жамият хаёти издан чиқади, аҳолининг давлат органларига бўлган ишончи сўнади ҳамда энг ёмони, давлат тараққиётiga жиддий путур етказилади. Айни пайтда, коррупцияга қарши изчил кураш олиб боришда иктисодий-сиёсий, суд-хуқуқ ислоҳотларини амалга ошириш долзарб аҳамият касб этади. Жумладан, мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли тизимли ислоҳотлар жамиятда қонун устунлиги, инсон хуқуқ ва эркинликларини таъминлаш учун муҳим пойдевор бўлиб, халқимизнинг муносаб ҳаёт кечириши, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини рўёбга чиқариш учун зарур шарт-шароитлар яратди. Бироқ, ҳаёт ҳеч қачон бир жойда тўхтаб қолмайди. Чунончи шахс ҳамда жамият манфаатларини янада самарали ҳимоя қилиш, коррупциянинг олдини олишнинг хуқуқий механизmlарини янада такомиллаштириш эҳтиёжини вужудга келтирди. Ўзбекистон Республикасида 2017 йил 3 январда қабул қилинган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунда бу иллатга қарши курашнинг хуқуқий механизми яратилган бўлиб, у давлат ва жамият тақдири, халқ келажагига, қолаверса, ҳар бир фуқарога даҳлдор бўлган муҳим норматив-хуқуқий хужжат ҳам ҳисбланади. Ушбу Қонун асосида республикамизда коррупцияга қарши кураш бўйича идоралараро ҳамкорликнинг ташкил этилиши натижасида, коррупцияга қарши кураш тизимидағи бир-бирининг функциясини тақрорлаш ва бир-бирига халал бериш каби салбий ҳодисаларга барҳам бериш кўзда тутилди. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 февралдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан 51 та банддан иборат, 2017-2018 йилларга мўлжалланган коррупцияга қарши курашиш бўйича Давлат дастурининг қабул қилиниши ҳам фуқароларнинг ижтимоий фаоллигини кучайтириб, давлат ва нодавлат ташкилотларнинг коррупцияга қарши курашдаги фаолиятини мувофиқлаш-тиришга хизмат қилди.

Бугунги кунда коррупцияга қарши курашишда аҳолининг ҳуқукий онги ва ҳуқукий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг ҳуқукий саводхонлигини ошириш, таълим муассасаларида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ҳуқукий таълим ва тарбияни кучайтириш давр талабидир. Зеро, ҳуқукий онг ва ҳуқукий маданияти етук бўлган фуқаролар коррупцияга йўл қўймайдилар. Мамлакатимизда коррупцияга қарши кураш борасидаги қонунчилик тизими шакллантирилган бўлиб, у салмоқли ўринга эга. Мазкур йўналишдаги қонунчилик ҳужжатлари қаторида: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Жиноят кодекси (1994), Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс (1994), Меҳнат кодекси (1995), “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги (2014), айниқса, кейинги йилларда қабул қилинган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги (2017), “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги (2022) қонунлар, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси (2017), Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори (2017), Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2019), “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизи- мини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги (2020), “Коррупцияга қарши муросасиз муносабатда бўлиш муҳитини яратиш, давлат ва жамият бошқарувида коррупциявий омилларни кескин камайтириш ва бунда жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чоратадбирлари тўғрисида”ги (2021), “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги (2022) фармонлари, Давлат фуқаролик хизматчилари одоб-ахлоқининг намунавий қоидалари (2022) кабиларни 44 алоҳида қайд этиш ўринлидир. 2022 йилнинг 8 август куни давлат фуқаролик хизматчиларининг ҳуқукий мақомини белгиловчи ва улар фаолиятини ягона норма ва қоидалар асосида тартибга солувчи Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Қонун 10 та боб ва 64 та моддадан иборат.

**Хуносаси.** Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари тизими давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш ва фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини ҳимоя қилишда муҳим ўрин тутади. Ўзбекистон Республикасида қабул қилинган «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонун ва бошқа меъёрий-ҳуқукий ҳужжатлар коррупциянинг олдини олиш, уни аниқлаш ва жазолаш механизмларини белгилаб беради. Бундан ташқари, давлат сиёсати ва миллий стратегия орқали шаффофликни таъминлаш ва жамоатчилик назоратини кучайтириш ишлари амалга оширилмоқда. Лекин мавжуд тизимни янада такомиллаштириш учун қўшимча чора-тадбирлар зарур.

**Таклифлар:** 1. **Қонунчиликни такомиллаштириш:** Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонун ҳужжатларини халқаро стандартларга мос равища мунтазам янгилаш.

2. **Ахборот технологияларини жорий этиш:** Давлат органлари ва ташкилотларида шаффофликни таъминлаш мақсадида электрон ҳукумат тизимларини янада ривожлантириш.

3. **Жамоатчилик назорати:** Фуқаролар ва ННТларнинг коррупцияга қарши курашдаги иштирокини фаоллаштириш, улар учун ҳуқукий таълим ва тренингларни ташкил этиш.

4. **Иқтисодий профилактика:** Давлат хизматчиларининг иш ҳақини бозор талабларига мослаштириш ва молиявий ҳисобдорликни кучайтириш.

5. **Тарғибот ишлари:** Коррупциянинг салбий оқибатлари ҳақида жамоатчиликни хабардор қилиш учун оммавий ахборот воситалари орқали мунтазам ахборот кампанияларини ўтказиш.

6. **Халқаро ҳамкорлик:** Халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни кучайтириш ва уларнинг илфор тажрибаларини миллий қонунчиликка интеграция қилиш.

Ушбу таклифларни амалга ошириш коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги нуфузини мустаҳкамлашга хизмат қиласи.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 22 б.
2. Бегматов А.С. Коррупция – ижтимоий хавфсизликка таҳдид. – Т.: “Turon zamin ziyo” нашриёти, 2016. – 5
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Коррупцияга қарши конвенцияси”. – Нью-Йорқ, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг гиёхванд моддалар ва жиноятчилик бўйича бошкармаси, 2004. – 3 бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. 2021 йил 6 июль, ПФ-6257.
5. «Коррупцияга қарши курашиш миллий стратегияси» (2021–2025 йиллар). Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2021 йил 6 июль, ПҚ-6257.
6. Қосимов, Ш. Ҳ. «Коррупция ва унга қарши курашиш асослари». Тошкент: «Адолат», 2018.
7. Рахимов, Р. Ж. «Коррупцияга қарши кураш: назария ва амалиёт». Тошкент: «Фан», 2020.

## **КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШДА ҲАЛОЛЛИК ФАЗИЛАТИНИ СИНГДИРИШ ЗАРУРИЯТИ**

**Тўраева Азиза,**

Қарши давлат университети катта ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада коррупциянини олдини олишда ҳалоллик муҳим фазилат эканлиги илмий асосланган. Коррупцияни келтириб чиқарувчи энтиқ омиллар таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Коррупция, ҳалоллик, фазилат ва иллат, манфаат, виждон, адолат ва бурч.

2017 йил 4 январдан кучга кирган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида коррупцияга шундай таъриф берилган: «коррупция-шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш». Соддароқ айтганда, коррупция давлат идораларида ишловчи шахсларнинг ўз амалидан фойдаланиб, шахсий манфаатларини ҳамма нарсадан устун қўйишлари, пора эвазига сотилишлари ёки сотиб олинишлари, ноқонуний моддий ёки номоддий бойлик орттиришларидир. Мазкур Қонунда коррупция, яъни пораҳўрлик, мансабдан фойдаланган ҳолда Қонунни суиистеъмол қилиш, таниш-билишчилик, қариндош-урӯғчилик, истеъодли кадрларни ўсишига тўсиқ бўлиш, инсон хуқуқларини бузиш ҳамда таъмагирлик қилиш каби жирканч ҳолатларга йўл қўйганлик учун қатъий жазо муқарарларигини аниқ-равшан кўриш мумкинлиги таъкидлади.

Бизнингча, коррупция жиноятининг содир бўлишида нафақат қонунларни билмаслик ва назар писанд қилмаслик, балки ҳаром ва ҳаромни фарқига бормаслик, ҳаромдан қўркмаслик, диёнатсизлик иллати ҳам ётибди.

Бугун фарзандлар келажагига бефарқ бўлмаган ҳар бир ота-она уларни билимли, ахлоқли бўлиб вояга етишишини истайди. Бунинг учун эса ҳар қандай масъулиятли ота-она оиласда ўғил-қизларни ҳалол меҳнат билан топилган ризқ едириб, вояга етказмоғи, уларга ибрат бўлмоғи лозим. Ҳалол ризқ, пешона тери эвазига яратилган неъмат хотиржам яшашининг гарови эканлиги, оз бўлса-да ҳалолик билан топилган ризқнинг баракаси борлигини ёшлигидан фарзандлар онгига сингдириб бормоғи, қаноат ҳиссини шакллантироғи зарур. Керак бўлса диний тарбия усулларидан фойдаланиши, ҳаромдан қўрқишига ўргатиши лозим, чунки баъзан хуқуқ бажара олмаган ишни дин уддасидан чиқиши мумкин. Акс ҳолда эътиқоди тўлиқ шаклланмаган киши жамиятнинг бошқа аъзолари томонидан бериладиган стихияли таъсир жараёнига тушиб қолганида, осонгина маҳв этилиши мумкин.

Ҳалоллик инсон тафаккурини, унинг маънавий олами, фаолиятини белгилайдиган, виждон, адолат, бурч каби ахлоқий тушунчалар билан боғлиқ меъёр бўлиб, инсоннинг жамиятдаги ўрнига таъсир ўтказади. Инсонни маънавий-ахлоқий жиҳатдан безайдиган ажойиб фазилатлар дан бири – ҳалол, покиза яшаш, бирорларнинг ҳақига заррача бўлса-да, хиёнат қилмасликдан иборатdir. Ҳалол билан ҳаромни фарқлаш, фақат ўз меҳнати эвазига тирикчилик қилиш, ҳаром-ҳаришдан жирканиш, ҳаромхўрликни энг катта гуноҳ ва ахлоқсизлик деб билиш – Шарқ файласуфларининг энг муҳим ғояларидан ҳисобланади.

ди. Ҳалоллик вијдон, адолат ва бурч каби ахлоқий тушунчалар билан боғлиқ, инсоннинг ўзгага муносабати ўзига муносабатидек соф, покиза бўлишини талаб қиласидиган ахлоқий меъёрдир. Даставвал у диний тушунча сифатида вужудга келиб, ҳар бир мусулмоннинг емак-ичмаги, жинсий ва иқтисодий хатти-ҳаракатларини белгилаб берувчи шаръий меъёр сифатида амал қилган. Кейинчалик ҳалоллик нисбатан тор шаръий қобиқдан чиқиб, астасекин шахс ҳаётидаги кенг қамровли ахлоқий меъёрга айланди, теран маънавийлик касб этгани ҳолда, кундалик ҳаётдаги инсонийликни белгилайдиган умуминсоний фазилатга айланди. Масалан, ҳозирги кунда ихтисослашган меҳнат тақсимотининг такомиллашуви, илм-фан тараққиётининг юксалиши натижасида биз касбий ҳалоллик, илмий ҳалоллик, иқтисодий ҳалоллик, тадбиркор ҳалоллиги, шерикчиликда ҳалоллик ва бошқалар ҳақида гапиришимиз мумкин.

Ҳалолликнинг мавжудлиги фидойилик, ростгўйлик, адолат билан шартланади. Доимо ҳалоллик қилиши ёки ҳалол яшаши учун киши албатта нималардандир кечиши, кимларгадир қарши бориши, фақат рост гапириши, сўз билан иш бирлигига эришиши керак. Шу боис ҳалол инсон жамоатчилик ўртасида обрў-эътиборга эга, ҳурматга сазовор бўлади. Қайси жамиятда ҳалол фуқаролар қўпайса, ўша ерда баҳт ва фаровонлик ҳукм суради. Муносиб кадрлар колиб, адолат принциплари топталиб, иш ўринларини саводсиз ва уқувсиз ходим эгалласа, истеъодли ва муҳнаткаш ходимда давлат ва жамоат ташкилотига нисбатан ишонсизлик юз беради. Оқибатда эса зарарни яна ташкилот ва давлат кўради. Ҳозирги кунда давлатимиз миллий-маънавий қадриятларни тиклаш, одамларни ҳалол, инсофли, адолатли бўлишга чақиришни ўз ички сиёсатининг муҳим қисми деб билган ҳолда иш тутмоқда. Ҳозирда ҳалол, ростгўй инсонлардан иборат бўлган фуқаролар жамиятини қуриш – фақат ахлоқий муаммо эмас, балки янгиланаётган давлатимизнинг моҳиятини акс ээтиради. Ҳалоллик инсоннинг ички ва ташқи дунёсининг бирлиги, сўзи билан хатти-ҳаракати тўғри келишини, атрофдаги инсонларга очиқкўнгил ва самимий муносабатини ифодаловчи маънавий-ахлоқий фазилатлардан ҳисобланади. Ҳалоллик жамиятнинг ахлоқий меъёrlарига онгли равишда ва ихтиёрий амал қилишга ундейдиган ҳодисадир.

Ҳалоллик инсон характеристининг моҳиятидан келиб чиқиб, инсоннинг ўз вазифасини вијдонан ва онгли равишда бажаришида намоён бўлади. Чин маънодаги ҳалоллик ваъдага вафо қилиш, сўз билан иш бирлиги демакдир. Сўзининг устидан чиқмаган одам бебурд, белафз одам ҳисобланади. Молу давлат пешона тери билан, меҳнат билан топилса ҳалолдир. Ҳалоллик ростгўйлик, тўғрилик, ахлоқий поклик, самимийлик каби инсоний фазилатлар мажмуасидан иборат. Ҳалоллик – ҳаромнинг зидди. Ҳалол амалларга қўйидаги фазилатлар киради: меҳнат билан тирикчилик қилиш, ҳалол ризқ топиш, яхши ният қилиш, яхши сўзлаш, яхши амаллар қилиш, омонат ва қарзларни ўз вақтида қайтариш, етимларни кафилликка олиш, вафодорлик, гуноҳни савоб ишлар билан ювиш, эҳсон ва садақа қилиш, муҳтоҷларга қарз бериш, ёрдам кўрсатиш, меҳр-мурувватли, оқибатли бўлиш ва ҳоказо. Ҳалоллик инсон маънавиятининг энг эзгу фазилатларидан бири бўлиб, жамият тараққиётини белгилайди. Жамиятда ҳалол инсонлар қанча кўп бўлса, у шунча тараққий этади. Бинобарин, ҳалол одам вазифасига масъулият билан ёндашади, қинғир йўллар орқали бойлик орттиришни ўйламайди, иши, ҳалқи, ватанига содик бўлади.

Ҳозирда коррупцияга қарши курашиш мақсадларига фақат ташкилий-ҳукукий воситалар билан эришиб бўлмаслигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда (Мамлакатимиз матбуоти коррупцион жиноятларнинг сони ортиб бораётганини кун ора, ҳафтадада нохуш хабарлар орқали маълумот бериб бормоқда). Бизнингча, жамият кушандаси бўлган коррупцияга қарши курашда нафақат давлат ташкилотлари, балки, жамият ва умуман барча фуқароларимиз масъулдир. Зеро, Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек: “Коррупцияга қарши курашишда аҳолининг барча катламлари, энг яхши мутахассислар жалб қилинмас экан, жамиятимизнинг барча аъзолари, таъбир жоиз бўлса, “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланмас экан, ўз олдимизга қўйган юксак мэрраларга эриша олмаймиз. Биз коррупциянинг оқибатлари билан курашишдан унинг барваҳт олдини олишга ўтишимиз керак”. Шундай экан, давлат ва жамоат ташкилотлари, оила ва маҳалла бу иллатни олдини олишда ва унга қарши курашда ҳамжиҳат ҳамда муросасиз бўлиши самарали натижаларга эришишнинг энг мақбул йўли бўлиб ҳисобланади.

## O'ZBEKISTONDA "HALOLLIK VAKSINASI" TUSHUNCHASINING TARG'IBOTI

Dilsora Rasulova Bekmurod qizi,  
Qarshi davlat universiteti  
Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Aslini olganda "halol" so'zinining sinonimi "harom"dir va uning kelib chiqishi nafsga borib taqalar ekan, hech kim o'zini bu borada oqlay olmaydi. Nafs insonni har ko'yga soladi. Korrupsion holatlarni ham asosiy keltirib chiqaruvchi omil bu nafsni tiya olmaslikda. Shuning orqasidan insonlar jinoyatga qo'l uradilar. Pora beruvchi, pora oluvchi va loqaydlar korrupsiya sabab bo'lувчи shaxslardir. Agar pora beruvchi bo'lmasa, oluvchi ham bo'lmaydi. Ushbu maqolada mana shunday illatga qarshi bo'lgan "halollik vaksinasi" haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** vaksina, halollik, korrupsiya, nafs, statistika, AKT, OTM, targ'ibot, ma'naviyat.

**Vaksina bu** – emlashda foydalananadigan moddalardir, ya'ni infeksiyani oldini olish yoki davolashda qo'llaniladigan preparat hisoblanadi. Insonning halolligi, pokligi, insoniylik tuyg'ulari – halollik vaksinasi bilan o'lchanadi. "Halollik vaksinasi" deganda diniy va dunyoviy jihatdan qoralanadigan ishlarni qilishga undaydigan virusni o'ldirishga qodir bo'lgan, antivirus rolini, bajaradigan g'oyalar majmui tushuniladi. Korrupsiya illati ana shunday qoralangan ijtimoiy kasallik hisoblanadi va bu kasallikni keltirib chiqaradigan virus sanaladi. Qadimdan bizga ko'p va xo'p halollik va haromdan nazarni saqlash ko'nikmalar o'rgatilib kelinadi. Bugungi kunda ham ushbu illatlar farovon va xotirjam hayotni kafolatlaydi. Qalbi toza, samimiy, halol luqma yegan insonlar doimo xotirjamlikda yashaydilar. Buyuk allomiz Mahmud Zamashshariy bu haqida shunday nasihat qilganlar: " Halol va pokiza kishi doimo xotirjam-u, tinchlikdadir, birovga xiyonat-yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir". Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev biroz armon va istehzo bilan "... o'sha "halollik vaksinasi"ni qaydan olamiz?" degan fikrni bildirib o'tadilar.

Chaqaloq tug'ilganida uning bilagiga vaksina qilinadi, chunki viruslarga chalinmaslik va tanani sog'lom bo'lishida vaksinaning o'rni katta ahamiyatga egadir. Ayni yillarda, Prezidentimiz tashabbusi bilan har bir sohaga chuqur yondashuv tamoyili asosida ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida davlat rahbari tomonidan korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi, hamda qator farmoyish va qarorlar imzolandi, «Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi» yo'lga qo'yildi. Ko'rinib turibdiki, buning tub ma'nosi ushbu «illatga» qarshi kurashish tizimi davlat siyosati darajasidadir.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikkita tashkilotlar harakati natijasida yo'qqa chiqarish o'ta mushkul jarayon. Halollik vaksinasini faqatgina katta tashkilot va idoralarga emas balki butun O'zbekiston aholisiga targ'ib qilish lozim. Targ'ibotchi sifatida esa nafaqat davlat amaldorlari va mutasaddilar balki har bir fuqaro faoliylik ko'rsatsa ko'zlangan maqsadga yetish ancha yengillashadi. Aytib o'tishimiz kerakki, korrupsiya har bir sohaning ildiziga bolta uruvchi yov hisoblanadi, jumladan ta'lim sohasining. Ta'lim barcha yo'nalihsarning boshlang'ich negizi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki har bir sohaga kirishdan avval, uning mazmun-mohiyatini negizini chuqur o'rganib, faoliyat yuritiladi. Ta'limda korrupsiya yo'l qo'yilsa, kelajakda biror bir yetuk mutaxassis, kadrlar yetishib chiqmaydi. Inson o'z fikrini birinchi marta ommaga tadbiq etayotganga u tabiiyki hayajon qurshovida bo'ladi. Shunday bo'lsa ham kuch topib, uni boshqalarga yetkazib bergani uchun, albatta rag'batlantirish kerak, biroq buning o'rniga "Halollik vaksinasi"ni yaratishda insonning baxt to'g'risidagi tushunchasini sog'lomlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda insonning xulqini belgilaydigan narsa uning baxt to'g'risidagi tushunchasi ekanligidan kelib chiqilgan. Inson baxtligining eng muhim sharti qo'rquvsiz erkin yashash hissi va xotirjamligi ekanligi asoslab berilgan. Buni anglagan odamda korrupsiya qarshi antivirus shakllanishiga imkoniyat paydo bo'ladi. Korrupsiyaning virusi deb faqatgina poroxo'rlikni emas, balki qarindoshchilik, ikkiyuzlamachilikni ham aytish mumkin, chunki korrupsiya bu kabi illatlarning uyg'unlashib asosida yuzaga keladi. Mansabdor shaxslar o'z lavozimlarini suiste'mol qilgan holatda, nafsi, ehtiyojini qondirish uchun biror shaxslardan ma'lum miqdorda pul talab qilishi korrupsiya harakatlarning eng katta nuqtalaridan biridir. Bu holat esa insonning ma'nан qashshoqligidan dalolat beradi.

Korrupsiya tahdidiga qarshi immunitetni shakllantirishga yoki virusga qarshi antivirusni shakllantirishga xizmat qiladigan vaksina hayotbaxsh so'zlardan va g'oyalardan iborat bo'ladi va u insonning baxt haqidagi to'g'ri tushunchasi, baxtga erishishda mustaqillikning, tinchlikning,

adolatning, ma'naviyatning, milliy g'oyaning, demokratiyaning, fuqarolik jamiyatining, islohotlarimiz asosida yotgan liberallashtirishning o'rni va O'zbekiston tanlagan evolyusion taraqqiyot yo'lining ahamiyati to'g'risidagi g'oyalar majmui xizmat qiladi. Norozilik bo'lgan muhitda odamlar ongu qalbiga ezgu g'oyalarni singdirib bo'lmaydi. Korrupsiya – bu halokat, korruptioner esa terroristdan ham xavfli falokat deb aytish mumkin.

Ma'naviyat qashshoq bo'lgan joyda korrupsiyaga sharoit yaratiladi va korrupsiya bu sharoitni asrash uchun ma'naviyatning yuksalishiga yo'l qo'ymaydi. Chunki korrupsiya illat sifatida faqat nosog'lom ijtimoiy muhiddagina mavjud bo'ladi va bunday muhit odamlar ma'naviyati qashshoq bo'lgan holdagina kelib chiqadi. Korrupsiyaning sababi ma'naviy qashshoqlik, oqibat esa insoniyatning halokati va uning yechimi sababni bartaraf qilish bilan bog'liq.

Ayni yillar mobaynida, oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yucha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida tizimli ishlar olib borilmogda. Oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirishni tashkil etish belgilangan bo'lib, BMTning Taraqqiyot dasturi ko'magida xalqaro auditorlik kompaniya Italiya ekspertlari tomonidan 2020-yilning 11-mayidan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining markaziy apparati hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tajriba tariqasida joriy etish ishlari boshlandi. Xalqaro ekspertlar tomonidan oliy ta'lim tizimida korrupsiya holati mavjud bo'lishi ehtimoli bor bo'lgan 7 ta turdag'i yo'nalishlar (korrupsiyaviy risklar kuzatilayotgani) belgilab berildi. OTMlarda talabalar uchun korruption holatlar ro'y berganligi bo'yicha tashkilotning mas'ul xodimlariga xabar berish imkoniyatini yaratuvchi to'qnashganligi bo'yicha xabar qilish imkoniyatini beruvchi telegram kanali test rejimida faoliyati yo'lga qo'yildi. OTMlarda o'quv jarayonlari, imtihonlar va qabul jarayonlarida AKT (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) imkoniyatlari keng joriy etildi. Bu kabi chora-tadbirlar korrupsiya holatlarini sezilarli darajada pastlashiga ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, tahvilchilar 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistondagi korrupsiyaga qarshi kurashish darajasini 100 balldan 33 ballga baholagan. Bu – bir yil oldingiga qaraganda 2 ballga yuqoriroq. Avvalgi yillarda O'zbekistonning o'rni:

- 2022 yilda 126-o'rin;
- 2021 yilda 140-o'rin;
- 2020 yilda 146-o'rin;
- 2019 yilda 153-o'rin;
- 2018 yilda 158-o'rin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi 10-bandida ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'rishi haqida ma'lumot berilgan. Korrupsiya illati va uning oqibatlaridan aholi, ayniqsa professor-o'qituvchilar, talabalarning keng qatlamlarini xabardor qilish maqsadida huquqiy targ'ibot materiallari, ma'ruza matnlari, slaydlar, infografikalar OTMlarda keng targ'ib qilindi. Shuningdek, jamoat joylarida ta'lim muassasalari tomonidan "Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz", "Korrupsiya – jamiyatni yemiradi", "Korrupsiya salbiy illat", "Pora – eng yomon chora" kabi shiorli bannerlar o'rnatildi.

Demak, jamiyatimizda korrupsiya illatiga qarshi halollik vaksinasini targ'ib qilar ekanmiz, eng avvalo, bu kayfiyatni o'zimizda shakllanishini ta'minlashimiz kerak. Har xil yot g'oya va mafkuralardan, korrupsiya illatidan o'zimizni himoya qilishimizning eng Demak, jamiyatni va, eng avvalo, yoshlarimizning ongi va qalbini yot g'oya hamda mafkuralardan, korrupsiya illatidan himoya qilishning eng samarali yo'li bu ma'naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik ishlardir. Eng yomon illat bu - loqaydlik, befarqlikdir. Jamiyatda ro'y berayotgan xavfli illatlarga befarqlik va beparvolik bilan emas, balki ma'nan qarshi tura olish kelajakda katta yutuqlarga erishishga sabab bo'lishi mumkin!

### **Adabiyotlar**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent -2023
- 2.<https://zarnews.uz/uz/post/halollik-vakcinasi-uni-qaerdan-olamiz-qanday-yaratamiz>
- 3.[https://m.kun.uz/news/2024/01/31/ozbekiston-korrupsiyaga-qarshi-kurash-reytingidagi-ornini-5-polygonaga-yaxshiladi](https://m.kun.uz/news/2024/01/31/ozbekiston-korrupsiyaga-qarshi-kurash-reytingidagi-ornini-5-polygonaga-yaxshiladi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2024%2F01%2F31%2Fozbekiston-korrupsiyaga-qarshi-kurash-reytingidagi-ornini-5-polygonaga-yaxshiladi)
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/19/halollik-vaksinasi>

# KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUAMMOLARI.

## КОРРУПЦИЯ-ТАРАҚҚИЁТ КУШАНДАСИ

Хажиева Максуда Султановна,  
УрДУ, “Фалсафа” кафедраси мудири  
Фалсафа фанлари доктори, профессор

**Аннотация.** Мақола коррупциянинг ижтимоий-сиёсий таҳди迪 ва уни олдини олишга қаратилган илмий-назарий муроҷаатлар билдирилган. Муаммонинг келиб чиқиши сабаблари ва жаҳон мамлакатларининг тажрибаси таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Коррупция, жиноят, моддий ва маънавий манфаат, глобал муаммо, сиёсий-иктисодий ривожланиш, хуқуқий онг, хуқуқий маданият, хуқуқий таълим ва тарбия.

Коррупция дунё миқёсида ҳал этилиши лозим бўлган глобал муаммолардан биридир. Ушбу иллат ҳар қандай давлат ва жамиятнинг сиёсий-иктисодий ривожланишига жиддий путур етказади, инсон хуқуқ ва эркинликларининг поймол бўлишига олиб келади. Шу боис унга қарши кураш ҳалқаро аҳамият касб этиб, жаҳон сиёсатининг муҳим масалалари қаторидан жой олган.

Хозирги даврда коррупция кўргина давлатларнинг иктисодий ва сиёсий салоҳиятига ўзининг салбий таъсирини кўрсатиб бера олди. Унга қарши курашиш, мунтазам равишда амалга оширилиши зарур бўлган долзарб вазифалардан бирига айланди. Ҳар қандай давлатда коррупциянинг ривожланиши давлатнинг ички ва ташки сиёсатига салбий таъсир кўрсатади, натижада жамият аъзоларини мазкур давлатнинг органларига бўлган ишончига путур етказишига олиб келади. Коррупция фуқаронинг давлат вакили билан маъмурий муносабатлари маъно-моҳиятини ўзгартиради ва жамият учун ҳам, давлат учун ҳам салбий оқибатларга сабаб бўлади. “Коррупция – давлат органлари ходимлари моддий ёки мулкий йўсинда файриқонуни шахсий наф кўриш мақсадида ўз хизмат мавқеидан фойдаланишида ифодаланадиган ижтимоий ҳодисадир. “Жиноят қонунчилигини янада такомиллаштириш ва либераллаштириш бўйича ишларни давом эттириш лозим. Нега деганда, Жиноят ва Жиноят-процессуал кодекслар қарийб 25 йил олдин қабул қилинган. Ўтган даврда жамиятдаги муносабатлар, одамларнинг яшаш тарзи, онги дунёқарashi ўзгарди. Шу сабабли бу кодекслар бугунги кун талабларига жавоб бермай қолди. Маълумки, қонунчилиқда жазони оғирлаштириш ёки енгиллаштиришга оид моддалар бор. Лекин улар терговчи ёки судьянинг ихтиёрига, яъни инсон омилига тўлиқ боғлиқ бўлиб қолмаслиги керак. Акс ҳолда биз учун муқаддас бўлган адолат мезони бузилади. Шунинг учун жиноят ва жиноят процессуал қонунчилиқни тубдан қайта кўриш зарур”<sup>70</sup>.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиеев Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қўшма мажлисидаги “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз” мавзуидаги маърузасида “Жамиятимизда коррупция, турли жиноятларни содир этиш ва бошқа хуқуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл кўймаслик, жиноятга жазо, албатта, муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича қатъий чоралар кўришимиз зарур”, деб бежиз таъкидламади.

Қонуннинг 5-моддасида эса коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари кўрсатиб ўтилган бўлиб, улар: аҳолининг хуқуқий онги ва хуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муносабатни шакллантириш, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирларни амалга ошириш, коррупцияга оид хуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек кўйиш, уларнинг оқибатларини, унга имкон берувчи сабаблар ва шартшароитларни бартараф этиш, коррупцияга оид хуқуқбузарликларни содир этганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминлашдан иборатdir.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида жавобгарлик белгиланган куйидаги ижтимоий хавфли қиммишлар коррупциявий жиноятлар ҳисобланади:

Масалан, ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш, жиноий йўл билан топилган мулкни олиш ёки ўтказиш, бюджет интизомини бузиш, ҳокимият ёки мансаб

<sup>70</sup> Карапнг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Ҳалқ сўзи газетаси 29 декабрь сони 4-бет.

ваколатини суиистеъмол қилиш, ҳокимият ёки мансаб ваколати доирасидан четга чиқиш, ҳокимият ҳаракатсизлиги, пора олиш, пора бериш; пора олиш-беришда воситачилик қилиш, хизматчини пора эвазига оғдириш, товламачилик йўли билан ҳақ беришни талаб қилиш, қийноққа солиш ва бошқа шафқатсиз, файриинсоний ёки қадр-қимматни камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллаш, тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралашиш, ёлғон гувоҳлик бериш, жиной фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш, ҳокимиятни суиистеъмол қилиш, ҳокимият ваколатидан ташқарига чиқиш ёки ҳокимият ҳаракатсизлиги ва ҳоказолар.

Ушбу Қонуннинг муҳим аҳамиятли жиҳати коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни бевосита амалга оширувчи давлат органлари ҳақида маълумот берилиб, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратуроси, Миллий хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Адлия вазирлиги, Бош прокуратура ҳузуридаги Солик, валютага оид жиноятларга ва жиной даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти, коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа давлат органлари ҳам амалга оширишлари назарда тутилган.

Дарҳақиқат, коррупцияга қарши курашишда аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, таълим муассасаларида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ҳуқуқий таълим ва тарбия масалалари Қонуннинг 16, 17, 18-моддаларида ўз ифодасини топган. Чунки ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданияти юксак бўлган ва ҳуқуқий таълим ва тарбия жиҳатдан етук бўлган инсонлар салбий иллат бўлмиш коррупцияга йўл қўймайдилар.

Ушбу Қонуннинг яна ўзига хослиги, Қонуннинг 5-бобида коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, уларга чек қўйиш, жавобгарликнинг муқаррарлиги назарда тутилган.

Бугунги кунда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашишда қуйидаги масалаларни эътиборга олиш лозим деб ҳисоблаймиз:

- коррупция ва унинг оқибатлари жамият ривожланишига тўсик бўлаётганлиги, унинг ижтимоий хавфлилик даражаси содда ва тушунарли тилда ҳуқуқий жиҳатидан шарҳланган ҳолда жамоатчиликни хабадор қилиш;

- ҳар бир соҳада коррупциянинг келиб чиқиш сабабларини илмий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилиш орқали қонунчиликни ҳамда ички тартиб қоидаларни такомиллаштириш бўйича асосли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш;

- ҳар бир давлат органида ўз ходимларини коррупция ҳолатларидан огоҳлантириш ва коррупциянинг олдини олишга қаратилган самараали механизми ишлаб чиқиш ва уни реал ҳаётга тадбиқ қилиш чора-тадбирларини белгилаш;

- ҳар бир соҳада коррупцияни олдини олишга қаратилган давлат сиёсатини таъминлаш орқали коррупцияга сабаб бўлувчи ҳолатларга барҳам беришга эришиш;

- жамиятда коррупция жиноятини содир этган шахсларга нисбатан яъни коррупционерларга нисбатан жазо муқаррарлиги мамлакатимизда қонун устуворлиги асосида таъминланётганлиги хусусида оммавий ахборот воситаларида мунтазам равишда кенг ёритиб боришни йўлга қўйиш;

- ҳар бир соҳада коррупцияни олдини олиш ишларини ташкил этишга кенг жамоатчиликни, шу жумладан, нодавлат нотижорат ташкилотларини жалб қилиш ва улар фаолиятини рағбатлантириш коррупцияга қарши ишларни самарадорлигини ошириш;

- ижтимоий-иктисодий соҳада фаолият юритаётган давлат органлари тизимида маъмурий-бюрократик тўсикларни бартараф этиш, рўйхатга олиш, рухсат этиш ва лицензияга доир тартиб-таомилларни янада соддалаштириш;

- давлатнинг ваколатли органларининг назорат-текширув вазифаларини мақбуллаштириш, тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини текшириш тизимини такомиллаштириш, уларнинг фаолиятига қонунга хилоф равишда аралashiшга йўл қўймаслик чора-тадбирларини янада такомиллаштирилган ҳолда мустаҳкамлаш;

- давлат органлари ва тадбиркорлик субъектлари ўртасида ўзаро муносабатларнинг назорат қилишнинг масофавий шакллари-ни кенг жорий этиш асосида тадбиркорлик субъектлари фаолиятида ҳуқуқбузарликларни олдини олиш бўйича ўз ваколатлари доирасида таклиф ва тавсиялар бериш;

- Ҳар бир соҳада ўзининг хусусиятидан келиб чиқиб, “Ахлоқ-одоб қоидалари”ни тасдиқлаш, мазкур қоидаларнинг алоҳида бўлимида коррупцияга қарши курашиш қоидаларни белгилаш қўйиш;

- Ҳар бир соҳада коррупцияга қарши курашиш ишларни ташкил этиш ходимларнинг бу соҳадаги жавобгарликларини ички локал хужжатларда аниқ белгилаб қўйишда юридик хизмат ролини ошириш коррупцияни олдини олиш ишларини самарали бўлишига хизмат қиласди.

“Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг (Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассаблеясининг 1948 йил 10 декабрда бўлиб ўтган учинчи сессиясида 217А (III)- қабул қилинган) 8-моддасига кўра ҳар бир инсон унга конституция ёки қонун орқали берилган асосий ҳуқуқлари бузилган ҳолларда ваколатли миллий судлар томонидан бу ҳуқуқларни самарали тикланиш ҳуқуқига эга. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамбелясининг 1985 йил 29 ноябрдаги резолюцияси билан макулланган “Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари” биринчи бўлимининг 1-бандига кўра суд органларининг мустақиллиги давлат томонидан кафолатланади ҳамда конституция ва қонунларда мустаҳкамлаб қўйилади. Барча давлат органлари ва бошқа ташкилотлар суд органлари мустақиллигига ҳурмат билан қарашлари ва бунга риоя қилишлари шарт”<sup>71</sup>. Шундай экан, ўзимизга холоса қилишимиз, келажакни коррупциясиз биргаликда қуришимиз, бунинг учун аввало ўзимизни ўзимиз тарбия қилишимиз, коррупцияининг ҳар қандай кўришишини бартараф қилиш учун биргаликда курашишимиз зарурдир. Қабул қилинган Қонун эса давлат ва жамият таракқиётiga салбий таъсир этувчи мазкур иллатга қарши курашишнинг ҳуқуқий механизми сифатида хизмат қиласди.

## KORRUPSIYA: TUSHUNCHASI, GENEZISI, EVOLYUTSIYASI VA YASHOVCHANLIK TENDENSIYALARI

**Xaitov Lazizbek Azamatovich,**  
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va  
manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola korrupsiya tushunchasining evolyusiyasi hamda yashovchanlik tendensiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pora, pora olish va berish, korruptioner, iqtisodiy korrupsiya, ta’lim sohasidagi korrupsiya, potensial korrupsiya.

XXI asrga kelib globallashuv jarayonlari barcha xalqlaming hayotiga chuqur kirib borar ekan, ularni bir tomonidan zamonaviy ilg‘or texnika, texnologiyalardan unumli foydalangan holda barqaror taraqqiyot sari boshlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, katta boyliklarni qo‘lga kiritib har bir joyda o‘zlarining hukumronliklarini o‘rnatish uchun ochiq yoki pinhona tarzda faoliyat olib borayotgan «Kimsa»lami ko‘rish mumkin. Bu «Kimsa»lar, shunchaki, savodsiz,bilimsiz odamlar emas, balki, iqtisodiyot «alifbo»sini o‘zlashtirgan, eng zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo‘lgan, o‘zgalarni har qanday yo‘l bilan o‘ziga og‘dirib olish san’atini yaxshi egallagan shaxslardir. Bulami xalq tilida “korruptioner”lar deb atashadi. Ularning qilmishlariga hayratomuz nafrat bilan qarashadi. «Kormpsiya» atamasi lotincha«sorrumere - **sorruptio**» degan so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida «ifloslangan», «pora evaziga og‘dirish, buzilish, aynish, tanazzul, sotib olish, sotib yuborish, buzish, parchalash, sindirish, shikast yetkazish» degan ma’nolami anglatadi. Bu atama, odatda mansabdar shaxs tomonidan unga ishonib topshirilgan vakolatlar va huquqlaridan shaxsiy manfaatlari uchun jamiyat tomonidan o‘matilgan qonunlar va axloqiy tamoyillarga zid bo‘lgan holda foydalanishni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Bularidan tashqari, korrupsiya mafiyalashgan davlatlarga xos boigan tipik holat, ya’ni mansabdar shaxslami sotib olish,ulaming sotqinlik qilishini ham anglatadi. Shu tariqa, Yevropa tillariga tegishli bo‘lgan mazkur atama, o‘zining dastlabki asl ma’nosidan ko‘ra kengroq ma’noni anglatadi, ya’ni semantik<sup>72</sup> ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaning xarakterli belgisi mansabdar shaxsning xattiharakatlari bilan uning ish bemvchisi manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat yoki saylangan shaxsning xatti-harakatlari bilan jamiyat

<sup>71</sup> Каранг: Иктисадий судларга мурожаат қилиш тартиби. Амалий кўлланма Тошкент-2018. . ILMIY-TEXIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI, 2018 11 бет.

<sup>72</sup> Семантика ( юонча semantikos – ифодаловчи, билдирувчи) Тил бирликларининг маъноси.

manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi. Odatda, komipsiyaning ko'p turlari mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan firibgarlikdan iborat bo'lib, ular davlat organlariga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi.

Har qanday mansabdor shaxs - amaldor, deputat, suda, huquqni muhofaza qilish organlari xodimi, ma'mur va boshqalar o'zlariga tegishli bo'limgan har qanday resurslami tarqatish sohasida korrupsiyaga duchor bo`lishi mumkin. Korrupsiyani rag'batlantiruvchi asosiy omil - bu hokimiyatdan foydalanish bilan bog'liq holda ko'proq iqtisodiy foya olish imkoniyatining mavjudligi bo'lsa, ulami tiyib turuvchi omil esa qilmishining oshkora bo'lib qolishidan hadiksirash va jazo olishdan qo'rqlikdir.

Korrupsianing tizimli xususiyatlaridan biri korrupsiyalashgan davlat tashkilotlarida ishlaydiganlar mansabdlaming o'z lavozimini saqlab qolish uchun quyi pog'onadagilardan majburiy tarzda pora yig'ib olishi orqali olgan porasini yuqori pog'onadagi mansabdorlar bilan bo'lishishida namoyon bo'ladi. Bunday holatning mavjudligi jamiyatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Odamlarni esa ma'naviy mafkuraviy tanazzulga duchor etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jahon hamjamiyati bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish muammosiga juda katta e'tibor berilmoqda. Chunki, korrupsiya har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilgan holda, xalq manfaatlarni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlaming borishi o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xo'sh, shunday ekan korrupsiya nima, uning genezisi, evolyutsiyasi, xullas, u salbiy hodisa sifatida tarixiy makon va zamonning qaysi kesishgan nuqtalarida paydo bo'lgan degan savollar tug'iladi?

Bu savolga Birlashgan Millallar Tashkilotining korrupsiya bilan xalqaro kurash hujjatida: "Korrupsiya - bu davlat hokimiyatining o'z manfaatlari yo'lida suiste'mol qilishidir<sup>73</sup>....,xususan: 1) davlat mulkini yuqori lavozimdagi amaldor shaxslar tomonidan o'zlashtirish, o'g'irlash; 2) o'zining manfaatlari yo'lida o'z lavozimini suiste'mol qilish; 3) shaxsiy manfaatdorlik va jamiyat oldidagi burchining o'rtasidagi to'qnashuv"<sup>74</sup> degan javoblar berilgan. Shuningdek, Transparensy International, Juhon banki va boshqa tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflarda:" Korrupsiya - ishonib topshirilgan hokimiyatni shaxsiy manfaatlар yo'lida suiste'mol qilishidir" degan ta'rif berilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar', 0'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" qonunida: "*Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy nafolish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish*", - degan ta'rif berilgan. Bu degan so'z korrupsiya bu pul, qimmatbaho buyumlar ko'rinishida imtiyozlar olish uchun mansab vakolatlarini suiste'mol qilish, pora bcrish, pora olish, o'z vakolatlarini suiste'mol qilish, tijorat pora olish yoki boshqa shaxsning o'z rasmiy mavqeidan jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlari xilof ravishda noqonuniy foydalanishidir. Mulkiy xususiyatga ega bo'lgan boshqa mulk yoki xizmatlar, o'zi uchun yoki uchinchi shaxslar uchun boshqa mulkiy huquqlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ushbu shaxsga ushbu imtiyozlami noqonuniy ravishda berish; shuningdek, ushbu harakatlami yuridik shaxs nomidan yoki uning manfaatlari uchun amalga oshirish, demakdir.

XXI asrga kelib komipsiya salbiy ijtimoiy jarayon sifatida tugatilmadi. U mazkur voqelikka moslashgan holda yashovchanlik xususiyatini namoyon qila boshladi. Moslashuvchanlikka asoslangan yashovchanlik tendensiyalari: *birinchidan*, kam rivojlangan davlatlarda ochiq korrupsianing boshqaruv tizimida hukumronlik qilishi; *ikkinchidan*, endi rivojlanib kelayotgan davlatlarda davlat hokimiyatidagi foya keltiradigan mansablami pora berish evaziga sotib olish; *uchinchidan*, rivojlangan davlatlarda xalqqa har xil imtiyozlami berishni va'da qilish hisobiga saylovchilami o'zlariga og'dirib olish,ya'ni saylovda yutib chiqish orqali davlat hokimiyatini egallab olishga urinishlari bilan xarakterlanadi.

Bu illatga qarshi BMT, Juhon Banki,Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki va boshqa mintaqaviy va ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan tizimli ravishda kurash olib borilmoqda. Uning ana shu moslashuvchanlik asosida yashovchanlik

<sup>73</sup> Справочный документ о международной борьбе с коррупцией. Секретариат ООН. A/CONF. 13 Apr. 1995

<sup>74</sup> Практические меры борьбы с коррупцией. Руководство, подготовленное Секретариатом ООН. A/CONF. 29 May.1995

xususiyatiga hayot haqida turli xil e'tiqod va qarashlarga ega boigan odamlar tomonidan axloqiy-ma'naviyijihatdan baho berilmogda.

Har qanday hodisa odamlar tomonidan axloqiy-ma'naviy jihatdan baholanadi. Shunga ko'ra korrupsiyaning turli ko'rinishlariga ham har xil axloqiy baho beriladi. Bunda ba'zi harakatlar - jinoiy, boshqalari esa - axloqsiz hisoblanadi. Oxirisiga, qoida tariqasida, meritokratiya tamoyilini buzadigan siyosiy yo'naliшgа asoslangan qarindoshlik va homiylik kiradi.

Biroq, korrupsiyaga nisbatan nisbatan ijobiy munosabat ham mayjud. Bu xususda Kanzas universiteti biznes professori Duglas Xyuston; «Korrupsiya rivojlanmagan joyda qonun ustuvorligining foydali o'mini bosishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, korrupsiyaning foydasi qo'shimcha sermahsul operatsiyalar natijasida hosil bo'lgan qiymat - bu xaratatlardan oshib ketishi mumkin. Bunday holat, ehtimol, biznes yuritishning qonuniy imkoniyatlari keskin cheklanganda yuzaga keladi»<sup>75</sup> degan fikmi bildirgan.

Korrupsiyani lobbichilikdan ajratish kerak. Lobbi olib borayotganda, mansabdor shaxs o'z vakolatlarini tayinlash imkoniyatini oshirish yoki maTum bir guruh nomidan harakat qilish evaziga korporativ zinapoyada ko'tarilish uchun ham ishlatadi. Farqi shundaki, lobbichilik uchta shartni qondiradi:

1. Mansabdor shaxsga ta'sir o'tkazish jarayoni raqobatdosh bo`lib, barcha ishtirokchilarga ma'lum bo`lgan qoidalarga amal qiladi.

2. Yashirin yoki yon to`lovlar mayjud emas.

Korrupsiyaning eng xavfli shakllaridan yana biri - bu jinoiy javobgarlik deb tasniflandi. Bularga, *birinchi navbatda*, o'zlashtirish (o'g'irlilik) va pora kiradi. o'zlashtirish - mansabdor shaxsga topshirilgan resurslami shaxsiy maqsadlar uchun sarflab yuborish bo'lib, uning oddiy o'g'irlikdan dastlab odam resurslami boshliqdan, mijozdan va boshqalar qonuniy ravishda tasarruf etish huquqi olganligi bilan farqlanadi. Ko'pgina hollarda, agar pora berish tovlamachilikning natijasi bo'lmasa, pora beruvchi ushbu bitimdan asosiy foyda oladi. Ovozlamni sotib olish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ldi (garchi ba'zilar buni korrupsiya emas, balki vijdonli saylov kampaniyasining bir turi deb hisoblashadi).

Ko'pincha hokimiyatni zo'rlik bilan almashtirishga chaqiruvlaming sababi ham korrupsiya bilan bog'langan bo'ladi. Bunda shu bilan birga, ko'pincha ma'lum bir siyosiy elitaga emas, balki umuman siyosiy tizimga qarshi ayblovlar qo'yiladi. Oskar Arias Sanches ta'kidlaganidek, avtoritar rejimlar hokimiyatni suiste'mol qilishning katta qismini jamoatchilikdan yashirishga qodir, shuning uchun ularning korrupsiyasi to'g'risida xulosa butun dunyo uchun o'ta muhim dalillar va zararli oqibatlami tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

### Xulosalar

1. Korrupsiya - mansabdor shaxslaming o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolotidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi bo'lib, u o'z ichiga poraxo'rlik, mansbni suiste'mol qilish va boshqa noqonuniy harakatlami o'z ichiga oladi.

2. Korrupsiya yashirin xarakteriga ega bo'lib, ya'ni zimdan ish qilish orqali katta boylikni qo'lga kiritishga harakat qiladi.

3. Korrupsiya kelishuvchanlik xarakteriga ega, uning ishtirokchilari o'zaro kelishgan holda harakat qiladilar.

4. Korrupsiya moslanuvchanlik xususiyatiga ega. Chunki pora beruvchi ham pora oluvchi ham o'zaro kelishishib olishgan bo'ladi.

5. Korrupsiyaning asosiy maqsadi pora evaziga boylik orttirish, to'plashdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Справочный документ о международной борьбе с коррупцией. Секретариат ООН. A/CONF. 13 Apr. 1995
2. Практические меры борьбы с коррупцией. Руководство, подготовленное Секретариатом ООН. A/CONF. 29 May. 1995
3. Дуглас Хьюстон. Способна ли коррупция улучшить положение дел в экономике? inliberty.ru.

<sup>75</sup> Дуглас Хьюстон. Способна ли коррупция улучшить положение дел в экономике? inliberty.ru

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID HUQUQIY YONDASHUVLAR

Muxammadieva Oliya Narzullaevna,  
Termiz davlat muhandislik va  
agrotexnologiyalar universiteti dotsenti  
**Rashidov Kamron,**  
ilmiy tadqiqotchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolda hozirgi davrning eng muhim va dolzarb ijtimoiy jamiyat muammolaridan biri bo‘lgan korrupsiya va unga qarshi kurash olib borishning huquqiy jihatlari bayon etilgan. Ushbu muammoning hal etilishidagi huquqiy qoliplar, tajribalar milliy davlatchiligimiz misolida ko‘rib chiqilgan

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, pora olish va berish, xalqaro huquq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Korupsiyaga qarshi kurash haqidagi qonun, iqtisodiy zarar, davlat xizmatchilari

Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo‘rlik, mansab mavqeyini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro‘sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, korupsiyaning rivojlanishi davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, davlat tomonidan korupsiyaga qarshi faol huquqiy siyosat yuritilib, uning oldini olishga qaratilgan zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ushbu sohaga alohida to‘xtalib, “...shu yilning 9 oyida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar o‘tgan yilga nisbatan 33 foizga kamaydi. Biz bunday natijalarni korupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi, deb qabul qilishimiz, bu yo‘lda yanada qat’iy ish olib borishimiz shart”,<sup>76</sup> degan edi.

Albatta, korupsiyaning vujudga kelishi, umumiyligi jihatlari, o‘xshashliklari va rivojlanish sabablari turli mamlakatlarda tarixiy bosqich va ijtimoiy-iqtisodiy evrilishlar darajasiga mutanosib ravishda turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli, korupsiyaning oldini olish va unga barham berishning hammabop, yagona yo‘riqnomasi mavjud emasligi bois, unga qarshi universal ma’muriy-huquqiy vositalarini ishlab chiqish amalda murakkab masala.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korupsiyaga qarshi konvensiyasining qabul qilinishi xalqaro hamjamiyat korupsiyaning oldini olish va ildizini quritishga dadillik bilan kirishayotganini yaqqol aks ettiradi. Mazkur Konvensiya korupsiya bilan shug‘ullangan shaxslar jamiyat ishonchini oqlamasalar, bundan keyin ularning kirdikorlariga hech kim chidab turmasligi haqida qat’iy ogohlantiradi. Konvensiya rivojlanishga ko‘maklashishda hamda xalqlarning farovonligi uchun halollik, huquq ustuvorligini hurmat qilish, oshkorlik kabi fazilatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi”.<sup>77</sup> Darhaqiqat, bunday zararli hodisa barcha davlatlarda uchraydi, lekin, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Korupsiya aynan ijtimoiy muhtoj oilalarga nomutanosib darajada katta zarar yetkazib, ularda davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Natijada, ushbu oilalarning iqtisodiy rivojlanishi uchun mo‘ljallagan mablag‘lari sarf-xarajat etilmaydi. Bu, o‘z navbatida, davlatning asosiy xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum etib, tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlikni shakllantiradi hamda xorijiy investitsiyalar oqimlarining kirib kelishiga sun’iy to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekistonning oldida turgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolari orasida korupsiyaga qarshi kurash alohida o‘rin tutadi. 2008 yil 7 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York 2003 yil 31 oktyabr) qo‘silishi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.<sup>78</sup> Shu tariqa mazkur g‘ayriijtimoiy hodisaning oldini olish, unga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro majburiyatlar qabul

<sup>76</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 22 b.

<sup>77</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korupsiyaga qarshi konvensiyasi”. – Nyu-York, Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, 2004. – 3 bet.

<sup>78</sup> Korupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari: Kollektiv monografiya / Yu I Mironov ilmiy tahriri ostida. - Volgograd: Volgograd Ilmiy Nashriyoti, 2013. – 298 p.yu

qilindi. Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoxda. Sudhuquq tizimini yanada isloh qilish sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Negaki mazkur illat natijasida jamiyat hayoti izdan chiqadi, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchi so‘nadi hamda eng yomoni, davlat taraqqiyotiga jiddiy putur yetkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda bu illatga qarshi kurashning huquqiy mexanizmi yaratilgan bo‘lib, u davlat va jamiyat taqdiri, xalq kelajagiga, qolaversa, har bir fuqaroga daxldor bo‘lgan muhim normativ-huquqiy hujjat ham hisoblanadi. Ushbu Qonun asosida respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha idoralararo hamkorlikning tashkil etilishi natijasida, korrupsiyaga qarshi kurash tizimidagi bir-birining funksiyasini takrorlash va bir-biriga xalal berish kabi salbiy hodisalarga barham berish ko‘zda tutildi.

Sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi. Xususan, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf etish masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan 51 ta banddan iborat, 2017–2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturining qabul qilinishi ham fuqarolarning ijtimoiy faolligini kuchaytirib, davlat va nodavlat tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyatini muvofiqlash-tirishga xizmat qildi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunchilik tizimi shakllantirilgan bo‘lib, u salmoqli o‘ringa ega. Mazkur yo‘nalishdagi qonunchilik hujjatlari qatorida: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi, Jinoyat kodeksi (1994), Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (1994), Mehnat kodeksi (1995), “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014), ayniqsa, keyingi yillarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (2017), “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi (2022) qonunlar, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (2017), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2017), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019), “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020), “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) farmonlari, Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari (2022) kabilarni alohida qayd etish o‘rinlidir.<sup>79</sup>

Qonunchilikda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini shakllantirishda ishtirok etadigan tarmoq qonunchilik hujjatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Shu kabi qonunlar qatorida: Byudjet va Bojxona kodekslari, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Tezkor-qidiruv faoliyatni to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlarni alohida keltirib o‘tish zarur.

<sup>79</sup> Karimovich, Q. Y. (2023). TARIXIY RIVOJLANISHNING TURLI BOSQICHLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MUAMMOLARI. O‘ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1049-1056.

Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги  
ЎРҚ-419-сонли Конуни

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил  
27 майдаги ПФ-5729-сонли Фармони

Коррупцияга қарши курашиш бўйича 2021-2022 йилларга  
мўлжалланган давлат дастури

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил  
29 июндаги ПФ-6013-сонли Фармони

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил  
6 июлдаги ПФ-6257-сонли Фармони

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил  
6 июлдаги ПҚ-5177-сонли қарори

## **2-rasm. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplaens-nazorat)ni joriy etishning huquqiy asoslari**

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Darhaqiqat, agar korrupsiya sof iqtisodiy hodisa bo‘lganida edi, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bu illatdan butkul xoli bo‘lar edi. Vaholanki, jahoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari hamda Jahon banki ma’lumotlariga qaraganda, korrupsiya darajasi Italiyada – 57 %, Gretsiyada – 31 %, AQShda – 26 %, Yaponiyada – 24 %, Buyuk Britaniyada – 22 %, Germaniyada – 21 %, Kanadada esa 19 %ni tashkil etadi. E’tiborli jihat, bu boradagi ko‘rsatkichning eng quyi darajasi bilan Daniya, Shvesiya, Finlyandiyada 8 %ni, eng yuqori darajasi – 92 % bilan Somali, Janubiy Sudanda tashkil etmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi jahon iqtisodiyoti aynan korrupsiya holatlari tufayli yiliga 2,6 trillion dollar mablag‘ yo‘qotayotganini, jamiyat taraqqiyotining eng xavfli kushandasiga aylangan bu illatga qarshi faqat birgalikda kurash olib borishgina kutilgan samarani keltirishini bot-bot ta’kidlayotgani ham bejiz emas.

MDH mamlakatlarda ham korrupsiya darajasi juda yuqori. Shu sababli ham 2010 yili Rossiya Federatsiyasida “Korrupsiya – birinchi raqamli dushman”<sup>80</sup> deb e’lon qilingan. Masalaga bunday keskin yondashuv bejiz emas, albatta.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, korrupsiya muammosi alohida bir davlat miqyosi bilan cheklanibgina qolmay, balki ushbu illat davlatlar o‘rtasida keng tarqalib, xalqaro muammoga aylandi. Bir mamlakat doirasida ildiz otgan korrupsiya boshqa mamlakatlarning rivojlanishiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsata boshladi. Ushbu omillar xalqaro jamoatchilikning birlashib, korrupsiya muammosiga qarshi kurashishini taqozo etdi. Buning natijasida, 1994 yilning 31 dekabrida chop etilgan “Finansial Times” gazetasi dunyo aholisida korrupsiyaga oid savodxonlikni oshirish maqsadida, 1995 yilni “Korrupsiyaga qarshi kurash yili” deb e’lon qildi. Shuningdek, BMT tomonidan (2003 yil 21

<sup>80</sup> Begmatov A.S. Korrupsiya – ijtimoiy xavfsizlikka tahdid. – T.:“Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2016. – 5 b

noyabr, № A/RES/58/4-sonli rezolyusiya) 9 dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashishning kuni”, deb ta’sis etilib, ushbu kun 2004 yildan boshlab alohida nishonlanib kelinmoqda.

**Xulosa va tavsiyalar.** Hozirgi vaqtida ideal, har tomonlama mukammal bo‘lgan mansabdor shaxsni shakllantirish metodologiyasi mavjud emas. Ammo korrupsiyani keskin kamaytirish choralarini ko‘rib, rivojlangan davlatlar tajribasi unga qarshi kurashish orqali iqtisodiyotni ko‘tarishga, xalqning ijtimoiy hayotini tubdan yaxshilashga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug’diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi huquqiy jihatdan kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning muhim vazifasi, ishi bo’lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo’lamiz.

#### **ADBIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 22 b.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”. – Nyu-York, Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, 2004. – 3 bet.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari: Kollektiv monografiya / Yu I Mironov ilmiy tahriri ostida. - Volgograd: Volgograd Ilmiy Nashriyoti, 2013. – 298 p.yu
4. Karimovich, Q. Y. (2023). Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida korrupsiyaga qarshi kurash muammolari. *o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 1049-1056.
5. Begmatov A.S. Korrupsiya – ijtimoiy xavfsizlikka tahdid. – T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2016. – 5 b
6. Ayrapetyan E. S. "Korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm, uning elementlari va takomillashtirilishi" "Yosh olim", 3-sون (50). 2013.
7. Abashidze A. H. Korrupsiyaga qarshi kurashda Milliy va xalqaro choralar // xalqaro huquqshunos. 2007. № 2.

### **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING JAHON TAJRIBASI**

**Xolova Umida Umedovna,**  
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va  
manbashunosligi, falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning jaxon tajribasi atroflicha o‘rganilib mamlakatlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilayotgan asosiy strategiyalar taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi”, poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste’mol qilish.

Qadim yunon faylasufi Aristotel ta’kidlaganidek: Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi. Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo‘qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma’naviyat izdan chiqqa boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg‘unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamianing Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sa’y-harakatlar zoye ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko‘p. Ulardan biri Payg‘ambarimizning mana bu qarg‘ishlaridir: “Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohnинг la’nati bo‘lsin!”. Yana ul zot aytadilar: “Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Allohn la’natlasin!”. Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida shohzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergen edi:

“Ummollardan (ish yurituvchi amaldorlar) pora olishdan ehtiyyot bo‘lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo‘lsa, pora olishga ruxsat bergen bo‘ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo‘ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo‘ladi”<sup>81</sup>.

<sup>81</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi // <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelajakning-tadbirkor-halq-farovon-hayot> 08-12-2018

**Korrupsiya** bu — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta'kidlab o'tish o'rinniki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

**Korrupsiya** (lot. Corrumper — buzmoq) termini odatda mansabdar shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

XX asrga kelib Shvesiya, Singapur, Yangi Zelandiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda korrupsiyan qattiq jilovlashga muvaffaq bo'lindiki, mazkur davlatlar fuqarolari va davlati orttirgan tajriba barchani korrupsiya qarshi kurashga ruhlantirmoqda. Ijtimoiy hayotdagi korrupsiyaning amal qilish sohalari. Hozirgi davrdagi "korrupsiya" ([lotincha](#): corrumpō — aynish, poraga sotilish) — tushunchasini sharhlaydigan bo'lsak, u asosan, "shaxsiy foya olish uchun hokimiyatni suiste'mol qilish" ma'nosida ishlatiladi. Korrupsiyaning quyidagi to'rt asosiy sababini keltirish odat tusiga kirdi:

**1.Shaxsiy sabablar.** Korrupsiya "yomon" hodisa, u yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo'ladi.

**2.Institutsional sabablar.** Bunda boshqaruvening kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo'lishi kabilar korrupsiyan rag'batlantiruvchi omillardir.

**3.Tizimiyl sabablar.** Hukumat ba'zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan bo'ladi yoxud ular ko'p miqdorda mablag' talab etadi va aksar holda uzoq muddatlarga cho'ziladi. Shunday holatlarda korrupsiya to'g'ridan-to'g'ri va qisqa yo'llar ochiladi.

**4.Ko'p tomonlama sabablar.** Ba'zan davlat rahbariyatining o'ziga xos xulqi tufayli davlat boshqaruvida hal qiluvchilik rolini "shaxsiy" omillar bajaradi. Bunday sharoitda davlat mansablariga ishonchga sazovor odamlar tayinlangan taqdirda ham institutsional va tizimga oid muammolar sabab korrupsiya ko'payadi.

Korrupsiya konturlari va oqibatlari: Korrupsiya deganda, umumiyl ma'noda, shaxsiy boylik orttirish va shaxsiy manfaati yo'lida shaxsga ishonib topshirilgan lavozimini qasddan va noqonuniy suiste'mol qilish tushuniladi.

Korrupsiya boshqaruvening barcha darajalarida uchraydi: global, milliy va mahalliy. Barcha turdag'i agentlar (jismoniy shaxslar, korxonalar, davlat xizmatchilar va siyosatchilar) korrupsiya qixtiyoriy yoki noixtiyoriy ravishda jalb qilinishi mumkin. Korrupsiya turli shakkarga ega: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o'zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste'mol qilish, xushomadgo'ylik, sovg'a, qarindoshlik, homiylik va boshqalar. Korrupsiyaning holatiga turli omillar: ijtimoiy va madaniy sharoit, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, siyosiy muhit, shuningdek iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar siyosati ham ta'sir qiladi.

-Yirik korrupsiya deganda, amaldagi davlat siyosatini yo'qqa chiqaradigan, hukumat darajasida amalga oshiriladigan siyosiy va hukumat rahbarlariga xalq hisobidan manfaat ko'rishga imkon beradigan harakatlar tushuniladi. Mayda korrupsiya deganda, odatda kasalxonalar, maktablar, miliitsiya bo'limlari va boshqa joylarda asosiy xizmatlardan foydalanishga uringan oddiy fuqarolar bilan aloqa qilishda hokimiyatning quyi va o'rta bo'g'lnlari mansabdar shaxslarining kundalik ishonchli vakolatlarini suiste'mol qilishlari tushuniladi.

-Siyosiy sohada korrupsiya demokratik tamoyillarga o'tish jarayonini to'xtatadi, siyosiy maqsadlarni umummilliy rivojlanish maqsadlariga emas ayrim guruhlarning maqsadlariga tobe qiladi, qonun ustuvorligini buzilishiga, siyosiy va sud institutlari faoliyatining samarasini tushishiga, mamlakat obro'sining tushishiga va haqiqiy siyosiy raqobatning yo'qolishiga olib keladi, shu bilan hokimiyatga ishonch susayadi, uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.

-Iqtisodiy sohada korrupsiya davlat mablag'lari va resurslarining samarasiz taqsimlanishi va sarflanishiga, biznesni yuritishda ko'p vaqti va moddiy xarajatlarga, moliyaviy va tijorat xavflarining o'sishiga, narxlarning o'sishiga, raqobat muhitining yomonlashishiga, xufiyona iqtisodiyotning o'sishiga, soliq tushumlarining kamayishiga, investitsion muhitning yomonla-shishiga,

investitsiyalarning kamayishi va umuman mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi. -Ijtimoiy sohada korrupsiya ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikning kuchayishi, hokimiyatning byudjet sohasiga zarar yetkazuvchi “zarbalar” (“otkat”)lar tufayli ijtimoiy muammolarni yechishga qodir bo‘lmay qolishi, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi va jamoatchilik ko‘z o‘ngida qonunning obro‘sizlanishiga olib keladi. Bu axloqiy me’yorlar mohiyatining yo‘qolishiga va ijtimoiy keskinlikning o’sishiga sabab bo‘ladi.

### Korrupsiya qanday o‘lchanadi?

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvesiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi. Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o‘tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og‘irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o‘tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro‘yxatida ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jinoyatchi unsurlarning xo‘jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirot etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug‘dirishi, bu esa o‘z navbatida, mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib kelishini keyinchalik BMT tomonidan ham tan olinib, 2003 yil 9 dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan Korrupsiyaga qarshi xalqaro konvensiya imzolandi.

Xulosa o‘rnida yuqoridagi ma’lumotlar va fikrlardan kelib chiqib, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari bo‘yicha quyidagi takliflar bermoqchiman:

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar oshirish;
- korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik mexanizmlaridan, shu jumladan davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasida kelishuvlar va shartnomalar tuzishni nazarda tutadigan mexanizmlardan keng foydalanish;
- ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-tamoyillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish; – davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;
- davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mazmunmohiyatini tushuntirishga qaratilgan axborot ma’lumotlarini tayyorlash va keng tarqatish, shu jumladan mavzuga oid videoroliklar yaratish, bosma materiallarni chop etishni kuchaytirish (plakatlar, risolalar, bukletlar);
- davlat organlari mutaxassislari va ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv dasturlari va mashg‘ulotlarini olib borishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga doir o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish va hokazolar. Shuningdek alohida qayd etish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak”, deb ta'kidlab o'tdilar.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi // <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet08-12-2018>
2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun // <https://lex.uz/docs/3088008>
3. “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5729-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4355387>
4. “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4875784>
5. “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lismuhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyuldag'i PF-6257-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5495529>

## **KORRUPSIYANING TURLARI, SHAKLLARI, SABAB VA OQIBATLAR**

**Kuziyev Nodir Abdusalimovich,**

Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbushunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti  
v.b. falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ( PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada korrupsiyaning turlari, shakllari sabab va oqibatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan taxlil qilingan va atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, pora, pora olish va berish, korruptioner, korrupsiya haqidagi paradigmalar, past, o'rta, yuqori darajadagi korrupsiya, lqitsodiy korrupsiya, ta'lim sohasidagi korrupsiya, potensial korrupsiya.

Korrupsiyaning tasniflash deb, uning jamiyatda egallagan o'rniga, xususan faoliyat mezonlariga qarab bir necha turlarga ajratishga aytildi. Shunga ko'ra korrupsiyani ko'plab mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- o'zaro ta'sir qiluvchi sub'ektlaming turlari bo'yicha (fiiqarolar va kichik xodimlar, firmalar va mansabdor shaxslar, millat va siyosiy rahbariyat);
- foyda turi bo'yicha (foyda olish yoki xarajatlarni kamaytirish);
- yo'nalishi bo'yicha (ichki va tashqi);
- sub'yeklarning o'zaro aloqa yo'li;
- markazlashtirilganlik darajasi;
- bashorat qilinishi mumkinligi;
- izchilligi va boshqalar.

Bugungi kunda korrupsiyaning quyidagi turlari mavjud.

**Kundalik turmushdagi korrupsiya.** Korrupsiyaning bu turi oddiy fuqarolar va mansabdor shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Unda fuqarolarning turli xil sovg'alari va amaldorga va uning oila a'zolariga xizmatlari kiradi. Ushbu toifaga qarindoshlik (nepotizm) kiradi.

**Ishbilarmonlikdagi korrupsiya.** Korrupsiyaning bu turi hukumat va biznes o'zaro aloqada bo'lganda yuzaga keladi. Masalan, biznes mojarosida tomonlar o'z foydasiga qaror chiqarish uchun sudyaning yordamiga murojaat qilishlari mumkin.

**Yuqori hokimiyatgi korrupsiya.** Korrupsiyaning bu turiga demokratik tizimdag'i siyosiy rahbariyat va oliy sudlar kiradi. Bu hokimiyatda o'mashib olgan vijdonsiz kishilar gumbining o'zlarining manfaatlarini ko'zlab, saylovchiar manfaatlariga zarar etkazadigan darajada siyosat olib borishdir.

**Korrupcion xizmatlar bozori.** Bu sohada eng keng tarqalgan - markazlashtiriimagan (tashqi) korrupsiya bo'lib, bu mansabdor shaxs va alohida shaxs o'rtasida individual ravishda tuzilganib o'zaro foydali kelishuv hisoblanadi. Shu bilan birga, bu kelishuvga birgalikdagi tashkilot

a'zolaridan iborat bo'lgan ichki korrupsiyani ham qo'shib olishsa, bu esa unga uyushgan jinoyatchilik tusini beradi.

Bixevoirizm<sup>82</sup> doktrinasiga ko'ra, inson biron bir jamoaga kirar ekan, u albatta ushbu jamoada qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ham qabul qiladi. SHuning uchun, bordiyu, agar idora ichidagi jamoaning madaniyati pora olish yoki berish bilan bog'liq bo'lsa, ya'ni qoniqish muhiti, ba'zan rasmiy masalalar bilan shug'ullanishda mas'uliyasizlik, xodimlaming noto'g'ri xatti-harakatlarini muhokama qilishda oshkorali kning yo'qligi mavjud bo'lsa, unda jamoaga yangi kelganlar bu xatti-harakatni odatdagidek qabul qilishadi va kelajakda unga rioya qilishadi. Biroq, boshqa tadqiqotchilaming fikriga ko'ra, inson har doim bunday muhitdan chiqib ketish uchun asosiy imkoniyatga ega bo'lib, unga mikro-hamjamiyat tomonidan jamoadagi buzilishlarga qarshi kurashish, bu kurashni ommalashtirish, ulami hech narsa bo'limgandek e'tiborsiz qoldirish, shaxsning o'zi tomonidan buzilishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Amaldorlar orasida korrupsiyaning tarqalishi, oxir oqibatda unga bo'ysunuvchilar ham, rahbarlar ham manfaatdor bo'lishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan modeldan ham ko'rinish turibdiki, amaliyotda bo'ysunuvchilar pora olgandan so'ng nafaqat yuqori rahbarlari, balki o'zлari o'rtasida ham boMishadi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga xos ichki bozorlar va iqtisodiy mexanizmlami shakllantirishga olib keladi. Xususan, noqonuniy daromadlari yuqori bo'lgan lavozimlar paydo bo'ladi. Bunday lavozimlar uchun mansabdar shaxslar o'rtasidagi kurash esa ichki "mehnat bozori" ni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida korruption bozorlar xizmatining muayyan darajada kengayishiga, faolroq harakat qilishiga olib keladi.

Hayotda har bir shaxsning o'z qiziqishlari bo'ladi. Ayniqsa, kimdir oddiy ishchi bo'lishga, kimdir olim bo'lishga, kimdir amaldor bo'lib xalqning og'irini yengil qilishga, kimdir amaldor bo'lib shaxsiy boylik orttirishga qiziqadi. Bulaming ichida eng yomoni davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishidir.

*Tovlamachilik* ("hukumat reketi") — bu davlat amaldorlari tomonidan o ziga berilgan vakolatlar doirasida boshqa shaxslarga litsenziyalami, maxsus ruxsatnomalami yoki boshqa xizmatlami bajarishga ruxsatnomani berishni ataylab pora evaziga bajarishidir. Shu bilan bir qatorda, agar mansabdar shaxs to'lash kerak bo'lgan to'lovlar miqdorini (masalan, soliqlar yoki yig'imlar) baholash huquqiga ega bo'lsa, bu ham tovlamachilik, ya'ni pul talab qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Davlat xizmatchisining tovlamachilik qilishi ustidan ichki yoki tashqi nazorat organi orqali shikoyat qilish huquqi mavjud. Qaror apcllyasiya tartibining qanchalik qimmatga tushishiga, shuningdek, fuqaro davlat xizmatchisi sifatida o'zining qonuniy huquqlari va majburiyatlarini bilishiga bog'liq.

Tomas Xobbes yozganidek, korrupsiya "har doim va har qanday vasvasalarda barcha qonunlarga nisbatan nafratlanish kelib chiqadigan ildizdir"<sup>83</sup>. Yuqori darajada korrupsiyaga uchragan mutasaddilarda aksariyat davlat resurslari qasddan ulami talon-taroj qilish eng oson boTgan yoki pora eng oson yo'l bilan yigTladigan kanallarga yo'naltiriladi. Siyosat esa korrupsiya ustidan nazorat qilish mexanizmlarini: matbuot erkinligi, adliya tizimining inustaqilligi, raqobatdosh siyosatchilar (muxolifatchilar) va fuqarolaming shaxsiy huquqlarini yanada bostirishga qaratilgan boTadi. Qisqasi, siyosat komipsiya uchun xizmat qila boshlaydi.

Shuningdek, korrupsiyaga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish mumkin degan nuqtai nazar mavjud. Tarixiy dalillarga ko'ra, ko'plab mamlakatlaming rivojlanish tarixida (Indoneziya, Tailand, Koreya) iqtisodiy o'sish korrupsiyaning ko'payishi bilan birga bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda hatto korrupsiyaning ko'payishi ham iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmagan. Boshqa bir dalilga ko'ra, pora berish faqat davlat va mahalliy tuzilmalar faoliyatida bozor tamoyillarim amalga oshirish hisoblanadi. Shunday qilib, korrupsiyaga nisbatan bag'rikenglik munosabati iqtisodiy o'sishda yoki umuman bozor samaradorligiga ta'sir qilmasa

<sup>82</sup> Бихевиоризм- ( инглизча behaviour - хулқ ) XIX асрнинг охири XX асрдаги америка психологиясининг етакчи олимларидан бири. Бихевиоризм таълимоти асосида одам ва хайвон хулқида ташки мухитдан бўладиган таъсир, кўзғатувчи ( стимул ) га жавобан юзага келадиган хатти ҳаракат ва унга тааллукли нуткий ва ҳиссий жавобларнинг мажмуи ётади.

<sup>83</sup> J.Y.Yaxshilikov. N.E.Muhammadiyev. Falsafa. Darslik. Samarcand. 2021 yil. 482-Bet

qabul qilinadi. Ushbu nuqtai nazami tanqid qiluvchilaming ta'kidlashicha, yuqoridagi sabablarga ko`ra, korrupsiya darajasi yuqori bo`lgan mamlakatlar, o'sish davridan keyin barqarorlikni yo'qotishi va pasayish spiraliga tushib qolish xavfi bor.

Korrupsiya sabablari deb xususiy shaxs, uyushgan guruhlarning davlat muassasalarida egallagan mavqeyidan foydalangan holda davlat va nodavlat tashkilotlarining, shuningdek, xalqaro sherikchilik birlashmalarining mol-mulkini noqonuniy yo`l bilan o'zlashtirib olishlari natijasida kelib chiqqan uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyatiga aytildi. Bunga asosan jamiyatning hayotini tartibga solib turuvchi huquq va axloq normalarida fundamental' ziddiyatlaming borligi asosiy sabab bo'ladi.

### Xulosalar

1. Korrupsiya - mansabdor shaxslaming o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolotidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi bo'lib,u o'z ichiga poraxo'rlik,mansbni suiste'mol qilish va boshqa noqonuniy harakatlami o'z ichiga oladi.

2. Korrupsiya yashirin xarakteriga ega bo'lib,ya'ni zimdan ish qilish orqali katta boylikni qo'lga kiritishga harakat qiladi.

3. Komipsiyaning asosiy maqsadi pora cvaziga boylik orttirish, to'plashdir.

4. Pora (*forscha - bo'lak, laxtak, parcha; hissa, ulush;yirtilgan, kesilgan*) biror ishni noqonuniy tarzda bitirib bergni uchun mansabdor shaxsga berildigan yoki berilgan narsa yoki pul.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.Y.Yaxshilikov. N.E.Muhammadiyev. Falsafa. Darslik. Samarqand. 2021 yil. 482-Bet

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BORASIDAGI FALSAFIY PARADIGMALAR MUAMMO VA ECHIMLAR (SINGAPUR VA SHVETSIYA DAVLATLARI MISOLIDA)

**Jurayev Shodmon Fayzullayevich,**  
Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va  
manbashunosligi va falsafa” kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Singapur va Shvesiya mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurash borasida olib borgan siyosatining falsafiy paradigmalari aniq misollar hamda dalillar yordamida isbotlatlangan hamda falsafiy nuqtai-nazardan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, paradigma, Singapur tajribasi, Shvetsiya tajribasi, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va taktikasi,halollik vaksinasi, axborot olishning ochiqligi

Kishilar jamiyat hayotida yuz bcrayotgan barcha jarayonlami kuzatar ekan,ularga nisbatan xayrixoh yoki qarshi, yoki befarq munosabatda bo'layotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda korrupsiyaga qarshi kurash masalasida ham shunday munosabat mavjudligini kuzatish mumkin. Biroq,korruptsiyaning jamiyat taraqqiyotining kushandasasi ekanligini anglagan odamlar,bu illatga qarshi kurash bo'yicha bir qator taktik usullami qo'Mlash va strategik yo'nalishlarini belgilab olish borasida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlanmalami falsafiy paradigmalar shaklida ishlab chiqqan holda hayotga joriy qilishga harakat qilmoqdalar.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalar deb korrupsiyaga qarshi kurash haqidagi g'oyalar, qarashlar va tushunchalaming yetakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar, muammolami qo'yish va ularni hal qilish modellari,tadqiqot usullari, ularni amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytildi. Bu borada yaratilgan falsafiy paradigmalami;

a) tarixiy makon va zamonda joylashgan o'miga qarab - qadimgi, o'rtasri, yangi va eng yangi davrdagi;

b) jazolarni qo'llash usul va vositalariga qarab qilmishiga yarasha qonunlarda belgilangan tartibda jazolash;

v) sub'ektlari bo'yicha individual, jamoaviy;

g) axloqiy-ma'naviy ta'siriga qarab jamoa oldida uyaltirish, tadbirlariga qo'shmay izza qilish va boshqa shu kabilarga ajratish mumkin.

Bu paradigmalami quyidagi davlatlar misolida ko'rish mumkin.

**1. Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi.** Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi o‘zining qat`iyligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatdagi falsafiy paradigma “korrupsiyani nazorat qilish mantig‘i ga asoslanib: “korrupsiyani yo‘q qilishga urinishlar ham rag‘batlantiruvchi, ham shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash uchun imkoniyat yaratadigan sharoitlami minimallashtirish yoki yo‘q qilish istagiga asoslangan bo‘lishi kerak”<sup>84</sup>,- degan g‘oyaga asoslanadi. Bu paradigmada: *birinchidan*, mansabdar shaxslarning harakatlarini tartibga solish; *ikkinchidan*, byurokratik protseduralarni soddalashtirish; *uchinchidan*, yuksak axloqiy-ma’naviy me’yorlarga rioya qilish ustidan qat’iy nazoratni kuchaytirish masalasi ilgarilgan edi.

1965 yilda mustaqillik davrida Singapur korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakat edi.Undan qutilish uchun qonunchilik kuchaytirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va sudyalaming imtiyozli maqomi bilan), pora bergani yoki korrupsiyaga qarshi tergovda qatnashishdan bosh tortganligi uchun iqtisodiy sanksiyalar joriy etildi va bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatlarini to‘liq ishdan bo‘shatishgacha qattiq choralar ko‘rildi. Bu iqtisodiyotni tartibga solish, mansabdar shaxslaming ish haqini oshirish va ma’muriy kadrlami tayyorlash bilan birlashtirildi. Korrupsiya holatlarini tergov qiluvchi avtonom Byuro tuzildi va u fuqarolarning davlat xizmatchilari ustidan shikoyatini va ular tomonidan yetkazilgan zarami undirib bemvchi markazga aylantirildi. Shu tariqa,ayni paytda Singapur korrupsiya, iqtisodiy erkinlik va rivojlanishning yo‘qligi bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi

**2. Shvetsianing korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi.** XIX asming o‘rtalariga qadar Shvetsiyada korrupsiya rivojlangan mamlakat edi. Bundan qutilish yo‘lini o‘zida aks ettiruvchi falsafiy paradigmuning o‘ziga xususiyatlari: birinchidan «merkantilizm va uning oqibatlarini tugatish, ikkinchidan, barcha pog‘onadagi mansabdarlar uchun yuksak darajadagi axloqiy-ma’naviy normalami ishlab chiqish va ularga amal qilishni ta‘minlash; uchinchidan,mustaql va adolatli sud tizimini yaratish kabilar bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra mamlakatni modernisatsiya qilishda merkantilizmni yo‘q qilish bo‘yicha choratadbirlar ko‘rildi. O‘sandan beri davlat tomonidan tartibga solish firmalarga qaraganda ko‘proq uy xo‘jaliklariga qaratildi, bunda e’tibor taqiqlash va ruxsatnomalar berishga emas, balki imtiyozlami soliqlar yukini kamaytirish va shu kabilar orqali berishga qaratildi. Ichki davlat hujjalardan foydalanish imkoniyati ochildi, mustaql va samarali sudlovga asoslangan adolat tizimi yaratildi. Shu bilan birga, Shvetsiya parlamenti va hukumati ma’murlar uchun yuqori axloqiy me’yorlami o‘matdi va ulami bajarish boshlandi. Natijada, bir necha yil o‘tgach, halollik amaldorlar (byurokratiya) o‘rtasida ijtimoiy normaga aylandi. Yuqori martabali amaldorlaming ish haqi dastlab ishchilaming ish haqidan 12-15 baravar oshib ketdi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu farq ikki baravarga kamaydi<sup>85</sup>. Bugungi kunda Shvetsiya dunyodagi eng past korrupsiya darajasiga ega davlatlardan biri sanaladi.

Bulardan tashqari bunday paradigmalami amalga oshirishni Gongkong, Portugaliya, Malaziya, Estoniya kabi mamlakatlar misolida ko‘plab keltirish mumkin. Bugungi kunga qadar pcdagogika, psixologiya, falsafa, boshqaruv nazariyasida biron bir shaxsning ideal darajadagi amaldor bo‘lishiga kafolat beradigan ma`lum usullar mavjud emas. Biroq, korrupsiya darajasi juda past bo`lgan ko`plab mamlakatlar mavjud. Bundan tashqari, davlatlar tarixida korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan harakatlar muhim yutuqlarga olib kelganligi haqidamisollar ham bor. Masalan, Estoniya, Singapur, Gonkong, Portugaliya, Shvetsiya shunday davlatlar qatoriga kiradi. Bu esa, o‘z navbatida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha muayyan falsafiy paradigmalarga asoslangan usullarining mavjudligini ko rsatadi. Mantiqan falsafiy paradigmalar nuqtai nazardan qaralsa, agar davlat bo lmasa, korrupsiya ham bo‘lmaydi. Davlatning ko‘plab funksiyalari borki, ularni fuqarolar bajarishga majburdirlar. Shu sababli ularni yo‘q qilish mumkin. Masalan, barcha soliqlами bekor qilish orqali soliq idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashish mumkin emas. Shunga qaramay, konupsiya keng tarqalgan muhitda, korrupsiya girdobiga botgan davlat organlarini

<sup>84</sup> ВЦИОП – Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией (недоступная ссылка). Дата обращения: 25 сентября 2005. Архивировано 29 апреля 2005 года.

<sup>85</sup> A.Landbeck. Swedish lessons for post-socialist countries. – Institute for International Economics Studies, Seminar Paper № 645, - Stockholm: 1998

tarqatib yuborish, undan qutulishning eng samarali radikal usullaridan biri bo‘lib tuyuladi. Biroq, barcha amaldorlar ochko`z, poraxo`r bo‘lmasligi ham mumkin. Buni ham hisobga to‘g’ri keladi.

Hozirgi kunda korrupsiyani kamaytirish borasida uchta falsafiy paradigmal yondashuv borligi ko‘zga tashlanadi.

Birinchisi, konupsiyaga aloqador bo‘lganlarni qilmishiga yarasha jinoiy javobgarlikka tortish uchun yangi qonunlar qabul qilish va ulaming ijrosini qat’iy tarzda amalga oshirishni ta’minalash.

Ikkinchisi, amaldorlaming korrupsiya botqog‘iga botib ketmasligi uchun qoida va qonunlami buzmasdan turib, ulaming daromadlarini ko‘paytirishga imkon beradigan iqtisodiy mexanizmlami yaratishni yo`lga qo`yish.

Uchinchisi, bozorlar va raqobatning rolini oshirish orqalikorrupsiyadan olinadigan daromadlar ulushini kamaytirish.

### Xulosalar

**1.** Komipsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalar deb korrupsiyaga qarshi kurash haqidagi g‘oyalar, qarashlar va tushunchalarning yetakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar, muammolami qo‘yish va ulami hal qilish modellari, tadqiqot usullari, ulami amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytildi.

**2.** Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalarni:

a) tarixiy makon va zamonda joylashgan o‘miga qarab - qadimgi, o‘rtalashtirish, yangi va eng yangi davrdagi;

b) jazolarni qo‘llash usul va vositalariga qarab - qilmishiga yarasha qonunlarda belgilangan tartibda jazolash;

v) sub‘yektlari bo‘yicha - individual, jamoaviy;

g) axloqiy-ma’naviy ta’siriga qarab — jamoa oldida uyaltirish, tadbirlariga qo’shmay izza qilish va boshqa shu kabilarga ajratish mumkin.

**3.** Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha yaratilgan falsafiy paradigmanning mantig‘ini: har qanday ko‘rinishdagi korrupsiyani yo‘q qilishga urinishlar: a) rag‘batlantiruvchi; b) shaxsni korrupsiyaviy harakatlami sodir etishga undovchi imkoniyatlami cheklash; v) imkoniyat yaratadigan sharoitlami minimallashtirish yoki yo‘q qilishga asoslangan bo‘lishi kerakligi tashkil qiladi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. J.Y.Yaxshilikov. N.E.Muhammadiyev. Falsafa darslik. Samarqand 2021 yil 489-494 betlar

2. ВЦИОП – Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией (недоступная ссылка). Дата обращения: 25 сентября 2005. Архивировано 29 апреля 2005 года.

3. A.Landbeck. Swedish lessons for post-socialist countries. – Institute for International Economics Studies, Seminar Paper № 645, - Stockholm: 1998

## O`ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY TAKTIK USUL VA STRATEGIK YO‘NALISHLAR

**Dehqonov Behzod Baxtiyorovich,**

Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manboshunosligi, falsafa” kafedrasи dotsenti v.b.  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori ( PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy taktik usul va strategik yo‘nalishlari atroflicha yoritilib falsafiy nuqtai nazarilgan isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va taktikasi, halollik vaksinasi, axborot olishning ochiqligi.

«Qizil imperiya» maqomini olgan SSSR parchalanib ketgandan so‘ng, uning o‘mida paydo bo‘lgan mustaqil mamlakatlarda hokimiyat uchun sobiq komunistlar, liberal demokratlar, din mutassadilari, uyushgan jinoyatchilar o‘rtasida kurashlar boshlanib ketdi. Natijada, mamlakatimizda ham uning mustqilligiga, davlat suverinitetiga, fiiqarolaming tinch-osuda yashashlariga tahdid

soluvchi ko'pgina noxush voqealar sodir bo'ldi. Bu voqealaming ortida qanday bo'lmasin hokimiyatni qo'lga kiritib, davlat mulkini o'zining shaxsiy-xususiy mulki qilib olishga harakat qilayotgan «kimsa»lar, ya'ni xalq tili bilan aytganda mafiyalashgan korruptionerlar turar edi. Demak, ulaming asosiy maqsadi — qanday qilib bo'lmasin hokimiyani egallab olish, uni boshqarish uchun berilgan vakolatlardan o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishni yo'lga qo'yish orqali katta bitmas tugalmas boylikka ega bo'lishdan iborat bo'lganligi hech kimga sir emas edi. Afsuski, ulaming manfur maqsadlari amalga oshmay qoldi. Xalq irodasi bilan uning haq-huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy davlatni amalga oshirish tamoyillariga asoslangan davlat hokimiyati shakllantirildi.

Davlatning o'zi xalqning manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda keng qamrovli islohotlami boshlab yubordi. Shulardan biri korrupsiyaga qarshi kurashishdan iboratdir.

Korrupsianing keng tarqaganligi va uni tag-tomiri bilan yo`q qilishning ilojini topish qiyinligini ko'zda tutib, uni — «xalqaro ofat» deb atash mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov korrupsianing paydo bo'lish sabablari va uning keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari haqida quyidagi fikrlami bildirgan edi. Jamiyatda jinoiy "xufiyona iqtisodiyot"ning mavjud bo`lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'lnlari va turli darajalari vakillari ham uning yo`lidan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korrupsiya vujudga kelib, u eng awwalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo`lish yoki to'g'ridan to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan to'g'ri tahdiddir.

Korrupsianing mamlakatimizning xavfsizligiga solayotgan tahdidlari quyidagalardan iborat:

**Birinchidan**, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasıdir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlami o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ulaming rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy buymqbozlik tizimi bilan "xufiyona" iqtisodiyotning manfaatlari ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Komipsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlaming manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib boimaydigan zarar yetkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xattiharakati bilan bu jarayonning yoiini to'sib qo'yish imkoniga ega.

**Ikkinchidan**, jinoyatchilik va komipsianing avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolaming huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Qonunlar va farmonlami qabul qilishdan maqsad ulami chetlab o'tishdir, degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahmm bo`lishiga olib boradi.

**Uchinchidan**, jinoyatchilik va komipsiya jamiyatning ma'naviyaxloqiy asoslarini emiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlami, shu jumladan-qudratli markazning kuchli qo'lini qo'msash hissini tug'diradi. O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa, yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlami, ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlami yomon yo'lga og'diradi. Axir, jamiyat va davlat uchun yosh avlodning axloqan buzilishi va yuzturban ketishidan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?

**To'rtinchidan**, pul hokimiyatga intiladi, degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo'l bilan topilgan bo'lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasawur qilish qiyin emas. Jinoyal olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Awwaliga bu ish nopok daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qoiga kiritiladi. Hokimiyat organlarining jinoyatga

aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalaming davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ulaming turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolaming himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o`zini obro`sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi.

**Beshinchidan**, nopol yo`l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o`zlarining jinoiy sarmoyalalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo`rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatm beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklami keltirib chiqarishga sa`y turadilar. Bunday paytda ehtiroslami junbushga keltirish olomonni qo`zg`atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo`q. Bunday odamlaming “Faqat bizga yaxshi bo`lsa, ishimiz bitsa – bo`lgani qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko`rinishidir.

**Oltinchidan**, jinoiy usullar bilan boylik va mo`may pul orttirgan kimsalaming yangi huquq himoyachilari va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilayotganidan dalolat beruvchi misollar, jumladan, bizda ham oz emas. Ular bunday xatti-harakatlari bilan insoniyatningadolat va demokratiya kabi olijanob ideallariga naqadar jiddiy zarar etkazayotganlarini, o`z xalqlari vamamlakatlari sha`niga dog` tushirayotganlarini aytib o`tirishning hojati bormikin? Nafsilamrini aytganda, ular o`z xalqlari va mamlakatlarining taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar. Bunday shaxslaming turish-turmushi ketma-ket qilingan jinoiy xattiharakatlar zanjiridan iboratdir. Awaliga o`z xalqini aldab kapital to`planadi, keyingi gal - demokratiya va adolatni ro`kach qilgan holda jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro` orttiriladi. Sir emaski, bunday shaxslar o`z manfaatlari yo`lida respublikadagi vaziyatga ta`sir ko`rsatishga urinayotgan tashki kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar. Mamlakatimizning kelajagini va obro`-e`tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog`i darkor. Halol mehnat qilish, o`z bilimi, kuch-g`ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo`lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to`la-to`kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo`liga o`z vaqtida zarur to`sinq qo`yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligani yaxshi anglab yetmog`i lozim<sup>86</sup>.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining samaradorligini oshirish va ularni ilmiy-amaliy jihatdanyanada takomillashtirib borishning asosiy yo`nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin.**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishishning yaqin va uzoq muddatga mo`ljallangan modeli ishlab chiqilishi. Unda korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institutsional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta'minlab turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi aniq qonunchilikda mustahkamlanishi; qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yichahuquqiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy elementlari o`rtasida o`zaro hamkorlik va bir-biriga ta`sir qilish mexanizmini ishlab chiqish va yoiga qo`yish. Bu strategik jihatdan olib qaraganda korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha yaxlit kompleks tizimning uzviy ishlashini jamiyatda yoiga qo`yishning samaradorligini ta'minlaydi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida innovatsion yondashuvni samarali qoilash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta`minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalaming xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berish. Bu O`zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integratsiyaga crishishga to`sinqlik qilayotgan omillardan biri - jinoyat va jinoyat prsessual qonunchiligin korupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha moddalarini mukammal ishlab chiqish hamda korupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlami o`rganish, tahvil qilish va korupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chor-tadbirlami ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilishda aniq statistika hamda dalillarga asoslangan ma'lumotga tayangan holda ish olib borishni ta`minlashga xizmat qiladi.

<sup>86</sup> Kapimov I.A. O`zbekiston XXI acp bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, 6apqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari//Uning o`zi. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida T.6. -T.: O`zbekiston, 1998. -B.90-93.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishni jamiyatning ijtimoiy sohalarida, xususan, tadbirdorlik, ta'lim, sog`liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilish sohalarida yanada kuchaytirish uchun korrupsiya bilan bog'liq ayrim xatti-harakatlami barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarda ta'minlash hamda xaiqaro tajribani o'rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlami qonunchilikda mustahkamlab borish. Bu esa mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturini ijrosini jamiyatda ta'minlanishi va bu borada tizimli monitoring qilish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmning islohotlar talablari darajasida ishlab chiqish. Bu davlat xizmatchilarining konupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish darajasining talab darajasidan pastligini oshkor qilish, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda ta'minlanishi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish natijasidajamiyatda ijtimoiy adolatni o'matishga xizmat qidi.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy lendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish. Bu fuqarolaming korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish masalasiga nisbatan daxldorlik hissini, mas'uliyatini oshirishga, ular tomonidan bu illatga qarshi qilinayotgan ishlami ommaviy axborot vositalarida keng yoritishga ishonchli dalil bo'lishiga imkon yaratib beradi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish. Bu fuqarolaming kormpsiyaga tegishli bo'lgan ma'lumotlami o'rganish imkoniyatini yaratish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish, korrupsiyaga oid muammolami hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning izchil tizimini yaratish va hayotga tadbiq qilishning optimal taktik variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish. Bu korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish va qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish vaadolalli baholashga qaratilgan chora-tadbirlaming ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi<sup>87</sup>.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари//Унинг ўзи. Хавфсизлик ва баркарор тараққиёт йўлида Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998. -В.90-93.
- Умаров.У. А. Коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш-жамият тараққиётини кафолати. Тошкент-ЎзННТМА-2019
- J.Y.Yaxshilikov. N.E.Muhammadiyev. FALSAFA DARSLIK. Samarqand 2021 yil 496-502 betlar

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH DAVR TALABI

**Toshkentova Sharofatbonu,**  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali assistenti

**Annotatsiya.** Korrupsiya davlat yoki jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazadigan, shaxsiy manfaatlar uchun davlat resurslarini suiiste'mol qilish holatidir. U iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati, usullari va strategiyalari haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, strategiya, poraxo'rlik, shayxulislom, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy adolat, modernizatsiya.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib

<sup>87</sup> Умаров.У.А. Коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш-жамият тараққиётини кафолати. Тошкент-ЎзННТМА-2019

kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan g‘arb davlatlari ham korruksiyadan butkul xalos bo‘lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korruksiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Lekin shunga qaramay, poraxo‘rlik Usmoniyalar xalifaligida ham mavjud bo‘lgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o‘zi nazorat qilardi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu ishni o‘ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo‘yicha shaxsiy yordamchisi bo‘lgan vazirga topshirib qo‘ydi. Vaqt o‘tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o‘rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo‘lgandi.

Bu holat Usmoniyalar sultanatida ham istisno emasdi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to‘plashda harbiy xizmatchilar qing‘irliliklar sodir etardi. Bu suiste’mol holatlarini hattoki Usmoniyalar sultanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ydi, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Usmoniyalar sultanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘shinlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi. Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko‘ngildagidek natija bermagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati juda katta va ko‘p jihatlarni o‘z ichiga oladi. Quyida uning asosiy ahamiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

#### 1. Iqtisodiy Rivojlanish

- Investitsiyalarni jalb qilish: Korrupsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlar investorlar uchun yanada jozibador bo‘ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish iqtisodiy o’sish va rivojlanishni rag’batlantiradi.

- Resurslardan samarali foydalanish: Korrupsiyani kamaytirish orqali davlat resurslari to‘g’ri va samarali ishlatalidi, bu esa ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

#### 2. Ijtimoiy Adolat

- Tenglikni ta’minalash: Korrupsiya ko‘pincha eng qashshoq qatlamlarga eng ko‘p zarar yetkazadi. Korrupsiyaga qarshi kurash ijtimoiy adolatni ta’minalaydi va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni yaratadi.

- Fuqarolar ishtiroki: Ommaviy nazorat va fuqarolar ishtiroki orqali korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyatdagi adolatni oshiradi.

#### 3. Siyosiy Barqarorlik

- Ishonchni oshirish: Korrupsiyani kamaytirish davlat organlariga nisbatan fuqarolar ishonchini oshiradi, bu esa siyosiy barqarorlikni ta’minalaydi.

- Demokratik jarayonlar: Korrupsiyaga qarshi kurash demokratik jarayonlarni kuchaytiradi va fuqarolarni faol ishtirok etishga undaydi.

#### 4. Shaffoflik va Hisobdorlik

- Davlat organlarining shaffofligi: Korrupsiyaga qarshi kurash davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minalaydi, bu esa fuqarolar uchun davlat organlarining hisobdorligini oshiradi.

- Tashqi va ichki nazorat: Korrupsiyani kamaytirish orqali ichki va tashqi nazorat mexanizmlari samarali ishlaydi, bu esa korruption holatlarni aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

#### 5. Xalqaro Hamkorlik

- Global muammo: Korrupsiya xalqaro miqyosda tarqalgan muammo bo‘lib, unga qarshi kurashish uchun xalqaro hamkorlik zarur. Bu orqali tajriba almashish va birgalikda strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

- Xalqaro obro’: Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatning xalqaro maydonidagi obro’sini oshiradi, bu esa iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yaxshilaydi

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korruksiyadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandas, davlatlar o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz

to'siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o'nlab qo'shma korxonalarining ochilishi va yopilishi zamirida ana shu "ko'rinas qo'llar" yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o'xshaydi.

Oldin G'arb, keyinroq Osiyo davlatlarida bu masala chuqurlashib, jamiyatda "kasallik" hududi, ko'lami va darajasi kuchayib borayotgan ekan, nima qilmoq kerak, degan doimiy savol paydo bo'ladi. Nima qilsa, dunyoni egallab, mamlakatlar iqtisodiyotiga raxna solayotgan bunday balo-qazoning ta'sir doirasi kamayadi?!

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlarikundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga bog'lanib, chirmashib ketganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. "Nozik", "chigalroq" ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo'lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiylar, eng muhim, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari quydagilardan iborat:

- Qonunchilikni kuchaytirish: Korrupsiyaga qarshi qonunlarni takomillashtirish va yangi qonunlar qabul qilish, shuningdek, ularni samarali amalga oshirish;
- Shaffoflik va hisobdorlik: Davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini shaffof qilish, ularning hisobot berish mexanizmlarini kuchaytirish;
- Monitoring va nazorat: Korrupsiyaga qarshi maxsus tashkilotlar va komissiyalar tashkil etish, davlat xarajatlarini va tender jarayonlarini nazorat qilish;
- Ta'lim va tarbiya: Korrupsiya haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish, yosh avlodni korrupsiyaga qarshi tarbiyalash;
- Jamoatchilik ishtiropi: Fuqarolarni korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- Xalqaro hamkorlik: Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish, tajriba almashish va birgalikda loyihibar amalga oshirish;
- Ommaviy axborot vositalari: Korrupsiya holatlarini ochiq va shaffof yoritish, jurnalistlarning korrupsiyaga qarshi faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- Raqamli texnologiyalar: Elektron hukumat tizimlarini joriy etish, raqamli xizmatlar orqali shaffoflikni oshirish.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir ~~tm~~~~q~~~~lm~~~~di~~; ikkin~~hid~~~~n~~, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'~~tir~~~~di~~; u~~hin~~~~hidan~~, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, g'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarining ahamiyati bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi: Ijtimoiy adolatni ta'minlash: Korrupsiya ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, chunki u resurslarniadolatsiz taqsimlashga olib keladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari ijtimoiy adolatni tiklashga yordam beradi. Korrupsiya iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va investorlar uchun xavf tug'diradi. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar iqtisodiy muhitni yaxshilaydi va investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Davlat organlariga ishonchni oshirish: Korrupsiyaga qarshi kurashish orqali davlat organlariga va ularning faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshirish mumkin. Bu fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi.

Korrupsiyani kamaytirish demokratik jarayonlarni rivojlantiradi va fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishini rag'batlantiradi. Xalqaro imidjni yaxshilash: Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari davlatning xalqaro maydonagi obro'sini oshiradi, bu esa xalqaro hamkorlik va yordam olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tashqi va ichki xavfsizlikni ta'minlash ko'pincha jinoyatchilik va terrorizm bilan bog'liq bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xavfsizlikni

mustahkamlashga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning ishtiroki kuchayadi, bu esa korrupsiyani fosh etishga va unga qarshi kurashishga yordam beradi.

Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari jamiyatning barcha jabhalarida ijobji o'zgarishlarga olib keladi, bu esa barqaror rivojlanish va farovonlikka xizmat qiladi.

Jamiyatda ustuvor soha — ta'lif tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlari ongida tolerantlikni uyg'otish muammozi oldimizda ko'ndalang turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlari ongida shakllanib qolgani (Yaponiya yoki Xitoy fuqarosi ongida nega u shakllanmaganligi alohida mavzu) eng katta kamchiligidiz.

Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan davlat xalqqa xizmat qilishi kerak, degan ulkan g'oya fuqarolik jamiyatni institutlariga tizim va dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatini bergen edi. Ammo nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar bu borada tashabbus hamda tashkiliy ishlarini amalga oshirishni negadir paysalga solmoqda.

Ayniqsa, modernizatsiya, yangilanish, islohotlar bilan korrupsiyaning bir-biriga "qoni qo'shilmaydi", yangilik bilan eskilik tarafдорлари, fan, innovatsiya, kreativ fikrlovchilar bilan eski byurokratiya avlodni o'rtasida muttasil kurash davom etadi.

2020-yil 29-iyunda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bu borada davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan birga, ana shu ko'rsatkichni yaxshilash ustida ko'p ishlashi kerak.

Demak, milliy taraqqiyotga to'siq bo'lib kelayotgan korrupsiyani bartaraf etish yo'lida dadil qadamlar tashlanmoqda. Eng asosiysi, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

**Xulosa.** Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlatning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Bu jarayon faqat davlat organlarining sa'y-harakatlari bilan cheklanmaydi; balki barcha fuqarolar, jamoatchilik tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat ishtirokini talab etadi. Korrupsiyani yengish orqali biz adolatli va barqaror jamiyatga erishamiz.

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to'siq bo'layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois Yurtboshimiz boshlab bergen jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlari qiyinchilik bilan davom etmoqda. Iqtisodiyotning investitsiya kiritilgan, "pul ishlaydigan", birmuncha "yog'li" tarmoqlariga o'rashib olgan "korrupsiya halqasi" milliy taraqqiyotimizning dushmani, jamoat nazorati esa ularga qarshi kurashda ojizlik qilayotgani ham afsuski bor gap. Mamlakatda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari "zanjiri" uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog'ozda qolib ketaveradi.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandas, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarningina emas, barchanering ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

#### Foydalaniman adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
- T.:O'zbekiston. 1997-yil;
2. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma'lumotnomasidan;
3. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujatlari to'plami [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## KORRUPSIYANING UZOQ TARIXI VA IJTIMOY SALBIY HODISA EKANLIGI

Tohirova Javohira Samandar qizi,  
Qarshi davlat universiteti Amaliy psixologiya  
yo‘nalishi 5-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada koorrupsianing tarixiy ildizlari hamda uning turkli tarixiy davrlarda inson va jamiyat hayotiga ta’siri bilan bog‘liq qarashlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, ahloq, manfaat, pora, jamiyat, ijtimoiy tuzum, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy profilaktika.

Korrupsiya – bu ijtimoiy tuzumning shakllanishi bilan dastlabki belgilari paydo bo‘lgan qadimiy hodisa. Lotin tilidan tarjima qilingan “corrumpere” – mansabdar shaxsning o‘ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishini bildiruvchi atama. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bu hodisa turli vaziyatlarga va siyosiy rejim turlariga moslashib, o‘zgarib, yangi shakllarga ega bo‘ldi. Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo‘llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratilgan. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi” kitobida (miloddan avvalgi IV-III asrlar) barcha boblar halol va vijdonsiz vazirlarni nayranglar orqali fazilat va illatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. “Odob-axloq qoidalari to‘g‘risida”gi birinchi bo‘limda nazorat yordamida talon-taroj qilishga qarshi kurashish muhimligi ta‘kidlangan, hamda davlat mulkini o‘g‘irlashning o‘nlab usullari sanab o‘tilgan va makkor amaldorlarning hiyla-nayranglariga butunlay barham berishning iloji yo‘qligi haqida bashorat qilingan. “Artxashastra”ning 26-bo‘limi aynan korrupsiyaga bag‘ishlangan. Bo‘limda korrupsiya “o‘zlashtirish” iborasi orqali izohlanadi. “Artxashastra”da poraxo‘rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdar shaxs vaqtiga bilan xalq to‘planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytildi: “Biron bir boshliqdan zarar ko‘rganlar bo‘lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar”. Bundan tashqari korrupsiya illatiga antik davr faylasuflari va donishmandlari tomonidan ham e’tibor qaratilgan. Platon bekamu-ko‘st davlat tushunchasi haqida fikr yuritar ekan, hokimiyat xizmatchilarini har qanday mulk masalasini hal qilish imkoniyatidan mahrum etishni orzu qilgan. Aristotel korrupsiyani davlatning o‘limi, shuningdek, monarxiyaning zulmga aylanishining sabablaridan biri sifatida ko‘rgan. “Har qanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdar shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”. Shuningdek faylasuf korrupsiyaga qarshi kurashish usullaridan biri sifatida – bir amaldorga bir nechta lavozimlarni berishga yo‘l qo‘ymaslikni taklif qiladi. Aristotelning ushbu fikrlari xozirgi kunda ham dolzarligicha qolmoqda. Muqaddas Kitob (Bibliya)da korrupsiya mazmunli va ibratlari tarzda ifodalangan. Ya’ni uning amrlarida (zapoved) “Sovg‘alarni qabul qilmang, chunki sovg‘alar ko‘zni ko‘r qiladi, qulqoni kar qiladi” (3. – chiqish 23, 8-oyat), “...o‘g‘irlilik qilmang, yolg‘on guvohlik bermang, birovdan hech narsa istamang”, “begunoh insonning qonni to‘kish uchun pora olgan shaxsga la’natlar bo‘lsin!” deyilgan. Gerodot (Tarix 5-kitob, 25-bob) asarida: “Qirol Kambiz, pora olib adolatsiz hukm chiqargani uchun qozini qatl etishni va terisini shilishni buyurgan”. Keyin qirol noplak qozining o‘rniga uning o‘g‘lini qozi qilib tayinlab, uni otasining terisi bilan o‘ralgan stulga o‘tirishga majbur qilgan. 1498 yilda yuqorida ayтиб o‘tilgan tarixiy syujet flamand rassomi Gerard David tomonidan Bryugge shahridagi sud zali devoriga chizilgan. Rassomning “Kambiz sudi” nomli ushbu asari qozilar uchun o‘ziga hos tarbiya hamda qozilar sha’nini eslatib turish uchun xizmat qilgan. “Korrupsiya” atamasini birinchi bo‘lib bugungi kundagi tushunchaga yaqin ma’noda ishlatgan mashhur italyan siyosatchisi Nikkolo Makiavelli (1469-1527) bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif bergan: “Davlat imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish”; “mansabdar shaxslar tomonidan talon-taroj qilish tizimi”. Shuningdek, u korrupsiyani dastlab tanib olib qiyin, ammo davolash oson, keyin esa tanib olib oson, lekin davolash deyarli imkonsiz bo‘lgan kasallik bilan qiyoslagan. Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada Qur’oni Karimning Baqara surasi 188 oyatida “Bir-birlaringizning mollarining botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini gunoh ila yeyishingiz uchun uni hokimlarga tashlamang” deyilganligi Muqaddas islom dini ham korrupsiyaga, poraho‘rlikka qarshi ekanligidan dalolat beradi. Imom Buxoriyning muborak hadislarda: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam biron hukm borasida pora beruvchini ham, pora oluvchini ham la’natlaganlar!”. Yana ul zot aytadilar: “Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la’natlasin!”. Taniqli hanafiy olimi va faqiji Zayn al-obidin (Zayniddin) Ibn Nujaym al-Misriy al-Hanafiy (1519-1563) rahimahullohning mazkur «Pora va uning turlari» risolasida poraning bayoni,

uning turlari haqida, uning zaminida qoziga olish joiz bo‘ladigan yoki umuman mumkin bo‘lmaydigan narsalar, poraning halol va harom bo‘ladigan holatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek, pora bilan hadiyaning orasidagi farq haqida, pora olganda uning egasi kim bo‘lishi haqida, pora oluvchilarning ta‘zirini berib qo‘yilganda, oshkora hammaga ma’lum qilinishi borasida ham so‘z yuritilgan. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyningadolat haqidagi qarashlari, uning asarlarida (“Qozilar haqida”, “Qonunshunos muftiyalar zikrida”) ta’sirchan qilib yoritilgan. Uning fikricha, qonunshunosning fikri g‘ayriqonuniy tarafga og‘masligi, ko‘ngli hiylagarlikdan xoli, fikr mezoni to‘g‘ri, axloqsizlikdan yiroq bo‘lishi, pora evaziga haqni nohaq va nohaqni haq qilmasligi zarur. Hazrati Navoiy asarlarida pora oladigan har qanday qonunshunos jamiyatga zarar keltiradi, qonun vaadolat ustuvor bo‘lgan jamiyatdagina chin ma’noda yuksak taraqqiyot yuzaga keladi deb e’tirof etilgan. Shuningdek Alisher Navoiyadolat tuyg‘usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliv mezon darajasiga ko‘targan hamda odamzodni hayotdaadolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlab o‘tgan. Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiyining “Axloqi Muhsiniy” asarida pora haqida shunday ta’rif berilgan: “Ish yurituvchi amaldorlar pora olishdan ehtiyyot bo‘lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo‘lsa, pora olishga ruxsat bergen bo‘ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroqdir”. Xalqaro moliya sohasida 25 yil davomida ishlagan, Jahon bankining sobiq katta menedjeri Piter Eydjen, u yerda sodir bo‘layotgan noqonuniy ishlarning guvohi bo‘lganligi uchun xizmatni tark etgan va o‘zinining hayotini butun dunyo bo‘ylab korrupsiyaga qarshi kurashishga bag‘ishlagan. U korrupsiya muammosini o‘rganish jaryonida hozirda taniqli bo‘lgan “Xalqaro shaffoflik” tashkilotini (Transparency International) yaratdi. Ushbu tashkilot har yili “Korrupsiyani idrok etish indeksi” – CPI deb ataladigan dunyo mamlakatlari reytingini e’lon qilib boradi. Yuqorida reytingning paydo bo‘lishi bilan dunyoda korrupsiyani o‘rganishga qiziqishning kuchayishiga va uning ilmiy izlanishlarining faollahishiga yordam berdi. “Xalqaro shaffoflik” tashkilotining bevosita ishtirokida mansab vakolatlarini suiisteomol qilishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Korrupsiya muammolariga e’tibor kuchayishi natijasida, 1995 yil 31 dekabrda Britaniyaning “Financial Times” gazetasi 1995 yilni “Korrupsiyaga qarshi kurash yili” deb e’lon qilishni taklif qildi. Bu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobjiy baholandi va 2003 yil 1 noyabrdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi Konvensiya” imzolanishi jaryonida, 9 dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni” deb e’lon qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollaridan ortiq hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti esa har yili Korrupsiyaning oqibatlari tufayli 2,6 trillion dollar mablag‘ yo‘qotadi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 % ini tashkil qiladi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha birmuncha islohotlar amalga oshirildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘i – Istanbul harakat dasturiga qo‘sildi. Xalqaro va milliy huquq meyorlariga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashishning Milliy rejasidishlab chiqildi. Shuningdek, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bir necha farmon va qarolari qabul qilindi. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davom etayotganiga qaramay, mazkur illat davlatning barcha sohalarida keng tarqalganligi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga albatta o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqdi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Respublika bo‘yicha sudlar tomonidan jami 4607 ta korrupsiyaga oid jinoyat ishlarida 6535 nafar shaxs (2022-yilda 7 414 nafar shaxs) jinoiy javobgarlikka tortilgan. Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida, 2023-yilda davlat manfaatlariga jami 1 trln. 435 mlrd (2022-yilda 2 trln. 43 mlrd) so‘mi miqdorida zarar yetkazilganligi aniqlandi. Ushbu zararning 745 mlrd so‘mi yoki 51 foiz qoplangan. Ushbu yo‘nalishdagi ma’lumotlar tahlili, korrupsiyaga qarshi kurashda yetkazilgan zararni to‘liq qoplash, korruptionerlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarga keskin jazo qo‘llashni kuchaytirishni ko‘rsatmoqda.

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o‘g‘rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz. Shuning uchun har bir fuqaro go‘zal va betakror

yurtimizning bugungi va ertangi kuni, yorug‘ kelajagi uchun avvalambor o‘zi mas’ul ekanligini unutmasligi kerak. Zero, tarix o‘tmish fani sifatida bugungi kunni to‘g‘ri yo‘naltirishga va kelajakka yo‘l topishga intilayotganlar uchun doimo foydalidir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanovning umumiy tahririda. YURIDIK ENSIKLOPEDIYA. Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2001 yil. 258-bet.
2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Yangi asr avlod” nashriyoti, 2022-yil. 320-bet.
3. <https://anticorruption.uz/uz/item/2023/01/31/transparency-international-2022-yilgi-korrupsiyani-qabul-qilish-indeksini-elon-qildi>.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. <https://lex.uz/docs/-4545884>
6. <https://tuit.uz/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim>
7. <https://gov.uz/oz/toshkent/news/view/9056>

## **KORRUPSIYASIZ HAYOT SARI**

**Qurbanov Asqar Bahodir o‘g‘li,**

Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya”  
kafedrasiga katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiya muammosi bugungi kunda global miqyosda hal etilishini taqozo etayotgan birinchi muammolardan biri ekanligi hamda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va islohotlar haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, davlat, iqtisodiy o‘sish, davlatlararo integratsiya, inson huquqlari.

Korrupsiya (lotincha: corrumpto – aynish, poraga sotilish) – mansabdar shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste’mol qilishidan iborat amaliyat. Mansabdar shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o‘tkazish harajatlarini ko‘tarish Korrupsiya ko‘rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko‘rsatib „o‘z qarzini“ qaytaradi). Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopolialarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog‘langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo‘yicha „Lokxit ishi“ eng yirik Korrupsiya ko‘rinishlariga misol bo‘ladi. Porani xaspo‘shlash uchun yirik bitishuvlarda ko‘proq „xizmat haqi“ to‘lash amaliyotidan foydalaniladi. Makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan, korrupsiya iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta omildir. Hozirgi globallashuvning murakkab sharoitida mintaqaviy va davlatlararo integratsiya jarayonlari jadallahib, korrupsiya chegara bilmaydigan muammoga aylandi. Aytish kerakki, korrupsiya oqibatlari jamiyatni ichkaridan buzib, demokratiya va qonun ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlarining qo‘pol buzilishiga olib keladi, iqtisodiy taraqqiyotni izdan chiqaradi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng tarqalishi uchun sharoit yaratadi; jamiyat va davlat uchun juda xavflidir. BMT va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti bu ofat tufayli yiliga 1,5-2,6 trln. Korrupsiya nima, nega butun dunyo bu illatga qarshi kurashmoqda? Korrupsiya - bu mansabdar shaxslardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy hodisa. Ma’lumki, bu illat har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Bu jamiyat ma’naviyatini buzadi, qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jiddiy buzadi. Shu bilan birga, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat xavfsizligiga tahdid soladigan boshqa tahdidlarning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Mansabdar shaxs o‘z shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yishi natijasida mamlakatning siyosiy-iqtisodiy yo‘liga va aholining ko‘pchiligiga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazadi, xorijiy sheriklarga ishonchsizlik uyg‘otadi, ularni hamkorlikdan qaytaradi. Ularning har birida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar va unga qarshi kurashish bo‘yicha normativ hujjatlar qabul qilingan davlatlar bor. Darhaqiqat, korrupsiya muammosi bugungi kunda global miqyosda hal etilishini talab qilayotgan birinchi muammolardan biridir. Shuning uchun ham jahon hamjamiyati bu kasallikka qarshi qattiq kurash olib bormoqda. Bu

yo‘nalishda BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi rezolyutsiya, Davlat amaldorlarining xalqaro axloq kodeksi, Xalqaro tijorat tashkilotlarda korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashish deklaratasiysi, Uyushgan tashkilotlarga qarshi xalqaro konvensiya kabi qator xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Jinoatchilik, Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. Tan olish kerakki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash izchil olib borilmoqda. Bu borada so‘z yuritadigan bo‘lsak, birinchi navbatda, mamlakatimiz 2008-yilda Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul rejasiga, jinoiy daromadlarni legallashtirishga va moliyalashtirishga qarshi kurashga qo‘shilgan. 2011-yilda Oliy Majlis tomonidan terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitim ratifikatsiya qilinganligini ko‘rsatish zarur. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son qarori. “Bu boradagi izchil sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomidir. Asosiy maqsad mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, qulay sarmoyaviy va ishbilarmonlik muhitini yuqori darajada yaratish, turli ko‘rinishlari bilan mamlakatimizning xalqaro maydonidagi ijobjiy nufuzini oshirish va mustahkamlashdan iborat. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalgalashish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa sohalarda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish asosiy vazifa hisoblanadi va nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minalash, shuningdek, bu boradagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi bo‘lishi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol ifodasidir. Rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan Singapur, Shvetsiya, Finlyandiya hamisha dunyoda korrupsiya darajasini o‘rganuvchi Transparency International tashkilotining korrupsiya yo‘qligi indeksida, faqat buning ildiziga zarba berish orqali davlat islohotlarini boshlagani uchungina o‘rin olgan. Bu, albatta, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish darajasiga, jumladan, investitsiya faoliyati, investitsiya muhitining rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, davlatning har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Korrupsiya va poraxo‘rlik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jahon tarixinining turli davrlarida amaldorlar tomonidan sodir etilgan korrupsiya ham ko‘zga tashlanadi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilgani, korrupsiyaga qarshi qonunlar qabul qilingani, maxsus jazolar tayinlanganiga guvoh bo‘lamiz. Nizomda mulkni, xususan, davlat mulkini o‘zlashtirganlik uchun javobgarlikni belgilashga o‘ziga xos yondashuv belgilandi. Tekshiruv, tekshirish va tergov ishlari olib borildi. O‘z qilmishini suiiste‘mol qilish, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy tartibsizliklar kabi harakatlar og‘ir gunoh hisoblanib, qattiq jazolangan.

Shunday ekan, har bir inson halol rizq talab qilishi, biroq o‘zganining haq-huquqlaridan ehtiyoj bo‘lishi, birovning mulkini nohaq yo‘llar bilan o‘zlashtirmaslik, garchi o‘zlari “mag‘rur odamlar” bo‘lib ko‘rinsa ham, ular haqiqatdan ham ojiz va kambag‘al ekanai juda muhim. Bunda birovning haqqini nohaq olish, pora beruvchi ham, oluvchi ham og‘ir gunohkor bo‘ladi. Bu haqda muqaddas manbalarimizda ham eslatib o‘tilgan. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashda insonning diniy-ma’rifiy bilimga ega bo‘lishi juda muhimdir. Tan olishimiz kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash oila muhitidan, tarbiyadan boshlanadi. Jamiyatda nima halol, nima harom ekanligini farzandlarimizga ota-on, ustozlar o‘rgatadi. “Odamlar aniq maqsad sari intilmog‘i, davlat arbobi bo‘lmog‘i, shod bo‘lib hurmat qozonishi, dunyoviy bo‘lishi yoki ojiz bo‘lib xor bo‘lishi, baxtsizlik yukini ko‘tarilishi, e’tibordan chetda qolishi, o‘zgalarga bo‘ysunib, qul bo‘lishi, mahkum bo‘lishi tarbiyaga bog‘liq. Korrupsiyaga qarshi kurash har bir fuqaroning ichki axloqiy-ma’naviy nasihatini va e’tiqodiga aylanishi kerak, bu esa korrupsiyaga qarshi ma’rifatning o‘zagini tashkil etadi. Qonun talablarining to‘liq hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz aholisi farovonligini oshirish, taraqqiyot yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

**Xulosa:** Vatanimiz kelajagi va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidining zararli oqibatlarini doimo yodda tutishi, unga qarshi kurashishi zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.www.ziynet.uz
2. М.В.Костенников (2004), Куракин А.В. Предупреждение и пресечение коррупции в системе государственной службы. М.,
3. В.В.Лунеев(2000) Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы (Тезисы доклада) // Государство и право. № 4.101 с
4. П.А.Чебоксаров (2001) Проблема коррупции на уровне местного самоуправления // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., 220 с
5. А.В.Кузьмин (2001), Козловских Е.А. Проблемы преодоления коррупции в РФ // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., С - 165

## KORRUPSIYA JAMIYATIMIZDA DEMOKRATIK RIVOJLANISH KUSHANDASI

**Qo'shshayeva Muhayyo Farxritdin qizi,**  
TerDPI, Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi  
4-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korrupsiyaning jamiyatimizdagи demokratiya rivojlanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri o'rganiladi. Korrupsiyaning ijtimoiy adolatga putur yetkazishi, qonun ustuvorligiga to'sqinlik qilishi va iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtirishi muhokama qilinadi. Shuningdek, demokratiyani rivojlantirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashning samarali mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari taklif etiladi. Mualliflar korrupsiyaning sabablarini va uning oqibatlarini tahlil qilib, uni kamaytirishga qaratilgan strategik choralarни ko'rsatishga intilganlar.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, demokratiya, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, iqtisodiy taraqqiyot, korrupsiyaga qarshi kurash, demokratik rivojlanish, qadriyat, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, milliy ruh, dunyo tajribasi.

Korrupsiya bugungi kunning global muammolaridan biri bo'lib, nafaqat iqtisodiyotga, balki ijtimoiy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, demokratiyani rivojlantirish yo'lida korrupsiya eng katta to'sqlardan biridir. Ushbu maqolada korrupsiyaning demokratik taraqqiyotga ko'rsatadigan ta'siri, uning salbiy oqibatlari va uni bartaraf etishning samarali choralariga e'tibor qaratiladi. Nafaqat inson hayotini, balki jamiyat va davlat hayotini ham zaharovchi omillardan biri bu korrupsiya hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 8-dekabrida "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika kengashining majlisi"da shunday ta'kidlagan edi: "Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning huquqini himoya qilish, davlatning obro'sini tiklash va jamiyatda ishonchni mustahkamlashning eng muhim yo'lidir"<sup>88</sup>.

Korrupsiya - bu mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini shaxsiy manfaatlari yo'lida suiiste'mol qilishi bo'lib, bu ijtimoiy adolatni izdan chiqaradi. Korrupsiyaning keng tarqalgan ko'rinishlari poraxo'rlik, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish va noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirishdir. Bu holatlar nafaqat davlat boshqaruv tizimiga, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Korrupsiya jamiyatda ijtimoiy adolatni buzadi, resurslar va imkoniyatlarni noto'g'ri odamlar tomonidan noto'g'ri taqsimlanishiga sababchi bo'ladi. Bu esa jamiyatda davlat siyosatiga nisbatan xalqda norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi va ishonchni kamaytiradi. Shu sababdan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi

<sup>88</sup> Sh.Mirziyoyev 2020-yilning 8-dekabrida "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika kengashining majlisi"da so'zlagan nutqidan

Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 89-maqsadi aynan korrupsiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, u “Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish” deb nomlanadi. Bu maqsad doirasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgilab berildi:

- “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish;
- Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish;
- Davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larning talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish;
- 100 foiz normative – huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash<sup>89</sup>.

Bu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida ko‘makchi bo‘luvchi omil sifatida milliyligimizni keltirishimiz lozim. Aynan milliy qadriyatlarga tayangan holda muassasa va tashkilotlarda korrupsiya omilini kamaytirish, inson aralashuvini tartibga solish, raqamlashtirish muhimdir. Shuning negizida biz qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishimiz, tovar va xizmatlarning narxini nazoratga olishimiz mumkin bo‘ladi. Bunda rahbar xodimlarni milliy ruhda tarbiyalash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakillantirish zarur.

Buning natijasi o‘laroq 2023-yilda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun ikki kunlik o‘quv-seminarlarining tashkil etilganligida, “Tijorat banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etishga doir milliy qonunchilik talablari va xalqaro standartlar” mavzusida seminar tashkil etilganligida ham ko‘rishimiz mumkin.

Har bir sohada bo‘lgani kabi, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ham 89-maqsadni amalga oshirish uchun dunyo davlatlari tajribasidan foydalanishimiz, uni qadriyatlarimizga moslashimiz lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 2023-yil iyul oyidagi agentlik delegatsiyasi o‘z faoliyati davomida Malayziya, Singapur davlatlarining sohadagi tajribasi bilan tanishdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi, shu jumladan Adliya vaziriligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i J.Uzakov Singapurdagi xizmat safarida bo‘ldi.

Xalqaro hamkorlik bo‘yicha Germaniya jamiyati (GIZ) ning “Samarali davlat boshqaruvi” loyihasi doirasida Agentlik tomonidan Singapurning Korrupsiya amaliyotlarini tergov qilish byurosi bilan hamkorlikda tashkil qilingan tashrifda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi, Bosh prokuratura va boshqa mas’ul tashkilotlar vakillari ishtirok etishdi.

Tashrifdan asosiy maqsad – ikki davlat korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, Singapurning sohadagi ilg‘or tajribasi bilan yaqindan tanishish va maqbul yechimlarini milliy amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Safar doirasida Singapur Bosh prokururaturasi, Korrupsiya amaliyotlarini tergov qilish byurosi, PSB Akademiyasi, Li Kuan Yu nomidagi Davlat siyosati maktabi va boshqa tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi<sup>90</sup>.

Delegatsiya o‘z ishini muvaffaqiyatli yakunlab milliy an’ana va urf-odatlarimizga mos ravishda rahbar xodimlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Korrusiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, aynan jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarga zid bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashishning muhimligini ta’kidlaydi.

<sup>89</sup> <http://anticorruption.uz>

<sup>90</sup> <https://adliya.uz/en>

“Jamiyat rivojlanib, davlat boshqaruvi murakkablashgani mansabdor shaxslar soni, hokimiyat idoralarida xizmat qiluvchi apparat o’sib brogan. Bu esa poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish, davlat va korxona mablag‘larini o‘zlashtirish va boshqa xildagi jinoyatlar ko‘payishiga olib kelgan”, - deb ta’kidlaydi A.Erkayev<sup>91</sup>.

Korrupsiya jamiyat rivojlanishining har bir jabhasiga zarar yetkazadigan xavf bo‘lib, ayniqsa demokratianing ildiz otishi uchun jiddiy to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Shaffoflik, qonun ustuvorligi va jamoatchilikning faol ishtiroki bu kurashda muvaffaqiyatga erishishning asosiy garovi hisoblanadi. Faqat shu yo‘l bilangina biz haqiqiy demokratik jamiyatni barpo eta olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo‘lgan korrupsiyani to‘xtatishni inson eng avvalo o‘zidan boshlashi, davlat unga sharoit yaratib berishi lozim, rahbar xodimlarni tarbiyalash orqali ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish zarur. Shunda olim A.Erkayev yozganidek, poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish, davlat va korxona mablag‘larini o‘zlashtirish va boshqa xildagi jinoyatlarning kamayishiga zamin yaratish mumkin bo‘ladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Erkayev “Ma’naviyatshunoslik” T:2018
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi
3. <http://anticorruption.uz>
4. <https://adliya.uz/en>

## OLIY TA’LIM MUASSASALARI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH

Nazarov Ravshan Nazarovich,

Osiyo texnologiyalari universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada oily ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, korrupsiyani shakllantirish omillari va vostitalari, jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni va roli hamda oily ta’lim muassasalarida talabalarda ijtimoiy tarmoqlar orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish. Shu bilan birgalikda, korrupsyaning salbiy jihatlari, oqibatlari va boshqa turli jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, ijtimoiy tarmoq, “halollik vaknsasi”, shaffoflik, ideagramma, korrupsyaning ildizlari, anonim shikoyatlar, jamoatchilik fikri, etik me’yorlar.

**Hamma davrlarda korrupsiya jamiyat kelajagi uchun xavf bo‘lib kelgan.** Bu borada turli davlatlarda va xalqlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning turli yo`llarini ishlab chiqishgan. Bu borada mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha chora tadbirlar kuchaytirilib borilmoqda. Umuman olganda korrupsiyaga qonunchiligidizda qanday tariflangan? Masalan, “Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”<sup>92</sup> deb takidlab o`tilgan. “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”da korrupsiya – “Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarning g‘ayriqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi”<sup>93</sup> deyilgan. Barcha sohalarda bo`lgani kabi oily ta’lim tizimida ham, qarshi kurashish ishlari izchil davom ettirib kelinmoqda. Aynan oily ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali foydalanish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o‘ynaydi. Ular korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni targ‘ib qilish, xabardorlikni oshirish va shaffoflikni ta’minlash uchun samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi. Korrupsiya adolatsizlikka va jamiyatni tanazzulga undaydigan zulmat misolidir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda “Adolat

<sup>91</sup> A.Erkayev “Ma’naviyatshunoslik” T:2018.

<sup>92</sup> O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshish to`g`risidagi qonuni 2-modda. 2017 yil 03 yanvar.

<sup>93</sup> N.Bannayev “Korrupsiyaga qarshi kurash va kopleans nazorat” o‘uv qo’llanma Namangan. 2023. 8-b.

bo`lmasa dunyo zimiston bo`ladi, hayotda hech qanday ma`no-mazmun bo`lmaydi”<sup>94</sup> Quyida ijtimoiy tarmoqlarning bu boradagi o`rnini yoritib berishga qaratilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali korruksiyaning zararli oqibatlari haqida ma'lumot tarqatish va fuqarolarni bu illatga qarshi kurashga jalg qilish. Talabalar va xodimlarga halollik, mas'uliyat va adolat kabi qadriyatlarni targ'ib etuvchi kontentni joylashtirish. Korruksiyadan xoli, halol ishslash orqali muvaffaqiyatga erishgan shaxslar haqidagi hikoyalar orqali ijobji misollar ko'rsatish.

Oliy ta'lim muassasalaridagi xarajatlar, grantlar yoki stipendiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq ravishda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish. Test natijalari, baholash mezonlari va boshqa muhim jarayonlarni shaffof tarzda targ'ib qilish. Fuqarolarni va talabalarni oliy ta'lim muassasalaridagi muammolarni kuzatishda ishtirok etishga undash.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar va boshqa manfaatdor tomonlardan anonim shikoyatlar yoki korruksiyaga oid xabarlarni qabul qilish. Muassasalarning faoliyatini ochiq kuzatib borish uchun maxsus guruhlar yoki akkauntlar tashkil etish. Korruksiyaga oid xabarlar tarqalgan taqdirda tezkor choralar ko'rish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar, o'qituvchilar va boshqaruva xodimlari o'rtasida korruksiyaga qarshi kurash bo'yicha ochiq muhokamalar tashkil qilish. Korruksiyaga qarshi choratadbirlar bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish va talabalarni bu jarayonga jalg qilish.

Korruksiyaga qarshi kurash, halollik va etik me'yorlar haqida video, infografika va boshqa materiallarni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish. Ijtimoiy tarmoqlar orqali korruksiyaga qarshi kurash bo'yicha trening va seminarlar tashkil qilish.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan korruksiya bilan bog'liq shikoyatlar va xabarlarni tahlil qilib, asosiy muammolarni aniqlash. Talabalar va boshqa foydalanuvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni yig'ib, muammolarning ommaviyligini aniqlash.

Korruksiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etayotgan shaxslar yoki guruhlarni targ'ib qilish va rag'batlantirish. Muassasalarning korruksiyaga qarshi kurashda erishgan yutuqlarini ommaga tanitish.

Ommaga ma'lumotni tez va samarali yetkazish imkoniyati. Keng auditoriya, jumladan, yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otadi. Jamoatchilik bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlaydi.

Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasasida “halollik vaksinasini” shakllantirish zamonaviy jamiyatda muhim mavzulardan biridir. Bu atama ko'pincha talaba va o'qituvchilarda halollik, adolat, shaffoflik, mas'uliyat, va etik me'yorlarni rivojlantirish jarayonini anglatadi.

Maxsus kurs yoki seminarlar tashkil qilish, bu yerda halollikning ahamiyati, korruksiyaning zararli oqibatlari va shaffoflik masalalari o'rgatiladi. Oliy ta'lim muassasasida axloqiy me'yorlar va odob-axloq kodeksi bilan tanishtirish. Talabalar va o'qituvchilarni qamrab oluvchi targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

Baholash, qabul jarayonlari va boshqa tashkiliy masalalarda shaffoflikni ta'minlash uchun raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanish. Talabalarning baholanishida ob'ektivlikni saqlash uchun maxsus platformalar orqali natjalarni ochiq e'lon qilish. Anonim shikoyatlar va fikr-mulohazalarni yig'ish uchun qulay imkoniyatlar yaratish.

Talabalar o'rtasida halollikni targ'ib qiluvchi liderlarni shakllantirish va ular uchun treninglar tashkil etish. “Dilemma” o'yinlari, rolli o'yinlar va muhokamalar orqali halollikning qadr-qimmatini ko'rsatish. Jamiyatdagi halol va muvaffaqiyatli shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

O'qituvchilar va ma'muriyat xodimlari uchun halollik va etik qoidalarga bag'ishlangan seminar va treninglar o'tkazish. O'qituvchilar faoliyatining shaffofligini kuzatish va korruksiya xavfini kamaytirish uchun nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

Halollikni targ'ib qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni joriy qilish. Halollikni shakllantirishga qaratilgan xalqaro va mahalliy loyihalarda ishtirok etish.

Mazkur yondashuvlar nafaqat oliy ta'lim muassasasida halollik muhitini shakllantirish, balki jamiyatda kengroq halollik va shaffoflik madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu choratadbirlar orqali talabalar va xodimlar o'z mas'uliyatlarini anglab, kelgusida halol va adolatli fuqarolar sifatida shakllanadi.

<sup>94</sup> Sh.Mirziyoyev. “Milliy tarqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`tarilamiz” 1 . T.:O`zbekiston. 2018-yil. 447 b.

Korrupsiyaga qarshi kurash zamonaviy jamiyatlarning muhim muammolaridan biri bo'lib, uning dolzarb muammolari jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ko'plab davlatlarda korrupsiyaga qarshi qonunlar samarali ishlamaydi yoki qamrov jihatidan cheklangan. Antikorrupsiya idoralari ko'pincha siyosiy bosim ostida bo'lib, mustaqil ishslash imkoniyatiga ega emas. Qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularni hayotga tatbiq etishda yetarli nazorat va javobgarlik mexanizmlari yo'q.

Ba'zi jamiyatlarda korrupsiyani odatiy hol sifatida qabul qilish, hatto ba'zan "zarurat" deb hisoblash keng tarqalgan. Fuqarolar o'rtasida korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida yetarlicha tushuncha yo'q. Korrupsiyaning ildizlari ko'pincha iqtisodiy tengsizlik va resurslarning notejis taqsimlanishiga borib taqaladi.

Ko'plab davlat muassasalari va tashkilotlar faoliyatida shaffoflik yo'qligi korrupsiyaga zamin yaratadi. Davlat tashkilotlari va xodimlar faoliyatini kuzatish va baholash mexanizmlarining samarasizligi. Yuqori lavozimdagи shaxslar o'rtasida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni cheklash holatlari.

Hujjatlar aylanishi, davlat xaridlari va boshqa sohalar qog'oz shaklda qolayotgan mamlakatlarda korrupsiyani yashirish oson. Ba'zi holatlarda texnologiyalar korrupsiyani aniqlash uchun emas, balki uni yashirish uchun ishlatiladi.

Chegaralarni kesib o'tuvchi korrupsiya holatlari, jumladan, ofshor hisoblar va noqonuniy moliyaviy oqimlar. Davlatlar o'rtasida bir xil standartlar yo'qligi yoki hamkorlikda sustkashlik.

Saylov jarayonlari, davlat qarorlari va qonun qabul qilish jarayonida korrupsiyaning aralashuvi. Odamlar kundalik hayotda duch keladigan, kichik hajmdagi, ammo keng tarqalgan korrupsiya shakllari (poraxo'rlik, ruxsatnoma olish uchun to'lovlari). Resurslarning noqonuniy taqsimlanishi, soliq va bojxona tizimlarida o'g'rilik va poraxo'rlik.

Ko'p hollarda korrupsiyaga qarshi kurash kampaniyalar shaklida o'tkaziladi, lekin uzoq muddatli strategiyaga ega emas. Korrupsionerlarni jazolash amaliyotidagi adolatsizlik yoki jazolarni yumshatish.

Korrupsiyaga qarshi qonunlarni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish. Elektron hukumat va davlat xaridlarini avtomatlashtirish shaffoflikni ta'minlaydi. Korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarga amal qilish va global tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kengaytirish va fuqarolarni jalb qilish.

Xulosa o'rnida, ijtimoiy tarmoqlar korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali platforma hisoblanadi. Ular orqali shaffoflikni ta'minlash, xabardorlikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatni birlashtirish mumkin. Ushbu jarayonda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish muhimdir.

#### Foydalilanigan adabiyyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshish to'g'risidagi qonuni 2-modda. 2017 yil 03 yanvar.
2. N.Bannayev "Korrupsiyaga qarshi kurash va kopleans nazorat" o'uv qo'llanma Namangan. 2023. 8-b.
3. Sh.Mirziyoyev. "Milliy tarqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz" 1 . T.:O'zbekiston. 2018-yil. 447 b.

## O'ZBEKİSTONNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATI

**Mustafayeva Oydin Shavkat qizi,**  
Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti,  
Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korrupsiyaning jamiyat, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotga ta'sir masalalari yoritilgan. Asosiy maqsad-korrupsiyaning sabablarini, uning turli usullarini tahlil qilish va uni kamaytirish uchun samarali choralarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida korrupsiyaning ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va davlatga bo'lgan ishonchga salbiy ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston misolida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalari ham tahlil qilingan. Xulosa o'rnida korrupsiyani kamaytirish uchun ta'lim va ongni oshirish, shaffof boshqaruv tizimini joriy etish va qonunchilikni mustahkamlash kabi tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, iqtisodiy ta’sir, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, huquqiy tizim, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, korrupsiya omillari, davlat islohotlari.

Korrupsiya – bu jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi, davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradigan va ijtimoiy adolatni buzuvchi xavfli hodisadir. Korrupsiya bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki iqtisodiy jihatdan ilg‘or davlatlarda ham keng tarqalgan muammolardan biriga aylangan. Ushbu illat davlat tizimining barcha darajalarida, xususan, boshqaruv, qonunchilik, sog‘liqni saqlash, ta’lim va iqtisodiyot sohalarida o‘zini namoyon qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun korrupsiya ayniqsa katta tahdid hisoblanadi, chunki bu jamiyatda adolatni, tenglikni ta’minalash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga jiddiy to‘siq bo‘ladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, mamlakatda demokratik islohotlar va iqtisodiy rivojlanish yo‘lida bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Biroq, korrupsiya hali ham mamlakatning rivojlanishiga xalaqit beruvchi eng katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Korrupsianing iqtisodiyotga salbiy ta’siri, o‘rtva kichik bizneslarning o‘sishini to‘xtatish, tashqi investitsiyalarni cheklash, ijtimoiy adolatni buzish va jamiyatdagi ishonchni kamaytirish kabi jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Davlat boshqaruvni tizimida, korrupsiya keng tarqalgan joylarda resurslar noto‘g‘ri taqsimlanadi, davlat xizmatlarining sifati pasayadi, fuqarolar esa o‘z huquqlarini himoya qilishda qiynaladi. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi tajribalari, xalqaro tajribalar bilan taqqoslanishi, tizimli islohotlarning samaradorligi va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri har tomonlama tahlil qilinishi lozim.

Korrupsiya – jamiyat va davlatni rivojlantirishga to‘sinqinlik qiluvchi, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning samarali ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jiddiy muammo. O‘zbekiston kabi davlatlarda korruksianing yuqori darajada tarqalishi iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi, ijtimoiy adolatni buzadi va davlatning xalqaro obro‘sini pasaytiradi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali yo‘llari va usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

### 1. Qonuniy islohotlar va normativ-huquqiy bazani kuchaytirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun birinchi navbatda samarali qonunlar va normativ-huquqiy bazani yaratish zarur. Davlatda korruksiyani ilgari suruvchi omillarga qarshi zarur qonunlar qabul qilinishi va ularga amal qilishni ta’minalash kerak.

Qonunchilikni mustahkamlash: Korrupsiyaga qarshi kurashishni ta’minalash uchun, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilishni osonlashtiradigan va korruksion holatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan qonunlar ishlab chiqish zarur. Masalan, davlat mulozimi va fuqarolar o‘rtasidagi shaffoflikni ta’minalash, davlat xaridlari va tenderlarini to‘liq ochiq qilish, shuningdek, korruksiyani jazolashning qat’iy mexanizmlarini kiritish kerak.

Yangi qonunlarning joriy etilishi: Korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish uchun sud-huquq tizimini isloh qilish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi shaffof va adolatli munosabatlarni yaratish zarur. Huquqiy hamkorlikni kuchaytirish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ham muhim o‘rin tutadi.

### 2. Davlat boshqaruvidagi shaffoflikni oshirish

Korrupsianing oldini olishning asosiy usullaridan biri – davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirishdir. Shu bilan birga, davlatning barcha idoralari o‘rtasida ma’lumot almashish tizimini yaratish kerak.

Raqamli transformatsiya: Davlat idoralari va xususiy sektor o‘rtasidagi faoliyatni raqamli tizimga o‘tkazish orqali korruksianing oldini olish mumkin. Hujjatlar va qarorlar tizimi to‘liq raqamlashtirilgan va elektron platformalarda amalga oshirilsa, har bir jarayonni kuzatish osonlashadi, bu esa korruksion harakatlarni kamaytirishga yordam beradi. Elektron davlat xizmatlari, masalan, elektron tenderlar, soliq to‘lovlar va boshqa rasmiy hujjatlar kabi tizimlar korruksiyani kamaytirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Ochiqlik va hisobot: Barcha davlat xarajatlari va budgetlari jamoatchilikka ochiq qilib, ularni tizimli ravishda e’lon qilish korruksiyani oldini olishga yordam beradi. Davlat organlari har bir qaror va harakatning asosini jamoatchilikka tushuntirishi, shu bilan birga, jamoat nazoratini ta’minalash kerak.

### 3. Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini kuchaytirish

Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash juda muhim. Jamoatchilik va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki korrupsiyaning oldini olish va uni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining roli: Fuqarolar, ommaviy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va nodavlat tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashishi kerak. Ular davlat idoralari faoliyatini kuzatib borishlari va so'rovnomalari, ochiq ma'lumotlar, yig'ilishlar orqali fikr-mulohazalarini bildirishlari kerak. Shuningdek, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilishda fuqarolik jamiyatining o'rni juda muhimdir.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim va targ'ibot: Korrupsiyaning salbiy ta'siri va unga qarshi kurashishning ahamiyatini tushuntirish bo'yicha jamoatchilikni tarbiyalash kerak. Bu maqsadga erishish uchun maxsus ta'lim dasturlari, media kampaniyalar va treninglar tashkil etish kerak. Xalqni korrupsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashishga undash orqali jamiyatda korrupsiya haqidagi salbiy munosabatni shakllantirish mumkin.

#### 4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro hamkorlikka asoslangan yondashuvlari.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham korrupsiyani kamaytirishning muhim yo'llaridan biridir. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks dasturlarni amalga oshirishi mumkin.

Xalqaro tajriba: Xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan foydalangan holda mamlakatda korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlarni joriy etish kerak. Yagona xalqaro me'yorlarga asoslangan kurash metodlarini o'rganish va amalga oshirish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytiradi va korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi.

#### 5. Iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazish

Iqtisodiy islohotlar korrupsiyaning ildizlarini yengishda asosiy rol o'ynaydi. Agar iqtisodiyotda raqobatni oshirish, biznesni qo'llab-quvvatlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha samarali islohotlar amalga oshirilsa, korrupsiya darajasi ham kamayadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan islohotlar: Korruptsiyaning kamayishiga xizmat qiladigan islohotlar bozor iqtisodiyotiga asoslanadi. Bu, o'z navbatida, raqobatni oshirish, biznes uchun qulay sharoitlar yaratish, davlat resurslarini samarali taqsimlash va xususiy sektorni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar quyidagicha:

##### 1. Tadqiqot va monitoring tizimini kuchaytirish

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'naliishlardan biri samarali monitoring va tadqiqot tizimini yaratishdir. Har bir davlat idorasida korrupsiyani aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan ilmiy metodlarni joriy etish kerak. Bu tizim, davlat xaridlari, tenderlar, va boshqa moliyaviy jarayonlar ustidan muntazam nazorat o'rnatadi.

Tavsiya: Ilmiy tadqiqotlarni va analistik tadqiqotlarni kengaytirish, ularni davlat idoralari faoliyatini nazorat qilishda keng qo'llash. Korrupsiyaga qarshi kurashishda texnologik yangiliklardan, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni (big data) tahlil qilishdan foydalanish.

##### 2. Korrupsiyaga qarshi huquqiy va ma'muriy islohotlarni amalga oshirish

Taklif: Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali huquqiy va ma'muriy islohotlarni amalga oshirish muhimdir. Shuningdek, korrupsiyani tekshirish uchun maxsus mustaqil sud tizimini tashkil etish kerak.

Tavsiya: Korrupsiyaga qarshi jazo mexanizmlarini kuchaytirish. Har bir davlat xodimi uchun korruption harakatlari uchun qat'iy jazolarni belgilash va amalda ularning bajarilishini ta'minlash.

##### 3. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash

Taklif: Davlat organlari va hokimiyatning barcha idoralari faoliyatini shaffof qilish, aholiga erkin kirish imkoniyatini yaratish kerak. Davlat boshqaruvi va iqtisodiy jarayonlarni raqamli tizimlar orqali ochiq qilish zarur.

Tavsiya: Raqamli xizmatlarni va onlayn platformalarni kengaytirish. Davlat xaridlari, soliq to'lovlarini va boshqa ijtimoiy tizimlar bo'yicha barcha ma'lumotlarni onlayn tarzda e'lon qilish, shu orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

#### 4. Jamoatchilik va fuqarolik jamiyatini jalb qilish

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat davlat kuchlari emas, balki fuqarolik jamiyatining ham faol ishtirokini ta'minlash zarur. Jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli muhimdir, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri korrupsiya faoliyatidan zarar ko'rishadi.

Tavsiya: Fuqarolik jamiyatining va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini kuchaytirish, ular orqali korrupsiyaga qarshi ommaviy kampaniyalar tashkil etish va o'rganishlar o'tkazish.

#### 5. Ta'lif va targ'ibot ishlari

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llaridan biri ta'lif va ma'rifikatdir. Korrupsiya haqida keng omma orasida tushuncha va ongsizlikni bartaraf etish, bu borada tizimli ta'lif dasturlarini joriy etish zarur.

Tavsiya: Maktablar va oliy o'quv yurtlarida korrupsiyaga qarshi ta'lif dasturlarini kiritish. Korrupsiyaning zararli ta'siri, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yosh avlodga tushuntirish va ma'lumot berish.

#### 6. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Korrupsiyaga qarshi xalqaro tizimlarni rivojlantirish, boshqa davlatlar bilan tajriba almashish va xalqaro me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlash kerak.

Tavsiya: O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish, jumladan, BMT, Yevropa Ittifoqi va Jahon Banki kabi tashkilotlar bilan tajriba almashish. Xalqaro korruptsiya qarshi kurashish tizimlaridan foydalanish.

#### 7. Korrupsiyaga qarshi kurashishda texnologik yondashuvlar

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashishda texnologik yondashuvlar, masalan, elektron hukumat va onlayn monitoring tizimlari orqali samarali boshqaruvni ta'minlash kerak.

Tavsiya: Sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va boshqa zamонавиу texnologiyalarni korrupsiyaga qarshi kurashda faol qo'llash. Masalan, davlat xaridlari va tenderlarini blokcheyn orqali amalga oshirish shaffoflikni ta'minlashi mumkin.

#### 8. Korrupsiya bilan kurashishda jamoatchilik fikrini inobatga olish

Taklif: Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi strategiyalarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini inobatga olish zarur. Buning uchun ommaviy so'rovlar va ijtimoiy tadqiqotlar olib borish kerak.

Tavsiya: Jamoatchilikni korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga chaqirish va ular bilan doimiy ravishda aloqa o'rnatish. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida odamlarni xabardor qilish.

Tadqiqot davomida taklif qilingan ilmiy asoslangan choralar va tavsiyalar amalga oshirilsa, bir qator kutilayotgan samaralar yuzaga kelishi mumkin. Ularning orasida:

1. Korrupsiyaning kamayishi: Korrupsiyaga qarshi yangi huquqiy va ma'muriy islohotlarning joriy etilishi, shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratining kuchayishi natijasida davlat idoralari va ijtimoiy tizimlarda korrupsiya darajasi sezilarli darajada pasayishi kutilmoqda.

2. Davlat boshqaruvining shaffofligi: Raqamli texnologiyalar va monitoring tizimlari yordamida davlat boshqaruvi faoliyati yanada ochiq bo'ladi, bu esa davlat resurslarining samarali taqsimlanishi va ularning noto'g'ri ishlatalishini oldini olish imkoniyatini yaratadi.

3. Fuqarolar ishtirokining oshishi: Fuqarolik jamiyatni va jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faolligi ortadi. Bu esa korrupsiya holatlarining aniqlanishi va oldini olishda jamoatchilikning kengroq ishtirokini ta'minlaydi.

4. Yoshlar orasida korupsiyaga qarshi ongning shakllanishi: Korrupsiyaga qarshi ta'lif va targ'ibot ishlari yosh avlodning axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga, ularni korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilishga yordam beradi. Bu esa kelajakda yanada adolatli jamiyatni shakllantirishga olib keladi.

5. Xalqaro hamkorlikning kuchayishi: Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonni global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga olib keladi. Bu esa xalqaro miqyosda tajriba almashish va zamонавиу usullarni qo'llash imkoniyatini yaratadi.

6. Boshqaruv samaradorligining oshishi: Raqamli platformalar va elektron hukumatni joriy qilish orqali davlat boshqaruvining samaradorligi oshadi. Bu jarayonlar nafaqat xizmatlar sifatini yaxshilaydi, balki davlat idoralari faoliyatini tezlashtiradi va samarali boshqaruvni ta'minlaydi.

7. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqarorligi: Korrupsiya orqali yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlar kamayadi, bu esa iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi. Ijtimoiy adolat va tenglik ta'minlanadi, bu esa jamiyatda umumiy farovonlikni oshiradi.

Bularning barchasi mamlakatda korruksianing oldini olish va unga qarshi samarali kurashish orqali barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqotda korrupsiya va uning davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun huquqiy, ma'muriy, va ijtimoiy islohotlarning zarurligi ta'kidlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish uchun davlatning shaffofligini ta'minlash, fuqarolar ishtirokini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim omillar sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot davomida keltirilgan ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar amalga oshirilgan taqdirda, korruksianing kamayishi, davlat boshqaruvining samaradorligi, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolatning ta'minlanishi kutilmoqda. Kelajakda bu takliflar nafaqat korruksiyani kamaytirishga, balki mamlakatni barqaror rivojlantirishga, yoshlar orasida korruksiyaga qarshi ongni shakllantirishga, va jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, korruksiyaga qarshi kurashish jamiyatda adolat va farovonlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish uchun muhim yo'l hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari mamlakatda keng qamrovli islohotlar va samarali kurash strategiyasini ishlab chiqishda asos bo'lishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abduqodirov, B. (2015). Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va ma'muriy asoslari. Toshkent: O'zbekiston davlat universiteti nashriyoti.
2. Mirzayev, M. (2019). Korrupsiya va uning jamiyatdagi ta'siri. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Raxmonov, M. (2017). O'zbekiston Respublikasi korruksiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Iqtisodiyotni rivojlantirish instituti.
4. Karimov, I. (2018). Ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi.
5. Yuldashev, S. (2020). Korrupsiyaga qarshi kurashish va ijtimoiy islohotlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.
6. World Bank. (2019). Global Corruption Report 2019: Understanding Corruption and its Impacts. World Bank Publications.
7. Transparency International. (2020). Corruption Perceptions Index 2020.
8. Transparency International – <https://www.transparency.org/>
9. Korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Agentligi – <https://anticorruption.uz/>
10. World Bank – Governance and Anti-Corruption – <https://www.worldbank.org/en/topic/governance>
11. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) – <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/index.html>
12. OECD – Anti-Corruption – <https://www.oecd.org/corruption>.

## **КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ МЕХАНИЗИМЛАРИ**

**Ш.А.Эрматов,**  
Қарши давлат университети  
Фалсафа ва социология кафедраси доценти

**Аннотация.** Мақолада коррупцияга қарши курашишнинг халқаро ва миллий механизимлари ва тажрибалар масаласи баён этилган. Ўзбекистон тажрибаси ва унинг натижалари таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Коррупция, халқаро тажриба, ислоҳот, қонун, конвенция, декларация, иллат, пора.

Бугунги кунда жаҳоннинг деярли ҳар бир мамлакатида коррупсия ҳолатларига қайсиидир даражада дуч келиш мумкин. Коррупсия иллати давлатнинг турли соҳаларига, хусусан, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий жабхаларида амалга оширилаётган ислоҳот-

ларга ҳамда мамлакатнинг халқаро майдондаги имижи ва инвестициявий жозибадорлигига салбий таъсир кўрсатиши шубҳасизdir.

Жонажон Ўзбекистонимизда коррупсиянинг ҳар қандай кўринишларига чек кўйиш мақсадида қаттиқ кураш олиб борилмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг 2020-йил 24-январ куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномасида та’кидлаганидек, “Жамиятимизда коррупсия иллати ўзининг турли кўринишлари билан тараққиётимизга ғов бўлмоқда. Бу ёвуз балонинг олдини олмасак, ҳакиқий ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яратиб бўлмайди, умуман, жамиятнинг бирорта тармоғи ривожланмайди”.

Инсоният тарроқиётининг ривожланишида, шахс, давлат ва жамият муносабатларининг тизимли равишида риожланишига тўсиқ бўладиган энг хафли жараён бу коррупцион жараёнлардир. Дунёда коррупсияга қарши курашиш даражасини баҳолаш учун ҳар йилда Transparency International ташкилоти томонидан қабул қилинган Коррупсияни Қабул Қилиш Индекси (Corruption Perceptions Index, CPI) амалга оширилади. Ушбу индекста мамлакатлар коррупсия даражасига кўра рейтинглаштирилади, бу эса давлатлардаги давлат ва хўжалик соҳасидаги коррупсиянинг ўзгаришини кўрсатади.

CPI индексининг асосий жиҳатлари: Индекс 0 дан 100 гача бўлиб, 0 энг юқори коррупсия даражасини, 100 эса коррупсиянинг жуда паст даражасини кўрсатади. Рейтинг ҳар йили 180 дан ортиқ давлат ва худудлар бўйича олинади.

2023 йилда энг кам коррупсияга эга давлатлар Сингапур, Данія, Швеция ва Финляндия бўлган, энг юқори коррупсия даражасига эга мамлакатлар эса Сомали, Сурия ва Судан бўлган.

Коррупсияга қарши кураш халқаро тажрибалар жуда кенг ва мураккаб соҳани қамраб олади. Бундай тажрибаларнинг асосий йўналишлари қуйидаги асосий жиҳатларга эга:

1. Қонунчиликни такомиллаштириш: Халқаро миқёсда коррупсияга қарши қонунлар ва механизимлар ишлаб чиқилган. Масалан, БМТнинг коррупсияга қарши конвенцияси (UN Convention against Corruption, 2003) коррупсияга қарши глобал ёндашувни ишлаб чиқишига асос солди.

OECD (Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти) ва Европа иттифоқи ҳам коррупсияга қарши мустаҳкам қонунлар ва стандартларни яратишга катта эътибор қаратишган.

2. Шаффоффлик ва ҳисобдорликни таъминлаш: Кўплаб давлатларда давлат органларидаги қарорлар ва харажатлар шаффоффлигини таъминлаш учун электрон давлат хизматлари ва ахборот тизимлари жорий қилинган.

Оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамиятининг коррупсияга қарши мониторинг фаолиятига кўмаклашиш ҳам муҳим рол ўйнайди.

3. Молиявий ва иқтисодий назорат: Халқаро молия институтлари (масалан, Жаҳон банки, Халқаро валюта жамғармаси) давлатлар билан ҳамкорликда коррупсияга қарши лойиҳаларни молиялаштириш ва амалга оширишга ёрдам берадилар.

Молиявий интизом ва активлар билан боғлиқ декларациялар коррупсияга қарши курашишнинг самарали воситаларидан бири ҳисобланади.

4. Суд-хукуқ тизими мустаҳкамлаш: Суд органлари, айниқса, коррупсия бўйича ишларни кўриш учун махсус судлар ва прокуратуралар ташкил этилган. Масалан, Кения ва Сингапур каби давлатларда коррупсияга қарши махсус судлар ва хукуқни муҳофаза қилиш органлари ишлайди.

5. Жамоатчилик ва халқаро ҳамкорлик: Халқаро ташкилотлар, жумладан, Transparency International ва Global Witness, коррупсияга қарши глобал лойиҳалар ва ташабbusларни қўллаб-куvvatлашга мўлжалланган.

Давлатлар ўртасида ўзаро ёрдамлашиш, маслаҳат бериш ва ўз арақадаш мамлакатлар орасида коррупсияга қарши курашиш бўйича тажрибаларни алмашиш муҳим аҳамиятга эга.

6. Рақобатни таъминлаш ва ҳимоялаш: Коррупсияга қарши курашишнинг яна бир муҳим йўналиши рақобат сиёсатига доир. Рақобатни чекташ ва монополияларнинг олдини олиш ҳам коррупсияга таъсир кўрсатади. Масалан, Европада бундай сиёсатлар қатъий жорий қилинган.

Бу тажрибаларнинг барчаси, албатта, ҳар бир давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий хусусиятларига мувофиқ равишида жорий қилинади.

2023 йилдаги Коррупцияга қарши кураш индексига кўра, Ўзбекистон жаҳон бўйича 144-уринни эгаллаган. Transparency International томонидан ишлаб чиқилган ушбу рейтингда, мамлакатлар коррупцияга қарши курашишдаги муваффақиятларига кўра баҳоланади. Ўзбекистоннинг индекси ўтган йилларда яхшиланган бўлса-да, мамлакатдаги коррупция ва бугунги кундаги тухташ ҳолатларни эътиборга олиб, яна кўп ишлар қилиш кераклигини кўрсатади.

Коррупцияга олиб келадиган сабаблар бир нечта омиллар билан боғлиқ. Ушбу омиллар жамият, давлат идоралари ва иқтисодий шароитларга таъсир кўрсатади. Асосий сабаблар қўйидагилар бўлиши мумкин:

1. Ижтимоий ва иқтисодий тенгсизлик: Жамиятда катта ижтимоий ва иқтисодий фарқлар бўлса, бу коррупциянинг ривожланишига олиб келиши мумкин. Одамлар ўз манфаатларини қондириш учун, айниқса давлат органларидаги фаолият орқали, коррупция йўлига боришади.

2. Конун ва тартибининг етарли даражада бўлмаслиги: Агар давлатда қонунлар яхши ишламаса, уларга амал қилишда муаммолар бўлса ёки қонунларни бузиш учун жавобгарликлар суст бўлса, одамлар ўз манфаатларини қонунсиз усуслар билан қондиришга уринишади.

3. Меҳнат ҳаётидаги танқидий шароитлар: Иш муҳитида, айниқса давлат идораларида, маошлар кам ёки иш шароитлари ноқулай бўлса, бу коррупцияга сабаб бўлиши мумкин. Ишчилар ва раҳбарлар манфаатларини қондириш учун жиноят йўлларига боришади.

4. Раҳбариётнинг масъулиятсизлиги: Агар давлат ва ташкилот раҳбарлари коррупцияга қарши қатъий позиция тутишмайди, ёки ўз манфаатларини ҳимоя қилиш учун коррупцион амалиётларга кўз юмса, бу ҳолат коррупциянинг кўпайишга олиб келади.

5. Давлат ва иқтисодиётнинг мустаҳкам бўлмаслиги: Сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал қилишда давлатнинг заифлиги ҳам коррупцияга олиб келиши мумкин. Бу ҳолатда, давлат органларининг самарасизлиги ва ресурсларнинг номаълум ёки нечасига тарқатилиши коррупцияга сабаб бўлади.

6. Ташкилотларда шаффофликнинг етишмаслиги: Давлат органларининг ишлаш тартибида шаффофлик йўқлиги, турли мансабдор шахсларнинг ўз манфаатларини кўзлаб қарорлар қабул қилиш ҳолатлари коррупциянинг тараққий этишига олиб келади.

7. Қатъий назорат ва жарималарнинг йўқлиги: Конун бузилишининг катта жарималарга олиб келмаслиги ва давлат органлари томонидан назаретнинг етарли даражада бўлмаслиги коррупцияга турткি бўлади.

Коррупцияга қарши курашиш учун давлат ва жамият томонидан ушбу сабабларга қарши аниқ стратегиялар ва амалий чоралар кўрилган бўлиши керак.

Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш учун турли йўналишларда бир қатор чоралар кўрилмоқда. Бу чораларнинг асосий мақсади давлатнинг самарали ва шаффоф фаолиятини таъминлаш, хукуқбузарликларнинг олдини олиш ва жамиятда коррупцияга нисбатан салбий муносабатни шакллантиришдан иборат. Қуйидаги чоралар Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш учун амалга оширилган муҳим қадамлардир:

1. Конунчилик ислоҳотлари: Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш учун бир қатор янги қонунлар қабул қилинди. Масалан, "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги конун 2017 йилда қабул қилинган бўлиб, у коррупцияга қарши аниқ хукукий нормаларни белгилаб берди.

2. Шаффофлик ва ҳисобдорликнинг оширилиши: Давлат бошқаруви ва бошқа органларда шаффофликни таъминлаш мақсадида рақамли платформалар ва онлайн хизматлар ишга туширилди. Масалан, "Е-Хукумат" тизими, аҳолини давлат хизматларидан фойдаланиш имконини бериш билан бирга, коррупцион тўсиқларни камайтиришга хизмат қилмоқда.

3. Кадрлар сиёсати: Давлат идораларида ишлаётган кадрлар учун катта талаблар кўйилди. Хукумат орқали коррупцияга қарши илғор кадрлар сиёсати ва тренинглар ўтказиши, янгидан-янги раҳбарларни танлаш учун оммавий конкурслар ўтказилмоқда.

4. Антикоррупция агентлиги: 2017 йилда Ўзбекистонда Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ташкил этилди. Ушбу агентлик коррупцияга қарши мунтазам мониторинг ва

текширувларни амалга ошириб, қонунбузарликларни аниқлаш ва жазолаш билан шуғулланади.

5. Халқаро ҳамкорлик: Ўзбекистон халқаро ташкилотлар билан коррупцияга қарши курашиш бўйича ҳамкорликни кучайтирган. Мисол учун, мамлакат БМТнинг коррупцияга қарши конвенциясига аъзо ва халқаро ҳамкорлар билан тажриба алмашишга интилмоқда.

6. Ижтимоий ташвиқот ва таълим: Ахборот кампаниялари орқали аҳолини коррупциянинг оқибатлари хақида хабардор қилиш, ижтимоий ҳуқукий маданиятни шакллантиришга аҳамият берилмоқда.

Бу чоралар коррупциянинг олдини олиш, унга қарши курашиш ва унга қарши ишончли механизмлар яратишда муҳим рол ўйнамоқда.

Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашишнинг бир нечта механизмлари мавжуд. Бу механизмлар давлатнинг турли даражалардаги органлари ва жамиятнинг ўзаро ҳамкорлигини талаб қиласди. Қўйида уларнинг асосий турлари келтирилган:

1. Қонунчилик ва ҳуқукий нормалар: Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш учун бир қатор конунлар ва хужжатлар қабул қилинган. 2017 йилда "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонун, коррупцияга қарши ҳаракатлар ва чоралар аниқ белгилаб қўйган. Бу қонун коррупцияга қарши иш олиб боришда давлат органларининг вазифаларини, хусусан, мониторинг ва жавобгарликни белгилайди.

2. Давлат органлари ва инспекциялар: Коррупцияга қарши курашиш агентлиги: 2017 йилда ташкил этилган мазкур агентлик давлат органларидаги коррупцияга қарши чоралар кўриш ва коррупцияни фош қилиш билан шуғулланади.

Ташки назорат ва аудиторлик: Давлат бюджети ва ҳаражатларини назорат қилишда маҳсус аудиторлик ва текширув органлари ишлайди.

3. Ишибилармонлик ва жамиятнинг фаоллиги: Очиқлик ва шаффоффлик: Давлат ташкилотларининг фаолияти ва молиявий ҳисботлари ошкора бўлиши, жамоатчиликка аниқ маълумотлар тақдим этиш коррупцияга қарши ишлайди.

Шаффофф электрон платформалар: Турли давлат хизматлари, тендерлар ва бюрократия жараёнлари учун электрон платформалар жорий этилган, улар коррупциянинг олдини олишга хизмат қиласди.

4. Оммавий ахборот воситалари ва жамоатчилик назорати: Жамоатчиликнинг ифодаси, оммавий ахборот воситалари ва блогерлар коррупцияни фош қилишда муҳим роль ўйнайди. Улар коррупцияга қарши курашишда давлат органларига босим ўтказиш ва жамиятни хабардор қилишда фаол иштирок этишади.

5. Халқаро ҳамкорлик: Ўзбекистон халқаро ташкилотлар, масалан, Буюк Британия ва АҚШнинг коррупцияга қарши курашиш агентликлари, БМТ ва Европа Иттифоқи билан ҳамкорлик қиласди. Бу, ўз навбатида, коррупцияни глобал даражада назорат қилиш ва тугатишга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда ахборот очиқлиги ва жамоатчилик иштирокини оширилиши: Оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамиятининг ролини ошириш коррупцияга қарши курашишда муҳимдир. Ахборот очиқлиги, аудит натижалари ва фуқароларнинг масъулиятини таъминлаш коррупцияга қарши курашни янада самарали қиласди.

Коррупцияга қарши курашиш халқаро ва миллий механизмининг интеграцияси жамиятда адолат ва шаффоффликни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар ўртасидаги ҳамкорлик, самарали ҳуқукий механизмлар, жамоатчилик иштирокини оширилиши ва назорат органларининг фаолияти коррупцияга қарши курашишда муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

#### **Халқаро даражадаги адабиётлар:**

1. United Nations Convention Against Corruption (UNCAC) — БУТ Халқаро коррупцияга қарши конвенция.
2. Transparency International — Коррупцияга қарши курашиш бўйича халқаро ташкилот. Ташкилотнинг ҳисботлари.

#### **Corruption Perceptions Index (CPI)**

3. OECD Anti-Corruption Network for Eastern Europe and Central Asia (ACN) — Иккинчи самарадорликка эришиш мақсадида коррупцияга қарши халқаро ҳамкорликка қаратилган ҳисботлар.

4. World Bank Group Reports on Corruption — Жаҳон банкининг коррупцияга қарши курашиш ва давлат бошқарувини такомиллаштиришга қаратилган ҳисботлари.

#### **Миллий даражадаги адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конуний хужжатлари:

Коррупцияга қарши курашиш тұғрисидаги қонун (2017) — Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашишга қаратылған асосий қонун.

Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши стратегияси (2020-2025) — мамлакатда коррупцияга қарши курашишни янада күчтіришга қаратылған дастур.

2. Ўзбекистон Республикасининг Давлат коррупцияга қарши куршиш агентлиги хисоботлари — агентликнинг коррупцияга қарши амалга оширилаётган тадбирлар, дастурлар ва энг яхши тажрибалар бүйича хисоботлари.

3. Махмудов Ш., Коркитова З. (2021). «Коррупцияга қарши курашиш ва миллий хукукий механизmlар» — Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш ва амалий механизmlар.

4. Жаъфаров А. (2020). «Халқаро тажрибалар ва Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш механизmlари» — Ўзбекистоннинг халқаро тажрибалар асосида коррупцияга қарши курашиш сиёсати.

5. Lex.uz.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

**Imamov Bobir Xujanazarovich,**  
“O'zbekiston tarixiva ijtimoiy fanlar” kafedrasi  
dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqlada korrupsiya salbiy illat ekanligi haqida davlat arboblari, faylasuf va mutaxassislarning fikrlari ta'kidlanib, bunday ushbu yo'nalishida amalga oshirilgan va kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan amaliy chora-tadbirlar, ushbu illatining qisqacha kelib chiqish tarixi, kishilar tafakkuriga singish jarayoni, davlat va jamiyat uchun moddiy, ma'naviy oqibatlari hamda unga qarshi samarali kurash yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ham bunga qarshi qo'llanilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan qonunlar ko'rsatib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** korrupsiya, pora, mansabdar shaxs, manfaat, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, xavfsizlik, taraqqiyot.

Bugungi kunda barcha mamlakatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan illatlardan biri korrupsiya. Korrupsiya va poraxo'rlik davlatni ich-ichidan emirishi rivojlangan davlatlar tajribasidan yaxshi ma'lum. Korrupsiya muammolari bilan shug'ullanuvchi “Transparency International” tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, ayni damda dunyoda ko'plab jinoyatlarga sabab bo'layotgan nafs balosi, ya'ni korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga bir trillion dollardan ortiq mablag'o'zlashtirilar ekan<sup>95</sup>. Shu bois, korrupsiya va poraxo'rlikni hech ikkilanmay taraqqiyot kushandası, deyish mumkin.

Korrupsiya (lot. Corrumper — buzmoq) atamasi odatda mansabdar shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlataladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqida tobora ko'p qo'llani-layotgan atamalardan biri – korrupsiya. Korrupsiya, albatta, bugun paydo bo'lgan illat emas. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday deydi: “har qanday davlat tizimida qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdar shaxslarning noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'ymaslik lozim”. Frantsuz mutafakkiri Sharl Monteskyoning fikricha, “... har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi”.

G'arbiy Evropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko'rinishlari va korruption munosabatlarning avj olishi nafaqat tarixiy manbalarda, balki o'sha davrning ilg'or yozuvchi va faylasuflari asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning “Venesiyalik savdogar”, “qonga qon, jonga jon”, Dantening “do'zax”, “tozalovchi” kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korruptionerlarni do'zaxning eng qorong'i va eng chuqr joyiga tashlash kerak, degan g'oyani ilgari surgan.

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini o'rgangan Nikollo Makiavelli uni yo'talga qiyoslab shunday degan edi: “korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz, uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”

<sup>95</sup> Korrupsiyaga oid huquqburziliklар profilkistikasi: o'quv qo'llanma / I. Ismailov, J.S. Muxtorov, S. B. Xo'jaqulov; mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Q. R. Abdurasulova. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 54 b.

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etishiga, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi. Korrupsianing ma'lum bir davlatda rivojlanishi esa o'sha davlatning tanazzuliga olib keladi<sup>96</sup>.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'nomohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ijtimoiy hodisa.

BMT oldida turgan eng global muammolardan biri sanalgan korruptsiyaga qarshi kurashning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yordi ishlab chiqilgan. Xususan, 2005-yil dekabr oyida kuchga kirgan korruptsiyaga qarshi Konventsya keng doirada qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, uning loyihasi ikki yil davomida 130 dan ortiq davlat ishtirokida muhokama etilgan. Unda korruptsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Bu illatga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida, 2008-yil 7-iyulda mamlakatimiz BMTning korruptsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikasiya qildi va shu yili "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korruptsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi<sup>97</sup>. Ushbu Konventsya talablari korruptsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zarur huquqiy me'yordi qabul qilish va shu orqali korruptsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korruptsianing oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida korruptsiyani oziqlantiradigan sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan har tomonlama va izchil chora-tadbirlarni qamrab oladi. Korrupsiya, agar unga qarshi doimiy kurash olib borilmasa, ko'payish, kengayishga moyil bo'lgan fenomendir.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. Respublikamizda BMT homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning korruptsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996), xalqaro tijorat tashkilotlarida korruptsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklarasiya (1997), millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Shuningdek, davlatimiz 2019-yil mart oyida iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korruptsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2013-yil 10-sentyabr) qo'shilgan. Oliy Majlis tomonidan esa jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Evrosiyo guruhi to'g'risidagi bitimi (Moskva, 2014-yil 16-iyun) 2014-yil 13-dekabrda ratifikasiya qilindi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy choralar bo'l mish huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa bo'lgan ijobiy munosabatga etishish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlarning muhim ahamiyatga ega yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning ko'pgina ma'ruza va asarlarida korruptsiyaga qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor qaratilib, uning islohotlar yo'lidagi to'siq va davlatimizning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid ekanligi uqtiriladi.

<sup>96</sup> Korruptsiyaga qarshi kurashning dolzarb masalalari: ilmiy maqolalar to'plami / mas'ul muharrir Sh. T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 147 b.

<sup>97</sup> Berdiev A.T., Xaydarov M.M., Kuchkarov T.R. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 85 b.

Mamlakatimizda mazkur illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, bu kabi jinoyatchilikka nisbatan qat'iy choralar ko'rilmoxda. Hukumatimiz tomonidan davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korrupsiya domiga tushib qolmasliklarini ta'minlash, ularning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqilgan bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlarning ijrosi doimiy nazoratga olingan. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi. Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda mamlakatimizda jinoyatchilik va korruptsiyaga qarshi kurashning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. Faqat bu jarayonda yurtdoshlarimizdan hushyorlik, ogohlik va jiddiy mas'uliyat talab etiladi. Shundagina taraqqiyotimiz yanada bardavom, turmushimiz esa farovon bo'lib boraveradi.

Bugungi kunda respublikamizda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmoxda, fosh etilgan korruptsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korruptsiyachilar domiga ilingan amaldorlarning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingen. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi.

Jinoyatni jazolashdan ko'ra, uni oldini olish singari profilaktik tadbirlarning yo'lga qo'yilishi qay darajada oqilonaligi allaqachon isbotlangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida bejiz belgilab qo'yilmagan.

Bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyathuquqiy vositalar bilan erishib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. O'ylaymizki, bunday ma'naviy buzilish holatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bunday illatni oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo'lli hisoblanadi.

Shunisi ayonki, davlat hokimiyyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Zotan, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "biz davlatning nazorat funktsiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korruptsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q"<sup>98</sup>.

Bu boradagi kurashning samarali natijalarga erishish maqsadida, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha bir qancha ishlarning amalga oshirilishi, Qonunchilik bazasining ishlab chiqilayotganligi e'tiborga sazovordir. Bu esa, jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashida O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga quyidagilarni kiritish mumkin. O'zbekiston 2008-yil 7-iyulda BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasi"ga, 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentabr) qo'shilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jinoiy daromadlarni legallah-tirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risida"gi bitimi (Moskva, 2011-yil 16-iyun), 2011-yil 13- dekabrda ratifikatsiya qilingan. O'zbekistonda 2017-yilning 4-yanvaridan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi4. "O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasining qaroriga muvofiq Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilindi va Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullandi va Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 4-yandarda imzolanib, kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013- sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning

<sup>98</sup> Ergashev Q. Z. Korrupsiyaga qarshi kurashish asr muammosi / Innovative Research in Science International scientific-online conference. Belorusiya 2020. Pp. 51-56.

oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda quyidagilar **takliflar** bildiriladi:

birinchidan, jamiyatda korrupsiyaviy qilmishlarni sodir etilmasligi yoki kamaytirish uchun aholi orasida manzilli hamda maqsadli, ta'sirchan targ'ibot ishlarini amalga oshirilishi, targ'ibotlarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashning huquqiy asoslarini mazmunini aholi e'tiboriga etkazish orqali ularning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, ushbu illatni salbiy oqibatlarini bat afsil tushuntirgan holda fuqarolar ongida halollik vaktsinasini shakllanishiga erishish;

ikkinchidan, korrupsiyani barvaqt oldini olishda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholi qatlami o'rtaida targ'ibot va tashviqot ishlarini ichki ishlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirish lozim;

uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini yanada oshirishda, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, zamonaviy ko'rinishdagi monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash;

to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda o'sib kelayotgan yoshlarimizni bilim saviyasini yuksaltirish uchun maktab, kollej va oliy ta'lif muassasalarida "korrupsiyaga qarshi kurashish" maxsus fanini joriy etish, mashg'ulotlarga huquqshunos mutaxassislarini taklif etib, ushbu illatning salbiy oqibatlarini ham ilmiy, ham Islomiy nuqtai nazardan tushuntirish orqali o'quvchilarda korrupsiyaga qarshi g'oyaviy va ma'naviy immunitetni shakllantirish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, unga qarshi kurashish choralarni qo'llash samara beradi. Ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'ekti sifatida alohida olingan korruptioner emas, balki tizimli ravishda ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish, profilaktik oldini olish chora-larini ko'rib borish lozim. Shunday ekan, har birimiz, avvalo, o'z mehnat faoliyatimizda halol bo'laylik va har qanday korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz munosabatimizni bildiraylik. Unutmaylikki, korrupsiya – taraqqiyot dushmani. Unga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: o'quv qo'llanma / I. Ismailov, J.S. Muxtorov, S. B. Xo'jaqulov; mas'ul muharrir yu.f.d., prof. Q. R. Abdurasulova. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 54 b.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb masalalari: ilmiy maqolalar to'plami / mas'ul muharrir Sh. T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 147 b.

3. Berdiev A.T., Xaydarov M.M., Kuchkarov T.R. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 85 b.

4. Ergashev Q. Z. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ASR MUAMMOSI / INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE International scientific-online conference. Belorusiya Pp. 51-56.

## **KORRUPSIYA "BOTQOG'T" VA UNGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**Sunatov Dilshod Hoshimovich,**  
Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
**Tohirova Javohira Samandar qizi,**  
Qarshi davlat universiteti talabasi,

**Annotatsiya.** Maqolada koruppsiya ijtimoiy illat sifatida tahlil qilingan. Koruppsiyaning etnik jihatlari, funksional aspektlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, illat va fazilat, ahloq, huquqiy ong, moddiy boylik, ma'naviy munosabat.

Yildan yilga "korrupsiya" mavzusi jamiyatda o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda va turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xo'sh, nega? Albatta sabablar va omillar ko'p. Ushbu

illatning mohiyatiga yana bir nazar solsak. Korrupsiya – ma’naviy nuqtai nazardan axloqsizlik va illat, huquqiy jihatdan esa jinoyat hisoblanadi. Uning lug‘aviy ma’nosi lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “pora evaziga og‘dirish” deganidir. Yuridik manbaalarda uning quyidagi ta’riflarini uchratamiz:

“Korrupsiya – mansabdar shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlardan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir”<sup>99</sup> (yuridik ensiklopediyada).

“Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir” (yuridik atamalar qomusiy lug‘atida).

Кроме того, важно развивать систему электронных деклараций для государственных служащих, что позволит более эффективно отслеживать их доходы и расходы.

## **Развитие гражданского общества и общественного контроля**

Для того чтобы борьба с коррупцией была эффективной, необходимо усилить роль гражданского общества в процессе принятия решений и контроле за деятельностью госорганов. Развитие независимых НПО, активизация общественных обсуждений и инициатив, а также улучшение образовательных программ для граждан о правовых и

этических аспектах борьбы с коррупцией помогут повысить общий уровень осведомленности и вовлеченности населения.

#### Образование и воспитание нового поколения

Образование играет ключевую роль в профилактике коррупции. Важно внедрять программы, направленные на воспитание у молодежи принципов честности, добросовестности и социальной ответственности. В этом контексте «вакцина добросовестности» становится важным инструментом, который помогает воспитать поколение, готовое противостоять коррупции и действовать в интересах общества.

#### Международное сотрудничество и опыт

Борьба с коррупцией требует координации усилий на международном уровне. Важно активно участвовать в международных антикоррупционных инициативах, обмениваться опытом с другими странами, а также внедрять международные стандарты и лучшие практики в национальное законодательство и систему государственного управления.

Борьба с коррупцией в Узбекистане требует комплексного и многопланового подхода, включающего реформы в юридической, институциональной, экономической и социальной сферах. Важно, чтобы эта борьба стала частью общего процесса модернизации страны, где ключевыми элементами станут повышение прозрачности, ответственность и активное вовлечение гражданского общества. Только через создание системы, в которой честность и добросовестность становятся основными ценностями, можно преодолеть коррупцию и построить устойчивое и справедливое общество.

## КОРРУПЦИЯ-ИЧКИ МАЪНАВИЙ ТАҲДИД

Рустамова Шахзода Улуғбек қизи,  
Қарши Давлат университети рус тили ва  
адабиёти йуналиши 1-босқич магистратура талабаси

**Аннотация.** Мақолада давлат ва жамият хаётида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг самарадорлиги, мамлакатда коррупциянинг пайдо бўлиши сабаб ва унга имкон берган шарт-шароитлар батафсил таҳлил этилган, бу борада жамоатчилик фикри ўрганилган, мақола сўнггида коррупцияни келтириб чиқарувчи сабабларни ўрганиш орқали унинг содир этилиш механизмларини аниқлаш ва коррупцияга қарши курашиш сиёсатини амалга ошириш мақсадида бир қатор таклифлар билдирилган.

**Калим сўзлар:** коррупция, сабаб ва шарт-шароитлар, профилактика, коррупция билан боғлиқ жиноятлар, детерминант.

Коррупция даражасини камайтириш ва уни чегаралашда биринчи навбатда унинг пайдо бўлиши учун мавжуд шароитлар ва муаммоларни бир вақтнинг ўзида ҳал қилиш, иккинчидан, коррупцияни енгишда барча соҳаларда ва қатъият билан коррупцияга қарши кенг кўламли чора-тадбирлар ёрдам беради. Криминолог олимлар жиноятчиликнинг пайдо бўлиши нафақат қатор сабабларга боғлиқ, балки қурай шароитларга ҳам боғлиқ деб ҳисоблашади. Жиноятчиликнинг вужудга келтирувчи бу сабаб ва шароитлар умумий "криминоген омил (детерминант)" тушунчаси билан бирлаштирилади.

Жиноятчиликнинг детерминантлари бўлиб жиноятчиликни белгиловчи ва унинг пайдо бўлишида ёрдам берувчи сабаб ва шароитлар ҳисобланади. Коррупцияга қарши курашишнинг энг тўғри ва самарали йўли бу - жамиятда коррупциянинг пайдо бўлишига имконият яратадиган шарт-шароит ва омилларни аниқлаш ҳамда уларни бартараф қилиш ҳисобланади. Криминологик адабиётлар ва оммавий ахборот воситалари маълумотлари таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ҳозирги кунда коррупциянинг юзага келиши ва ривожланишида бир нечта асосий, ўзаро алоқада бўлган ва бир-бирига таъсир этувчи омиллар мавжуд.

"Коррупция-бу жамиятни турли йўллар билан исканжага оладиган даҳшатли иллатdir. У демократия ва хукуқ устуворлиги асосларига путур етказади, инсон хукуклари

бузулишига олиб келади, тадбиркорлар фаолиятига тўсқинлик килади, хаёт сифатини ёмонлаштиради ва одамлар хавфсизлигига таҳдид соладиган уюшган жиноятчилик, норкотрафик, терроризм ва бошқа қилмишларни илдиз отиб, гуллаши учун шароит яратиб беради”

Жорий йилнинг 5 апрелида Олий Мажлис Сенатида бўлиб ўтган Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгашнинг навбатдаги мажлисида қайд этилишича, мамлакатда 2021 йилда 5 483 нафар шахсга нисбатан 3 769 та коррупциявий жиноят ишлари судларга оширилган. Яъни судга юборилган жиноят ишлари ҳамда жавобгарликка тортилган шахслар сони ўртacha 3 бараварга кўпайган. Судларга юборилган жиноят ишларининг ҳар учтадан биттаси соғлиқни сақлаш, таълим ва банк тизими ходимлари томонидан содир этилган. Коррупцияга қарши курашиш борасида олиб борилган кескин чоралар натижасида судга юборилган жиноят ишлари сони ўтган йилга нисбатан банк соҳасида 300 фоизга, таълим тизимида 120 фоизга ҳамда соғлиқни сақлаш соҳасида 100 фоизга ортган. Криминолог олимларнинг фикрларига кўра жиноятчилик сабаблари жиноятларнинг содир этилишини тақозо қиладиган, уларни озиқлантирадиган, кўпайишини таъминлайдиган ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг йиғиндиси. Колаверса, шахс табиатида бўладиган ғаразгўйлик, ружу қўйиш, бировлар ҳисобига яшаш, миллатчилик, жамиятда мавжуд ҳуқук ва одат нормаларига риоя этмаслик каби ҳолатлар ҳам жиноятчиликни келиб чиқишида таъсир кўрсатади. Жиноятчиликнинг шароитлари эса жиноятларни бевосита келтириб чиқармайдиган, лекин уларнинг содир этилишига кўмаклашадиган ҳодиса, воқеа ва жараёнларнинг мажмуи ҳисобланади. Жиноятчиликнинг келиб чиқишида муҳим рол ўйнайдиган сабаб ва шароит ўзаро чамбарчас боғлиқdir. Шунинг учун ҳам бу ҳолат «кри-миногендетерминант» деб эътироф этилган. Зотан, ҳар қандай шароитнинг ўзи жиноятчилик ва жиноятни юзага келтирмайди. Шароит мавжуд бўлган ҳолда бирор-бир жиноятчилик сабабсиз содир бўлмайди. Сабаб, ўз мазмунига кўра ижтимоийпсихологик ҳолат бўлса, шароит иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ташкилий жиҳатдан юзага келувчи ҳолат ҳисобланади. Криминологик адабиётлар ва оммавий ахборот воситалари маълумотлари таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ҳозирги кунда коррупциянинг юзага келиши ва ривожланишида бир нечта асосий, ўзаро алоқада бўлган ва бир-бирига таъсир этувчи омиллар мавжуд. Базел давлат бошқаруви институти томонидан тузилган жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши рейтингида Ўзбекистон 141 мамлакат ичida 43-ўринни эгаллаган. Ўзбекистон қўшни Тожикистон ва Қирғизистонни ортда қолдириб, 5.71 балл тўйлашга муваффақ бўлган. Бироқ Ўзбекистон ҳали FATF — Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш бўйича молиявий чоралар ишлаб чиқувчи гурухнинг тўртинчи даври методологияси билан баҳоланмаган, таққосланишни чекланган мамлакат деб қайд этилган. Қозоғистон 71-ўринни билан Марказий Осиё мамлакатлари орасида энг юқори кўрсаткични қайд этган. Рейтинг 5 та мезон асосида тузилган: жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши кураш тизимининг сифати, пораҳўрлик ва коррупция даражаси, молиявий шаффофлик ва стандартлар, жамоатчилик шаффофлиги ва ҳисобдорлиги, ҳуқуқий ва сиёсий хатарлар. И.Исмаилов ва бошқалар коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг детерминантларини шартли равишда уч гурухга: иқтисодий-ижтимоий омиллар; маънавий-рухий омиллар; ташкилий бошқарув ва ҳуқуқий омилларга ажратган. Шунингдек, Р.Р.Газимзянов коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг асосий детерминанларига куйидагиларни киритган: 1) ҳуқуқий, 2) ташкилийбошқарув; 3) тарбиявий; 4) мафкуравий; 5) ижтимоий-иқтисодий; 6) ахлоқий-психологик; 7) ижтимоий-сиёсий ва бошқалар. Бошқа бир муаллифларнинг фикрича, коррупцияга йўл очадиган омиллар сирасига ҳокимият органлари тизимининг мураккаблиги, буйруқбозлик таомилларининг кўплиги, давлат ҳокимияти органлари аппаратининг фаолияти устидан ташки ва ички назоратнинг йўқлиги каби ҳолатларни киритиш мумкин. Ташкилий тушунмовчиликларни фуқа-роларнинг коррупцион хулқ-авторини рағбатлантиришдан фарқлаш баъзан жуда қийин кечади. Тақиқлар, рухсат бериш таомиллари сонининг ҳаддан ташқари кўплиги, давлат ҳокимияти органлари фаолиятига жалб қилинган фуқароларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш механизми ва ҳуқуқий асосларининг йўқлиги ҳам коррупцияга йўл очади. А.А.Зиягиннинг айтишича, мамлакатда мустақил иқтисодий фаолият юритувчи субъектлар хатти-ҳаракатлари устидан давлат бошқарув органларининг ортиқча назоратининг мавжудлиги – давлат хизматчиларига ўз манфаатини кўзлаб мансабини суиистеъмол қилиши учун шароит яратади. Ҳолбуки, бу фикр тўғридир, чунки «иқти-

содиётни эркинлаштириш» ва «хусусий секторда давлат назоратини қисқатириш» бозор иқтисодиётининг асосий қонуниятларидан бири ҳисобланади. Фикримизча, бугунги кунда коррупциянинг юзага килишига ва ривожланишига имкон берувчи шарт-шароит ва омил сифатида шахснинг психологияси ҳам мухим аҳамият касб этмоқда. Хусусан, психологларнинг фикрича, жамиятда коррупцияга хайриҳоҳ психологик мухитнинг мавжудлиги ушбу ҳодисанинг тарқалиши ва унинг даражаси ортишига имконият яратади. В.В.Меркуришининг айтишича эса, бугунги кунда коррупциянинг содир этилишига имконият яратаетган асосий шарт-шароитлар бу давлат бошқарув органлари устидан жамоатчилик назоратининг сусайланлиги; давлат бошқарув органларида бюрократик тузумга хос салбий иллатларнинг сақланиб қолиши; ўтиш даврида дуч келинган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий муаммоларнинг тўлиқ ҳал қилинмай қолиб кетиши. Ушбу фикрларга қўшимча равишда амалдаги қонунчиликнинг номукаммаллиги, демократик принциплар ва институтларнинг ривожланмаганлиги кабиларни ҳам келтириб ўтиш мумкин. Олимлардан яна бири О.А.Кузнецова олиб борган тадқиқот ишлари хулосасига кўра, қўйидагиларни коррупциянинг сабаблари ва шароитлари сифатида кўрсатган: давлат органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларидағи ташкилий-бошқарув тизимининг такомиллашмаганлиги, ходимларда мансаб ваколатидан келиб чиқиб тамагирлик, ўз манфаатини кўзлаш каби психологик хусусиятнинг мавжудлиги. Ушбу фикрга қўшилган ҳолда шуни айтиш мумкини, давлат хизматчила-рининг аксарият қисми эртами-кечми коррупция билан боғлиқ қарорни қабул қилишни ёки рад этишни танлаш ҳолатига дуч келади. Айнан мамлакатимизда коррупциянинг пайдо бўлишининг сабаб ва шарт-шароитлари хусусида Ю.С.Пулатов ва Г.А.Алимовлар қўйида-гиларни эътироф этишган: – ҳокимият ва иқтисодиётнинг бирлашуви; масъул мансабдор шахсларнинг қонунларни менсимаслиги; – хизматчиларнинг меҳнатига муносиб равишда давлат томонидан таъминланмаслиги; – вазирликлар ва идоралар томонидан хўжалик фаолиятини назорат қилиш учун турли хукуқларга эга бўлишдаги лоббизм; – барча даражадаги раҳбарларнинг қонун ва норматив-хукуқий хужжатларга эмас, балки бевосита ўз бошлиқларига бўйсунишинининг анъана сифатида қолиб келаётганлиги; – аҳолининг хукуқий маданиятининг ривожланмаганлиги.

Коррупция ривожланган жамиятларда унинг қўйидаги турлари тез-тез учрайди:

\*Маиший коррупция – асосан мансабдор шахслар ва давлат хизматчиларининг кунда-лик иш фаолиятида фуқаролар билан муносабатларида манфаатлар тўқнашади;

\*Ишбилармонлик коррупцияси- бу ҳокимият вакилларининг тадбиркорлик субъектлари билан муносабатларида учрайди;

\*Олий ҳокимият органлари коррупцияси- бу демократик жамиятларда сиёсий ҳукмрон доиралар ҳамда одил судлов тизими фаолиятида кўзга ташланади.

Бугунги кунда юртимизда коррупцияга қарши курашишда бир қатор назорат-тафтиш органлари, ташкилотлар ёки мансабдор шахслар мавжуд. Бироқ, тақдир тақозоси билан айнан ушбу орган ва ташкилотларда коррупциянинг жуда кўплаб пайдо бўлиши кузатилмоқда: ушбу органлар коррупцияга қарши курашиш ва қонун устуворлигини таъминлаш ўрнига, аксинча, ўз шахсий манфаатлари йўлида хизмат ваколатлари доирасидан четга чиқиши, уларни суистеъмол қилиш каби ҳолатлар учрамоқда. Жиноятчилик, шу жумладан коррупция муаммосига доир маҳсус криминологик адабиётлар таҳлили коррупцияни ўзининг табиий маҳсули сифатида белгиловчи сабаблар ва шарт-шароитлар (омиллар)нинг айrim гурухларини қайд этиш имконини беради. Ижтимоий ҳаёт мазмуни ёки соҳаларига кўра бундай омиллар қаторига ҳукуқий, ташкилий-бошқарув, тарбиявий, мафкуравий, ижти-моий-иқтисодий ва бошқа сабаблар ва шартшароитлар киради. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июнданги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонида мамлакатда коррупция ҳолатини тизимли таҳлил қилишни таъминлаш, шунингдек, коррупцияга оид хавф-хатарлар юқори бўлган соҳалар ҳамда коррупцияга оид ҳукуқбузарликлар содир этилишининг сабаб ва шартшароитларини аниқлаш Агентликнинг асосий вазифаларидан бири сифатида кўрсатилган. Агентликнинг Коррупциянинг олдини олиш ва “комплаенс – назорат” тизимини жорий этиш бошқармаси томонидан Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси фаолиятидаги айrim коррупцион хавф-хатарлар ўрганиб чиқилган. Аниқланишича, Божхона кодексидаги ҳукуқий бўшлиқ туфайли товар-

ларни реэкспорт қилишда (божхона худудига илгари олиб кирилган товарларни Ўзбекистон Республикасининг божхона худудидан импорт божхона божлари ва солиқларини ундирамасдан қайтариш ёки иқтисодий сиёсат чораларини қўлламасдан олиб чиқиш) коррупцион хавф юзага келмоқда. Шунингдек, Коррупцияга қарши курашиш агентлиги томонидан олиб борилган таҳлилларга кўра, судлар томонидан коррупцион (Жиноят кодексининг 167-моддаси, 168-моддаси 3-қисми, 205-214-моддалари билан боғлик) жиноятлар бўйича 2019 йилда 5 565 нафар шахсга нисбатан 3 576 та, 2020 йилда 4 159 нафар шахсга нисбатан 2 834 та, 2021 йилнинг 9 ойида эса 6 197 нафар шахсга нисбатан 3 722 та жиноят ишлари кўрилган. Бироқ, 2019 йилда кўрилган ишлар бўйича айлов ҳукми чиқарилган 4 741 нафар шахсдан 2 574 нафари (ёки 54 фоизи)га, 2020 йилда 3 394 нафар шахсдан 1 740 нафари (ёки 51 фоизи)га, 2021 йилнинг 9 ойида 4 572 нафар шахсдан 2 131 нафари (ёки 47 фоизи)га нисбатан муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш жазолари тайинланган. Яъни, коррупцион жиноятлар содир этганилиги учун судланган шахсларга нисбатан муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш жазосини қўллаш амалиёти йилданйилга камайиб борган. Коррупцион жиноятлар содир этиб, Жиноят кодексининг 70, 71- моддаларига асосан жазодан озод қилинган шахслар 2019 йилда 386 нафарни, 2020 йилда 362 нафарни, 2021 йилнинг 9 ойида эса 492 нафарни ташкил этган. Таҳлиллар натижасидан маълум бўлдики, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш жазосини қўллаш амалиёти камайиб бораётганилиги коррупцион жиноятлар сони ортиб боришининг сабабларидан бири бўлмоқда. Қолаверса, аҳоли орасида олиб борилган комплекс тадқиқот натижалари шуни кўрсатмоқдаки, сўровнинг 26,9% иштирокчилари коррупцияга сабаб бўлувчи омиллар сифатида қўйидагиларни кўрсатишган: • ижро этувчи ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи ва суд ҳокимиятлари олдидаги масъулиятсизлиги; • кўплаб бюрократик тартиботларнинг мавжудлиги; • айрим фаолият турларини амалга ошириш учун тақиқлар; • фуқаролик жамияти институтлари томонидан мансабдор шахслар фаолияти устидан тегишли назоратнинг йўқлиги.

Юқоридагиларга асосланган ҳолда шуни айтиш мумкинки, коррупцияни вужудга келтирувчи ва унинг ривожланишига таъсири этувчи шарт-шароитлар ва омиллар ўзаро алоқадорликда ҳаракат қилиб, бир-бирининг мавжудлигини таъминлаб жамият хаётининг турли соҳаларига ўзининг салбий таъсирини кўрсатиб келмоқда. Бу эса, ўз навбатида, коррупциянинг Ўзбекистон миллий хавфсизлигига таҳдидлар тизимидағи ўрнини белгилаб бермоқда. Ҳар бир мамлакатда давлат ва жамиятнинг куч ва воситалари ёрдамида коррупцияга қарши кураш амалга оширилиб, бунинг учун катта маблағлар сарфланмоқда. Коррупцияни келтириб чиқарувчи сабабларни ўрганиш орқали унинг содир этилиш механизмларини аниқлаш ва коррупцияга қарши курашиш сиёсатини амалга ошириш мақсадида қўйидагилар таклиф этилади: Биринчидан, давлат амалдорлари ва муассасалари ҳалоллигини сақлаш ва бунга имконият яратиш мақсадида, нафақат корхона, муассаса, ташкилот доирасида, балки унинг ташқарисида ҳам ходимларнинг ман этилган хулқатвор кўринишларини намоён этадиган, коррупция ҳаракатларининг турли шаклларини аниқ белгилайдиган Хулқ-атвор Кодексини жорий этиш зарур. Хулқ-атвор Кодекси бузилган ҳолларда ходимларни жавобгарликка тортиш имконини берувчи хулқ-атвор санкциялар турларининг қатъий тартибини белгилаш, хулқ-атвор кодексига зид бўлган вазият мавжудлиги тўғрисида ахборот йиғишига ёрдам берувчи хабарчи-ходим ҳимоясини кафолатлайдиган, хабар қилишнинг ички аноним тизимини белгилаш, ташкилот ёки корхонада коррупцияга мойил бўлган соҳаларни аниқлаш асосида тармоқлар кесимида коррупцияга оид хариталарни тузиш каби механизмларни жорий этиш кўзда тутилади. Иккинчидан, коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликка тортилган шахсларни ва уларнинг яқин қариндошларини мансаб лавозимларига тайинламаслик амалиётини жорий этиш мақсадга мувофиқдир. Мансаб этикасини бузганилигига нисбатан жавобгарликнинг белгиланганлигини назарда тутган ҳолда мансабдор шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тизимини ишлаб чиқишина тақозо этади. Учинчидан, республика миқёсида, ҳудудлар ва алоҳида бўлимларда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашишга масъул бўлган мутахассисларни тайёрловчи, уларнинг маҳсус билим ва кўнникмаларини ривожлантиришни таъминловчи, мансабдор шахсларга коррупциянинг заарли оқибатларини тушунтирувчи муентазам равишда мажбурий ўқитиш учун таълим тизимини яратиш лозим. Тўртинчидан,

аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, шунингдек, коррупция омилларини аниқлаш, коррупция хавфхатарларини бошқариш ва уларни минималлаштириш бўйича чоратадбирлар кўриш борасида олий таълим муассасалари ўқув жараёнига «Коррупцияга қарши ҳулқ-атвон стандартлари» фанини жорий этилиши аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришга хизмат қиласди. Бешинчидан, мамлакатдаги барча соҳаларнинг коррупциялашганлик даражасини аниқлаш, аҳоли ўртасида сўровномалар олиб бориш ва ҳар йили оммага эълон қилиб бориш мақсадида халқаро «Transparency International» нодавлат-нотижорат ташкилотининг «Transparency International Ўзбекистон» номи остида аналогини ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Олтинчидан, маъмурий хўжалик органларининг очиқлиги ва шаффоғлигини таъминлаш орқали мансабдор шахслар томонидан рухсат бериш ёки тақиқлаш бўйича масалаларнинг қандай ҳал қилинишини кузатиб бориш ва адолатсизликларнинг олдини олиш мақсадида «OPEN» дастурини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу эса, фуқароларга мансабдор шахсларга юборган мурожаатларининг жараёнларини очиқ қўзатиб бориш имконини берувчи, аризаларининг қачон, ким томонидан рўйхатга олинганини, унинг ижроси учун ким масъуллигини ва мурожаатнинг ҳал этилиши жараёнини, мурожаат юзасидан олинган жавоб юзасидан ўз эътиrozларини билдиришга, аризасининг нима сабабдан қондирилмаслигига жавобни реал вақт ичиде олиш имконини яратишида хизмат қиласди. Еттинчидан, Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш агентлигининг штат тузилмасига директорнинг «Этика бўйича Маслаҳатчи (ёрдамчи)» лавозимини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Унинг коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасиiga йўналтирилган вазифаларини эса қўйидагича белгилаш тақлиф этилади: коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасиiga йўналтирилган бўлиб, давлат хизматчиларининг хизмати давомида ва ундан кейин манфаатлар тўқнашуви юзага келгандаги хатти-харакатлари аниқ белгилаб бериш, мансабдор шахслар, ходимлар томонидан Ахлоқ кодексларига риоя қилинишини таъминлаш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Стрельников М. С. Детерминанты преступности коррупционной направленности // Молодой ученый. — 2016. — №14. — С. 472-474. — URL <https://moluch.ru/archive/118/32831/> (дата обращения: 03.06.2019).
2. Исмоилов И. Криминология. Умумий қисм: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / И.Исмоилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фозилов; Масъул мухаррир Ш.Т.Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015 – Б. 90.
3. Исмоилов И. Криминология. Умумий қисм: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / И.Исмоилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фозилов; Масъул мухаррир Ш.Т.Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015 – Б. 90.
4. Kriminologiya. Darslik. Oliy o‘quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrnga tavsiya etilgan Professor Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – В. 61
5. Коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: Ўкув қўлланма / И.Исмоилов, Ж.С.Мухторов, С.Б.Хўжақулов; масъул мухаррир ю.ф.д., проф. Қ.Р.Абдурасулова. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 9 б.
6. Газимзянов Р.Р. Коррупционная преступность в Республике Татарстан на рубеже веков (криминологическое исследование). Авто.дис. на соискание ученой степени канд.юрид.наук. Нижний Новгород – 2005. – С. 32.
7. Зуфаров Р.А., Ахтаров Б.Ж., Мирзаев У.М. Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография //Масъул мухаррир: ю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбаев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. – Б. 154.
8. Зиягин А.А. Факторы роста коррупции и теневой экономики. Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования. – М. – С.34
9. Усманов А..А., Норбоев А.Н., Юридическая психология. - Т.: ТГЮИ. – 2006. – С.29.
10. Меркуришин В.В. Борьба с транснациональной преступностью. - М.: «Амалфея», 2003, С-208.
11. Кузнецова О.А. Коррупционная деятельность: криминологический и уголовно-правовой аспекты. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Тамбов. 2007. – С.24.
12. Пулатов Ю.С., Алимов Г.А. Квалификация и предупреждение коррупционных преступлений: Монография. – Т.:, 2016. – стр. 60.
13. Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е. Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: КазАТК, 2008. – С. 182-187.

14.[https://daryo.uz/k/2022/04/05/ozbekistonda-2021-yilda-3-769-ta-korrupsiyaviyjinoyat-ishlari-sudlarga-oshirilgan-senat-raisi/?utm\\_source=@daryo\\_kirill](https://daryo.uz/k/2022/04/05/ozbekistonda-2021-yilda-3-769-ta-korrupsiyaviyjinoyat-ishlari-sudlarga-oshirilgan-senat-raisi/?utm_source=@daryo_kirill) 1

5. <http://protoday.uz/uz/> Ўзбекистон «пул ювиш» рейтингида 43-ўринни эгаллади

16.<https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/03/02/tadqiqot-natizhasi-bozhkhonasohasida-korruptsion-khavf-khatarlarni-keltirib-chiqarayotgan-qonunchilikdagiboshliqlar-togrisida>

17. <https://anticorruption.uz/uzc/item/monitoring-and-statistics>

## KORRUPSIYASIZ KELAJAK SARI

**Srajidinova Nodira Shavkatovna,**

Korrupsiyaga qarshi kurashish  
“Komplayens-Nazorat” tizimini boshqarish  
bo‘limi bosh mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiya muammosi bugungi kunda global miqyosda hal etilishini taqozo etayotgan birinchi muammolardan biri ekanligi hamda korruptsianing oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va islohotlar haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, davlat, iqtisodiy o’sish, davlatlararo integratsiya, inson huquqlari.

Hozirgi globallashuvning murakkab sharoitida mintaqaviy va davlatlararo integratsiya jarayonlari jadallahib, korrupsiya chegara bilmaydigan muammoga aylandi. Aytish kerakki, korrupsiya oqibatlari jamiyatni ichkaridan buzib, demokratiya va qonun ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlarining qo‘pol buzilishiga olib keladi, iqtisodiy taraqqiyotni izdan chiqaradi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng tarqalishi uchun sharoit yaratadi; jamiyat va davlat uchun juda xavflidir. BMT va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti bu ofat tufayli yiliga 1,5-2,6 trln. Korrupsiya nima, nega butun dunyo bu illatga qarshi kurashmoqda? Korrupsiya - bu mansabdor shaxslardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy hodisa. Ma’lumki, bu illat har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Bu jamiyat ma’naviyatini buzadi, qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jiddiy buzadi. Shu bilan birga, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat xavfsizligiga tahdid soladigan boshqa tahdidlarning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Mansabdor shaxs o‘z shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yishi natijasida mamlakatning siyosiy-iqtisodiy yo‘liga va aholining ko‘philigiga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazadi, xorijiy sheriklarga ishonchsizlik uyg‘otadi, ularni hamkorlikdan qaytaradi. Ularning har birida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar va unga qarshi kurashish bo‘yicha normativ hujjatlar qabul qilingan davlatlar bor. Darhaqiqat, korrupsiya muammosi bugungi kunda global miqyosda hal etilishini talab qilayotgan birinchi muammolardan biridir. Shuning uchun ham jahon hamjamiyati bu kasallikka qarshi qattiq kurash olib bormoqda. Bu yo‘nalishda BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi rezolyutsiya, Davlat amaldor-larining xalqaro axloq kodeksi, Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashish deklaratsiyasi, Uyushgan tashkilotlarga qarshi xalqaro konvensiya kabi qator xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Jinoyatchilik, Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. Tan olish kerakki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash izchil olib borilmoq-da. Bu borada so‘z yuritadigan bo‘lsak, birinchi navbatda, mamlakatimiz 2008-yilda Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul rejasiga, jinoiy daromadlarni legallash-tirishga va moliyalashtirishga qarshi kurashga qo‘shilgan. 2011 yilda Oliy Majlis tomonidan terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitim ratifikatsiya qilinganligini ko‘rsatish zarur. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘ri-sida”gi qonunining qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son qarori. “Bu boradagi izchil sa’y-harakatlarning mantiqiy davomidir. Asosiy maqsad mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, qulay sarmoyaviy va ishbilarmonlik muhitini yuqori darajada yaratish,

turli ko‘rinishlari bilan mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiylar nufuzini oshirish va mustahkamlashdan iborat. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va boshqa sohalarda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish asosiy vazifa hisoblanadi va nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, bu boradagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatlari davlat organi bo‘lishi yuqorida fikrlarimizning yaqqol ifodasidir. Rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan Singapur, Shvetsiya, Finlyandiya hamisha dunyoda korrupsiya darajasini o‘rganuvchi Transparency International tashkilotining korrupsiya yo‘qligi indeksida, faqat buning ildiziga zarba berish orqali davlat islohotlarini boshlagani uchungina o‘rin olgan. Bu, albatta, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish darajasiga, jumladan, investitsiya faoliyati, investitsiya muhitining rivojlanishiga ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi, davlatning har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Korrupsiya va poraxo‘rlik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jahon tarixining turli davrlarida amaldorlar tomonidan sodir etilgan korrupsiya ham ko‘zga tashlanadi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilgani, korrupsiyaga qarshi qonunlar qabul qilingani, maxsus jazolar tayinlanganiga guvoh bo‘lamiz. Nizomda mulkni, xususan, davlat mulkini o‘zlashtirganlik uchun javobgarlikni belgilashga o‘ziga xos yondashuv belgilandi. Tekshiruv, tekshirish va tergov ishlari olib borildi. O‘z qilmishini suiiste’mol qilish, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy tartibsizliklar kabi harakatlar og‘ir gunoh hisoblanib, qattiq jazolangan.

Shunday ekan, har bir inson halol rizq talab qilishi, biroq o‘zganining haq-huquqlaridan ehtiyoj bo‘lishi, birovning mulkini nohaq yo‘llar bilan o‘zlashtirmaslik, garchi o‘zlar “mag‘rur odamlar” bo‘lib ko‘rinsa ham, ular haqiqatdan ham ojiz va kambag‘al ekani juda muhim. Bunda birovning haqqini nohaq olish, pora beruvchi ham, oluvchi ham og‘ir gunohkor bo‘ladi. Bu haqda muqaddas manbalarimizda ham eslatib o‘tilgan. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashda insonning diniy-ma’rifiy bilimga ega bo‘lishi juda muhimdir. Tan olishimiz kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash oila muhitidan, tarbiyadan boshlanadi. Jamiyatda nima halol, nima harom ekanligini farzandlarimizga ota-onaligini ustozlar o‘rgatadi.

“Odamlar aniq maqsad sari intilmog‘i, davlat arbobi bo‘lmog‘i, shod bo‘lib hurmat qozonishi, dunyoviy bo‘lishi yoki ojiz bo‘lib xor bo‘lishi, baxtsizlik yukini ko‘tarilishi, e’tibordan chetda qolishi, o‘zgalarga bo‘ysunib, qul bo‘lishi, mahkum bo‘lishi tarbiyaga bog‘liq. Korrupsiyaga qarshi kurash har bir fuqaroning ichki axloqiy-ma’naviy nasihatini va e’tiqodiga aylanishi kerak, bu esa korrupsiyaga qarshi ma’rifatning o‘zagini tashkil etadi. Qonun talablarining to‘liq hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz aholisi farovonligini oshirish, taraqqiyot yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Vatanimiz kelajagi va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidining zararli oqibatlarini doimo yodda tutishi, unga qarshi kurashishi zarur.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. М.В.Костенников (2004)., Куракин А.В. Предупреждение и пресечение коррупции в системе государственной службы. М.,.
3. В.В.Лунеев(2000) Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы (Тезисы доклада) // Государство и право.. № 4.101 с
4. П.А.Чебоксаров (2001) Проблема коррупции на уровне местного самоуправления // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., 220 с
5. А.В.Кузьмин (2001), Козловских Е.А. Проблемы преодоления коррупции в РФ // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., С – 165.

## KORRUPSIYA - JILOVLANMAGAN ILLAT

Rustamov L,  
(QarDU)

**Annotatsiya.** Maqolada “korrupsiya” mavzusining jamiyat hayotidagi negativ o‘rni, tarixi, uning ta’rifi keltiriladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonunchilikda belgilangan mezonlari haqidagi fikrlar bayon etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** korrupsiya, huquq, hokimiyat, siyosat, davlat, farmon, qonun, ma’naviyat, jinoyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Yildan yilga “korrupsiya” mavzusi jamiyatda o‘z dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Xo‘sish, nega? Albatta, sabablar va omillar ko‘p. Ushbu illatning mohiyatiga yana bir nazar solsak. Korrupsiya – ma’naviy nuqtayi nazardan axloqsizlik va illat, huquqiy jihatdan esa jinoyat hisoblanadi. Uning lug‘aviy ma’nosи lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “pora evaziga og‘dirish” deganidir. Yuridik manbalarda uning quyidagi ta’riflarini uchratamiz:

“Korrupsiya – mansabdar shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir”.

“Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir” (yuridik atamalar qomusiy lug‘atida).

Shiningdek, korrupsiya – siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat bo‘lib, mansabdar shaxslar o‘zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishidan iborat, degan tavsif ham ayrim huquqiy adabiyotlarda keltirilgan.

Demak, korrupsiya, umumiy qilib aytganda, mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat sanaladi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushuniladi.

Jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun uning xavfini quyidagicha baholash mumkin:

birinchidan, jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining norozilingiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta’sir □tm□q□lm□di;

ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o‘z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatdaadolat mezonining buzilishini ko‘□tir□di;

uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, andozasiga o‘xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Tarixga nazar tashlasak, u bir necha ming yillik o‘tmishga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida miloddan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan g‘arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish dunyoning barcha davatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Islom dinining muqaddasi kitobi Qur‘oni karimda poraxo‘rlik bevosita taqiqlanadi deyilgan: “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” (Baqara surasi, 188-oyat).

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan.

Ulkan imperiya Usmoniyalar xalifaligida ham poraxo‘rlik mavjud bo‘lgan. Bunga asos: Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o‘zi nazorat qilardi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu ishni o‘ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo‘yicha shaxsiy yordamchisi bo‘lgan vazirga topshirib

qo‘ydi. Vaqt o‘tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o‘rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo‘lgandi. Bundan, masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo‘lgan Ubaydulloh Hoqoniy amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik sezayotgan davlat soliqlar to‘plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiiste’molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo‘rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Xususan, Usmoniyalar sultanatida dehqonlardan turli soliqlarni to‘plashda harbiy xizmatchilar qing‘irliklar sodir etardi. Bu holatlarini sultanat shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmagan. Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ygan, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishgan. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksiragan.

Usmoniyalar sultanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘sishinlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Umuman olganda, qadim zamonlardayoq bu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, hamisha ham ko‘ngildagidek natija bermagan.

Ushbu illatga qarshi kurashish hamda insoniyat tarixida korrupsiyanı tugatish yo‘llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi” kitobi davlatni boshqarish va xo‘jalik yuritish mavzuiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. “Artxashastra”ning 26 bo‘limi korrupsiaga bag‘ishlangan. Bo‘limda korrupsiya “o‘zlashtirish” iborasi orqali izohlanadi: “Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo‘l cho‘zish o‘zlashtirishdir. Bu holatda narxi yuqori bo‘lgan buyumlarni o‘zlashtirganlik uchun o‘lim jazosini qo‘llash, narxi o‘rtacha bo‘lgan buyumlarni o‘zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo‘lgan mulklarni o‘zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim” deyilgan. “Artxashastra”da poraxo‘rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdor shaxs vaqt-i-vaqt bilan xalq to‘planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytildi: “Biron bir boshliqdan zarar ko‘rganlar bo‘lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar” deyiladi.

Mamlakatimizda keyingi vaqtarda, xususan, 2017-yildan boshlab, “parlament nazorati”, “jamoatchilik nazorati”, degan atamalar taomilga kiritildi va bu borada ilk qonunlar qabul qilindi. Jamoatchilik nazoratisiz O‘zbekistonda siyosiy tizim islohotlarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Ayniqsa, modernizatsiya, yangilanish, islohotlar bilan korrupsiyaning bir-biriga “qoni qo‘silmaydi”, yangilik bilan eskilik tarafдорлари, fan, innovatsiya, kreativ fikrlovchilar bilan eski byurokratiya avlodi o‘rtasida muttasil kurash davom etadi. Korrupsiya – chegara bilmas “ajdaho”, u aldamchilik, poraxo‘rlik va pulni “yuvish”ning aniq “chizma” (sxema)laridan tashkil topgan. “Transparency Int” (TI) korrupsiaga qarshi tadqiqot markazining 2017-yildagi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston korrupsiya holatini o‘zlashtirish indeksi 22 ballni tashkil qilib, 180 davlat ichida 157 o‘ringa – Zimbabwe, Comboldja darajasiga tushib qolgan edi. Yuqorida ta’kidlangan xalqaro tashkilot 2022-yilgi korrupsiyanı qabul qilish indeksini e’lon qildi. 100 ballik indeksga ko‘ra, O‘zbekiston 31 ball olib, umumiylar reytingda 180 mamlakat va hududlar orasida 126-o‘rindan joy olgan.1 Ushbu reyting 0 (korrupsiyanı idrok etishning juda yuqori darajasi) dan 100 gacha (judan past) shkalada hisoblab chiqiladi. Korrupsiyanı idrok etish indeksini – davlat sektoridagi korrupsiya darajasini ekspert va biznes vakillari baholaydi. Avvalgi yillarda bo‘lgani kabi, dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining o‘rtacha bali 43 dan 50 gacha ko‘rsatkichda turibdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz prezidentining tashabbusi bilan ushbu illatni yo‘qotish uchun samarali islohotlar va bajarilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmonida “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi

davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan IV bo’limi, “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar” deb nomlangan 4.2. paragrafining “Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish” deb belgilangan 89-bandida quyidagi asosli vazifalar belgilab berilganligi ahamiyatlidir. Bular quyidagilar:

1. Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish.

2. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish.

3. Davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish.

4.100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyiliasida ishlab chiqilishini ta’minlash.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sod Farmonining 8-paragrafi bevosita “Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish”1, deb belgilab berilganligi ham bu maslaning nihoyatda muhim ekanidan dalolatdir.

2020-yil 29-iyunda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bu borada siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan birgaana shu ko‘rsatkichni yaxshilash ustida ko‘p ishlashi kerak.

2020-2021-yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”)ni bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko‘rilishi sohada tub o‘zgarishlarga turki berishiga ishonamiz. Agentlikka xalqaro konvensiya talablarini bajarish maqsadida ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilishi, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi idoraning maqom hamda nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Demak, milliy taraqqiyotga to‘sinq bo‘lib kelayotgan korrupsiyani bartaraf etish yo‘lida dadil qadamlar tashlanmoqda. Asosiysi, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lmas ekan, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o‘g‘irlik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz.

Shuningdek, bu yaramas illatga qarshi kurashishni quyidagi muammolarning yechimidan boshlash tavsiya etiladi: agentlik tomonidan korrupsiya tarkibiy qismiga kiradigan qonun hujjatlari qayta ko‘rib chiqilishi; davalat muassoseleri ustidagi jihatot hilik nazoroti (chiqlik indaksi) o‘rnatalishi; hokimlik vayzirlari qurum hambor mulli Kengashlari temridan tashdiqlanishi; barcha davlat xizmatlari “Yagona oyna” markazlariga o‘tkazilishi, sud tizimi mustaqilligi mustahkamlanishi; davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi, mansabdor shaxslarning ish haqini biznesdagiga o‘xshash ish haqidan 2-3 baravar ko‘p bo‘lishiga erishilishi (Gruziya tajribasi) kerak.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda salmoqli yutuqlarga erishilganini e’tirof etish lozim.

Albatta, korrupsiya illati qisqa fursatda barham beriladigan muammo emas. Unga qarshi aholida sog‘lom fikr shakllanib, davlat va jamiyat hamkorlikda kurashsagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Yaponlar ham, xitoyliklar ham, singapurliklar ham xalq ruhiyatini saqlab qolish, diniy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini ongga singdirish orqali milliy

taraqqiyotga erishdi. Biz ham shu nurli yo‘ldan yurishga munosib xalqımız. Zero, ozodlik, erkinlik yaratgan boy imkoniyatdan to‘laqonli foydalanish O‘zbekistonda korrupsiya muammosi yechilishiga, qolaversa, uchta hokimiyatning o‘zaro tiyib turish tamoyiliga nechog‘li amal qilishiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, har birimiz, avvalo, o‘z mehnat faoliyatimizda halol bo‘laylik va har qanday korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz munosabatimizni bildiraylik. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo‘lishi zarur.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Yuridik ensiklopediya. U.Tadjixanovning umumiylar tahririda. – Toshkent: «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001. – B. 258.
- 2.Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2022.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA AMALIY TADBIRLARNING O‘RNI

**Fazliddin Qodirov Yuldoshovich,**

Qarshi davlat universiteti

Falsafa va sotsiologiya kafedrası

v.b. dotsenti (PhD)

**Turopova Guljalon Sayfiddin qizi,**

Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili yo‘nalishi

023-96-guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni, jahonda yuz berayotgan korrupsiyaning globallashuvi ko‘rib chiqiladi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda BMT tomonidan olib birilayotgan chora-tadbirlar izohlanadi. BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash kuni munosabati bilan amalga oshirilayotgan tadbirlar va ularning Korrupsiyaga qarshi kurashdagи ahamiyati tahlil qilinadi. Dunyoda korrupsiyani oldini olish maqsadida ko‘zlangan chora-tadbirlar majmui va ularning amaldagi natijasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar xususida fikrlar yuritiladi. Va albatta korrupsiyaga qarshi kurashning samarodorligini oshirishga doir tavsiyalar berilgan.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiya, muammolar, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, jinoyat omillari, halollik, qonun, amaliy tadbirlar.

Biz bilamizki, korrupsiya jahon miqyosida hal etilishi kerak bo‘lgan hozirgi kundagi muhim muammolardan biridir. Shu kabi muammolar har bir davlat hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladigan, jamiyatni tanazzulga yetaklaydigan, insoniyatning ongi-shuuriga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan illatlardan hisoblanadi. Shu sababli korrupsiya global muammolarning yuqori pog‘onasidan joy egallaydi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korruptsiyaga qarshi kurash konvensiyasi” Preambulasining 1-bandida “korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlar, etnik qadriyatlar va adolatga putur yetkazib hamda barqaror rivojlanish va huquq-tartibotga zarar keltirib, jamiyatning barqarorligi va xavfsizligi uchun vujudga keltiradigan muammo va tahdidlarning jiddiyligi yuzasidan tashvishga tushib,...<sup>104</sup> deb, boshlanishining o‘ziyoq va unda anglashilinayotgan mazmun korrupsiya va korrupsiyaga qarshi kurashning nihoyatda muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Korruptsiya har qanday jamiyatni qay yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘z iskanjasiga tamomila tortib oladigan chirmovuq illatdir. Aytib o‘tish joizki, korrupsiyaning keng miqyosda tarqalgan xilma – xil turlari mavjud. Masalan, davlat mulkini talon taroj qilish, sudxo‘rlik, firibgarlik, tovlamachilik, poraxo‘rlik va boshqalar. Shu kabi jinoyatlar fuqarolarning davlat tizimiga ishonchsizligini va noroziligini keltirib chiqaradi. Shuningdek, iqtisodiyotni zaiflashtirish, kelajak taraqqiyotini rivojlanishini ortga surish kabi halokatli omillarni keltirib chiqaradi. Amerikalik

<sup>104</sup> <https://lex.uz/docs/-1461329>

olimlar M.Jonston, E.Benfield, J.Naylarlarning fikriga ko'ra, "Korrupsiya – bu siyosiy arbob-larning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy manfaatlari uchun boylik orttirish va o'zining ijtimoiy maqomini ko'tarishi maqsadida o'zlarining rasmiy burchlarini va davlat fumksiyalarini bajarishdan bosh tortishdir"<sup>105</sup>, deb fikr bildirgan bo'lsa. Rossiyalik olim P.A. Cherkasov "Korrupsiya – bu jamiyat va davlatda ro'y beradigan salbiy hodisalar majmuidir"<sup>106</sup>, deb qayd qiladi.

9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni. BMT Assambleyasining 2003-yildagi rezolyusiyasiga asosan belgilangan ushbu sana jahon hamjamiyati e'tiborini taraqqiyot kushandasi – korrupsiya illatiga qaratish, hammani unga qarshi kurashish yo'lida birlashishga undashi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

BMTga a'zo barcha mamlakatlar hamkorlikda iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyat, sud-huquq, madaniyat, demokratiyaning rivojlanishiga korrupsianing kirib borishiga yo'l qo'ymaslikka asosiy e'tiborini qaratuvchi tadbirlar ishlab chiqilgan. Xalqaro tadbirlarda o'zining e'tiborini "korrupsianing - barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta to'siq bo'lishi tahlil qilinadi". Shu munosabat bilan 2003 yilning 9-dekabr kuni Meksikada BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan va ushbu kun Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida e'lon qilingan. Shu tariqa 2004 yil 9-dekabr kunidan boshlab "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida nishonlanmoqda.

Xalqaro kunlarning muhimligi shundaki, xalqaro kunlar keng jamoatchilikni muammolardan xabardor qilib borish, global muammolarni hal qilish maqsadida siyosiy kuch va vositalarni safarbar qilish, shuningdek, insoniyat yutuqlarini namoyish qilish hamda ularni ulug'lash uchun kerak. Bosh assambleyaning rezolyusiyasida ko'rsatilganidek, ushbu xalqaro kunni tashkil etishdan maqsad korrupsiya muammosiga kuchli (yoki muhim) e'tibor qaratish, shuningdek, korrupsiya va unga qarshi kurashishda Konvensiyaning o'rni (roli)ni kuchaytirishdan iborat. Rezolyusiyada ushbu kunni keng nishonlash va tegishli tadbirlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar yo'q. 2003-yildan buyon Transparency International har yili Global korrupsiya barometrini nashr etib keladi. 2004-yildan boshlab ushbu hisobot Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuniga to'g'ri keladi.

2004 yildan buyon mazkur sananing yillik mavzulari yurilib kelinadi. Jumladan:

2004-yil – "Hamma korrupsiya bilan to'laydi";

2005-yil – "Siz korrupsiyani to'xtata olasiz";

2006-yil – "Siz korrupsiyani to'xtata olasiz";

2007-yil – "Korrupsiya – hayotimizda YO'Q";

2008-yil – "Korrupsiya – hayotimizda YO'Q";

2009-yil – "Biz korrupsiya taraqqiyotga putur etkazishiga yo'l qo'ymaymiz";

2010-yil – "Korrupsiya – hayotimizda YO'Q";

2011-yil -ACT (inglizchaning qisqartmasi "Against Corruption Today" "Bugungi kun korrupsiyaga qarshi";

2012-yil – "Korrupsiya. Sizning "YO'Q" degan javobingiz ahamiyatlidir" ("Corruption. Your "NO" counts");

2013-yil – "Korrupsiya nol – 100 foiz rivojlanish";

2014-yil – "Korrupsiya zanjirini uzing";

2015-yil – "Korrupsiya zanjirini uzing";

2016-yil – "Taraqqiyot, tinchlik va xavfsizlik yo'lida korrupsiyaga qarshi birlashaylik";

2017-yil – "Taraqqiyot, tinchlik va xavfsizlik yo'lida korrupsiyaga qarshi birlashaylik";

2018-yil – "Taraqqiyot, tinchlik va xavfsizlik yo'lida korrupsiyaga qarshi birlashaylik";

2019-yil – "Taraqqiyot, tinchlik va xavfsizlik yo'lida korrupsiyaga qarshi birlashaylik";

2020-yil "Bir butunlikni tiklash";

2021-yil – "Sizning huquqingiz, sizning vazifangiz: korrupsiyaga yo'q deng"<sup>107</sup>.

Bizning fikrimizcha, Qarshi davlat universitetida o'tkazilayotgan "Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining yoshlarga "halollik vaksinasi"ni singdirishdagi ahamiyati" mavzusida

<sup>105</sup> Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. Муаллиф К.Назаров. -Т.: ЎФМЖ. 2022, В.496.

<sup>106</sup> Фалсафа: энциклопедик луғат. –Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010. В.376.

<sup>107</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_korrupsiyaga\\_qarshi\\_kurashish\\_kuni](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_korrupsiyaga_qarshi_kurashish_kuni)

tashkil etilayotgan mazkur ilmiy-amaliy anjuman ayni tadbirlarning davomi desak, to‘g‘riroq bo‘ladi.

O‘zbekistonda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning I bob 5-moddasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari” deb nomlanib, quyidagicha talqin etiladi: “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash”<sup>108</sup>. “Oliy ta‘lim”

Korrupsiya jamiyat, davlat hokimiyyati organlarining manfaatlariga qarshi qaratilgan noqonuniy faoliyatning maxsus ko‘rinishi ekanligini tushunish muhimdir. U mansabdor shaxs va fuqaroning o‘zaro kelishuvga erishib til biriktirishidir. Undan olinadigan moddiy va nomoddiy imtiyozlar noqonuniy bo‘lib, ularning atrofida ahloqsiz ijtimoiy muhit yuzaga keladi. Korrupsiyaning shakllari turlicha, ammo korrupsiya oqibatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakat aholisiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli bugungi kunda korrupsiyanaga qarshi kurashda jamiyatda korrupsiyanaga qarshi huquqiy ongni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, ya’ni korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi insonning o‘zida ichki rad etishni shakllantirmoq kerak. Bugungi kunda har bir fuqaroda: “poraxo‘r mansabdor shaxs bo‘lish nafaqat xavfli, balki sharmandali hamdir, ammo halol yashash foydali va obro‘lidir” degan ichki ishonchni shakllantirish korrupsiyanaga qarshi davlat siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekistonning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning III bob 18 - “Ta‘lim muassasalarida korrupsiyanaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta‘lim va tarbiya” moddasida “Ta‘lim muassasalarida korrupsiyanaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta‘lim va tarbiya belgilangan davlat ta‘lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalarini korrupsiyanaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta‘lim muassasalarida huquqiy ta‘lim va tarbiyaga, mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta‘lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi”<sup>109</sup> deb, bayon etilgan. Bu borada quyidagi tavsiyalarni ilgari surmoqchimiz:

1) Umumiy o‘rtalikta 11-sinf uchun mo‘ljallangan “Davlat va huquq fani asoslari” fanining 15-paragrafida “Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar” sarlavhasi ostida 81-85-betlarda korrupsiyanaga oid ma‘lumotlar berib o‘tilgan va 1 mavzu doirasida o‘tiladi. Taklifimiz mazkur mavzu faqat huquqiylik nuqtai nazaridangina yondashilgan. Mavzuni jamiyat va insoniyat hayoti va rivoji bilan bog‘lab, misollar asosida sodda tartibda berish ma‘qulroq;

2) Oliy ta‘lim muassasalarida korrupsiyanaga oid mavzu “Falsafa” fani doirasida 14-15-mavzularda o‘tiladi. Bizning fikrimizcha, fakultetlararo o‘tiladigan “Konstitusiyaviy huquq”, “Sotsiologiya”, “Politologiya” kabi fanlar doirasida ham alohida mavzu sifatida o‘tishni taklif etamiz;

3) Oliy ta‘lim muassasalarida Korrupsiyaga qarshi kurash borasida qat‘iy, keng jamoatchlik va ota-onalar bilan ishslash hamkorligida olib birish, so‘rovnomalar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bu o‘z navbatida talabalarini o‘qishga nisbatan ma‘suliyatsiz (yuzaki) qarashning oldini olish barobarida ilmga, kelajakka, tafakkurga, umuman olganda, taraqqiyotga nisbatan sovuqqonlik va isonchsiz qarash pozitsiyasini yo‘qqa chiqaradi;

4) Korrupsiyanaga qarshi kurash borasidagi tadbirlar va ma‘ruzalarni vakolatli davlat organlari tashkilotlarida o‘tkazish, tadbirlar davomida korrupsiyaning jamiyat va davlat miqyosiga falokatli oqibatlarini aniq misollar assossida tahlil qilib berish maqasadga muvofiq va samaraliroq bo‘ladi .

<sup>108</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 419-son qonuni. Xalq so‘zi, 2017 yil 4 yanvar.

<sup>109</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 419-son qonuni. Xalq so‘zi, 2017 yil 4 yanvar.

Shunday qilib, yosh avlodlarni halol yashash tarziga rioya qilib o'stirish kerak. Ularning qalbiga Ona diyorni, millatni muhabbatini joylab, ongiga ota-bobolarimiz amal qilgan qadriyatlarini singdirib borish lozim. Yosh avlodni halol kasb bilan mashq'ul bo'ladigan, qanoatli, sabrli, noshkurlikdan yiroq bo'lib o'sishiga yetaklash shart. Korrupsiya sabab vijdonini sotadigan, nafs balosiga duchor bo'ladigan, inson uchun bir marta beriladigan sinovli hayotimini jinoyat va gunohga botishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: „Yangi asr avlod“; 2023. B.67.
2. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi 419-soni qonuni. Xalq so'zi, 2017 yil 4 yanvar.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi” 2003 yil 9 dekabr. <https://lex.uz/docs/-1461329>
4. Ismatova N., Karimova O. Davlat va huquq asoslari: O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. – Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 144
5. Жаҳон фалсафаси комуси. 1-китоб. Муаллиф К.Назаров. -Т.: ЎФМЖ. 2022, -920 6.
6. Фалсафа: энциклопедик лугат. –Т.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. -344 b.
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/\\_Xalqaro\\_korrupsiyaga\\_qarshi\\_kurashish\\_kuni](https://uz.wikipedia.org/wiki/_Xalqaro_korrupsiyaga_qarshi_kurashish_kuni).

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUOMMOLARI

**Mirabdullayeva Malika Maxmudjonovna,**  
Qarshi davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Korrupsiya jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muammo sifatida o'rganilgan. Maqolada korrupsiyaning asosiy sabablari, uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari hamda unga qarshi kurashda qo'llanilayotgan samarali usullarni ko'rsatib berilgani. Maqolada xalqaro tajriba va O'zbekistondagi holat tahlil qilingan. Shuningdek, muammoni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot ishmizda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari yuzasidan boshqa davlatlarning tajribasi asosida amaliy taklif va ilmiy xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat boshqaruvi, huquqiy islohotlar, shaffoflik, fuqarolik jamiyat, xalqaro tajriba, iqtisodiy zarar, O'zbekiston islohotlari.

Bugungi kunda korrupsiya global muammolardan biri bo'lib, u davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, qonun ustuvorligi va jamiyat axloqiy me'yorlariga jiddiy zarar yetkazmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlarda bu muammo yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab korrupsiyaning iqtisodiy zararlaridan yiliga milliardlab dollar yo'qotiladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. O'zbekiston ham korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab kelmoqda. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari, xalqaro tajriba, mavjud yondashuvlar va bu boradagi yangi strategiyalar muhokama qilinadi.

Korrupsiyaning sabablari va turlari.

Korrupsiya odatda qonunchilikdagi bo'shliqlar, davlat boshqaruvining zaifligi va shaffoflikning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon davlat xizmatchilari va xususiy sektor o'rtasidagi noqonuniy kelishuvlar orqali amalga oshadi. Bunda quyidagi asosiy sabablarga e'tibor qaratish lozim. Moliyaviy qiyinchiliklar va davlat xizmatchilarining yetarli maosh olmasligi; ma'muriy jarayonlarning murakkabligi va byurokratiya; nazorat va monitoring tizimlarining zaifligi; huquqiy madaniyatning pastligi.

Korrupsiyaning oqibatlari. Korrupsiya iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda keng ko'lamlili zarar keltiradi. Iqtisodiy zararlar: Investitsiya muhitining yomonlashuvi, davlat byudjeti mablag'larining maqsadsiz sarflanishi. Ijtimoiy zararlar: Fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi pasayishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi. Siyosiy zararlar: Davlat boshqaruvining zaiflashuvi, qonun ustuvorligining buzilishi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy usullari.Qonunchilikni takomillashtirish: Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi qonunlar va xalqaro konvensiyalarini qabul qilish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Elektron hukumat tizimi va ochiq ma'lumotlar platformalarini joriy etish.Fuqarolik jamiyatni rolini kuchaytirish: Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va axborot tarqatish.Xalqaro hamkorlik: Transparency International kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va xalqaro tajribani o'rganish.

#### O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashga oid bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yilda Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturlari va xalqaro konvensiyalar asosida huquqiy bazani takomillashtirish davom etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat boshqaruvi, balki butun jamiyatning o'zaro hamkorligini talab etadigan murakkab jarayondir. O'zbekistonda korrupsiyani bartaraf etish uchun[3]

1. Davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish;
2. Xodimlarning ma'naviy va moddiy ta'minotini yaxshilash;
3. Axborot texnologiyalarini keng joriy qilish;
4. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Bu takliflar korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro institutlar ichida Birlashgan Millatlar tashkiloti muhim ro'1 o'ynaydi.BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar ichida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi kata ahamiyat kasb etdi.[7]. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyundagi qonuni bilan mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Juhon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va tarraqiyot tashkiloti, Butunjahon bojaxona tashkiloti ham korrupsiyaga qarshi kurashib kelmoqda.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan kunlaridanoq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qildi. Jumladan, 2017- yilning 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida "gi 419- sonli qonun qabul qilindi. Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyisatining ustuvir yo'naliishilarini belgilab beradi va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tartibga solib, kprrupsiyaga qarshi kurashda kattta yordam beradi. Mazkur qonunning 3- moddasi korrupsiya tushunchasiga ta'rif beradi. Unga ko'ra, korrupsiya-nshaxsnинг o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiymanfaatlarini yoxud o'zga shaxlarning maanfatlarini ko'zlab moddiy yoki ma'naviy naf olish maqsadida qonunga xilofravishda foydalanishi,xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [3].

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uz.uz/oz/politics/zbekiston> respublikasi-prezidenti-SHavkat-Mirziyeevning-oliy-25-01-2020. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis).
2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.).
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> / Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-sun. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for further improvement of the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan").
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784> Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 30.06.2020y., 6013-sun. (Decree of the

president of the Republic of Uzbekistan “On additional measures to improve the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan”).

6. [Elektron manba].URL: <https://kun.uz/30443880>

7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi. // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-1461329> (United Nations Convention Against Corruption); URL:<https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>

8. Criminal Law of the People’s Republic of China. // [Electronic resource]. URL:<https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043.htm>.

## YOSHLAR KORRUPSIYAGA “YO‘Q” DEYDI

**Ilmiy rahbar:Bekmurodova G. QDU,**  
Falsafa va sotsiologiya kafedrasi dotsenti.

**Buxorova Noila Norboyevna,**  
Qarshi davlat universiteti Tarix fakulteti  
Ijtimoiy ish yo‘nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqola yoshlarni korrupsiya qarshi kurash jarayonidagi o‘rni va ahamiyati masalasiga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, tahdid, poraxo‘rlik, bozor iqtisodiyoti, ma’naviy xavfsizlik, pora.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan o‘arb davlatlari ham korruptsiyadan butkul xalos bo‘lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korruptsianing oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur’oni karimda poraxo‘rlik bevosita taqiqlanadi: “Bir-birlaringizning mollariningizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokim-larga gunohkorona tashlamang” (Baqara surasi, 188).

Lekin shunga qaramay, poraxo‘rlik Usmoniyalar xalifaligida ham mavjud bo‘lgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o‘zi nazorat qildi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu ishni o‘ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo‘yicha shaxsiy yordamchisi bo‘lgan vazirga topshirib qo‘ydi. Vaqt o‘tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o‘rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo‘lgandi.

Bundan, masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo‘lgan Ubaydulloh Hoqoniylar (926-yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik se-zayotgan davlat soliqlar to‘plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiiste’molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo‘rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Bu holat Usmoniyalar saltanatida ham istisno emasdi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to‘plashda harbiy xizmatchilar qing‘irliliklar sodir etardi. Bu suiiste’mol holatlarini hattoki Usmoniyalar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ydi, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Usmoniyalar saltanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘sishnlar harbiy tayyorgarligini yo‘qtdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyaadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandas, davlatlar o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to‘siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o‘nlab qo‘shma korxonalarining ochilishi va yopilishi zamirida ana shu “ko‘rinmas qo‘llar” yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o‘xshaydi.

Bugungi jamiyatda korrupsiya nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ma’naviy taraqqiyotga ham jiddiy tahdid solmoqda. Korrupsiya davlat resurslarini noto‘g‘ri yo‘naltiradi, tenglik prinsiplarini buzadi va jamiyat ishonchini susaytiradi. Shu boisdan yoshlarning bu muammoga nisbatan munosabati o‘ta

muhim. Zero, kelajak avlodning hayotiy pozitsiyasi korrupsiyaga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda yoshlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashni targ‘ib qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish va shaffoflik prinsiplarini hayotiy qadriyatga aylantirish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni bu borada muhim huquqiy asos yaratdi. Mazkur qonun doirasida yoshlarni korrupsiyaga qarshi immunitetli shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan.

**Yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi:**

Yoshlar — jamiyatning eng faol va yangilikka intiluvchi qatlami. Ularning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ishtiroti nafaqat qonun buzilishlarining oldini olish, balki umuman korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarida tashkil etila-yotgan seminarlar, munozaralar, huquqiy soatlardan tortib, ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilayotgan aksiyalargacha yoshlarni korrupsiyaga qarshi birlashtirayotgan vositalardan biridir.

Ko‘plab yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashni faqat davlat organlarining ishi deb emas, balki har bir fuqaroning burchi sifatida qabul qilmoqda. Shu munosabat bilan, yoshlar tomonidan tashkil etilgan “Korrupsiyasiz kelajak” kabi harakatlar va dasturlar nafaqat bu muammoning ko‘lami haqida xabardorlikni oshiradi, balki jamiyatda buzg‘unchilikka qarshi murosasiz kayfiyatni ham mustahkamlaydi.

**Texnologiyalar va shaffoflik:**

Texnologiyalar rivoji yoshlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron hukumat tizimlari, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar davlat xizmatlarining shaffofligini oshiradi. Yoshlar bu platformalar yordamida davlat xizmatlari sifatini kuzatish, muammolarni oshkor qilish va konstruktiv takliflar berish imkoniyatiga ega.

Masalan, yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion dasturlar va ilovalar davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta’minlashda o‘z samarasini bermoqda. Bu kabi tashabbuslar korrupsiyaning paydo bo‘lish sabablarini bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

**Ma’naviy tarbiya va oila roli:**

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonunchilik va texnologiyalar bilan cheklanmasligi kerak. Yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiysi bu borada asosiy ustunlardan biridir. Oilada halollik, odillik va vijdonlilik kabi qadriyatlarni shakllantirish yoshlarning korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatini rivojlantiradi. Bu borada o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyat yetakchilarining roli beqiyos.

Xulosa qilib aytganda yoshlar korrupsiyaga “Yo‘q” deb aytmoqda, bu esa kelajakda adolatli, shaffof va rivojlangan jamiyat qurish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularning fikrlarini tinglash va korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llab-quvvatlash orqali biz nafaqat bugungi, balki ertangi jamiyatning ham asoslarini mustahkamlaymiz. Korrupsiyaga qarshi kurash yoshlarning faqat vazifasi emas, balki kelajak uchun o‘z hissasini qo‘sish imkoniyatidir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Muhammad Al Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti ilmiy jurnali: Baxtiyor Omonov siyosiy fanlar doktori - Korrupsiya va milliy taraqqiyot: Muammo va yechim
2. Korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi: O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Korrupsiya va uning salbiy oqibatlari (ilmiy maqolalar to‘plami) – O‘zbekiston huquqshunos olimlarining korrupsiyaga oid ilmiy ishlari.
4. Psixologiya va ijtimoiy madaniyat: Yoshlarni korrupsiyaga qarshi immunitetini shakllantirish bo‘yicha psixologik va madaniy yondashuvlar.
5. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi veb-sahifasi (anticorruption.uz) – korrupsiyaga qarshi kurash doirasida amalga oshirilayotgan ishlar.

## RIM IMPERIYASIDA KORRUPSIYANING AVJ OLSHI: DAVLAT VA JAMIYATGA TA'SIRI

**Bektoshev G'iyo'siddin Saxriddin o'g'li,**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Rim Imperiyasida korrupsiyaning avj olishining davlat va jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Rim imperiyasining rivojlanish davrida korrupsiya ko'plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarga olib kelgan. Davlat boshqaruvining markazlashuvi, oliv mansabdor shaxslarning o'z manfaatlarini umumiyligini xalq manfaatlaridan ustun qo'yishi va imperiyaning ichki va tashqi bosimlari korrupsiyaning kengayishiga sabab bo'lgan. Maqolada korrupsiyaning Rimning davlat tuzilmasiga ta'siri, ayniqsa senatorlar va imperatorlar o'rta sidagi kuchlar kurashi, jamiyatning notengligi va iqtisodiy inqirozga olib kelgan omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, korrupsiyaning Rim imperiyasining parchalanishiga qanday hissa qo'shganligi ham tahlil etiladi. Maqola Rimda korrupsiyaning jamiyatning turli qatlamlariga qanday ta'sir qilgani va davlatning barqarorligini qanday xavf ostiga qo'yanini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** Rim imperiyasi, korrupsiya, davlat boshqaruvi, jamiyat ta'siri, siyosiy inqiroz, iqtisodiy muammolar, parchalanish.

Rim imperiyasi o'zining qudratli hukmronligi, yirik iqtisodiy va harbiy qudrati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan davlatchilik tizimidir. Ammo imperiyaning uzoq davom etgan mavjudligi va kengayishi jarayonida ichki muammolar, jumladan, korrupsiya, davlatning asosiy kuchlarini zaiflashtirgan va uning parchalanishiga zamin yaratgan omillardan biri bo'ldi. Korrupsiya, xususan, Rimning so'nggi asrlarida keng tarqaldi, bu nafaqat davlat boshqaruvini, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ham jiddiy ravishda o'zgartirdi. Shuning uchun, Rim imperiyasida korrupsiyaning avj olishining sabablari va uning davlat va jamiyatga ta'siri haqida gapirganda, biz faqat iqtisodiy va siyosiy jihatlarni emas, balki ijtimoiy, madaniy va huquqiy omillarni ham inobatga olishimiz kerak. Rim imperiyasi tashkil topgandan to varvarlar tomonidan tugatilgunga qadar imperiyaning asosiy muammosi bu poraxo'rlik, nepotizm edi. Yuqori davlat amaldorlari korruption holatlarni juda ko'p amalga oshirar edi. Imperiyaning barcha provinsiyalarida prokunsullar mahalliy aholini ezish bilan birgalikda korrupsiya bilan shug'ullanardi. Prokonsullar o'zlarining vakolatlarini su'istemol qilishgan.

Mavzuni yoritish uchun bir nechta ilmiy asar va maqolalardan foydalanildi. Xorijiy maqolalarda mavzu batafsil yoritilgan o'sh davr ijtimoiy va siyosiy muhiti aks ettrilgan. Richard Alexander Bauman qalamiga mansub asarda Rim imperiyasining asosiy parchalanishiga sabab korrupsiya ekanligi ta'kidlangan. Rimda saylovda poraxo'rlik katta biznes edi. Oxirgi Respublikada uyushgan uyushmalar poraxo'rlik va tovlamachilik sxemalarini muvofiqlashtirgan. Pora uchun pul olish uchun katta hajmdagi qarzlar hatto shunchalik moliyaviy beqarorlikni keltirib chiqarganki, bu miloddan avvalgi 49-45 yillardagi fuqarolar urushini keltirib chiqargan. Ammo, deb yozadi Xill, xuddi Afinadagi kabi, ko'plab Rim elitalari bu holatdan qattiq xafa bo'lishgan. Milodiy 55-yilda qabul qilingan qonun poraxo'rlik klublari va ayrim a'zolarini jinoiy javobgarlikka tortishga ruxsat berdi. Saylovlar asosan Rim imperiyasida yo'q qilinganidan so'ng, davlat arbobi Kvint Avreliy Simmakx buni "zamonamizning ne'matlaridan biri" deb ta'riflagan edi: "Ovoz berishning jirkanch plansheti, teatrtdagi o'tiradigan joylarning mijozlar o'rta sidida qiyshi qraqsimlanishi, vahshiylilik, yugur, bularning hammasi endi yo'q!"[1]. Imperiyaning so'nggi davrlariga kelib, Rimda korrupsiya katta muammoga aylanib ketgan. Korrupsiya tufayli shakllangan poraxo'r hukumat tufayli davlatda inflyatsiya va soliqlarning ko'payishi ochlik va kasallikni keltirib chiqardi. Rim imperiyasining so'nggi bir necha asrlarida Rim tarixidagi eng buzuq va qobiliyatsiz imperatorlar rahbarlik qilgan.[2]. Qadimgi Rim qonunida ambitus siyosiy korrupsiya jinoyati edi, asosan nomzodning poraxo'rlik yoki yumshoq hokimiyatning boshqa shakllari orqali saylov natijalariga (yoki yo'naliishiga) ta'sir o'tkazishga urinishi ambitus deb atalgan. Lotin so'zi ambitus ingliz so'zining kelib chiqishi "shuhratparastlik" bu uning asl ma'nolaridan yana biri; ambitus "atrofga borish va o'zini yoki o'zini o'zi maqtash" jarayoni edi protektakllarkatta odamlar uchun" axloqsiz ortiqcha narsalar uchun javobgar bo'lgan faoliyat, amalda, jamoat arbobiga qarshi ambitusni ayblash siyosiy raqibni yo'q qilish uchun maqbul taktikaga aylangan edi. Baebiya tomonidan tomonidan ishlab chiqilgan qonun saylov poraxo'rligini jinoiy javobgarlikka tortadigan birinchi qonun edi M. Baebius Tamfilus miloddan avvalgi 181 yilda Rimda konsullik qilgan.[3]. Rimda Saylovlarda korrupsiya

juda ko‘p takrorlanar edi. Miloddan avvalgi 2-asr yunon tarixchisi Polibiyus shunday ta’kidlagan edi, “Karfagenliklar sovg’alarni ochiq taklif qilish orqali davlat lavozimiga ega bo’lishsa-da, Rimda bu uchun jazo o’limdir”. Gap shundaki, ehtimol ambitusni ba’zi holatlarda xiyonat deb talqin qilingan bo‘lishi mumkin.[4]. Rim Respublikasining inqirozi taxminan miloddan avvalgi siyosiy beqarorlik va ijtimoiy tartibsizliklarning uzoq davri edi. Miloddan avvalgi 133-44 yillar Rim Respublikasining barham topishi va Rim imperiyasining paydo bo‘lishi bilan yakunlangan. Inqirozning sabablari va atributlari o‘nlab yillar davomida o‘zgardi, jumladan, qullik shakllari, talonchilik, ichki va tashqi urushlar, haddan tashqari korruptsiya, er islohoti, chidab bo‘lmas yangi jazolar ixtirosi Rim fuqaroligining kengayishi va hatto Rim qo’shini tarkibini o‘zgartirish. Zamonaviy olimlar inqirozning tabati haqida ham kelishmaydi. An'anaga ko‘ra, fuqarolikning kengayishi (barcha huquqlar, imtiyozlar va burchlar bilan) zamonaviy Sallust, zamonaviy Edvard Gibbon va boshqa o‘z maktablarining qadimgi va zamonaviy maktablari tomonidan salbiy baholangan, chunki bu ichki kelishmovchilik, tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Rimning italyan ittifoqchilar bilan, qullar qo‘zg‘olonlari va g‘alayonlar. Biroq, boshqa olimlarning ta’kidlashicha, Respublika - xalqning muhim narsasi bo‘lishi kerak edi - kambag‘al va huquqdan mahrum bo‘lganlarni ularning qonuniy va qonuniy shikoyatlarini qoplashga urinishlarida ayblab bo‘lmaydi.[5]. Biroq, sudyalar dastlab pora olgani uchun o’lim bilan jazolangan Rimda, keyinchalik korrupsiya rivojlandi, magistratlarga yiliga ma’lum miqdordan oshmaydigan sovg’alar olishga ruxsat berildi. Rim huquqida "korrupsiya" so’zi huquqiy shaklga ega bo’ldi. Bunga misol qilib Rim huquqining eng qadimgi kodekslaridan biri “12-jadval qonunlari”ni (e.o. V asr, lot. leges duodecim tabularum) ko‘rish mumkin. Bu bu yerda "corrumpere"atamasi sudda guvohlikni pulga almashtirish va sudyani pora berish orkali sotib olish ma’nosida ishlatiladi: "Siz haqiqatan ham sudning kelishuvi paytida tayinlangan (ishni ko‘rib chiqish uchun) suda yoki vositachini o’lim jazosi bilan jazolaydigan va bu holda pul pora olganlikda ayblangan qonunning qattiq farmonini ko‘rib chiqmoqchimisiz?". Qadimgi Rim huquq tizimi xususiy huquq va umumiylar huquqni o‘z ichiga olgan. Unda mulkiy munosabatlar, ashyoviy huquqlar, turli bitimlar, shartnomaga asoslangan va asoslanmagan majburiyatlar, meros huquqi va boshqa masalalarga oid qoidalar mukammal ishlab chiqilgan. Rim imperiyasining yuksalishi, uning boshqa davlatlarni bosib olishi bilan faqat rimliklarga tegishli bo‘lgan bu qonun - qoidalar talabga javob bermay qo‘ydi. Buning ustiga nafakat Rimda, shuningdek, Yevropa mamlakatlarda ham tovar, pul munosabatlarining jadal rivojlanishi, biringchi galda, turli davlatlar fuqarolari o‘rtasidagi mulkiy, savdo - sotiq munosabatlariga tegishli qoidalarini qayta ko‘rib chikishni talab qilardi. Bu yangi Rim huquqi tarkibida xalqlar huquqi tizimining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu huquq Rimliklar va Rimlik bo‘limgan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar tatbiq qilindi, Rim xususiy huquqi, xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning mumtoz huquqi hisoblangan. Rimda Korrupsianing turli xil shakllari bor edi. Korrupsiya Rim armiyasida ham mavjud edi. Masalan, yollanma askarlarning to’lovlarini ko‘pincha to’lanmas edi, va askarlar o’zlarini ta’minalash uchun boshqa usullarga murojaat qilishgan. Bunga qo’shimcha ravishda, ba’zi harbiy rasmiyalar o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun armiya safida korruptiv aloqalarni rivojlantirishgan. Biroz vaqt mobaynida, Rimda Grakxlar (Tiberiy Grakx va Gaj Grakx) kabi islohotchilar bo‘lgan. Ular yer va soliq islohotlarini amalga oshirib, pastki sinfning manfaatlarini himoya qilishga harakat qilishgan. Biroq, ularning islohotlari ko’plab yuqori amaldorlar tomonidan qarshilikka uchragan, chunki ular korrupsiya tizimidan foydalanganlar. Tiberiy Grakx o‘z islohotlarini amalga oshirishni boshlaganida, u korrupsiya va yer masalalariga qarshi qat’iy kurashishga qaror qilgan. Ularni amalga oshirishda, yuqori sinfning qarshiligi va korrupsiya tizimi bu harakatlarni muvaffaqiyatsiz qilishga olib kelgan. Rimning siyosiy tizimidagi korrupsianing avj olishiga eng katta ta’sir ko’rsatgan omillardan biri, imperatorlarning kuchli avtoritar hokimiyatiga bo‘lgan ehtiyoj edi. Yuqori darajadagi siyosiy lavozimlar va iqtisodiy manfaatlar, o‘zaro pora olish, siyosiy ta’sir uchun raqobat kabi omillar korrupsianing keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, imperatorning yaqin atrofidagi saroy amaldorlari va militar rahbarlar tomonidan amalga oshirilgan poraxo‘rlik va davlat mablag‘larini talon-taroj qilish davlatni zaiflashtirdi. Korrupsianing jamiyatga ta’siri ham sezilarli bo‘ldi. Xalq orasidaadolatsizlik va noroziliklar kuchaydi, bu esa Rimning barqarorligini tahdid ostiga qo‘ydi. Korrupsianing avj olishiga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun, Rimda shaffoflikni va adolatni ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar zarur edi, lekin bu tizimdagi strukturaviy nuqsonlar uni amalga oshirishni qiyinlashtirdi. Rim imperiyasidagi korrupsianing avj olishi, o‘zining salbiy

oqibatlari bilan tarixiy bir darsdir. U, ayniqsa, davlatning samarali boshqaruvini ta'minlash, adolatni saqlash va fuqarolar o'rtasida ishonchni tiklash uchun zarur bo'lgan siyosiy va ijtimoiy chora-tadbirlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu tajriba hozirgi kunning boshqaruv tizimlari uchun ham muhim saboqlarni taqdim etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://daily.jstor.org/political-corruption-in-athens-and-rome/>
2. <https://study.com/skill/practice/identify-causes-effects-of-the-fall-of-the-roman-empire-questions.html>
2. Fergus Millar, "The Political Character of the Classical Roman Republic, 200–151.
3. B.C., "Journal of Roman Studies 74 (1984), pp. 10 (especially note 36) and 114.
4. Richard Alexander Bauman, "The Leges iudiciorum publicorum and Their Interpretation in the Republic, Principate, and Later Empire," Aufstieg und Niedergang der römischen Welt II (de Gruyter, 1980), p.125.
5. Flower, Harriet I. (2010). Roman republics. Princeton: Princeton University Press.

## КОРРУПЦИЯ – ЭТО БОЛЕЗНЬ, РАЗРУШАЮЩАЯ ГОСУДАРСТВО И УНИЖАЮЩАЯ ЧЕЛОВЕКА, УГРОЗА ГОСУДАРСТВУ И ОБЩЕСТВУ

**Низомжонова Луиза Низомжонова,**

Магистрант 1-курса (лингвистика:русский язык )  
Каршинского государственного университета

**Аннотация:** Статья посвящена проблеме коррупции как серьезному социальному и экономическому явлению, оказывающему разрушительное воздействие на государственные институты и на общество в целом. Рассматривается определение коррупции, её причины и последствия, а также предлагаются меры для её предотвращения и борьбы с ней. Обсуждаются важность открытости и подотчетности государственных органов, а также роль гражданского общества в противодействии коррупционным практикам. Задача заключается в формировании более прозрачной и справедливой системы государственного управления, что способствует улучшению качества жизни граждан и укреплению доверия к власти.

• **Ключевые слова:** коррупция, государство, злоупотребление служебным положением, личная выгода, взятки, откаты, нечестные сделки, государственные ресурсы, экономические убытки, бюджетные средства, иностранные инвестиции, качество услуг, здравоохранение, образование.

• Коррупция — это одно из наиболее острых и разрушительных явлений, с которым сталкиваются многие страны мира. Она затрагивает все сферы общественной жизни: от политики и экономики до образования и здравоохранения. Понимание последствий коррупции и методов ее борьбы является важным для развития общества и улучшения качества жизни граждан.

#### • Понятие коррупции

• Коррупция представляет собой злоупотребление служебным положением для получения личной выгоды. Она может проявляться в различных формах: взятки, откаты, нечестные сделки и манипуляции с государственными ресурсами. Важно отметить, что коррупция не ограничивается лишь действиями отдельных лиц; она часто становится системной, затрагивая институты власти и порождая коррупционные схемы.

#### • Последствия коррупции

• 1. Экономические убытки: Коррупция приводит к неэффективному расходованию бюджетных средств, снижению иностранных инвестиций и ухудшению условий для ведения бизнеса. Это может замедлять экономический рост и ухудшать уровень жизни населения.

• 2. Ухудшение качества услуг: В сферах здравоохранения, образования и инфраструктуры коррупция может приводить к снижению качества предоставляемых услуг. Финансирование может направляться не на нужды граждан, а на обогащение отдельных лиц.

• 3. Утрата доверия к институтам: Коррупция подрывает доверие населения к государственным учреждениям и правоохранительным органам. Это может вызывать социальные напряжения и протестные настроения, что угрожает стабильности общества.

• 4. Уменьшение социальной справедливости: Коррупция усугубляет неравенство и создает дополнительные барьеры для социального лифта. Люди, не имеющие доступа к коррупционным схемам, оказываются в невыгодном положении.

- Коррупция является серьезной проблемой во многих странах мира, оказывающей значительное влияние на социально-экономическое развитие и политические системы. Она проявляется в различных формах, включая взяточничество, злоупотребление властью, мошенничество и хищение государственных средств. Последствия коррупции разнообразны и существенны.

- Экономические последствия. Коррупция негативно сказывается на экономическом развитии, затрудняя привлечение внутренних и иностранных инвестиций. Всемирный банк оценивает ежегодные мировые убытки от коррупции в размере от 1 до 1,6 триллионов долларов США. Исследования показывают, что рост коррупции на 1 пункт по шкале Transparency International's Corruption Perceptions Index может привести к снижению экономического роста на 0,5 процента. Международный валютный фонд утверждает, что страны с высоким уровнем коррупции теряют до 2% своего экономического роста ежегодно.

- Социальные последствия. Коррупция усиливает социальный неравенство, поскольку ресурсы, предназначенные для общественных нужд, часто перенаправляются в руки коррумпированных чиновников и элит. По данным Transparency International, более 25% людей в развивающихся странах платят взятки для доступа к государственным услугам, таким как здравоохранение или образование. В некоторых странах до 80% населения сталкиваются с вымогательством взяток.

- Политические последствия. Коррупция подрывает доверие к государственным институтам и системе правосудия. Согласно данным Gallup, в странах с высоким уровнем коррупции доверие граждан к правительству может снижаться до 20-30%. Это ведет к снижению легитимности государственных органов и росту политической нестабильности. Transparency International указывает, что в странах с высоким уровнем восприятия коррупции вероятность возникновения протеста и беспорядков возрастает до 50%.

- Экологические последствия. Коррупция также оказывает негативное влияние на окружающую среду. Исследования показывают, что в странах с высоким уровнем коррупции наблюдается более высокий уровень загрязнения воздуха и воды. Согласно оценкам Программы ООН по окружающей среде, из-за коррупционных практик убытки в сфере устойчивого развития могут составлять от 20 до 40 миллиардов долларов США в год.

- Последствия для здравоохранения. Коррупция в системе здравоохранения ведет к ухудшению качества медицинских услуг и снижению доступности лекарств. В странах с низким и средним уровнем дохода ежегодно от махинаций и взяточничества в здравоохранении теряется до 6% бюджета этого сектора, что эквивалентно десяткам миллиардов долларов США.

- Образование. В системе образования коррупция приводит к снижению качества обучения. По данным ЮНЕСКО, в странах с высоким уровнем коррупции около 20% детей могут недополучать базовые образовательные потребности из-за недостаточного финансирования и плохих условий в учебных заведениях. Взятки за поступление в учебные заведения и оценки подрывают мотивацию студентов и дискредитируют образовательные стандарты.

- Влияние на правосудие. Коррупция в правоохранительных органах и судебных системах ослабляет верховенство закона и способствует безнаказанности преступлений. В некоторых странах до 30% граждан сообщает о необходимости уплаты взятки для получения справедливого судебного разбирательства. В общем и целом, коррупция представляет собой значительное препятствие для устойчивого развития, справедливого распределения ресурсов и обеспечения правопорядка. Борьба с коррупцией требует комплексных мер, включая повышение прозрачности, укрепление институтов и внедрение антикоррупционных механизмов.

### **Борьба с коррупцией**

- Основными средствами борьбы с коррупцией являются:
- - Прозрачность и отчетность: Необходимо внедрять механизмы, позволяющие общественности контролировать действия властей и следить за расходованием бюджетных средств.
- - Ужесточение законодательства: Целесообразно принимать законы и меры, направленные на пресечение коррупционных практик, включая более строгое наказание для коррупционеров.

- - Образование и информирование: Важно повышать общественное сознание о вреде коррупции, формировать у граждан недопустимость таких действий.

- - Независимые аудитории: Создание независимых органов, занимающихся контролем и аудитом, позволит снизить уровень коррупции и увеличить доверие к государственным институтам.

- На основании законодательства была утверждена "Государственная программа борьбы с коррупцией на 2017-2018 годы", большая часть задач которой была выполнена. 9 апреля 2018 года был принят закон Республики Узбекистан "О государственным закупках". В 12-й статье данного закона, названной "Принцип недопустимости коррупции", установлено, что "Требования к организации и проведению процедур закупок должны исключать возможность коррупционных правонарушений в сфере государственных закупок. При этом превалирующей должна быть мера, направленная на предотвращение коррупции". Также в результате данного закона была создана прозрачная система предоставления государственных услуг в этой сфере.

- Реформа президента Шавката Мирзиёева в сфере борьбы с коррупцией заключается в обеспечении открытости всех органов государственного управления, определении основного направления этих органов как службы народу, установлении принципов ответственности и подотчетности судебных и правоохранительных органов перед обществом. Чтобы эффективно бороться с этим отвратительным явлением, необходимы активные меры общественного контроля. Эта проблема требует серьезной борьбы не только со стороны правоохранительных органов, но и от каждого сообщества. Поэтому каждая государственная структура должна иметь свои внутренние программы борьбы с коррупцией, которые будут контролироваться обществом.

- **Мысли и выводы ученых о коррупции**

- Ученые и исследователи по всему миру долго и активно изучают проблему коррупции, и их взгляды на это явление разнообразны. Вот некоторые ключевые мысли и идеи, которые часто упоминаются в научных работах:

- 1. Коррупция как системное явление: Многие исследователи считают, что «коррупция не является исключительно индивидуальным поведением, а представляет собой системную проблему, возникающую в результате слабости институтов, недостаточной прозрачности и отсутствия эффективного контроля». Это мнение разделяет, например, Дуглас Норт, лауреат Нобелевской премии, который подчеркивал важность хороших институтов для экономического развития.

- 2. Экономические последствия: Ученые, такие как Эдвард К. М. Феу (Edward C. Prescott), указывают на негативные экономические последствия коррупции. Они отмечают, что "коррупция снижает эффективность распределения ресурсов, уменьшает инвестиции и замедляет экономический рост. Это также приводит к увеличению неравенства и социальной несправедливости".

- 3. Психологические аспекты: Психологи изучают, как коррупция влияет на поведение и моральные установки людей. Они подчеркивают, что "коррупция может снижать уровень доверия к обществу и повышать уровень цинизма, что в свою очередь может вызвать социальные конфликты". Исследования показывают, что люди, которые часто становятся свидетелями коррупции, могут начать считать ее нормой, что приводит к легитимации этого поведения.

- 4. Культурные факторы: Ученые, такие как Фрэнсис Фукуяма, исследуют, как культура и исторический контекст влияют на уровень коррупции в различных странах. Они подчеркивают, что "в обществах, где коррупция воспринимается как часть культурного кода, детище традиций и обычая, может быть особенно трудно изменить существующие нормы и практики".

- 5. Роль технологий: Современные исследователи обращают внимание на технологические средства борьбы с коррупцией. Они утверждают, что "цифровизация и создание открытых данных о государственных расходах могут значительно снизить уровень коррупции, увеличивая прозрачность и защищая от злоупотреблений".

- 6. Международное сотрудничество: Ученые, такие как Ричард Ханан, подчеркивают важность международного сотрудничества в борьбе с коррупцией, так как многие

коррупционные схемы имеют транснациональный характер. Эффективная борьба возможна только при объединении усилий разных стран через международные организации.

• 7. Социальные движения: Исследования показывают, что” активизм и давление со стороны гражданского общества могут значительно повлиять на уровень коррупции в стране. Участие граждан в политических процессах и требования прозрачности со стороны властей становятся важными инструментами борьбы с коррупцией”.

• Таким образом, мнения ученых о коррупции разнообразны и охватывают множество аспектов этого сложного феномена. Они подчеркивают необходимость комплексного подхода к пониманию и борьбе с коррупцией на всех уровнях общества.

### **Заключение**

• Коррупция является одной из главных угроз для развития общества и государства. Ее последствия затрагивают каждого гражданина, подрывая основы справедливого и эффективного управления. Бороться с коррупцией необходимо совместными усилиями государства, общества и международного сообщества для построения здорового и процветающего будущего.

Коррупция — это препятствие для развития и опасное преступление, угрожающее безопасности. Борьба с этой проблемой должна быть делом не только соответствующих органов, но и каждого из нас. Только так мы сможем преодолеть эту угрозу.

## **KORRUPSIYANING IJTIMOIY-HUQUQIY ILDIZLARI**

**Safarov Nurbek Abdivaliyevich,**  
QarDU Falsafa va sotsiologiya kafedrasи katta o‘qituvchisi

*Annotatsiya.* Maqolada koruppsiya ijtimoiy illat sifatida tahlil qilingan. Koruppsiyaning etnik jihatlari, funksional aspektlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, illat va fazilat, ahloq, huquqiy ong, moddiy boylik, ma’naviy munosabat.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Hozirgi davrda korrupsiya ko‘pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish, muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada jamiyat a’zolarini mazkur davlatning organlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi. Korrupsiya-shaxsnинг o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi tushuniladi. Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Zero, davlatimiz rahbari adolatli ta’kidlaganlaridek, korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlar shular jumlasidandir.

Shu asosda aholining xususan, talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rib kelinmoqda.

Umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kengaytirilib, “**Korrupsiyasiz soha**” loyihasi amalga oshirilmoqda. Natijada, ta’magirlik va manfaatlar to‘qnashuviga oid holatlarning oldi olinmoqda, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash ta‘minlash imkoniyatlari ortmoqda.

O‘zimizga xulosa qilishimiz, keljakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo o‘zimizni o‘zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyanining har qanday ko‘rishnishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarurdir. Jamoatchilik mexanizmini nazoratini yanada takomillashtirish orqali professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlar hamda barcha xodimlarlarining o‘z vazifalariga nisbatan mas‘uliyatini kuchaytirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ogohlagini yanada oshirish mumkin.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalari ning samarali ijrosini ta‘minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq 2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi qabul qilindi. Shu asosda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. Shuningdek, mazkur Qarorga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalari tuziildi va ular o‘z faoliyatini boshlab yubordi.

Korupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha qonunchilik faoliyati, tashkiliy-amaliy ishlarning faollashuvi shu davrga kelib qorrupsiyaning avj olib ketgani bilan emas, balki korrupsiyaga qarshi kurashning yangi-tizimli kurash pallasiga kirishi bilan bog‘liq edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashni tizimli tashkil qilish bo‘yicha boshlangan harakatlarning asosida mamlakatdagi korrupsiyaning miqyosini, tadrijini, o‘ziga xos etnik va psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish yotadi.

Hozirgi kunda ko‘pchilik mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash siyosiy va huquqiy vositalar yordamida olib borilmoqda. Bunday salbiy hodisani bartaraf etishda ma’naviy-psixologik usullardan kam foydalanilmoqda.

O‘zbekistonda ma’naviyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ma’naviyat mavzusiga bag‘ishlab qator monografiyalar, risolalar, ko‘plab maqolalar chop etilgan. Ma’naviyat asoslari darsi umumta’lim mакtablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalaridan joy olgan. Milliy g‘oya va ma’naviyat mavzusida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Ayni paytda, korrupsiyaga qarshi kurashda ma’naviy usullardan foydalanishga asoslangan tadqiqotlar juda kam ekanligini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi.

Korrupsiya ko‘pincha mansabdor shaxs va tadbirkor yoki mansabdor shaxs bilan bog‘liq masalarini hal qilmoqchi subyekt o‘rtasida yuz beradi. Bu jarayon tom ma’noda psixologik jarayon bo‘lib u qonun doirasidan chetga chiqadi. Psixik jarayon sifatida korrupsiya nafaqat iqtisodiyotga, balki jamiyatning ma’naviyatiga, ma’naviy-ruhiy iqlimiga ham katta zarar yetkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi “**Transparency International**” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro reytingida ijobjiy o‘zgarishlar qayt etayotgani barchamizni quvontiradi. Ammo, uzlusiz ta’lim tizimini sifat jihatidan yaxshilash halol va vatanparvar kadrlarni tayyorlash, ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta’lim tizimiga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalami joriy etish, yoshlarni halollik ruhida tarbiyalash va ularni korrupsiyaga qarshi kurashishga doir zamonaviy usullari va yo‘nalishlari bilan tanishtirib borish, korrupsiyaga

qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabilar doimiy faoliyatimiz asosiga aylanishi zarur.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanovning umumiy tahririda. YURIDIK ENSIKLOPEDIYA. Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2001 yil. 258-bet.
2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Yangi asr avlodni" nashriyoti, 2022-yil. 320-bet.
3. <https://anticorruption.uz/uz/item/2023/01/31/transparency-international-2022-yilgi-korrupsiyan-qabul-qilish-indeksini-elon-qildi>.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. <https://lex.uz/docs/-4545884>

## **SARMOYA VA ISH O'RINLARI YARATISHDAGI TO'SIQLAR**

**G'afforov Oybek Rustam o'g'li,**

Qarshi davlat universiteti

Xalqaro qo'shma ta'lif dasturlari fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Sarmoya jalb qilish va yangi ish o'rirlari yaratish har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, ijtimoiy farovonligiga, va barqaror o'sishiga asosiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu jarayonda bir qator to'siqlar mavjud bo'lib, ular mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini cheklab qo'yadi. Ushbu maqolada sarmoya jalb qilish va ish o'rirlarini yaratishdagi asosiy to'siqlar va ular bilan bog'liq iqtisodiy muammolar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Sarmoya jalb qilish, ish o'rirlari yaratish, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy beqarorlik, korrupsiya, xavf va noaniqlik, mehnat bozoridagi malaka, ta'lif tizimi, huquqiy tizim, infratuzilma, transport tizimi, raqobatbardoshlik, bozorning to'lib ketishi, iqtisodiy o'sish, kichik va o'rta biznes, ishchi kuchi, tartibga solish, investitsiya muhiti, yuridik xavfsizlik, kadrlar tayyorlash.

Sarmoya kiritish va ish o'rirlari yaratish uchun eng zarur shartlardan biri – bu siyosiy va iqtisodiy barqarorlik. Siyosiy tizimda bo'layotgan o'zgarishlar, hukumatning o'zgaruvchan qarorlari va qonunlarni tez-tez yangilash investorlar uchun noaniqlikni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, valyuta kursining o'zgarishi ham sarmoya jalb qilishni murakkablashtiradi. Investitsiyalar ko'pincha uzoq muddatli strategiya va rejalgara asoslanadi, shuning uchun uzoq muddatli iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni yaratish juda muhimdir.

Korrupsiya iqtisodiy jarayonlarni chuqur buzadi, bu esa sarmoya kiritish uchun salbiy muhit yaratadi. Korrupsiya mavjud bo'lgan muhitda investitsiyalar odatda "soxta" va "samarasiz" loyihalarga yo'naltiriladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, balki investorlarga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va yangi ish o'rirlari yaratishga xalaqit beradi. Odatda, davlat va biznes sektori o'tasidagi korruption aloqalar samarali sarmoya kiritish va ish o'rirlari yaratishga to'sqinlik qiladi.

Investitsiya qilish uchun risklarni minimallashtirish muhim omil bo'lib, bu noaniqlikni kamaytirish va investorlar uchun ishonchli muhit yaratishni talab etadi. Tabiiy resurslar, infratuzilma yoki mehnat resurslarining mavjudligi bo'yicha noaniqliklar, shuningdek, huquqiy tizimdagи muammolar, investorlarni xavf ostiga qo'yadi va ularni mamlakatga sarmoya kiritishdan tiyilishiga sabab bo'ladi. Bunda davlatning ta'siri va qarorlari muhim bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy xavf-xatarlarga qarshi muhim tartibga solishlarni amalgaga oshirishi lozim.

Kadrlar tayyorlash tizimi va ishchi kuchining malakasi iqtisodiyotning o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Ish o'rirlari yaratish jarayonida ishchi kuchining yetarlicha malakali bo'lmasligi yoki kerakli bilimlarga ega bo'lmasligi katta to'sqinliklarni keltirib chiqaradi. Agar mehnat bozorida malakali va tajribali ishchilar yetishmasa, kompaniyalar o'z faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan ish o'rirlarini yaratishda qiynaladi. Shuningdek, ta'lif tizimining ishonchliligi va malaka oshirish imkoniyatlari ish o'rirlarini yaratish jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Sarmoya va ish o'rirlarini yaratishning yana bir asosiy to'sig'i huquqiy tizimning samaradorligi va qonunlarning ishlab chiqilishi, tatbiqi va himoya qilinishidir. Agar huquqiy muhit noaniq, murakkab yoki adolatsiz bo'lsa, investorlarga yuridik xavfsizlikni ta'minlashda qiyinchiliklar yuza-

ga keladi. Masalan, mulk huquqi yoki kontraktlar buzilishi holatlari sarmoya kiritishini cheklaydi. Bundan tashqari, mehnat qonunchiligining murakkabligi yoki noaniqligi yangi ish o'rinlarini yaratishda to'sqinlik qiladi, chunki ish beruvchilar uchun qoidalar va tartib-qoidalar bajarish qiyinlashadi.

Yuqori sifatli infratuzilma – bu sarmoya kiritish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun zarur shartlardan biridir. Transport tarmoqlari, kommunikatsiya tizimlari va energiya ta'minoti kabi asosiy infratuzilma tarmoqlari rivojlangan bo'lishi kerak. Agar infratuzilma sust bo'lsa, kompaniyalar o'z faoliyatini kengaytirish yoki yangi ish o'rinlarini yaratishda muammolarga duch keladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratish uchun imkoniyatlarni cheklaydi.

Bozorning raqobatbardoshligi va uning to'liq ishslash sharoitlari ham ish o'rinlarini yaratish uchun zarur. Bozorda raqobatning yo'qligi yoki bir nechta yirik kompaniyalarning hukmronligi kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Kichik va o'rta biznes esa ko'pincha yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy manbai hisoblanadi. Agar bozorni raqobatbardosh bo'lishi ta'minlanmasa, sarmoya jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarni kamayadi.

Mehnat bozorida yetarli darajada tizimli siyosat va tartib yo'qligi ish o'rinlari yaratishda to'sqinlik qiladi. Bozorning talab va taklifini aniq tahlil qilish va ishchi kuchini malakali tarqatish masalalari hal qilinishi kerak. Agar ish o'rinlari malakasiz bo'lsa yoki bozor talablariga javob bermasa, yangi ish o'rinlari yaratishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi qiyin bo'ladi.

Sarmoya jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratish — har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va rivojlanishiga asos bo'lgan muhim jarayonlardir. Lekin, bu jarayon ko'plab to'siqlar va cheklovlар bilan yuzlashadi, bu esa o'sishni sekinlashtiradi. Mana shunday to'siqlarning har biri haqida kengroq tushuncha berishga harakat qilamiz.

Siyosiy beqarorlik, davlatdagи hukumat o'zgarishlari, qonunlarning doimiy o'zgarishi va siyosiy mojarolar iqtisodiyotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalar odatda uzoq muddatli va yuqori risklarni talab qiladi, shuning uchun investorlar siyosiy beqarorlikni o'z faoliyatlariga xatolik deb hisoblashadi.

Misol uchun, biror davlatda siyosiy inqiroz yoki siyosiy partiylar o'rtasidagi keskin raqobat bo'lsa, investorlar o'z pullarini xavf ostiga qo'yishdan tiyiladi. Natijada, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish sekinlashadi.

Iqtisodiy beqarorlik ham o'z navbatida investitsiya muhitini noaniq qiladi. Misol uchun, inflatsiya darajasining yuqoriligi, valyuta kursining o'zgarishi yoki davlat qarzlarining oshishi sarmoya kiritish uchun xavf tug'diradi.

Korrupsiya — iqtisodiy faoliyatda eng katta to'siqlardan biridir. Korrupsiya mavjud bo'lsa, investitsiya muhiti ishonchhsiz bo'ladi. Investorlar ko'pincha davlat xizmatlari, litsenziyalar va ruxsatnomalar olishda o'sha mamlakatda muayyan korrupsiya darajasini hisobga olishadi. Buning natijasida, investitsiyalar samarasiz loyihalarga yo'naltiriladi yoki resurslar noto'g'ri taqsimlanadi.

Korrupsiya, shuningdek, kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ham to'siq bo'ladi. Davlatning iqtisodiy faoliyatini nazorat qilishdagi samarali mexanizmlar yo'qligi kichik firmalarni zarar yetkazadi. Korrupsiyaga o'rgatilgan muhitda kompaniyalar yangi ish o'rinlarini yaratish o'rniga, o'z foydasini oshirish uchun xarajatlarni kamaytirish yoki o'g'rilik qilishga moyil bo'lishadi.

Xavf va noaniqlik — har qanday sarmoya kiritish jarayonida eng katta omillardan biridir. Sarmoyadorlar uzoq muddatli, aniq va xavfsiz investitsiyalarni qidiradilar. Biroq, iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar, bozorning o'zgarishi va tabiiy ofatlar kabi tashqi omillar sarmoyalarni jalb qilishda katta to'siqlarni yaratadi.

Agar mamlakatda iqtisodiy o'sish turg'un bo'lsa yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan global inqirozlar mavjud bo'lsa, investorlar o'z pullarini xavf ostiga qo'yishni xohlamaydilar. Bu esa, nafaqat sarmoya jalb qilish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini ham kamaytiradi.

Shuningdek, noaniq bozor sharoitlari va mehnat bozoridagi o'zgarishlar investorlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, texnologiyalar tez o'zgarib turadi va bu mehnat bozorini noaniq qiladi. Agar ishchi kuchining malakasi yoki mehnat resurslarining o'zgarishiga moslashish qiyin bo'lsa, yangi ish o'rinlarini yaratish jarayoni qiyinlashadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun yuqori malakali ishchi kuchi zarur. Agar mamlakatda ta'lim tizimi yomon bo'lsa yoki ishchilar malakasi past bo'lsa, bu yangi ish o'rinlari yaratishga jiddiy

to'siq bo'ladi. Xususan, kichik va o'rtaligining malakalari xodimlar yollashda qynaladi, chunki yaxshi malakaga ega mutaxassislar chet elga ishlash uchun chiqishadi yoki mavjud malaka talablariga mos ish o'rirlari kam bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash tizimi va oliv ta'lim muassasalarining amaliyotga yo'naltirilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tiziminining bozor talablariga mos bo'lmasligi, ayniqsa texnik mutaxassisliklar bo'yicha, ish o'rirlarini yaratishga xalaqit beradi. Mehnat bozorining talablariga mos keladigan yangi malakalarga ega kadrlarni tayyorlash masalasi hal qilinishi kerak.

Sarmoya kiritish jarayonidagi to'siqlardan biri ham huquqiy tizimning samaradorligi va ishonchligidir. Agar huquqiy tizimdagi normativ huquqiy aktlar aniq va samarali bo'lmasa, bu sarmoya kiritish uchun ishonchni kamaytiradi. Mulk huquqlari, biznesni boshlash va boshqa yuridik muammolar sarmoya kiritishni qiyinlashtiradi.

Misol uchun, mulk huquqi bo'yicha o'zgarishlar yoki kompaniya huquqiy maqomi bilan bog'liq muammolar investorlar uchun katta xavf tug'diradi. Agar kompaniya o'z faoliyatini qonun doirasida olib borishdan qochsa, bu yangi ish o'rirlarini yaratishda to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun to'g'ri infratuzilma zarur. Sarmoya jalg qilish va ish o'rirlarini yaratish uchun transport tarmoqlari, kommunikatsiya va energiya ta'minoti tizimi rivojlangan bo'lishi kerak. Agar infratuzilma sust rivojlangan bo'lsa, bu sarmoya kiritishni qiyinlashtiradi va yangi ish o'rirlarini yaratish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Masalan, yirik kompaniyalar mahsulotlarini bozorlarga yetkazib berish uchun samarali transport tizimiga muhtoj bo'lishadi. Agar transport tarmog'ining rivojlanmaganligi sababli mahsulotlarni yetkazib berish qiyinlashsa, kompaniyalar ishlab chiqarish hajmini kamaytirishlari mumkin, bu esa ish o'rirlarining kamayishiga olib keladi.

Raqobat kuchli bo'lgan bozorlar yangi ish o'rirlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo bozorning to'lib ketishi kichik kompaniyalar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kichik va o'rtaligining muhitining global ko'rinishlari yoritilgan. Sarmoya kiritishning iqtisodiy barqarorlikka bog'liqligi va uning ish o'rirlarini yaratishga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida tahlillar mavjud.

**Xulosa.** Sarmoya jalg qilish va yangi ish o'rirlarini yaratish uchun mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhimdir. Bunda hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, ta'lim tiziminining yaxshilanishi, huquqiy islohotlar, infratuzilmaning rivojlanishi, va korrupsiyani kamaytirish kabi chora-tadbirlar o'z samarasini berishi mumkin. Sarmoya va ish o'rirlarini yaratish jarayonining muvaffaqiyati o'zaro aloqada bo'lgan bu to'siqlarning bartaraf etilishi bilan bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rirlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Khan, M. (2002). "Corruption and Governance in Developing Countries." Public Administration and Development, 22(3), 121-137.
- 2.Pfeiffer, P. (2016). The Investment Environment and Economic Growth: A Global Perspective. Cambridge University Press.
- Kitobda iqtisodiy o'sish va sarmoya muhitining global ko'rinishlari yoritilgan. Sarmoya kiritishning iqtisodiy barqarorlikka bog'liqligi va uning ish o'rirlarini yaratishga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida tahlillar mavjud.
- 3.North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change, and Economic Performance. Cambridge University Press.
- 4.Rodrik, D. (2007). One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton University Press.
- 5.Sachs, J. D., & Warner, A. M. (1995). "Natural Resource Abundance and Economic Growth." NBER Working Paper No. 5398.
- 6.Bhattacharyya, S. (2011). Corruption and Development: A Comprehensive Overview. Routledge.
- 7.World Bank (2003). World Development Report 2003: Sustainable Development in a Dynamic World. Oxford University Press.
- 8.UNCTAD (2020). World Investment Report 2020: International Production Beyond the Pandemic. United Nations Conference on Trade and Development.
- 9.Barro, R. J. (1997). "Determinants of Economic Growth: A Cross-Country Empirical Study." National Bureau of Economic Research Working Paper No. 5698.
- 10.Daron Acemoglu, James A. Robinson (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Business.
- 11.Glaeser, E. L. (2011). The Triumph of the City: How Our Greatest Invention Makes Us Richer, Smarter, Greener, Healthier, and Happier. Penguin Press.

## KORRUPSIYA VA YOSHLAR

Boymurodova Sevinch,  
Qarshi Davlat Universiteti,  
Lingvistika (rus tili) yo‘nalishi  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaning jamiyatdagi barcha yoshlar ongiga va ularning dunyoqarashiga bo‘lgan ta’siri batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, bugungi kundagi korruption muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqidagi mavzularga ham to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, korruption muammolar, korrupsiya ildizi.

Hozirgi kunda biz “korrupsiya” “atamasini tez-tez eshityapmiz. Chunki korrupsiyaviy muammolar bizning jamiyatimizning eng og‘riqli nuqtasidir. Korrupsiya nafaqat bizning davlatimizda, balki boshqa mamlakatlarda ham eng dolzarb, hal qilish qiyin bo‘lgan murakkab muammolardan biridir. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizda prezidentimiz boshchiligidagi turli xil chora tadbirdilar ,keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korruption omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlardir.

“Korrupsiya” atamasi lotincha so‘z bo‘lib “corruption” so‘zidan kelib chiqqan. Ma’nosи “pora evaziga og‘dirish” tushunchasini beradi. Keyingi qarashlarga ko‘ra korrupsiya atamasi lotincha “complete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib buzilish, aynish, tanazzul” degan ma’nolarni anglatadi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchи davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olingan. Qadimgi davlatlarni ,ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rliги qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan. Bu manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi.

Korrupsiya bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to`sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta`minlash muhim jarayon bo`lib, bu jarayondagi asosiy vazifalardan biri korrupsiya bilan bog`liq holatlarning oldini olish, unga yo‘l qo‘ymaslik hamda bunday salbiy illatga qarshi samarali kurash olib borishdir.

Poraxo‘rlik va korrupsiya o‘zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta’kidlanib, “qo‘lga tushgan” amaldorlar televiedeniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo‘qolib ketmayapti. Korrupsiya, birinchidan, jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta’sir □tm□□ q□lm□di; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o‘z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko‘□tir□di; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, o‘arb andozasiga o‘xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Korrupsiyaning rivojlanib kelayotgan yosh avlodning ongiga va dunyoqarashiga ham ta’siri katta. Chunki biz yoshlar maqsadimizga erishishimiz uchun juda ko‘p sinovlarni yengib o‘tishimiz kerak.Bu uchun bizdan katta kuch ,sabr-matonat talab etiladi. Bugungi kundaadolatsizlik va korrupsiya ko‘p yoshlarning irodasini, qaysidir ma’noda, “sindiryapti” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi qaysi burchakka bormaylik,adolatsizlikning “hidi” kelib turadi. O‘zim ham ko‘p jarayonlarning guvohi bo‘lganman. Ko‘p insonlarda shunday tushuncha mavjud: “Jamiyatda korrupsiya muammolari bartaraf etilmas ekan ,hech qanday rivojlanish sezilmaydi”. Rostan ham shunday,afsuski. Poraxo‘rlik ,adolatsizlik, “tanish-bilishchilik” ning oqibatida ko‘plab salohiyatl, bilimli ,davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun foydasi tegadigan yoshlarmiz ishsiz yurishibdi. Agar ularga o‘z sohasi bo‘yicha ishslashga va rivojlanishga, yangiliklar kiritishga imkon yaratib bersak

,davlatimiz,albatta, yaqin yillarda rivojlangan davlatlar qatoridan joy oladi. Korrupsianing ildizi ko‘pincha “qo‘li uzun”, bitta-ikkita joyga so‘zi o‘tadigan amaldorlarimizga borib taqaladi. Ular o‘z manfaati yo‘lida odamlardan foydalanishadi. Bu esa ko‘pchilik yoshlarning onggiga o‘rnashib qolgan. O‘ziga to‘q oiladan chiqqan ayrim yoshlar ishga joylashish, hayotda o‘rnini topish haqida o‘ylashmaydi ham.Chunki ular o‘z ota-onalariga ishonishadi va eng kerakli,salohiyatl kadr o‘rniga ishga joylashib olishadi. Afsuski, bir nochor oila farzandlari esa bu adolatsizliklarga ko‘z yumishga majbur bo‘lishadi.

Bunday jarayonlar jamiyatning deyarli barcha sohalarida kuzatilyapti. Ayniqsa, davlat taraqqiyotining negizi bo‘lgan ta’lim sohasida juda avj olgan. Yoshlar o‘rtasidagi “boyning bolasi o‘qisinda”, “bizning qo‘limiz kaltalik qilarkan”,”bizga yo‘l bo‘lsin” kabi jumlalarni eshitish biz uchun odatiy holatga aylanib qoldi. Ming afsuslar bo‘lsinki, pora bilan mansabdar shaxsga aylanish ham, bo‘m-bo‘sh miyya bilan ma’lum bir vazifani bajarish ham odatiy hol sanaladi biz uchun. Xullas, jamiyatning ayrim qismlarini puli borlar,”tanka”si kuchlilar boshqarishyapti. Bu esa juda achinarli holat.

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytida korrupsiya jiddiy to‘sinq bo‘layotgani jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois Yurtboshimiz boshlab bergen jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlari qiyinchilik bilan davom etmoqda. Iqtisodiyotning investitsiya kiritilgan, “pul ishlaydigan”, birmuncha “yog‘li” tarmoqlariga o‘rnashib olgan “korrupsiya halqasi” milliy taraqqiyotimizning dushmani, jamoat nazorati esa ularga qarshi kurashda ojizlik qilayotgani ham afsuski bor gap. Mamlakatda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari “zanjiri” uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog‘ozda qolib ketaveradi.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi-yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo‘qotilgan moddiy hamda ma’naviy boyliklar o‘rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o‘zlikni asrash yo‘lida kecha-yu kunduz mehnat qiladigan davr keldi. Jamiyat a‘zolarini birday qiy nab kelayotgan baloi ofatga qarshi kurashish uchun biz qo‘shni davlatlar tajribasini o‘rganish va saboqlar chiqarish yo‘lini izlashimiz, boshqa davlatlardagi vaziyatlarni ko‘zdan kechirishimiz , ularning bu sohadagi islohotlarini sinchiklab o‘rganishimiz kerak. Bir so‘z bilan aytganda, davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni joriy etish, aholining korrupsiyaga qarshi qarashlarini shakllantirish bo‘yicha xalqaro tajribalar hech qachon zarar qilmagan.

Bu taraqqiyot kushandas bo‘lgan korrupsiyaviy jamiyatga barham berish va bu bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni birgalikda bartaraf etish ,yoshlar ongiga ushbu jarayonlarning oqibatlarini singdirish oldimizda turgan eng-eng muhim vazifalardan biridir!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir.-T.:O‘zbekiston, 1997. 250 bet 30.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlariva taraqqiyot kafolatlari.-T.: O‘zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
- 3.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston,2017.-488b.
4. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 592 b.
5. Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida qonun. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son
6. Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida qonun. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda-Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60- son

## O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Boymurodov Zohid Shokirovich,**

Qarshi davlat universiteti  
Falsafa va sotsiologiya kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Maqolada korrupsiyaning kelib chiqishida etnik omillarning o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, xalqaro tajriba, islohot, qonun, konvensiya, deklaratsiya, illat, pora.

Insoniyat 10-12 ming yildan buyon kurash olib borsa ham korrupsiyaga barham bera olmadi. Korrupsiyaning bunchalik uzoq tarixga ega ekani va unga qarshi kurashning minglab yillar davomida sezilarli natija bermagani bu ijtimoiy illatning abadiyligini bildirmaydi.

Korruptsiyaning bunchalik uzoq umr ko'rishiga asosiy sabablardan biri shundaki, xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotga qanchalik kuchli turtki bergen bo'lsa, korruptsiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga ham shunchalik turtki berdi. Lekin bu holatdan xususiy mulk mavjud ekan, korruptsiya ham mavjud bo'ladi, degan xulosa chiqmaydi. Xususiy mulk mavjud ekan, korruptsiyaga intilish mavjud bo'ladi. Fuqarolarning yuksak ongliligi va faolligiga asoslanadigan fuqarolik jamiyatni rivojlanib borgani sari korruptsiyaga qarshi kurash shunchalik avj olib boradi va bu illatning rivojlanib borishiga shunchalik ko'p va kuchli to'siqlar qo'yiladi.

Mustaqil O'zbekistonda ham tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha harakatlar kuchayib borgani sari korruptsiyaga qarshi kurash ham avj ola boshladi. Bu kurashning faollashayotgani ayniqsa 2016 yildan boshlab ko'zga yaqqol tashlana boshladi.

2016 yil 14 oktabrida O'zbekiston Respublikasida Prezident vazifasini bajaruvchi Sh.M.Mirziyoyev Qonunchilik Palatasiga "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" Qonun loyihasini kiritish tashabbusi bilan chiqdi. Qonunchilik Palatasi mazkur Qonunni 2016 yil 24 noyabrda qabul qildi va u Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma'qillandi. Qonun 2017 yil 4 yanvardan kuchga kirdi.

«Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalari-ning samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatlari amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq 2017-2018 yillarga mo'ljallangan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi. Shu asosda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. Shuningdek, mazkur Qarorga muvofiq Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalari tuziildi va ular o'z faoliyatini boshlab yubordi.

Korupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qonunchilik faoliyati, tashkiliy-amaliy ishlarning faollashuvi shu davrga kelib qorrupsiyaning avj olib ketgani bilan emas, balki korruptsiyaga qarshi kurashning yangi-tizimli kurash pallasiga kirishi bilan bog'liq edi.

Korruptsiyaga qarshi kurashni tizimli tashkil qilish bo'yicha boshlangan harakatlarning asosida mamlakatdagi korruptsiyaning miqyosini, tadrijini, o'ziga xos etnik va psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish yotadi.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi kurash siyosiy va huquqiy vositalar yordamida olib borilmoqda. Bunday salbiy hodisani bartaraf etishda ma'naviy-psixologik usullardan kam foydalanilmoqda.

O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylangan. Ma'naviyat mavzusiga bag'ishlab qator monografiyalar, risolalar, ko'plab maqolalar chop etilgan. Ma'naviyat asoslari darsi umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalaridan joy olgan. Milliy g'oya va ma'naviyat mavzusida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Ayni paytda, korruptsiyaga qarshi kurashda ma'naviy usullardan foydalanishga asoslangan tadqiqotlar juda kam ekanligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Korrupsiya ko‘pincha mansabdor shaxs va tadbirkor yoki mansabdor shaxs bilan bog‘liq masalarini hal qilmoqchi subyekt o‘rtasida yuz beradi. Bu jarayon tom ma’noda psixologik jarayon bo‘lib u qonun doirasidan chetga chiqadi. Psixik jarayon sifatida korrupsiya nafaqat iqtisodiyotga, balki jamiyatning ma’naviyatiga, ma’naviy-ruhiy iqlimiga ham katta zarar yetkazadi.

Korrupsiyaning kelib chiqishi va shakllanishiga jamiyatdagi ma’naviy-ruhiy iqlim va vaziyat jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham korrupsiyaning kelib chiqishi, evolyutsiyasi va ko‘rinishlarini tadqiq etishda ma’naviy-psixologik omilga alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Ana shu omilni siyosiy, iqtisodiy va huquqiy omillar bilan uyg‘unlikda qo‘llash korrupsiyaga qarshi kurashga tizimlilik baxsh etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashning yuqori samaradorligiga faqat tizimli yondashish asosida erishish mumkin.

Shaxs poraxo‘rlikka qo‘l urishi uchun uning ma’naviyati va ruhiyatida muayyan buzilishlar yuz bergen bo‘lishi kerak. Ana shu deformatsiyalar shaxsning korruption xulq-atvoriga sabab bo‘ladi.

Shaxsdagi ma’naviy buzilish-deformatsiya darajasi shaxsning korrupsiyaga moyillik darajasini belgilaydi. Ana shu deformatsiyalarning quyi darajasi shaxsning korruption xulq-atvoriga moyillik darajasi past ekanini ko‘rsatadi. Ma’naviyatdagi deformatsiyalar kuchliroq bo‘lsa, shaxsdagi korrupsiyaga moyillik ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Mansabdor shaxslarning aksariyati ertami yoki kechmi korruption vaziyatga duch keladi. Shunday vaziyatda ular korrupsiyaga qarshi yoki korrupsiya foydasiga qaror qabul qilishlariga to‘g‘ri keladi. Ularning qanday qaror qabul qilishi ularning faqat ichki dunyosiga emas, balki tashqi omilga ham bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatda poraxo‘rlikni oddiy hodisa sifatida baholash korrupsiyaning kuchayishiga turtki beradi. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi qat’iy salbiy munosabat mavjud bo‘lsa, bunday vaziyat korrupsiyaning keng tomir otishiga to‘sinq bo‘ladi. Mansabdor shaxslarning korruption xatti-harakatlar sodir etishi ulardagi bir qator motivlarga bog‘liq ravishda yuz beradi. Ana shunday motivlarning eng asosiyları ikkita deb hisoblash mumkin. Ularning birinchisi ko‘zga tashlanadigan, tashqi motiv bo‘lib uning negizida g‘arazli niyat, katta moddiy boyliklarni o‘zlashtirish, o‘zining haddan ziyod katta ehtiyojlari va iddaolarini qondirishga intilishdir. Bir qator hollarda moddiy va moliyaviy boyliklarni o‘zlashtirishning o‘zi asosiy maqsad bo‘lib qoladi. Poraxo‘rlik odatga aylanishi oqiatida poraxo‘r to‘planayotgan boyliklardan qaysi maqsad yo‘lida foydalanishi ko‘pincha o‘zi ham bilmaydi.

Ikkinci motiv ichki motiv bo‘lib, u korruptionerning ongostidagi ustakovkalari, intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu motivlar ko‘pincha anglanmaydi va psixikaning beonglik sohasida amal qiladi. Jiddiy zarurat bo‘lmasa ham pora olish bunday shaxsga huzur bag‘ishlaydi. Mazkur jarayon ongostida yuz berayotgani uchun mazkur shaxs sodir etayotgan amallarining oqibatini to‘la anglamaydi. Shu sababli, korrupsiyaga berilgan shaxslar o‘zlarining jinoiy amallarini uzoq yillar davomida sodir etishadi. Bu jarayonda ular bir qator sheriklar ham orttirishadi.

Korrupsiyonler o‘zleri sodir etayotgan jinoyatni turli motivlar, bahonalar bilan oqlamoqchi bo‘ladi. Bunday motivlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-lavozimni egallah uchun pora bergani, xizmatlar ko‘rsatgani. Endi o‘sha berilgan pora va ko‘rsatilgan xizmatlarni kompensatsiya qilish zarurligi;

-mutaxassis bo‘lish uchun oliy o‘quv yurtiga kirishda pora bergani;

-oliy o‘quv yurtida o‘qish jarayonida professor-o‘qituvchilarga pora bergani;

-oylik maoshining ozligi;

-o‘zidan yuqori mansabdor shaxsga vaqtı-vaqtı bilan pora berib turishi kerakligi;

-xizmat pog‘onalaridan yuqoriroq ko‘tarilish uchun pora berish zarurligi.

Poraxo‘rning motivlari ro‘yxatini yana ancha davom ettirish mumkin. Lekin bizning kuzatishlarimiz sanab o‘tilgan motivlar ularning jinoiy xulq-atvori uchun ko‘p hollarda asos bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Aslida sanab o‘tilgan va o‘tilmagan motivlar poraxo‘rning o‘z jinoiy hatti-harakatlarini mantiqiy jihatdan asoslashga urinish xolos. Ular har qanday sharoitda ham ana shunday “asos” topishga harakat qiladi. Ko‘p hollarda ularning topqirligiga hayron qoladi kishi.

Pora olayotgan shaxs o‘zining qonun bilan o‘ynashayotganini, qonunni buzayotganini va qo‘lga tushsa qattiq jazo olishini yaxshi biladi. Shuning uchun o‘zining xavfsizligini ta‘minlash

maqsadida turli himoya usullarini o‘ylab topadi. O‘z xavfsizligiga bunday, ta’bir joiz bo‘lsa, “ijodiy” yondashuv unga huzur bag‘ishlaydi.

Poraxo‘rlikni bartaraf etish va uning oldini olish uchun u yuz baradigan jarayonni chuqurroq o‘rganish kerak. Yuqorida aytilganiday, pora olish va berish jarayoni o‘zining mohiyatiga ko‘ra ma’naviy-psixologik jarayon. Bu jarayonning mavjud qonunlarga zidligi uning tashqi xususiyati. Bu jaryonda pora oluvchi ham, beruvchi ham o‘zlarining ahloqiy qarashlari, ustanovkalari, motivlari singari psixik asoslarga ko‘ra harakat qilishadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaning mahalliy xususiyat bilan bog‘liq bo‘lgan, boshqa minta-qalarda uchramaydigan yoki kam uchraydigan shakllari ham mavjud. Masalan, korrupsiyaning ana shunday shakllaridan biri iltimoslardir. Bir qarashda beozorday tuyulgan iltimos ko‘p hollarda korrupsiyaning debochasi va tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Masalan, oliy o‘quv yurtida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi o‘zining hamkasbidan biror talabani qo‘llab-quvvatlashni, unga yuqoriroq baho qo‘yishni iltimos qiladi. Bunda u mazkur talaba o‘zining jiyani yoki qarindoshi ekanini, yoki bo‘lmasa yaqin tanishlaridan birining o‘g‘li-qizi ekanini aytadi. Bir qarashda bu jarayonda moddiy manfaatdorlik yo‘qday ko‘rinadi. Moddiy manfaatdorlik haqiqatan yo‘q bo‘lgan taqdirda ham bunday iltimos amaldagi nizom va qonunlarni buzhishdir. Bundan tashqari, ekspert so‘rovlar shaklida o‘tkazilgan tadqiqotlar bunday iltimoslarning ko‘pchiligi moddiy manfaatdorlik maqsadida qilinishini ko‘rsatmoqda. Ikkinci tomondan, iltimosni qabul qilgan o‘qituvchi ham o‘z navbatida iltimos qilgan hamkasbiga o‘zining iltimosini aytadi. Uning iltimosi tagida ham ko‘pincha g‘arazli maqsadlar yotgan bo‘ladi. Bizning kuzatishlarimiz ba’zi oliy o‘quv yurtlarida ana shunday iltimoslar miqdori xavfli darajada ko‘payganini ko‘rsatmoqda. Bunday iltimoslar o‘quv yurtida tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifati jiddiy pasayishiga, qolaversa, korrupsiyaning avj olishiga xizmat qiladi.

Korrupsiyani vujudga keltiradigan asosiy sabablardan yana biri qonunlarda va qonunosti hujjatlarda ta’qqlish va ruxsat berish amallarining ko‘pligidir. Ko‘pchilik mamlakatlarning tajribasi ko‘rsatishicha, qonunchilikda ta’qilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, korrupsiya darajasi shunchalik yuqori bo‘lishi uchun yo‘l ochiladi, korrupsiyaning o‘rtacha narxi ham baland bo‘ladi.

Korrupsiyaning keng tarqalishi, ayniqsa ijtimoiy tuzilmaning quyi pog‘onalarida ham uning keng tarqalishi ijtimoiy xavfsizlikka jiddiy putur yetkazadi. O‘zbekistonda bolalar bog‘chasida ham, umumta’lim maktablarida ham, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham, oliy o‘quv yurtlari va davolash muassasalarida ham korrupsiya holatlari muayyan darajada mavjudligi sir emas. Agar shoshilinch choralar ko‘rilmasa, bunday ko‘ngilsiz vaziyat chiqurlashib va kengayib ketishi mumkin. Unda bu illatga qarshi kurash yana ham qiyinlashib ketadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan sohalardan biri ta’lim tizimidir. Umumta’lim maktablarida, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida, oliy o‘quv yurtlarida korrupsiyaning mavjudligi boshqa sohalarda ham korrupsiyaning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Chunki ta’lim muassasasida tayyorlanayotgan o‘quvchi yoki talaba o‘zi tez-tez korrupsiyaga duch kelib tursa, uning ongida korrupsiya oddiy hol, degan tushuncha paydo bo‘ladi. Ustozlariga pora berib universitet yoki institutni tugatgan talabaning o‘zi korruptioner bo‘lish ehtimoli juda yuqori bo‘ladi. Bunday bitiruvchilar oliy o‘quv yurtini tugatish uchun sarflagan mablag‘larini qo‘l ostidagilardan birnecha baravar ko‘proq qilib undirib olish payida bo‘ladi.

Iltimoslar ko‘paygan muassasalar jumlasiga ba’zi ta’lim dargohlarini kiritish mumkin. Bunday ta’lim dargohlari mакtabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan bosqichlarda uchraydi.

Farzandini bolalar bog‘chasiga bermoqchi bo‘lgan ota-onasi reytingi balandroq bo‘lgan bog‘chani izlaydi. Ana shunday bog‘cha topilgach, (bunday bog‘chalarda odatda, bo‘sh o‘rinlar bo‘lmaydi) ota-onasi bog‘cha rahbariyatidan farzandini qabul qilishni iltimos qiladi. Afsuski, ba’zi hollarda bunday iltimoslar quruq bo‘lmaydi. Bunday iltimoslar ba’zi hollarda sovg‘a-salomlar, parfyumeriya mahsulotlari, ba’zan esa, konvert bilan qo‘shib qilinadi. Konvert albatta, bo‘sh bo‘lmaydi. Bu sovg‘alarni, aniqrog‘i oldi-berdilarni ko‘rib turgan bog‘chaga topshirilayotgan bolada ikki-uch yoshdan boshlab, jamiyatdagi munosabatlar iltimos orqali hamda sovg‘a-salom bilan amalgalashishi to‘g‘risida tasavvur paydo bo‘ladi.

Bola bog‘cha yoshidan o‘tib, mакtab yoshiga yetganda ota-onan endi reytingi balandroq maktabga bolasini topshirishni hohlaydi. Yana iltimos, yana sovg‘a-salomlar, yana konvertlar uzatila boshlaydi. Bog‘chada ijtimoiy munosabatlar iltimos va sovg‘a-salomlar bilan amalga oshirilishi to‘g‘risida dastlabki tasavvur kurtaklariga ega bo‘lgan bolada bu kurtaklar endi niholga aylana boshlaydi. Reytinggi baland mакtabda iltimos va sovg‘a-salomlar mакtabga qabul qilish jarayoni bilan tugamaydi. Bunday holat o‘quv jarayonida, xususan turli bayramlar kelganda, choraklik va yillik baholar chiqarilayotganda, imtihonlar boshlanishi oldida takrorlanadi. Bu jarayon korrupsiya to‘g‘risidagi tasavvur kurtaklari niholga aylangan bolada bu niholni o‘stirib kuchli daraxtga aylantira boshlaydi.

Iltimoslar, sovg‘a-salomlar yordamida mакtabni tamomlagan o‘quvchi endi akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga kirishi kerak. Yana reytinggi yuqori bo‘lgan akademik litsey yoki kollej rahbarlariga iltimoslar, sovg‘a-salomlar, konvertlar ishga tushadi. Bola akademik litsey yoki kollejiga ham kirdi, deylik. Bu bosqichda ham bog‘cha va mакtabdagi jarayon takrorlanadi. Biz barcha bolalar bog‘chalari, mакtablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari korrupsiyaga berilib ketgan, demoqchi emasmiz. Biz faqat ana shunday bog‘chalar, mакtablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlar borligini, bizning kuzatuvlarimiz ko‘rsatishicha, oz emasligini ta’kidlamoqchimiz. Shu bilan birga, bog‘chalar, mакtablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ko‘pchiligidagi ta’lim-tarbiya jarayoni o‘shanday iltimoslarsiz, sovg‘a-salom va konvertlarsiz yuz berayotganini alohida ta’kidlash joiz. Shu bilan birga, mehnat jamoasining asosiy qismi halol, o‘z kasbiga, lavozim majburiyatlariga sidqidildan munosabatda bo‘ladigan jamoalarda ham b’zi ta’magir shaxslar, poraxo‘r va korruptionerlar bo‘lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak, deb hisob-laymiz.

Akademik litsey yoki kollejni tugatguncha ijtimoiy munosabatlar to‘g‘risidagi tasavvurlari (aslini olganda, noto‘g‘ri tasavvurlari) niholdan daraxtga aylangan bitiruvchilar va ularning ota-onalarini endi oliy o‘quv yurtlarini nishonga olishadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, mamlakatdagi oliy o‘quv yurtlariga kirishda test sinovlarining joriy etilishi sobiq sho‘rolar tuzumi davrida bo‘lgan oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng quloch yoygan poraxo‘rlik, ta’magirlukka chek qo‘ydi. Lekin afsus bilan shuni ham ta’kidlash lozimki, vaqt o‘tishi bilan ba’zi ota-onalar va oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan shovvozlar test sinovlarining ham zaif joylarini topishdi. Ular telefon aloqasi orqali, shpargalkalar orqali, test savollarini “muvaffaqiyatli” yechish yo‘llarini topishdi. Biz ba’zi oliy o‘quv yurtlarining talabalari, tanish-bilishlarimiz, qarindosh-urug‘ va do‘slerimizning oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan farzandlari bilan o‘tkazgan samimiy suhbatlarimiz jarayonida talabalarning anchagina qismi oliy o‘quv yurtiga ana shunday qing‘ir yo‘llar bilan kirgani ma’lum bo‘ldi. Respondentlarimizning ma’lumotlariga ko‘ra, bunday talabalar soni turli o‘quv yurtlarida 5-10 %dan tortib 30-40 % gachani tashkil qilmoqda. Biz bu raqamlar to‘la haqiqatni aks ettiradi, demoqchi emasmiz, lekin har holda bunday vaziyatning haqiqiy manzarasini o‘rganish, ochish vaqt yetdi deb hisoblaymiz. Buning uchun puxta o‘ylab tuzilgan so‘rovnomalar, intervular o‘tkazilsa, oliy ta’lim tizimida bu illat qay darajada tomir otganini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Bolalar bog‘chalari, umumta’lim mакtablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga kirishda hamda o‘qish jarayonida iltimoslar va sovg‘a-salomlarning asosiy qismi ota-onalar va mazkur bog‘cha, mакtab, litsey va kollejlarining rahbariyati o‘rtasida bo‘lsa, oliy o‘quv yurtlarida boshqacharoq manzara ko‘zga tashlammoqda. Bu ta’lim dargohlarida iltimoslar endi ko‘proq talabalar bilan o‘qituvchilar o‘rtasida va shu bilan birga o‘qituvchilarning o‘zlarini o‘rtasida yuz bermoqda.

Oliy ta’lim tizimi turli sohalar uchun kadrlar tayyorlab berishini hisobga olsak, bu tizimni tamomlab chiqayotganlar orasidagi pul va sovg‘alar yordamida diplom olgan “mutaxassis” ham mamlakatning turli sohalariga tarqalib ketmoqda. Bunday holatga chek qo‘yish uchun oliy o‘quv yurtlariga kirish, o‘qish jarayonida yuz berayotgan poraxo‘rlik va “iltimos” larga chek qo‘yish kerak. Chunki institut yoki universitetga kirishda va o‘qishda pora berib o‘rgangan talaba qo‘liga diplom olgandan keyin o‘sha “xarajatlar”ni qoplash, qoplaganda ham birnecha baravar oshirib qoplash taraddudiga tushadi.

Mamlakatda hokimiyat tepasiga 2016 yil kuzida Shavkat Mirziyoyev kelishi bilan korrupsiyaga qarshi kurash yangi bosqichga ko‘tarildi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Bu o'rinda oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ko'pchiligi halol-pok hamda o'z kasbini sevuvchi insonlar ekanini ta'kilab o'tish zarur deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyyotlar

1.Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida. O'zbekiston respublikasining qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda).

2.«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son, 62-modda).

3.Qobilov Sh.R. Korrupsiyaga qarshi kurash: iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy choralari va yo'llari. Toshkent, 2015.

4. Begmatov A.S. Korrupsiya-ijtimoiy xavfsizlikka tahdid. Toshkent, 2016.

## KORRUPSIYA TA'LIM KUSHANDASI

**Azamatova Mohira,**  
Qarshi Davlat Universiteti  
Lingvistika (rus tili) yo'nalishi  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lif tizimidagi jarayonlarga korrupsiyaning ta'siri va uning salbiy oqibatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, korrupsiyaning jamiyat rivojiga , xalq turmush tarziga bo'lgan zararlari ham batafsил yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, ta'lifda korrupsiya, korrupsion muammolar Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi.

Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko'p. Uning kelib chiqish sabablarini o'rGANISH, unga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu borada turli ko'rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar ham yaratilgan, o'ziga xos reytinglar tuzilgan. Hatto korrupsiyaning ildizi va yechimini topishga qaratilgan har xil formulalar ham ishlab chiqilganki, bu boradagi ishlari va izlanishlar bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda.

Adabiyotlarda korrupsiyaga shaklan har xil, mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflar beriladi. Korrupsiya muammosining tadqiqi bilan shug'ullangan amerikalik olimlar E.Benfield, M.Jonston, J.Naylarning fikricha: «Korrupsiya – bu siyosiy arboblarning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy manfaatlari uchun boylik orttirish va

o‘zining ijtimoiy maqomini ko‘tarish maqsadida o‘zlarining rasmiy burchlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bosh tortishidir», deb fikr bildirishsa, Rossiyalik olim P.A.Cherkasov esa, «Korrupsiya – bu jamiyat va davlatda ro‘y beradigan salbiy hodisalar majmuyidir», deb fikr bildiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, korrupsiya so‘zi «sotish», «sotilish», degan ma’nolarni ham anglatar ekan. Rahbar yoki mas’ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo‘l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo‘ladi? Bu savollarga javob har xil bo‘lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan xam, sotiladigan xam, nafaqat bugunning, balki ertangi nurli kelajagimizning ham xiyonatkoridir!

Nazariy talqin etganda korrupsiya – davlat funksiyasini bajarish topshirilgan xizmatchilarning o‘z xizmat mavqyei va egallab turgan mansabi hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan obro‘sidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida yoki bir guruh shaxslarning manfaatlari yo‘lida g‘araz maqsadlarda foydalanishdan iborat bo‘lgan hokimiyatga putur yetkazishda ifodalangan jamiyat uchun xavfli hodisadir. Shuning uchun ham adabiyotlarda “Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarning g‘ayriqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi”, deb ta’kidlanadi.

«Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasida bizning bu boradagi huquqlarimiz kafolatlangan. Qununga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbazarlik faktlariga doir murojaatlar to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida axborot bergen shaxslarning himoya qilinishi ta’milnadi.

So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan butun mamlakatda tom ma’noda korrupsiyaga qarshi urush e‘lon qilindi. Shu sababli loqaydlik, befarqlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, firibgarlik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo‘rlik kabi illatlarning sodir etilishiga qarshi kurashda barchaning faolligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu ma’noda joylarda va ta’lim muassasalarida korrupsiyaga oid tadbirlar, turli tanlovlar har yili o‘tkazilib kelinmoqda. Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu kabi tahdidlarni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilar kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini anglash qiyin emas. Biz korrupsiya balosiga birgalikda, ahillik bilan, dadil qadamlar ila kurashmog‘imiz zarur.

Yurtimizda sodir bo‘layotgan bunday holatlarga e’tibor bilan nazar tashlasak, korrupsiyaga qo‘l urgan, jinoyat ishi ochilgan odam, birinchi navbatda, qonunni buzadi, qolaversa, yon atrofga o‘zining kimligini, e’tiqodi, olgan tarbiyasi va ma’naviyati qay darajada ekanligini oshkor qiladi. Bunday kimsalar nafaqat davlatimizga moliyaviy ziyon yetkazadi, balki o‘zining va oilasining, butun boshli oilasi va yaqinlarining ham obro‘sini to‘kadi. Eng xatarlisi esa, bugungi kunda ham joylarda jinoyat sodir etilishiga imkon berilayotgan shart-sharoitlar, atrofdagilarning bunday holatga nisbatan befarqligi, qolaversa, bu illatni odamlar oddiy holat sifatida qabul qilayotganliklaridadir, deb hisoblaymiz.

Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo‘l urgan odam uchun aziz narsalar, mo‘tabar tuyg‘ularning qadri yo‘qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o‘ylaydi. Ular uchun hayot faqat puldan iborat, deb qarash fikri ustunlik qiladi. Imone’tiqod, or-nomus, vijdon, xullas, umuminsoniy qadriyatlar, ular uchun xuddiki ertakdir. Shu bois ham ular ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, yoru birodarlari, mahalla-ko‘yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarini, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamasu, uning bir necha varaq oddiy qog‘ozdan farqi kolmaydi. Shunday ekan, «korrupsiya haqida farmon qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o‘ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo‘ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, ayniqsa, ta’lim sohasini uning changalidan ozod

etish haqida hammamiz o‘ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o‘tkazishimiz, unga qarshi qat’iy kurashishimiz lozim.

Bu kurash kundalik hayotimizdagи oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo‘ydirish va hokazo vaziyatlarda o‘zimizni munosib tutishimiz lozim bo‘ladi.

Korrupsiya nima? Korrupsiya mamlakat taraqqiyotini ortga surib, kelajkni xavf ostida qoldiradi. Ayniqsa, ta’lim sohasidagi korruption holatlar bugungi kunda yetuk mutaxassislar, jahon andozasi darajasidagi kadrlar tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Dunyoda rivojlanish va taraqqiyot yo‘lini tanlagan har bir davlat eng avvalo korrupsiya, ta’magirlilik, poraxo‘rlik kabi salbiy illatlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi.

Aks holda, bunday jirkanch illatlarning tomir otishiga yo‘l berilsa, o‘scha joyda taraqqiyot va rivojlanish boy beriladi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad xalqimizni hayotdan rozi qilish va eng muhimi, davlat idoralari bevosita xalq ichiga kirib borib, muammolar bilan tanishayotgani o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Albatta bu jarayonda rahbarlarning mas’uliyatini oshirish va o‘ziga bildirilayotgan ishonchni oqlash hamda ta’magirlikka yo‘l qo‘ymaslik borasida ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilindi. Respublikamizda bu borada olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarga qaramasdan ming afsuski, ayrim rahbarlar orasida korrupsiyaga berilish, ta’magirlilik holatlari uchrab turgani kishini taa’jubga soladi.

Qonunlarni bilmaslik biror kishini jazodan qutilishiga bahona bo‘lmaydi. Kimdir bilib, kimdir bilmasdan deganlaridek bunday salbiy illatlarning ko‘chasiga kirib qolganliklarini sezmay qoladilar. Achinarli tomoni shundaki, ayrim nufuzli mansab kursisida o‘tirganlar bila-turib korrupsiyaga, poraxo‘rlikka, tanish-bilishchilikka berilib ketayotgani ijtimoiy hayotimizga jiddiy xavf solmoKorrupsiya illati va uning oqibatlaridan aholi, ayniqsa professor-o‘qituvchilar, talabalarning keng qatlamlarini xabardor qilish maqsadida huquqiy targ‘ibot materiallari, ma’ruza matnlari, slaydlar, infografikalar OTMlarda keng targ‘ib qilindi. Shuningdek, jamoat joylarida ta’lim muassasalari tomonidan “Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz”, “Korrupsiya – jamiyatni yemiradi”, “Korrupsiya salbiy illat”, “Pora – eng yomon chora” kabi shiorli bannerlar o‘rnatildi.

Korrupsyaning ma’lum bir mamlakatda rivojlanishi esa o‘scha davlatning tanazzuliga olib keladi. Korrupsiya bu – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liqbo‘lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilarini tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtiropchilari bo‘lishi, pora pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma’lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Etimologik jihatdan «korrupsiya» atamasi «buzish, pora evaziga og‘dirish» degan ma’noni anglatadigan lotincha «corruptio» so‘zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Darhaqiqat, korrupsiya – ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagи nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o‘ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Bu korrup-siya qarshi avvalo ma’muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko‘rilishi zarurligidan darak beradi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. "Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir.

Bugungi kunda respublikamizda jinoyatchilikning sababbrarini aniqlash choralar ko‘rilmoqda, fosh etilgan korrupsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo

davlat tomonidan qattiqnazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korrupsiya-chilar domiga ilingan amaldorlarning bebosligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingan. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi.

Jinoyatni jazolashdan ko'ra, uni oldini olish singari profilaktik tadbirlarning yo'lga qo'yilishi qay darajada oqilonaligi allaqachon isbotlangan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida beziz belgilabqo'yilmagan.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. O'ylaymizki, bunday ma'naviy buzilish holatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bun-day illatni oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga eris-hishning eng maqbul yo'li bo'lib hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan bir bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida Adliya vazirligi tomonidan ham bir qator choratadbirlar rejsi ishlab chiqilib, unda adliya tizimiga kiruvchi idoralar va muassasalar faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, Adliya vazirligi huzuridagi yuristlar malakasini oshirish markazida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha bir qator ishlar ishlar amalga oshirildi 2018-2019 o'quv yilida yu.f.n., dotsent G.Alimovning «Yuridik shaxslarning korruption huquqbazarliklari uchun javobgarligini tartibga soluvchi xalqaro standartlar tizimi» mavzusidagi monografiyasi tayyorlanib chop etildi, i.f.d., professor B.Isroilov (mualliflar jamoasi) tomonidan 2018 yil dekabrda Sankt-peterburg politexnika universiteti olimlari bilan xammualliflikda “Sovremennaya sistema protivodeystviya otmyivaniyu prestupnyx doxodov i finansirovaniyu terrorizma” va “Ekonomicheskaya bezopasnost” o'quv qo'llanmalari chop etildi. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi (Innovatsion rivojlanish vazirligi) granti doirasida G.Alimov va B.Isroilov hammuallifligida “Tenevaya ekonomika, korrupsiya, vzyatochnichestva: ugolovno-proavovaya otsenka” nomli monografiyasi tayyorlanib chop etishga topshirildi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- 1.Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishslash davr talabidir.-T.:O'zbekiston, 1997. 250 bet. 30
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 95, 298 bet.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.- 488 b
5. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. - 512 b.
7. Mirziyoev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild. - T.: "O'zbekiston", 2019. - 400 b.
8. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
9. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

# KORRUPSIYANI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA'DANIY-MA'RIFIY MASALALARI

## ВАТАНГА ДАХЛДОРЛИК ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ МАЪНАВИЙ- АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР

Бозоров Сухроб Комилович,

Термиз давлат педагогика институти

Фалсафа, маънавият асослари ва хуқуқ таълими кафедраси ўқитувчиси

Телефон раҳами: +998 93 794 93 46

E-mail: [asdp95@mail.uz](mailto:asdp95@mail.uz)

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий-ахлоқий қадриятлар ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган. Ватан тушунчасининг маънавий аҳамияти, миллий мерос, оила, таълим ва ижтимоий институтлар роллари кўриб чиқилган. Шунингдек, Ислом маънавияти, адабиёт ва санъатнинг бу жараёндаги таъсири ҳамда замонавий глобаллашув шароитида миллий қадриятларни асраш-нинг аҳамияти таҳлил қилинган. Мақолада ёшларда Ватанпарварлик туйғусини ривожланишиш нинг назарий ва амалий жиҳатлари кўриб чиқилган.

**Калим сўзлар:** Ватанга дахлдорлик, маънавий қадриятлар, ахлоқ, Ватанпарварлик, миллий мерос, ёшлар, таълим, Ислом маънавияти, глобаллашув.

Ватан тушунчаси инсоннинг ҳаётида бекиёс аҳамиятга эга. Ватан нафақат кишининг туғилиб ўсган жойи, балки унинг маънавий ҳимояси ва ижтимоий ривожланишининг асоси ҳисобланади. Ватанга дахлдорлик ҳисси ҳар бир шахсда шакллантирилиши лозим бўлган мухим туйғудир, чунки у нафақат шахсий, балки ижтимоий тараққиёт учун ҳам асосий омилдир. Бу ҳис маънавий-ахлоқий қадриятлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар жамият ва шахс ўртасидаги мувозанатни таъминлайди.

Хусусан, маънавий-ахлоқий қадриятлар ва уларнинг Ватанга дахлдорликни шакллантиришдаги ўрни кўйидагича аниқлаш мумкин: Биринчидан маънавият ва ахлоқ тушунчаларига назарий ёндашув. Бунда маънавият – инсоннинг ички дунёси ва у ҳаётдаги энг юксак қадриятларга бўлган муносабатини ифода этадиган тушунчадир. Ахлоқ эса жамиятнинг умумий нормалари асосида шаклланган инсоннинг ҳулк-атвори ва одобларига ишора қиласди. Маънавият ва ахлоқ биргалиқда шахсни юксалтирувчи асосий омил бўлиб, улар ижтимоий муносабатларда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Иккинчидан ватанпарварлик – маънавий-ахлоқий қадрият сифатида ватанпарварлик – шахснинг ўз юртига бўлган муҳаббати ва уни ҳимоя қилишга тайёрлиги каби ҳисларни ўз ичига олган маънавий қадриятдир. Бу туйғу шахснинг маънавий ривожланишини таъминлайди ва унинг жамият олдидаги масъулиятини оширади. Ватанпарварлик қадрияти инсонда масъулият ва садоқат каби фазилатларни шакллантиради.

Бугунги кунда ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий қадриятлар турлича кўринишда мавжуд бўлиб уларни қўйидагича таҳрирлаш мумкин:

### - Миллий мерос ва унинг аҳамияти

Миллий мерос – ҳар бир ҳалқнинг маданий, маънавий ва тарихий бойлигидир. Унда миллатнинг ўтмиши, турмуш тарзи ва қадриятлари мужассамдир. Миллий мерос орқали шахс ўзини жамиятнинг бир бўлаги сифатида ҳис қиласди ва бу туйғу Ватанга бўлган муҳаббатнинг асосини ташкил қиласди.

### - Оила, мухит ва ижтимоий институтлар роллари

Оила – маънавий қадриятларнинг илк шаклланадиган жойи. Ота-онанинг тарбияси, уларнинг Ватанга бўлган муносабати боладаги илк Ватанпарварлик туйғусини уйғотади. Шу билан бирга, мактаб ва жамоат институтлари ҳам бу жараёнда катта аҳамиятга эга. Ҳар бир шахсни маънавий-ахлоқий жиҳатдан камол топтириш учун уларда миллий қадриятларни шакллантириш мухимдир.

Ватанга бўлган муҳаббатни шакллантиришда тарихий билимларни ўргатиш, миллий байрамлар ва маросимларда иштирок этиш мухим аҳамиятга эга. Бунда кўргазмали тарбия

усуллари – тарихий музейларга саёчат, Ватан қаҳрамонлари ҳакида ҳикоялар айтиб бериш каби чора-тадбирлар самарали бўлади.

Глобаллашув даврида ёшлар ўртасида миллий қадриятларни йўқотмаслик муҳимдир. Бу жараёнда ахборот технологияларидан фойдаланиш, миллий қадриятларни тарғиб қилувчи онлайн платформаларни яратиш, ёшларни ижтимоий фаолиятга жалб қилиш муҳимдир.

Кўшимча мавзуларни киритиши асосида тўлиқ қайта ишланган ва кенгайтирилган мақолани тайёрлайман. Бироз вақт керак бўлади, тайёр бўлиши билан сизга тақдим этаман!

Ватан – инсон ҳаётидаги энг муҳим тушунчалардан бири. У нафакат инсон туғилиб ўсган жой, балки унинг маънавий таянчи, ҳимояси ва ижтимоий бирлиги тимсолидир. Ватанга дахлдорлик ҳисси жамиятнинг барқарорлиги ва тараққиёти учун асос бўлиб хизмат қиласди. Бу ҳис маънавий-ахлоқий қадриятлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар шахснинг жамиятга дахлдорлигини ҳис қилишини таъминлайди. Ушбу мақолада Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий қадриятлар, уларнинг ижтимоий-фалсафий асослари ҳамда бу жараёнда таълим ва тарбиянинг аҳамияти таҳлил қилинади.

Маънавият шахснинг руҳий олами ва қадриятларга бўлган муносабати билан боғлиқ тушунча. Ахлоқ эса жамиятдаги нормалар, қоидалар ва хулқ-атвор меъёрларини акс эттиради. Маънавият ва ахлоқ шахснинг ижтимоий онгига марказий ўрин тутади ва Ватанга бўлган туйғуларнинг шаклланнишига таъсир кўрсатади.

Ватанпарварлик, аввало, маънавий қадриятдир. У инсоннинг ўз ватанига содиқлиги, уни ҳимоя қилишга ва ривожлантиришга тайёрлиги билан намоён бўлади. Ватанпарварлик туйғуси шахснинг миллий ва маданий мустаҳкамлиги, жамият олдидаги масъулиятини белгилайди.

Миллий мерос ҳар бир миллатнинг маънавий қўргонидир. Ўзбек ҳалқининг тарихи, урф-одатлари, маданий анъаналари Ватанга дахлдорлик ҳиссини тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга. Масалан, Наврӯз, мустақиллик куни ва бошқа миллий байрамлар бу қадриятларни жонлантиришга хизмат қиласди.

Оила шахс маънавиятини шакллантиришдаги ilk муҳитдир. Ватанга бўлган муҳаббат аввало ота-онанинг фарзандга берган тарбияси орқали шаклланади. Шунингдек, мактаб ва университетлар, оммавий ахборот воситалари ҳам шахснинг маънавий юксалишига ҳисса кўшади.

Ватанга муҳаббат ва дахлдорлик ҳиссини уйғотища тарихий шахслар ҳаётидан ўрнак олиш, Ватан учун хизмат қилган қаҳрамонлар ҳакидаги ҳикояларни ўрганиш катта аҳамиятга эга. Бунда таълим тизимида ўқув режаларини миллий қадриятларга мослаштириш самаралидир.

Глобаллашув даврида ёшлар ўртасида миллий қадриятларни йўқотмаслик муҳимдир. Ахборот технологияларининг ривожланиши миллийликни асрашда ҳам таҳдид, ҳам имкониятдир.

Ислом таълимоти Ватанни ҳимоя қилиш ва унга муҳаббатни инсоннинг муҳим бурчларидан бири сифатида кўрсатади. Қуръони Каримдаги баъзи оятлар ва Пайғамбари-мизнинг ҳадислари Ватанга содиқлик ва садоқат ҳакида кўплаб ўйтлар беради. Ўзбекистонда Ислом қадриятлари орқали ёшлар онгига Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантириш имкониятлари катта аҳамиятга эга.

Алишер Навоийнинг асарлари, Абдулла Қодирийнинг ижоди ва Чўлпоннинг шеърларида Ватанга бўлган муҳаббатнинг чуқур ғоялари мужассамдир. Бугунги кунда миллий қаҳрамонликни акс эттирувчи кинофильмлар, театр спектакллари ва мусиқий асарлар ёшлар онгига Ватанпарварликни сингдиришнинг энг самарали воситалари бўлиб хизмат қиласди.

Глобаллашув таъсирида шахс миллийликни йўқотиши мумкин. Миллий қадриятларни асраш ва уларни замонавий технологиялар орқали тарғиб қилиш муҳим вазифалардан биридир. Масалан, миллий маданиятни тарғиб қилувчи мобил иловалар, ижтимоий тармоқлардаги акциялар ва интернет платформалари ёшлар онгига таъсир этувчи муҳим воситалардир.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш керакки ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантириш – ҳар бир шахснинг маънавий бурчи. Бу туйғу шахснинг жамиятга интеграциялашувини

таъминлайди, унинг Ватан ва жамият олдидаги масъулиятини оширади. Замонавий глобаллашув шароитида миллий қадриятларни асраш ва келгуси авлодга етказиш мухимdir. Бу жараёнда оила, таълим, санъат ва диний қадриятларнинг ўрни катта. Ҳар бир фуқаронинг масъулияти шундаки, у ўз хиссаси билан юрт тараққиётига хизмат қилиши зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шерзод Умаралиев “Ахборот жамияти ва ёшлар онгида трансформация жараён-лари”. (2009). Тошкент: Ўзбекистон нашри.
2. Фарҳод Саидов “Ёшлар маънавияти, ватанпарварлик тарбия ва ижтимоий масала-лар”. (2021).
3. Дюргейм. Э. “Ижтимоий меҳнат таксимоти”. (1993). Париж: Alcan.
4. Робийла Исламова “Ёшлар маънавиятини ривожлантиришда жамоат ташкилотлари билан ҳамкорлик”. (1996).
5. Умаралиев, Ш. “Миллий қадриятлар ва ёшлар маънавияти”. (2018). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
6. Саидов. Ф.“Патриотик тарбия: ёшлар маънавиятини шакллантиришдаги рол”. (2020) . Жаҳон сиёсати ва иқтисодиёти журнали, 4(2), 22-35.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшлар сиёсати тўғрисидаги маъруза-сидан. (2017).
8. Алиев.Р.“Ёшлар ва маданий мерос: миллий қадриятларнинг ривожланиши”. (2021). Ижтимоий фанлар журнали, 5(3), 45-60.

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA DIQQATNING SHAKLLANISHI**

**Yovqochdiyeva Dilafro‘z Egamqulovna,**

Qashqadaryo viloyati

Pedagogik mahorat maktabi Pedagogika psixologiya  
va ta’lim menejmenti kafedrasи katta o‘qituvchisi

**Nurmatova Nozima,**

Xalqaro innovatsion universitet

Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Barchamizga ma’lumki bolalarda bilish jarayonlarini yaxshi shakllanishi bolaning maktabda fanlarni yaxshi o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi.Bilish jarayonlarini shakllanishi ilk bolalik davridan boshlab rivojlana boshlaydi.Bilish jarayonlaridan biri diqqat insonning yaxshi bilim egallashiga,ma’lumotlari mustahkam o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Diqqat bu insonning ongini ma’lum bir obyekt yoki faoliyatga jamlash qobiliyati. Diqqat organizmning faolligini, atrof olamda kechayotgan e’tiborni ta’minlaydi Diqqatning asosiy vazifasi atrof muhitdagi axborot oqimini tartiblash va zarur bo‘lgan ma’lumotlarni qabul qilishga yordam beradi.

Diqqatning xususiyatlari: barqarorli, bo‘linishi, ko‘chishi, jamlanishi, hajmi taqsimlanishi, parishonxotirlik. Diqqatni uzoq vaqt davomida bir nuqtaga qaratish. Hajmi- diqqat qamrab oladigan obyektlar soni.Kichik mакtab yoshidagi bolalar .

Taqqoslash – diqqatni bir obyektdan ikkinchisiga tezda ko‘chirish.Tanlab olish-kerakli axborotni ajratish va boshqa shovqinlardan ajratib olish .

Diqqat bir necha turlarga bo‘linadi:

Ixtiyoriysiz diqqat – tashqi omillar, yangiliklar, qiziqishlar orqali vujudga keladi va ongli ravishda boshqarilmaydi.

Ixtiyoriy diqqat- bolaning o‘z xohishiga asoslangan, aniq maqsadga erishish uchun ongli ravishda boshqariladi .

Ixtiyordan keying diqqat- bu ixtiyoriy diqqat asosida rivojlanadi, lekin bola diqqatni o‘qish yoki boshqa faoliyat jarayonida unga qiziqish tug‘ilgandan keyin ongli tarzda boshqariladi.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarda diqqatni shakllantirish usullari. Diqqatni rivojlanadir, ayniqsa, kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun muhimdir. Bu ularning uzoq vaqt davomida bir faoliyatga e’tibor berish , vazifalarni tog‘ri va samarali yo‘lga quyishga yordam beradi .

O‘yin usuli- o‘yinlar bolaning tabiiy ehtiyojlariga javob beradi va unga katta zavq bag‘ishlaydi. O‘yin orqali diqqatni o‘stirish samarali ta’sir o‘tkazadi.

Vizual materiallarda foydalanish rang- barang rasmlar ,kartochkalar va diagrammalar orqali bolaning diqqatini jalg qilishi mumkin . Bu usullar bolaga mavzuni oson tushunishga bolani diqqatni uzoq vaqt saqlanishiga yordam beradi.Tanqidiy fikrlash va muammolarni yechishda , bolalarni masalalarni mustaqil tahlil qilishga o'rgatadi .Muammolar , masalalar diqqatni bir joyga uzoq vaqt davomida saqlashga yordam beradi.

Kichik yoshdag'i bolalarda diqqat hali to'liq shakillanmagan bo'ladi .Uning diqqatini jamlash muddati qisqa bo'lib, ko'pincha tashqi omillar ta'sirida osongina chalg'iydi .Ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi .

Bolalar e'tiborini ko'pincha yorqin,qiziqarli yoki yangilikka boy narsalarga jalg qiladi. Ixtiyoriy diqqay asta-sekin rivojlanadi. Bu bolaning ataylab e'tibor qaratish va o'zini nazoratini qilish qobilyati bilan bog'liq . Diqqatni shakllantirish, mustahkamlash jarayoni bir nechta omillarga bo'gлиq.

#### **Diqqatni rivojlantirish usullari:**

- 1.O'yin mashg'ulotlar.
- 2.Rang-barang mashg'ulotlar.
- 3.Tashkiliy metod yaratish.
- 4.Xulosa:

Kichik maktab yoshdag'i bolalarda diqqatning shakllanishi bu tabiiy jarayon bo'lib u tarbiya ta'lim va bolaning shaxsiy xususiyatiga bog'liq. Diqqatni rivojlantirishiga yordam berish uchun oila va maktab birgalikda ishlashi lozim.

Bu jarayonning muvaffaqiyatliligi, bolalarning o'qitishdagi yutuqlari va hayotdag'i muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik (3-4) yoshli bolalarda diqqat hali to'liq shakllanmagan bo'lsada uni o'yinlar, ijobjiy mashg'ulotlar va qulay muhit orqali rivojlantirish mumkin . Bunda ota-onalar va pedagoglarning ishtiroki juda muhim.

Diqqatning shakllanishida bolaning kelajakdagi o'quv qobiliyatları va ijtimoiy rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sabab, bu yoshdag'i bolalar bilan ishlashda ularning diqqatini boshqarish va rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur. Buyuk pedagog psixolog K.D.Ushinskiy "Bola atrof olamdag'i voqealarga diqqat qaratmas ekan, ularning mohiyatini anglab yetmaydi. Anglanmagan tushunchalar qayta ishlanmaydi va bilimga aylanmaydi. qachonki biz bolaning diqqatini to'plagan nuqtaga tushunchalarni joylashtirar ekanmiz ularda bilishni yuzaga kelishiga sabab bo'lamiz" kabi fikrlarni aytib o'tganlar.

Darhaqiqat bolalarda bo'ladigan taraqqiyot bosqichlari bevosita diqqat funksiyalari bilan bevosita bog'langan.

## **O'ZBEKISTONDA HAVO YO'LLARI TRANSPORTIDA AMALGA OSHIRILADIGAN HARBIY TASHISHLAR**

**Xidirov Xolmamat Djo'rayevich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
"Tarix" kafedrasi professori v.b., Tarix fanlari  
bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot jarayonida havo yo'llari transporti va ularda amalga oshiriladigan harbiy tashishlarning strukturasi yoritib berildi. Havo transportlari orqalitashish jarayonida samolyotlar va vertolyotlar doimiy yoki vaqtinchalik havo yo'nalishlari bo'yicha parvoz qiladi. Bunday parvozlarning mohiyati beqiyosdir.

**Kalit so'zlar:**"O'zbekiston havo yo'llari",Havo transportlari havo yo'llari, aeroportlar va aerodromlar,

Havo transporti– yuqori manyovrlikka ega bo'lgan hamda qo'shinlarni va yuklarni istalgan yo'nalishlar va olis masofalarga tezkor tashish vazifalarini bajarishga qodir fuqaro va harbiy-transport aviatsiyasi havo kemalari bilan amalga oshiriluvchi eng tez transport turi.

Havo transportlari orqalitashish jarayonida samolyotlar va vertolyotlar doimiy yoki vaqtinchalik havo yo'nalishlari bo'yicha parvoz qiladi. Belgilangan joyga qarab doimiy havo

liniyalari magistral, mahalliy va xalqaro bo'linmalarga bo'linadi. Doimiy havo yo'nali shining asosiy elementlari havo yo'llari, aeroportlar va aerodromlar hisoblanadi.

1.Havo trassa (yo'l) lari – Havo yo'li er yuzasidagi ikki va undan ortiq nuqtalar o'rtasida muntazam qatnovlar amalga oshiriladigan, aerodromlar, er radio uskunalarini va meteorologik xizmatlar bilan ta'minlangan belgilangan havo hududi. Ba'zi hollarda, reyslarlar boshqa yo'l yo'nali shlarida amalga oshirilishi mumkin. Havo yo'lining kengligi 20 km ga belgilangan. Havo yo'laklaridan o'tishda uni 6 km ga kamaytirish mumkin.

Havo trassa (yo'l)lari havo kosmik sifatida belgilanib maxsus parvoz rejimi bilan joylarda samolyot parvoz uchun mo'ljallangan (radar jihatidan qarama-qarshi) parvoz balandligi aniq ko'rinish turgan belgilari bilan yuqorida belgilangan erda bir yo'llanmali manzil. Samolyot va vertolyotlar harakati nazoratini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi hududi ustidan havo yo'llari harbiy okruglarning parvoz nazorati qo'mondonligi yoki fuqaro aviatsiyasi tuman dispetcherlik xizmatidan boshqariladigan hududlarga bo'linadi.

Har bir dispatcher o'z hududidagi samolyot (vertolyot) harakatini nazorat qilishi shart va samolyot (vertolyot) tegishli chiziqdani o'tganiga ishonch hosil qilganidan so'nggina uni tugatishi mumkin va kema komandiri ushbu liniyaning o'tishi haqida xabar berganligi alohida ahamiyatga ega. Samolyotda harakatlanish va transport nazoratini ta'minlash uchun havo yo'llari maxsus vositalar bilan jihozlangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: navigatsiya tizimlari, havo harakatini boshqarish tizimlari, turli aloqa vositalari, yoritish uskunalarini va meteorologik kuzatuqlar vositalari. Samolyotlarning havoda bir-biri bilan va er to'siqlari bilan to'qnashishining oldini olish maqsadida ajratish tizimi o'rnatiladi. Samolyot (vertolyot)larni bir-biridan xavfsiz masofalarda va er to'siqlari nisbatan parvoz qilishda taqsimlashdan iborat va balandlik bo'yicha, vaqt bo'yicha ajratishni o'z ichiga oladi.

Balandlik ajratish aviatsiya uchun O'zbekiston Respublikasi havo hududida parvoz asosiy qoidalari muvofiq, parvoz sharoitlari va yo'nali shi qarab, vertikal, turli balandliklarda samolyot dispersiyasi iborat.

Samolyot (vertolyot) larni gorizontal tekislikda eng kam masofa (vaqt oralig'i) uchun tarqatish uchun vaqt ajratish zarur. Shu yo'nali shdagagi bir xil balandliklarda samolyot (vertolyot) larni kuzatishda, boshqa samolyotlar egallagan eshelonni kesib o'tishda yoki bir xil balandlikda marshrutlarni kesib o'tishda foydalaniladi.

Bir xil sathda marshrut bo'ylab uchganda bir xil tezlikka ega bo'lган samolyotlar orasidagi minimal intervali kamida **10 minut** bo'lishi kerak. Havo yo'lining asosiy aerodromlari fuqaro aviatsiyasi aerodromlari hisoblanadi. Havo trassalari va mahalliy havo yo'llari havo transporti qatnovini xavfsiz tashkil qilish talablariga javob bersagina ishga tushirilishiga ruxsat beriladi. Havo trassalari va mahalliy havo yo'llaridan foydalanishga O'zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda ijozat etiladi.

2.Aeroport – havo kemalarini qabul qilish va jo'nati shga, havo transportida tashishga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan va shu maqsadlarda aerodrom, aerovokzal, boshqa inshootlar, shuningdek zarur qurilmalarga ega bo'lган inshootlar majmuasidir.

Aeroport fuqaro aviatsiyasi vazirligining yo'lovchilarni, bagajlarni, yuk va pochtani muntazam qabul qiluvchi va jo'nativchi, reyslarni tashkil etuvchi va saqlovchi, shuningdek, samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish, yuklash (tushirish) va to'xtash joyini ta'minlovchi korxonasıdir.

Aeroportda havo transportida joylashgan doimiy aerodrom, aerovokzal va xizmat ko'rsatish va texnik binolar mavjud bo'lib, havo transportini ta'minlash uchun barcha zarur vositalar bilan jihozlangan. Aeroportlar markazi, tayanch va oraliq (avtomobil yo'li) aeroportlardir.

Har bir aeroportning asosiy elementi aerodrom hisoblanadi.

3.Aerodrom – samolyotlarni uchirishga maxsus tayyorlangan kompleksga ega er shahobchasi, tuzilmalari va jihozlar, qo'nish, joylashtirish va texnik xizmat ko'rsatish aerodromning asosiy elementi hisoblanadi.

Quruqlikdagi yoki suv sathidagi maxsus jihozlangan, havo kemalarining kelib qo'nishi, jo'nashi va shu sath bo'ylab harakatlanishi uchun to'liq yoki qisman mo'ljallangan uchastka unda joylashgan binolar, inshootlar hamda anjomlari bilan birga aerodrom deb e'tirof etiladi.

## **Aerodromni ishga tushirishga ruxsat berish va foydalanish jarayoni**

O‘zbekiston Respublikasining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan o‘zga davlatning muayyan aerodromga mulk huquqi asosida (aerodrom egasi), ijara shartnomasiga binoan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra tegishli bo‘lgan hamda aerodromning muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan yuridik shaxsi yoki fuqarosi shu **aerodromning ekspluatanti** deb e’tirof etiladi.

### **Aerodromni ishga tushirishga ruxsat berish**

Foydalanishga yaroqlilik normalariga va havo kemalari parvozlarining xavfsizligini ta’minlash talablariga muvofiq bo‘lsa, aerodromdan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Davlat, fuqaro aviatsiyasi va eksperimental aviatsiyaga mo‘ljallangan aerodromlar majburiy suratda sertifikatlanishi shart.

*Aerodromlarning, shuningdek ularagini asbob-uskunalarining foydalanishga yaroqliligi normalari va ularni sertifikatlashtirish tartibi:*

fuqaro aerodromlari, eksperimental aviatsiya aerodromlari va hamkorlikda foydalanish (joylashish) aerodromlari uchun — O‘zbekiston Respublikasining Aviatsiya ma’muriyati tomonidan; davlat aviatsiyasi aerodromlari uchun — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Aerodrom ekspluatantiga aerodromning butun xizmat ko‘rsatish muddati davomida aerodromning muvofiqlik sertifikati olish uchun belgilangan talablarga javob berishini ta’minlash vazifasi yuklatiladi.

### **Aerodromlarni ro‘yxatga olish**

Fuqaro aviatsiyasi aerodromlari va eksperimental aviatsiya aerodromlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqaro aviatsiyasi aerodromlari davlat reestrida qayd etilishi lozim. Davlat aerodromlari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Aerodrom reestrga kiritilganidan so‘ng ekspluatantga aerodrom ro‘yxatga olingani to‘g‘risida guvohnoma beriladi. Aerodromlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ular ro‘yxatga olingani to‘g‘risida guvohnoma berish tartibi: fuqaro aviatsiyasi aerodromlari va eksperimental aviatsiya aerodromlari uchun — O‘zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma’muriyati tomonidan; davlat aerodromlari uchun — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi.

### **Hamkorlikda foydalanish (joylashish) aerodromi**

Fuqaro aviatsiyasi yoki eksperimental aviatsiyaning havo kemalari joylashish huquqisiz parvozlarni amalga oshiradigan davlat aviatsiyasi aerodromi hamkorlikda foydalanish aerodromi deb e’tirof etiladi. Budan tashqari turli idoralar tasarrufida bo‘lgan havo kemalari joylashadigan fuqaro aviatsiyasi, davlat aviatsiyasi yoki eksperimental aviatsiya aerodromi hamkorlikda joylashish aerodromi deb e’tirof etiladi.

Aerodromlardan samoviy hududdan foydalanuvchilarining turli toifalari hamkorlikda foydalanishi (joylashishi) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

### **Aeroport bilan, aholi manzilgohlari orasida transport qatnovi va aloqa**

Yo‘lovchilar tashish ehtiyojini ta’minlash uchun aeroportlar bilan yaqin shaharlar va aholi manzilgohlari o‘rtasida muntazam transport qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Aeroportlarga boradigan yo‘llar qurilishini, ularni ta’mirlashni, obodonlashtirishni va ulardan foydalanishni, yo‘lovchi tashiydigan transportning bu yo‘llarda muntazam qatnovini, shuningdek shaharlar va boshqa aholi punktlari bilan aeroportlar o‘rtasida telefon va boshqa aloqa turlarini hokimiyat mahalliy organlari ta’minlaydilar.

### **Aerodromlarni tugatish**

Aerodromlarni tugatish, shu jumladan boshqa joyga ko‘chirish maqsadida tugatish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

**Qo‘sishnlarni havo orqali tashish o‘z ichiga oladi:** qo‘sishnlarni tashishga tayyorlash; qo‘sishnlarni yuklash, tashish va tushirish; tashiladigan qo‘sishnlarni ta’minlash.

Harbiy qism (bo‘linma, jamoa)ni havo orqali tashish muvaffaqiyati transport yuqori tashkilot tomonidan erishiladi va xodimlarning intizomi, to‘g‘ri va tez yuklanish qobiliyati samolyot ichiga uskunalar va qurol, shuningdek tartibini bilish va tashish qoidalari. Bundan tashqari, buyurtma qaysi transportni belgilaydi aviatsiya bo‘linmalari va qanday tarkibda ajratiladi tashish uchun.

Ayyorlik ishlatalish maqsadida, transportning qo'nish aerodromlari va parvoz yo'l xabar qilinishi mumkin emas. Harbiy-transport aviatsiyasi vositasida tashiladigan harbiy qism shtabi har bir havo kemasi uchun alohida havo kemasida tashiladigan harbiy komanda shaxsiy tarkibining ro'yxati va havo kemasida tashiladigan yuk ro'yxatini uch nusxada rasmiylashtiradi. Ushbu ro'yxatlarning bittadan nusxasi shaxsiy tarkib (yuk) havo transportiga joylashayotgan (ortilayotgan) harbiy aerodrom dispetcheri (aeroportning tashish tadbirlari xizmati) yoki aeroport harbiy komendantiga, bir nusxasi havo kemasi komandiriga topshiriladi, bir nusxasi esa harbiy komanda boshlig'i ixtiyorida qoladi. Harbiy komanda jo'natadigan harbiy qism, ushbu harbiy komandaning havo transportiga chiqib joylashish aerodromiga o'z vaqtida etib kelishini ta'minlashi shart bo'lib, zarurat tug'ilganida va aviatashuvchining talabiga binoan, yirik o'lchamli og'ir yuklarni mahkamlash uchun qo'shimcha mahkamlash vositalarini taqdim etishi lozim.

Harbiy komandalar havo transportiga chiqib joylashishi (undan tushishi) uchun har bir harbiy qismga (bo'linmaga) havo transportiga chiqib joylashish (undan tushish) aerodromi (maydoni) tayinlanadi. Havo transportiga chiqib joylashish aerodromi imkon qadar tashiladigan harbiy komandalar jamlangan (doimiy joylashgan) hududlarga yaqin joyda, havo transportidan tushish aerodromi esa yangi jamlanish hududi yoki jangovar vazifa bajariladigan joiz hududga yaqin joyda tanlanadi. Havo kemasiga chiqib joylashish tadbirlari boshlangunga qadar tashiladigan harbiy qismlar (bo'linmalar) kutish hududiga joylashadi. Harbiy-transport aviatsiyasida tashishlarni tashkillashtirish uchun harbiy aerodromlar, "**Uzbekistan Airways**" AJ va "**Uzbekistan Airports**" AJ ga tegishli bo'lgan aeroportlar hamda boshqa vazirlik va idoralarning tasarrufida bo'lgan fuqaro aerodromlaridan ularning egalari bilan kelishilgan holda foydalaniadi. Yuk havo kemasiga ortilishi yoki kemandan tushirilishi uchun harbiy qism (yuk jo'natayotgan, yuk qabul qilayotgan tomon) yuk ortish-tushirish komandasini aerodromga o'z vaqtida etib borishini ta'minlashi lozim. Yukni havo kemasining yuk joylash kabinasiga (yuk bo'lmasiga) ortish tadbirlari havo kemasidan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar va qo'llanma.

Yuk tashish tadbirlari "**Uzbekistan Airways**" AJ va "**Uzbekistan Airports**" AJ ning aviakompaniyalariga qarashli samolyotlar vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, yukni havo kemasiga ortish va mahkamlash masalalari, ushbu aviakompaniyalar tomonidan joriy etilgan qoidalarga muvofiq hal etiladi.

Havo kemasini markazlash amallari "**Uzbekistan Airways**" AJ va "**Uzbekistan Airports**" AJ aviakompaniyasining maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlari tomonidan bajariladi.

Harbiy-transport aviatsiyasida harbiy tashishlarning muhimligi, shoshilinchligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va boshqa, ancha arzonroq transport turlarini qo'llash imkoniyatlarini hisobga olgan holda transport havo kemalarning har xil turlari uchun belgilangan yillik uchish soatlari normalari va ajratilgan aviatsiya yoqilg'isi limitidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Harbiy tashishlarni tashkillashtirish mobaynida yuklarni ortish (tushirish) uchun asosiy va zaxira aerodromlar bilan bir qatorda havo kemalarini yoqilg'i bilan oxirigacha to'ldirish bo'yicha ishlar ham belgilanadi. Ushbu aerodromlarda aviatsiya yoqilg'isining kerakli zaxiralari yaratiladi, tashishlar davrida esa havo kemalari parvozlarining aerodrom-texnik, muhandislik-aviatsion va radiotexnika ta'minlash vositalari shay holatda saqlanadi. Shaxsiy tarkib havo kemasining rejalahtirilgan parvozi vaqtidan 1 soat oldin aerodromga etib kelishini, kichik o'lchamli yuklar 2 soatdan kechiktirilmay, yirik hajmli yuklar esa 3 soatdan kechiktirilmay olib kelinishini ta'minlash lozim. Komanda boshliqlarida (guruuhlar kattalarida) tashilayotgan yo'lovchilarning ro'yxatini 3 nusxada, yukni jo'natish uchun mas'ul shaxslarda esa tashilayotgan yuklarning ro'yxatini 3 nusxada bo'lishi shart. Bunda ushbu ro'yxatlar harbiy qism komandiri tomonidan imzolangan va gerbli muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Ro'yxatlarning birinchi nusxasi ekipaj komandiriga, ikkinchi nusxasi aerodromning aviatsiya dispetcheriga beriladi, uchinchi nusxasi esa komanda boshlig'i (guruuh kattasi) yoki yuk jo'natuvchida qoladi. Har bir yo'lovchi havo kemasida uchganda o'zi bilan 30 kilogrammgacha, vertolyotda uchganda esa 10 kilogrammgacha shaxsiy bagaj olishi mumkin. Uchish davomida shaxsiy tarkib, egallab turgan lavozimi va harbiy unvonidan qat'iy nazar, havo kemasida o'zini tutish qoidalari bo'yicha ekipaj komandirining ko'rsatmalari va tashish davomida taqiqlovchi talablarni bajarishga majburdir. Tashilayotgan shaxsiy tarkib havo kemasining umumiy yuk ortilishi va og'irlik markaziga bog'liq holda ekipajning ko'rsatmasiga ko'ra joylashtiriladi.

Tashilayotgan yo'lovchilarning soni havo kemasidagi o'rindiqlar sonidan oshmasligi zarur. Barcha havo kemalari hamda aerodromlarning qo'mondonlik-dispatcherlik punktlarida "Havo kemasini bortida yo'lovchilar o'zini tutish qoidalari" bayon etilgan eslatmalar mavjud.

Aerodromni (maydonni) qo'shin tashish uchun tayyorlash tadbirlari o'z ichiga: harbiy texnikaning havo kemasiga yaqin kelishi xavfsiz va qulay kechishi lozimligini inobatga olgan holda havo kemalari turadigan joy tanlash;

yuk ortish-tushirish ishlarini amalga oshirish manfaatlarida mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlash; harbiy komandalar va harbiy texnikaning yuk ortish-tushirish (transportga chiqish-tushish) joyi tomon harakatlanish yo'naliшини ko'rsatish ishlarini mujassam etadi.

Harbiy komandalar havo transportiga chiqib, joylashish aerodromi tomon katta boshliq ko'rsatmasiga binoan yo'lga chiqadi.

Harbiy komandaning havo kemasiga chiqib, joylashishi (undan tushishi) havo kemasini komandirining rahbarligida amalga oshiriladi. *QAHMT havo kemasiga quyidagi usullar qo'llanilib ortiladi*: o'ziyurar mashinalar havo kemasining yuk joylash kabinasiga yuk ortish trapi (rampa) orqali yurib kiradi; o'zi yura olmaydigan texnika va boshqa turdag'i moddiy vositalar havo kemasining maxsus yuk ortish jihozlari yoki erdag'i mexanizatsiya vositalaridan foydalangan holda, bunday vositalar bo'lmaganda yoxud ulardan foydalanishning imkoniyati yo'qligida esa dastaki ortiladi.

Yukni havo kemasining yuk joylash kabinasiga (yuk bo'lmaganda) ortish tadbirlari havo kemasidan foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi va qo'llanma, QA HMTning alohida namunalarini havo transporti vositasida tashishga doir yo'riqnomasi hamda havo transporti vositasida xavfli yuk tashish qoidalari bayon etilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuk tashish tadbirlari fuqaro aviatsiyasi "Uzbekistan Airways" AJ va "Uzbekistan Airports" AJga qarashli samolyotlar vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, yukni havo kemasiga ortish va mahkamlash masalalari, ushbu aviakompaniya tomonidan joriy etilgan qoidalarga muvofiq hal etiladi.

Havo kemasini markazlash amallari fuqaro aviatsiyasi "Uzbekistan Airways" AJ va "Uzbekistan Airports" AJ ning maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlari tomonidan bajariladi. Ortishidan oldin QA HMT havo kemasining yaqiniga, ortishga shay holatda o'rnatiladi. O'ziyurar texnika havo kemasining yuk joylash kabinasidagi tayinlangan joyga yuk ortish trapi (rampa) orqali, keskin siltanish va tormozlanishga yo'l qo'ymay uzatmalar qutisi quyi holatga keltirilgan tarzda asta yurib kiradi.

#### Foydalnilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston emir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga jamoasiga tabrigi // Xalq so'zi", 2018-yil, 4-avgust.
2. "Markaziy Osiyo xalqaro transport yo'laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar" xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qutlovi) // "Xalq so'zi", 2018, 21-sentabr.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga jamoasiga tabrigi // Xalq so'zi" 2018 yil, 4-avgust.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ, «Uzbekistan Airways» AJ va «Uzbekistan Airports» AJning 2021 yil "01" mart 9/01/61-21xdfu/69/1-sonli qaroriga ilova
5. Havo transportida yo'lovchi va bagaj tashish qoidalari 2011 yil 29 iyun, ro'yxat raqami 2238.
6. Shahobiddinov, V. E., Khodjayev, O. S., Oripov, S. G. (2021). TEMIR Yo 'L TRANSPORTIDA SODIR BO'LGAN TABIIY VA TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA AVARIYA QUTQARUV ISHLARINI TAKOMILLAShTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 987-994.
7. Kh. A. S., Shahobiddinov, V. E., Sh. K. O. PROTECTION OF TRANSPORT FACILITIES FROM FLOOD AND EARTHQUAKE.
8. Shaxobiddinov, V. E. (2022). TEMIR Yo 'L TRANSPORTIDA HARBIY TRANSPORT VA YuKLARNI TASHIShGA OID BAJARILADIGAN TADBIRLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 313-319.
9. Khakimovich, A. S., Djabborov, S. X., & Shaxobiddinov, V. E. (2022). Impact of Water Resources on Objects and Lines of the Railway in Mountain and Foothill Places of Uzbekistan. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 234-240.

# ВАТАНГА ДАХЛДОРЛИК ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР

Бозоров Сухроб Комилович,

Термиз давлат педагогика институти

Фалсафа, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими кафедраси ўқитувчиси

Телефон рақами: +998 93 794 93 46

E-mail: [asdp95@umail.uz](mailto:asdp95@umail.uz)

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий-ахлоқий қадриятлар ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган. Ватан тушунчасининг маънавий аҳамияти, миллий мерос, оила, таълим ва ижтимоий институтлар роллари кўриб чиқилган. Шунингдек, Ислом маънавияти, адабиёт ва санъатнинг бу жараёндаги таъсири ҳамда замонавий глобаллашув шароитида миллий қадриятларни асрарнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Мақолада ёшларда Ватанпарварлик туйғусини ривожланишишнинг назарий ва амалий жиҳатлари кўриб чиқилган.

**Калим сўзлар:** Ватанга дахлдорлик, маънавий қадриятлар, ахлоқ, Ватанпарварлик, миллий мерос, ёшлар, таълим, Ислом маънавияти, глобаллашув.

Ватан тушунчаси инсоннинг ҳётида бекиёс аҳамиятга эга. Ватан нафакат кишининг туғилиб ўсган жойи, балки унинг маънавий ҳимояси ва ижтимоий ривожланишининг асоси ҳисобланади. Ватанга дахлдорлик ҳисси ҳар бир шахсда шакллантирилиши лозим бўлган муҳим туйғудир, чунки у нафакат шахсий, балки ижтимоий тараққиёт учун ҳам асосий омилдир. Бу ҳис маънавий-ахлоқий қадриятлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар жамият ва шахс ўртасидаги мувозанатни таъминлади.

Хусусан, маънавий-ахлоқий қадриятлар ва уларнинг Ватанга дахлдорликни шакллантиришдаги ўрни қўйидагича аниқлаш мумкин: Биринчидан маънавият ва ахлоқ тушунчаларига назарий ёндашув. Бунда маънавият – инсоннинг ички дунёси ва у ҳёйтдаги энг юксак қадриятларга бўлган муносабатини ифода этадиган тушунчадир. Ахлоқ эса жамиятнинг умумий нормалари асосида шаклланган инсоннинг ҳулқ-атвори ва одобларига ишора қиласди. Маънавият ва ахлоқ биргаликда шахсни юксалтирувчи асосий омил бўлиб, улар ижтимоий муносабатларда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Иккинчидан ватанпарварлик – маънавий-ахлоқий қадрият сифатида ватанпарварлик – шахснинг ўз юртига бўлган муҳаббати ва уни ҳимоя қилишга тайёрлиги каби ҳисларни ўз ичига олган маънавий қадриятдир. Бу туйғу шахснинг маънавий ривожланишини таъминлайди ва унинг жамият олдидаги масъулиятини оширади. Ватанпарварлик қадрияти инсонда масъулият ва садоқат каби фазилатларни шакллантиради.

Бугунги кунда ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий қадриятлар турлича қўринишда мавжуд бўлиб уларни қўйидагича таҳрирлаш мумкин:

- Миллий мерос ва унинг аҳамияти

Миллий мерос – ҳар бир халқнинг маданий, маънавий ва тарихий бойлигидир. Унда миллатнинг ўтмиши, турмуш тарзи ва қадриятлари мужассамдир. Миллий мерос орқали шахс ўзини жамиятнинг бир бўлаги сифатида ҳис қиласди ва бу туйғу Ватанга бўлган муҳаббатнинг асосини ташкил қиласди.

- Оила, муҳит ва ижтимоий институтлар роллари

Оила – маънавий қадриятларнинг илк шаклланадиган жойи. Ота-онанинг тарбияси, уларнинг Ватанга бўлган муносабати боладаги илк Ватанпарварлик туйғусини уйғотади. Шу билан бирга, мактаб ва жамоат институтлари ҳам бу жараёнда катта аҳамиятга эга. Ҳар бир шахсни маънавий-ахлоқий жиҳатдан камол топтириш учун уларда миллий қадриятларни шакллантириш муҳимдир.

Ватанга бўлган муҳаббатни шакллантиришда тарихий билимларни ўргатиш, миллий байрамлар ва маросимларда иштирок этиш муҳим аҳамиятга эга. Бунда кўргазмали тарбия усуллари – тарихий музейларга саёҳат, Ватан қаҳрамонлари ҳакида хикоялар айтиб бериш каби чора-тадбирлар самарали бўлади.

Глобаллашув даврида ёшлар ўртасида миллий қадриятларни йўқотмаслик мухимдир. Бу жараёнда ахборот технологияларидан фойдаланиш, миллий қадриятларни тарғиб қилувчи онлайн платформаларни яратиш, ёшларни ижтимоий фаолиятга жалб қилиш мухимдир.

Кўшимча мавзуларни киритиш асосида тўлиқ қайта ишланган ва кенгайтирилган мақолани тайёрлайман. Бироз вақт керак бўлади, тайёр бўлиши билан сизга тақдим этаман!

Ватан – инсон ҳаётидаги энг мухим тушунчалардан бири. У нафақат инсон туғилиб ўсган жой, балки унинг маънавий таянчи, ҳимояси ва ижтимоий бирлиги тимсолидир. Ватанга дахлдорлик ҳисси жамиятнинг барқарорлиги ва тараққиёти учун асос бўлиб хизмат қилади. Бу хис маънавий-ахлоқий қадриятлар билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, улар шахснинг жамиятга дахлдорлигини ҳис қилишини таъминлайди. Ушбу мақолада Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантирувчи маънавий қадриятлар, уларнинг ижтимоий-фалсафий асослари ҳамда бу жараёнда таълим ва тарбиянинг аҳамияти таҳдил қилинади.

Маънавият шахснинг руҳий олами ва қадриятларга бўлган муносабати билан боғлиқ тушунча. Ахлоқ эса жамиятдаги нормалар, қоидалар ва хулқ-автор меъёрларини акс эттиради. Маънавият ва ахлоқ шахснинг ижтимоий онгига марказий ўрин тутади ва Ватанга бўлган туйғуларнинг шаклланнишига таъсир кўрсатади.

Ватанпарварлик, аввало, маънавий қадриятдир. У инсоннинг ўз ватанига содиқлиги, уни ҳимоя қилишга ва ривожлантиришга тайёрлиги билан намоён бўлади. Ватанпарварлик туйғуси шахснинг миллий ва маданий мустаҳкамлиги, жамият олдидағи масъулиятини белгилайди.

Миллий мерос ҳар бир миллатнинг маънавий қўргонидир. Ўзбек халқининг тарихи, урф-одатлари, маданий анъаналари Ватанга дахлдорлик ҳиссини тарбиялашда мухим аҳамиятга эга. Масалан, Наврўз, мустақиллик куни ва бошқа миллий байрамлар бу қадриятларни жонлантиришга хизмат қилади.

Оила шахс маънавиятини шакллантиришдаги илк мухитдир. Ватанга бўлган муҳаббат аввало ота-онанинг фарзандга берган тарбияси орқали шаклланади. Шунингдек, мактаб ва университетлар, оммавий ахборот воситалари ҳам шахснинг маънавий юксалишига ҳисса қўшади.

Ватанга муҳаббат ва дахлдорлик ҳиссини уйғотища тарихий шахслар ҳаётидан ўрнак олиш, Ватан учун хизмат қилган қаҳрамонлар ҳақидаги ҳикояларни ўрганиш катта аҳамиятга эга. Бунда таълим тизимида ўкув режаларини миллий қадриятларга мослаштириш самаралидир.

Глобаллашув даврида ёшлар ўртасида миллий қадриятларни йўқотмаслик мухимдир. Ахборот технологияларининг ривожланиши миллийликни асрашда ҳам таҳдид, ҳам имкониятдир.

Ислом таълимоти Ватанни ҳимоя қилиш ва унга муҳаббатни инсоннинг мухим бурчларидан бири сифатида кўрсатади. Куръони Каримдаги баъзи оятлар ва Пайғамбари-мизнинг ҳадислари Ватанга содиқлик ва садоқат ҳақида кўплаб ўйтлар беради. Ўзбекистонда Ислом қадриятлари орқали ёшлар онгига Ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантириш имкониятлари катта аҳамиятга эга.

Алишер Навоийнинг асарлари, Абдулла Қодирийнинг ижоди ва Чўлпоннинг шеърларида Ватанга бўлган муҳаббатнинг чуқур ғоялари мужассамдир. Бугунги кунда миллий қаҳрамонликни акс эттирувчи кинофильмлар, театр спектакллари ва мусиқий асарлар ёшлар онгига Ватанпарварликни сингдиришнинг энг самарали воситалари бўлиб хизмат қиласди.

Глобаллашув таъсирида шахс миллийликни йўқотиши мумкин. Миллий қадриятларни асраш ва уларни замонавий технологиялар орқали тарғиб қилиш мухим вазифалардан биридир. Масалан, миллий маданиятни тарғиб қилувчи мобил иловалар, ижтимоий тармоқлардаги акциялар ва интернет платформалари ёшлар онгига таъсир этувчи мухим воситалардир.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш керакки ватанга дахлдорлик ҳиссини шакллантириш – ҳар бир шахснинг маънавий бурчи. Бу туйғу шахснинг жамиятга интеграциялашувини таъминлайди, унинг Ватан ва жамият олдидағи масъулиятини оширади. Замонавий глобаллашув шароитида миллий қадриятларни асраш ва келгуси авлодга етказиш мухимдир. Бу

жараёнда оила, таълим, санъат ва диний қадриятларнинг ўрни катта. Ҳар бир фуқаронинг масъулияти шундаки, у ўз ҳиссаси билан юрга тараққиётiga хизмат қилиши зарур.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шерзод Умаралиев “Ахборот жамияти ва ёшлар онгидаги трансформация жараёнлари”. (2009). Тошкент: Ўзбекистон нашири.
2. Фарҳод Сайдов “Ёшлар маънавияти, ватанпарварлик тарбия ва ижтимоий масалалар”. (2021).
3. Дюргейм, Э. “Ижтимоий меҳнат тақсимоти”. (1993). Париж: Alcan.
4. Робийла Исматова “Ёшлар маънавиятини ривожлантиришда жамоат ташкилотлари билан ҳамкорлик”. (1996).
5. Умаралиев, Ш. “Миллий қадриятлар ва ёшлар маънавияти”. (2018). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
6. Сайдов, Ф. “Патриотик тарбия: ёшлар маънавиятини шакллантиришдаги рол”. (2020). Жаҳон сиёсати ва иқтисодиёти журнали, 4(2), 22-35.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшлар сиёсати тўғрисидаги маърузасидан. (2017).
8. Алиев, Р“Ёшлар ва маданий мерос: миллий қадриятларнинг ривожланиши”.. (2021). Ижтимоий фанлар журнали, 5(3), 45-60.

## **YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY MEROsimizdan FOYDALANISHNING O’QUV JARAYONI BILAN UZVIYLIGI**

**Shonazarov Jamol Umirzoqovich,**  
Xalqaro innovatsion universiteti, kafedra mudiri

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyati, yo’llari va ta’lim-tarbiya tizimlari oldida turgan vazifalar bayon etilgan.

Shuningdek, globallashuv jarayonida yosh avlodni ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ota - ona, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligining ustuvor jihatlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** qadriyat, oila tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya tizimi, barkamol shaxs, ma’naviy meros, pedagogik qarashlar, didaktik asarlar, pedagogik faoliyat.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urfodatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. Qadriyatlar inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyatini yurtboshimiz asarlaridagi g‘oyalardan kelib chiqqan holda «o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda komil inson etib tarbiyalash» jarayoni sifatida izohlash mumkin bo‘ladi. Xolbuki, bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom kamol topishlari uchun nafaqat ota-onasiga balki o‘qituvchi-murabbiylarning xizmatlari beqiyosdir. Chunki, ta’lim-tarbiya tizimida ota - ona, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligi barkamol shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishda asosiy vosita va ustuvor soha bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi vaqtarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sish kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuchg‘ayrat bag‘ishlamoqda<sup>110</sup>.

<sup>110</sup> Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.146.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebahो ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. IX-XII asrlarda faoliyat ko'rsatgan Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma'naviy-pedagogik meros yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhimdir. Zero, ular tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma'naviy meros, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, g'oyalari, ularning didaktik asarlari yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Chunki, IX-XII asrlarda faoliyat ko'rsatgan Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosida inson odobi, axloqi, iymon-e'tiqodi, vijdoni, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlar, didaktik asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Shunday ekan, ta'lim tizimida barkamol avlodni shakllantirishda ulug' allomalarimizning didaktik merosidan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz musulmon dini haqida gapirganda avvalo, Alloh va Uning Rasulini, o'zimizga ruhan yaqin bo'lган ulug' allomalarimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz hurmat bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Zamaxshariy kabi piru komillarimizni nazarda tutamiz.

O'qituvchi psixologiyasi ta'lim, tarbiya va o'quvchilarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyat – inson mehnatining eng murakkab va mas'uliyatlari sohalaridan biri. Bundan kelib chiqib, jamiyat o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga yuksak talablarni qo'yadi: yuksak kasbiy mahorat, g'oyaga sadoqat, ma'naviylik, onglilik, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tuta bilish, bosiqlik, oljanoblik, aqliy mukammallik, poklik, ya'ni jamiyat bolalarda gavdalantirishni istagan axloqiy, ruhiy va intellektual idealga muvofiqlik.

Bolalarga mehr - o'qituvchining muhim shaxsiy va professional xususiyatidir. Usiz samarali pedagogik faoliyat yo'q. O'qituvchi o'quvchilar hayoti va faoliyatining tashkilotchisi bo'lishi, har bir bolaning psixologiyasini yaxshi bilishi va o'zi ham yetarlicha pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi kerak<sup>111</sup>.

O'qituvchi o'quvchilarini, ularning o'zaro munosabatlarini barobar qabul qilish va ko'rish qobiliyatini doimo mukammallashtirishi zarur, o'zining ular bilan munosabatlarini ayni paytda qanday bo'lsa shunday, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayonda sodir bo'layotgan voqealarni tashqi ta'sir emas, balki ichki sabab natijasida qabul qila olishi zarur. Bu oson emas. Gap shundaki, o'qituvchi o'quvchilarga munosabatda har doim tashqi pozitsiyada qoladi, har doim u yoki bu darajada ulardan, ularning hayoti va faoliyatidan chetda turadi, vaholanki, u bularning tashkilotchisidir.

Hozirgi davrning o'qituvchi-tarbiyachisi zamon talablari asosida ta'lim va tarbiyaning maqsad, vazifalarini to'g'ri, aniq tushunsadagina uni talabga muvofiq amalga oshira oladi. Shunga ko'ra o'qituvchi, dastavval, ta'lim – tarbiyaning asosan ijtimoiy, psixologik, didaktik xususiyatlari, ilmiy – nazariy asoslarini muntazam bilib borishga odatlanmog'i, so'ngra esa, shaxsiy tajribalarini davr talablari asosida tashkil etishi, ularni pedagogik - psixologik nazariyalar balan taqqoslashi, ilg'or tajribalarini o'rGANISHI, o'qitish va tarbiyalash ishlarini hayot bilan, mehnat bilan, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog'lash imkoniyatini qo'lga kiritishga harakat qilishi darkor. Zero, o'quvchilar hozirgi sharoitda unumli mehnat jarayonida tayyor bo'lishlari shart. Ta'lim muassasasidanoq ularni ishlab chiqarishning barcha jabhalaridagi talablar va qonun-qoidalardan voqif qilmoq lozim.

Har bir o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik faoliyatga kirishar ekan, avvalo, uni mustaqil tashkil etish, shaxsiy tajribalarini yaratish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shundagina, u mahoratli kasb egasi bo'la oladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z ixtisosligi, kasbiy faoliyati ustida mustaqil ishlashi, bilim olishi shaxsiy faoliyatini ilmiy - nazariy, usuliy - amaliy yo'naliшlarini mukammal egallashga intilmog'i darkor. Mustaqil ishslash, o'z faoliyatini mustaqil takomillashtirib borish har bir o'qituvchi-murabbiy oldiga davr qo'yayotgan talabdir. Bu o'z navbatida o'qituvchining mustaqil bilim olishning kompleks malakalariga ega bo'lishini, o'z-o'zini nazorat qilishini, o'z faoliyat

<sup>111</sup> Ochilov M. , Ochilova N. "O'qituvchi odobi". – T.: "O'qituvchi", 1997 yil.

natijalarini tahlil qilib, o‘z faliyatini baholashning real ko‘nikmalarini o‘ziga hosil qilishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu faqatgina pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish orqali amalgा oshadi<sup>112</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, har bir fan o‘qituvchisi yosh avlodga fan asoslarini o‘rgatar ekan, u, avvalo, berilayotgan ma’lumotlar asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi, ularni mehnat va kasbga yo‘llab, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlaydi. Shuning uchun ta’lim va tarbiya yaxlitligini ilmiy jihatdan tushunish, ta’lim va tarbiyaning imkoniyatlaridan o‘rinli va maqsadli foydalanish orqali yosh avlod tarbiyasiga to‘g‘ri va ijodiy yondosha oladi. Bu qolaversa, har bir fan o‘qituvchisining oldidagi insoniy burchi va pedagogikaning umumiy qonunidir. Shu o‘rinda har bir o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarga ta’lim mazmunini bayon etishda nazariyani hayot bilan, amaliyot bilan bog‘lagan holda ular ongi va qalbida vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat va jamiyat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan milliy qadriyatlarga sodiq farzandlarni tarbiyalashdek yuksak maqsadlar yo‘lida mas‘ul ekanligini bilishi zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish yo‘llarini mukammal bilish, inson psixikasini yaxshi tushunish, notiqlik san’ati sohibi bo‘lish va muomalaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalgा oshirish, uni ta’lim-tarbiya jarayonida amalgা oshirish imkoniyatlariga erishish o‘qituvchining pedagogik-psixologik xususiyatlarining yuksakligini bildiradi. Demak, yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo‘lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongi va qalbiga singdirish biz ota-onalar, shuningdek, har bir o‘qituvchining asosiy burchi va vazifasi bo‘lmog‘i lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.146.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston. 1999. - 349-354-b.
3. Ochilov M. , Ochilova N. “O‘qituvchi odobi”. – T.: “O‘qituvchi”, 1997 yil.
4. Axmedjanov M.M. Pedagogik mahorat. -Toshkent 2004 yil, 25 bet.

## **O‘SMIR BOLA PSIXOLOGIYASINING TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI**

**Abdullayeva Jongul G‘afforovna,**

Xalqaro innovatsion universiteti

Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yosh avlod tarbiyasi, uning shakllanish jarayoni, o‘smirlilik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, o‘smirlilik davrida xarakter aksentuvsiyasi muammosi hamda emotsional rivojlanish xususiyatlariga doir masalalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yosh avlod tarbiyasi, oila tarbiyasi, bola psixologiyasi, o‘smirlilik davri, ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro hamkorlik.

**“Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”.**

**Abdulla Avloniy**

Mustaqil O‘zbekistonimizning ravnaqi bugungi yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Chunki, davlat mustaqil fikrlaydigan, ruhi komil, dili pok insonlar tomonidan quriladi va mustahkamalanadi.

Ma‘lumki, shaxsning qadri uning jamiyatdagi tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning eng avvalo, oilada so‘ng ta’lim jarayonida olgan tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Yosh avlodning tarbiyasi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning asosiy o‘chog‘i oila. Oilada bolani tarbiyalash davomida ularga hayot haqidagi, odamlarning yaxshi va yomon xulqlari, jamiyatda bajaradigan ishlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni ota-ona berishi lozim. Ana shundan so‘ng maktabda, ta’lim jarayonida ustozlaridan olgan saboqlari bola tarbiyasining asosiy manbai sanaladi. O‘qituvchilik mahorati ila bola jamiyatda eng yetuk shaxs bo‘lib shakllanadi.

<sup>112</sup> Axmedjanov M.M. Pedagogik mahorat. -Toshkent 2004 yil, 25 bet.

Men o‘zim ham o‘qituvchi bo‘lganim uchunmi ... kasbiy faoliyatimdan kelib chiqib ham bola tarbiyasini, nozik masala deb bilaman. Ba’zan o‘qituvchilarni haykaltaroshga o‘xshatadilar, lekin bizning ish manbaimiz jonsiz tosh emas, balki qalbi, ruhi, sezgisi, tuyg‘usi bor inson farzandidir.

Ularni tarbiyalashda nihoyatda ehtiyyot bo‘lishimiz shart. Ustoz G‘ofur G‘ulom aytganlaridek “Farzand tarbiyasida ehtiyyotkorlik joiz, chunki u navniholga o‘xshaydi. To‘g‘ri tarbiya jisman to‘g‘ri o‘sgan nihol kabi. Ham jisman, ham ruhan o‘saveradi. “Darhaqiqat, bola tarbiyasida psixolog bo‘lishi kerak. Shundagina psixologik nuqtai nazardan yondashib ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri maqsadga erishish mumkin. Ta’lim berish davomida o‘smir yoshidagi bolaning nafaqat bilim ko‘nikmasini shakllantirish balki uning ruhiy darajasini ham takomillashtirib borish asosiy vazifa etib belgilansa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Nima uchun aynan o‘smirlilik davri? Keling bunga psixologik nuqtai nazardan yondashamiz.

O‘smirlilik davri yosh davrlari fasilda eng ahamiyatli davrlardan biri hisoblanadi. Chunki, bu davr shaxs shakllanishidagi asosiy davrdir. O‘smirlilik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda “o‘tish davri”, “inqiroz davri” kabi nomlar bilan ataladi. O‘smirlilik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. Bu davrda o‘smir hayatida uning ruhiyati, organizmiing fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davr taxminan bolaning 5-9 sinflarida o‘qish paytiga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha davr oralig‘ida bo‘ladi va bu yosh davrlarining xarakter xususiyatlaridagi o‘zgarishlarini psixologik qonuniyat asosida amalga oshishini ham bir o‘qituvchi bilishi maqsadga muvofiqliр.

O‘smirlilik davrida bolaning ijtimoiy munosabatlarda va dunyoqarashida ham keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davrga kelib uning uchun qadrli bo‘lgan narsalar ahamiyatini yo‘qotadi. Bola ilgari o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan mashg‘ulotga umuman befarq bo‘lib qolishi yoki aksincha yangi mashg‘ulotlarga qiziqib qolishi mumkin. Bu davrga kelib o‘smirning intellektual imkoniyatlari oshadi, dunyoqarashi kengayadi, yangi qiziqishlar davrida bola endi “bola” emas, shu bilan birga u hali “katta” ham emas. Obyektiv yosh davriga qaramasdan u o‘quvchiligidcha ottonasining qaramog‘ida qoladi. Ammo u o‘zini “katta odam” deb hisoblaydi, o‘zining muammo-larini o‘zi hal qilishga harakat qiladi. Shu sababli uning ko‘pgina da’vo va talablari hal qilib bo‘lmaydigan qiyinchiliklarga olib boradi, ziddiyatlar va qarama-qrshiliklarni keltirib chiqaradi. Xo‘sh bunday yoshdagi bolalarga ta’lim berish bilan bir qatorda o‘qituvchi yana qanday tarbiyaviy xususiyatlarga alohida e’tibor qaratishi lozim?

Eng avvalo, har bir o‘smir bilan muloqotda uning shaxsidagi eng yaxshi tomonlarni topa bilish, nimaga qobiliyatli eknini aniqlab olish hamda mana shularga tayangan holda bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlash g‘oyat muhimdir. Aks holda tarbiya sohasida katta qiyinchiliklar kelib chiqishi muqarrardir. O‘smir o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilarning ko‘z o‘ngida o‘z shaxsining mustaqilligini tasdiqlash, o‘z “men”ini ijobiy tomondan ko‘rsatishning ilojini topa olmasa, u holda psixologik zarurat tufayli salbiy ishlarda o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

O‘qituvchi mazkur yoshda bolaning o‘z-o‘zini hurmat qilishga o‘rgatish tuyg‘usini shakllantirish muhim ekanligini hisobga olib, o‘quvchining sinf va umumjamoa oldidagi obro‘sini o‘z “men”ini ko‘tarish yo‘llarini izlashi kerak. Buning uchun o‘qituvchi bolaning u yoki bu sohadagi yutuqlarini ko‘pchilikka ma’lum qilib, uning ayrim kamchilik va xatolarini yo‘qotishda esa donolik bilan ish tutishi lozim. Ularni darrov ko‘pchilikka oshkor qilmay, o‘smir bilan suhbatlashib, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonishini amalda ko‘rsatishi va bu bilan o‘smirda shakllanib kelayotgan “katta kishi” bo‘lib qolganlik tuyg‘usini hurmat qilishini bildirishi zarur. Bir so‘z bilan aytganda bolaga o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilish tuyg‘usini o‘rgatish uning jamiyatda yetuk shaxs bo‘lib yetishishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Ibn Sinoning bola tarbiyasi to‘g‘risidagi quyidagi fikrlari ham ta’lim-tarbiya tizimida katta ahamiyatga ega. “Bola xulqini mustaqillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Bu bir tomonidan bolaning ruhiga foyda qiladi, bola eng yosh chog‘idanoq xushxulq bo‘lib o‘sadi va bora-bora unga bu xushxulqlik odad bo‘lib qoladi. Ikkinci tomonidan bolaning tanasiga foyda qiladi, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo‘ladi. Xulqning mo‘tadilligi natijasida ham ruh, ham badan sog‘lom bo‘ladi” deydi olim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agar yosh avlodning ruhiyatini har qanday nuqson va kamchiliklardan xoli holda tarbiyalasak, kelajakda Vatani, xalqi, oilasi ravnaqi uchun yashaydigan barkamol avlodni yetishtirishda poydevor yaratgan bo'lamiz. Har tomonlama komil shaxsni tarbiyalash biz o'qituvchilarining asosiy va doimiy vazifamiz bo'lib qolaveradi. Buning yechimi asrlar davomida shakllangan insoniy fazilatlar va milliy qadriyatlarimizni farzandlarimizga yetkazib bera oladigan tarbiya usullarini tanlashimizda, buyuk olimlar, adiblar, ma'rifatparvar murabbiyalarimiz ijodiy merosini mutolaa qilishimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan saxiylik, mehmondo'stlik, rosgo'ylik, sabr-qanoatlilik, odoblilik, poklik kabi fazilatlarni bola ongiga singdirishimizdadir.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva. "Yosh va pedagogik psixologiya" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007
2. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari. O'qituvchi nashriyoti 1967-yil.

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Abduvohidova Diyora Norboy qizi,**

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar:** Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Milliy qadriyatlар umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo sho'rolar davrida qadriyatlар bir tomonlama yoritilar, bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e'tibordan chetda qolar edi. Bunday "Tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosida o'z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e'tiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlар ichida eng nufuzli joyni ulug' millatning qadriyatlari egallab turardi.

**Kalit so'zlar:** Demokratik, ijtimoiy, Amir Temur, ma'naviyat, geosiyosiy, millat, xalq, iqtisodiy, jamiyat.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi o'rni va ahamiyati juda katta. Ushbu g'oya, asosan, millatning o'z taqdirini o'zi hal qilish, erkin va farovon hayotga erishish uchun harakat qilish niyatidan kelib chiqadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy istiqlol g'oyasi jamiyatda quyidagi muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

1. Milliy o'zlikni anglash va ozodlikka erishish: Milliy istiqlol g'oyasi o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va til jihatidan mustaqillikni qayta tiklash zaruratini aks ettiradi. Bu g'oya, birinchi navbatda, xalqni milliy mustaqillik va erkinlikka erishish yo'lida birlashtirdi. Demokratiyaning poydevori sifatida, fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini anglashlari va ifoda etishlari muhim ahamiyat kasb etdi.

2. Demokratik qadriyatlarni rivojlantirish: Milliy istiqlol g'oyasi, demokratik jamiyatda ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tenglik, huquq vaadolat kabi qadriyatlarni rivojlantirishga imkon yaratdi. O'zbekiston davlat tizimi va qonunlari demokratikprintsiplarga asoslanib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoya qilindi.

3. Ijtimoiy barqarorlik va rivojlanish: Milliy istiqlol g'oyasi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar bilan chambarchas bog'liqidir. Demokratik jamiyatni qurish, shu bilan birga, xalqning farovonligini oshirish va ijtimoiyadolatni ta'minlashni

maqsad qilgan. Bunda, har bir fuqaro o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlariga ega bo‘lib, davlat bilan samarali aloqada bo‘lishi zarur.

4. Ko‘p partiyaviylik va siyosiy xilma-xillik: Milliy istiqlol g‘oyasi asosida O‘zbekistonning siyosiy tizimida ko‘p partiyaviylikni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj sezildi. Bu, o‘z navbatida, demokratiyaning amalda ishlashini ta‘minlashga yordam berdi. Siyosiy raqobat va partiylar o‘rtasidagi erkin muhokamalar demokratik jarayonlarni kuchaytirdi.

5. Ma’rifat va bilim orqali taraqqiyot: Milliy istiqlol g‘oyasi ta’lim, fan va madaniyatni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Yangi, demokratik jamiyatda fuqaro faolligi, huquqiy ong va mas’uliyatli bo‘lish uchun, avvalo, ta’limga e’tibor berish zarur. O‘zbekistonning ta’lim tizimi va ma’rifat sohasidagi islohotlar, o‘zgarishlar jamiyatning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekistonning demokratik jamiyat qurishdagi asosiy poydevorlaridan biridir. Bu g‘oya nafaqat mustaqil davlatni qurish, balki jamiyatda erkinlik, adolat, huquq va farovonlikni ta‘minlashning poydevoridir.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o‘rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o‘rtasida qat‘iy chegara yo‘q. Ular doimiy ravishda o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo‘ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umum-bashariy tamoyillarning qaror topishiga zamin yaratadi.

Birinchidan, bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to‘g‘risida muayyan mo‘tadilashgan ilmiy konsepsiylar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi, asoslari, yashash va rivojlanishining umume’tirof etilgan qonuniyatlar hamda uning har bir davlat, xalqning milliy-ma’naviy xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari tobora keng miqyosda o‘z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umum-bashariy va milliy qadriyat sifatida barpo qilinganligi e’tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo‘li ekanini deyarli barcha e’tirof etayotganligi va uning jahoniy ko‘lam kasb qilayotganligi demokratiyanı fan sifatida o‘rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllardanamoyon bo‘ladi. Binobarin, har bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo‘lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob’ektiv olamga nisbatan bo‘lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma’naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo‘lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o‘tishdan meros bo‘lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo‘lgan qadriyatlarga kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o‘zgartirishning muhim omilidir.

Yurtboshimizning “Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o‘rniga qo‘ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo‘snilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo’llab-quvvatladidi<sup>113</sup>. Bu hol tasodifiy emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir” degan fikrlari har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo‘shtan shaxslar ham milliy qadriyatlар jumlasiga kirishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl muslimon bo‘lmasin, qonunchilikning turli tizimlari — diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to‘g‘ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat Shariat qonunchiliginini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlari, urf-odatlarini ham tushungan. “Milliy qadriyatlар — millat uchun muhim va jiddiy ahmiyatga ega bo‘lgan jihat va

<sup>113</sup> Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 15.06.2017.Toshkent.

xususiyatlar. O‘z milliy qadriyati bo‘lmagan millat yoki elat yo‘q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o‘rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo, millatning o‘zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarur<sup>114</sup>. Negaki, millatning o‘zi milliy qadriyatlarning ham ob‘ekti, ham sub'ektidir. Demak, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o‘zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o‘tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o‘zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o‘zgarib boradi. Lekin bu o‘zgarishlardan qat’iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma’naviy kamolotining muayyan yo‘llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi ko‘prik kabi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o‘taydi. Ma’naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar barcha xalqlar madaniyatini yaqinlashtiradi va ularning tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo sho‘rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko‘p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e’tibordan chetda qolar edi. Bunday “Tadqiqot”lardan maqsad har bir millatning o‘z muayyan tarixiy tajribasi asosida o‘z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e’tiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni ulug‘ millatning qadriyatlari egallab turardi.

Ma’lumki, demokratiya tom ma’nodagi mafkura emas, balki ma’lum siyosiy tizimni tasvirlab beruvchi hodisa hisoblanadi. Demokratiya turli mafkuralar tomonidan ham qabul qilinadi.

«Demokratiya», ya’ni «xalq hokimiyyati» atamasi muhim masalalami yechishda barcha aholining bevosita ovoz berishi bilan hal qilingan qadimgi Afinaning o‘zini o‘zi boshqaruv tizimi nomidan kelib chiqdi. Hozirgi davrda liberalizm, konservativizm, sotsializm, millatchilik, fashizm, anarxizm kabi har bir mafkuraviy oqimlar o‘z demokratik konsepsiyalarini «haqiqiy» demokratizm deb e’lon qilmoqdalar. Demokratiya maqsad sifatida individ mustaqilligi va uning umumiyl manfaatlari ustunligini ta’minlaydi. U vosita sifatida esa nizolami bartaraf etish, zo‘ravonlikka chek qo‘yish, turli ijtimoiy guruhlarga siyosiy ta’sir qilish yo‘li bilan ularning murosaga kelishini, konsensusini ta’minlaydi<sup>115</sup>.

O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat qurishda ikki muhim tarixiy tajriba dasturilamal boiib xizmat qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchisi, rivojlangan mamlakatlarda tarixiy sinovlardan o‘tgan fuqarolik jamiyat qurish tajribasi va jahonda e’tirof etilgan demokratik tamoyillar;

Ikkinchisi, milliy tariximizda shakllangan, milliy-madaniy merosimizga mansub bo‘lgan, o‘zida milliy xususiyatlarni ifodalagan demokratik qadriyatlar.

Bu har ikkala tajriba bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlashishga moyil bo‘lib, mamlakatda demokratik jamiyat qurishda mazkur har ikkala tajribaga amal qilinadi. Mazkur tajribalami e’tirof etmaslik bir tomondan, islohotlami umuminsoniy qadriyatlarga, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarga zid kelishiga olib kelishi tabiiy bir holdir. Shuningdek, bu kabi holat nodemokratik rejimlaming kirib kelishiga, yoki milliy manfaatlarga yot bo‘lgan tuzumning yana bosh ko‘tarishiga sabab bo‘lishi, mamlakatda fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurish strategiyasiga zid kelishi mumkin.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o‘ziga xos va mos bo‘lishi qonuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

-demokratik jamiyat qurilishida milliy hususiyatlari hisobga olish qonuni;

<sup>114</sup> Otamurotov S. “Globalashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik” Toshkent 2023.

<sup>115</sup> Mohigul Shavkat qizi Norboyevaning “Axborot va undan yoshlarning foydalanish xususiyatlari” maqolasi.

-demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liqligi;

-o'ziga xos hususiyatlarni O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuni;

-O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining umumbashariy qonuniyatlari Hozirgi zamon Milliy demokratik davlatga xos jihatlar:

- demokratik normalarga tayanadigan huquqiy davlat;
- demokratik zid bo'limgan holda tarixiy an'analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy hususiyatlar saqlanadi;
- barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib boradi;
- uning geosiyosiy mavqeい iqtisodiy, ma'naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos bo'ladi;
- fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkuriga amal qiladi;
- mustaqil ichki va tashqi siyosiy olib boradi;
- o'z taraqqiyoti yo'lini mustaqil tanlaydi va amalga oshiradi;

1991 yil 31 avgust O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Ammo, mustam-lakachilik siyosatidan so'ng qolgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy meros bilan mustaqillikni mustahkamlash va uning istiqbol yo'lini aniqlash, aslida undanda murakkab vazifa edi. Bunday vazifa mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlash bo'yicha qat'iy va izchil siyosat yurgizishdan iborat bo'ldi<sup>116</sup>. Birinchi yo'nalish, mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida, xalq harakteri va mentalitetida rejaviy asoslarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar majmuidan iborat bo'lgan.

Ikkinci yo'nalish xalqaro ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, kolliziya muhitida murosa, hamkorlik munosa-batlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosa-batlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstre-mizmga qarshi xalqaro tashqilot to'zilmalariga asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan tashqil topadi<sup>117</sup>.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi-bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi 15.06.2017.Toshkent.
2. Otamurotov S. "Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik" Toshkent 2023.
3. Mohigul Shavkat qizi Norboyevaning "Axborot va undan yoshlarning foydalanish xususiyatlari" maqolasi.
- 4.Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi Toshkent 2002
- 5."Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari"o'quv-amaliy qo'llanmasi.2017.

<sup>116</sup> Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi Toshkent 2002

<sup>117</sup> "Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari"o'quv-amaliy qo'llanmasi.2017.

## IJTIMOIY TARMOQLAR VA UNDA RADIKAL G‘OYALAR XAVFINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

**Baymatov Alisher Kaxramonovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi  
kafedrasi o‘qituvchisi

Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashgga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallahisiga yo‘l qo‘ymaymiz<sup>118</sup>.

**Shavkat MIRZIYOEV**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ijtimoiy tarmoqlarda radikal g‘oyalar xavfining shakllanishi, ularning jamiyatga ta’siri va bunday xavflarni oldini olish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda ijtimoiy tarmoqlarning falsafiy, madaniy va axloqiy jihatlari tahlil qilinib, radikalizmnинг оmmaviy kommunikatsiya vositalarida tarqalishiga oid muhim omillar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari radikal g‘oyalarga qarshi samarali choralarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, radikal g‘oyalar, xavf, kommunikatsiya, ijtimoiy falsafa, globalizatsiya, xavfsizlik.

XXI asr axborot asri deb nomlanadi, va bu davrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu vositalar axborot almashinuvi, kommunikatsiya va madaniy o‘zaro ta’sir imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ular radikal g‘oyalarni targ‘ib qilish va jamiyatni manipulyatsiya qilish uchun qulay platformaga aylanmoqda. Maqolaning maqsadi — ijtimoiy tarmoqlarda radikal g‘oyalar xavfining qanday shakllanishi va tarqalishi xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishdir.

Ijtimoiy tarmoqlar zamонавија jamiyatning eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biriga aylangan. Ular insonlarning kundalik hayotiga, ish faoliyatiga va shaxsiy munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda Facebook, Twitter, Instagram, Telegram kabi platformalar nafaqat axborot almashish, balki yangiliklar tarqatish, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib qilish vositasi sifatida ham faol ishlatilmoqda. Shu bilan birga, ular ba’zi salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda, xususan, radikal g‘oyalar va ekstremistik mafkuralarning tarqalishi uchun samarali maydon yaratmoqda.

Radikal g‘oyalar insoniyat tarixida har doim mavjud bo‘lgan, ammo bugungi globalizatsiya davrida ular yangi, yanada xavfli shaklga ega bo‘ldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ushbu g‘oyalarni keng ommaga tarqatish uchun qulay sharoit yaratdi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu g‘oyalarning tarqalish sur’ati tezlashib bormoqda. Bu esa nafaqat alohida shaxslar, balki jamiyat va davlat xavfsizligiga ham tahdid solmoqda.

Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlarning falsafiy va sotsiologik jihatlari, radikalizmnинг turli ko‘rinishlari va ularning xavfi, shuningdek, ushbu xavflarni bartaraf etish bo‘yicha ijtimoiy va huquqiy choralar ko‘rib chiqiladi. Maqola ushbu muammoga chuqurroq yondashib, radikal g‘oyalarning ta’sirini kamaytirish va ijtimoiy tarmoqlarni samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga ko‘mak beradi.

Bugungi sharoitda radikal g‘oyalar bilan kurash nafaqat davlatning vazifasi, balki har bir fuqaroning mas’uliyatli vazifasidir. Shu sababli, ushbu masalaning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganish jamiyatdagi har bir qatlamni ushbu xavfdan xabardor qilish va ularga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Radikal g‘oyalar va ularning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi masalasi xalqaro va mahalliy miqyosda keng muhokama qilinmoqda. Ushbu mavzu doirasida bir qancha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Quyida mazkur muammo bo‘yicha yirik tadqiqotchilar va olimlarning ishlari hamda ularning asosiy xulosalari tahlil qilinadi:

<sup>118</sup> <https://muslim.uz/uz/e/post/39654-yoshlarni-radikal-toifalardan-asrash-zarur?page=5&per-page=1>

Sansteyinning 2017 yilda yozilgan "Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media" nomli asari ijtimoiy tarmoqlarda axborotning filtrlanishi natijasida paydo bo'ladigan "aks-sado xonalari" (echo chambers) haqida so'z yuritadi<sup>119</sup>. Unga ko'ra, algoritmlar foydalanuvchilarga ularning qiziqishlariga mos keladigan kontentni ko'rsatadi, bu esa ular o'zlariga qarama-qarshi fikrlarni kamroq ko'rishlariga olib keladi. Ushbu mexanizm radikal guruhlarning o'z e'tiqodlarini kuchaytirishiga imkon beradi. Abdurahmonovning mahalliy tadqiqoti esa O'zbekistonda radikalizmning ijtimoiy tarmoqlardagi namoyon bo'lish xususiyatlariga qaratilgan. U davlat tomonidan olib borilayotgan nazorat choralar va huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini tahlil qilib, yoshlarining diniy-ekstremistik guruhlarga qo'shilishining asosiy sababi sifatida ularning ma'naviy bo'shiligini ko'rsatadi<sup>120</sup>.

Mansurning 2021 yilda yozilgan "The Spread of Radical Ideas in Social Media: A Global Perspective" nomli asarida ijtimoiy tarmoqlarning radikalizm tarqalishidagi roli haqida chuqur tahlil berilgan<sup>121</sup>. Tadqiqotga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar quyidagi sabablarga ko'ra radikal g'oyalarni tarqatish uchun qulay maydonga aylanadi:

Birinchidan an'anaviy axborot vositalariga nisbatan osonroq kirish: Radikal guruhlari o'z kontentlarini tez va keng miqyosda tarqatish imkoniyatiga ega.

Ikkinchidan anonimlik va erkinlik: Foydalanuvchilar shaxsini yashirish imkoniyati radikal kontentni qo'rquvsiz tarqatishga yordam beradi.

Uchinchidan global auditoriyaga chiqish: Tarmoqlar bir vaqtning o'zida minglab odamlar bilan aloqa qilish imkonini beradi.

Xo'sh radikal g'oyalarga qarshi kurashishda qanday strategiyalarni qo'llash mumkin. Yevropa Ittifoqining radikalizmga qarshi kurash bo'yicha "Radicalisation Awareness Network" (RAN) dasturi turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilgan strategiyalarni o'rganib chiqdi. Ushbu tadqiqotda radikalizmni bartaraf etish uchun uch asosiy yo'naliш tavsiya etilgan:

1. Ta'lism orqali yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish.

2. Diniy va madaniy savodxonlikni oshirish.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda maxsus kuzatuv va bloklash mexanizmlarini joriy qilish. Yuqoridaq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, radikalizmning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi kompleks jarayon bo'lib, bu jarayonning asosiy omillari sifatida texnologik, psixologik va madaniy faktorlar ajralib turadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish va ulardagi xavflarni bartaraf etish uchun huquqiy, axloqiy va texnologik mexanizmlarni birgalikda joriy etish zarur.

Radikalizmning tarqalishi murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar bilan bog'liq. Bu omillar insonlar hayotida mavjud bo'lgan bo'shliqlar va muammolardan foydalanib, radikal g'oyalarni tez va samarali tarqatishga imkon beradi. Quyida radikalizmning tarqalishiga sabab bo'lувchi asosiy omillar kengroq tahlil qilinadi.

- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar bo'lib bunda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar radikalizmning paydo bo'lishi va tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

- Psixologik va emotsiyonal omillar bo'lib bunda radikalizmning tarqalishida shaxsning ichki emotsiyonal holati va psixologik omillari ham muhim o'rinn tutadi.

- Madaniy va mafkuraviy omillar bo'lib bunda jamiyatning madaniy va mafkuraviy zaifliklari ham radikalizmni kuchaytiruvchi omillardan biridir.

- Texnologik omillar bo'lib bunda ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar radikalizm tarqalishining yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda.

- Siyosiy va geosiyosiy omillar bo'lib bunda siyosiy beqarorlik va xalqaro nizolar ham radikalizm tarqalishiga sabab bo'ladi.

- Ta'lism va axborot madaniyati yetishmasligi bo'lib bunda ta'lism tizimi va axborot savodxonligi darajasi ham radikalizm tarqalishiga ta'sir qiladi. Radikalizmga qarshi kurash nafaqat amaliy choralar, balki chuqur falsafiy, madaniy, va mafkuraviy asoslarni talab qiladi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, radikalizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari shaxsning ma'naviy

<sup>119</sup> Sunstein, C. "Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media". Princeton University Press. (2017).

<sup>120</sup> Abdurahmonov, R. "O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va xavsizlik masalalari". "Ijtimoiy fanlar jurnalii", №3, 45-56-betlar. (2020).

<sup>121</sup> Mansour, A. "The Spread of Radical Ideas in Social Media: A Global Perspective". Oxford Press. (2021).

rivojlanishi, jamiyatning ijtimoiy birdamligi va davlatning mafkuraviy siyosatini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda “ekstremizm”, “terrorizm”, “mutaassiblik”, “oqimlar” kabi tushunchalar keng qo‘llanilyapti. “Radikalizm” kishi so‘z va amallarida mo‘tadillikdan og‘ib, haqiqatdan uzoq bo‘lgan “nodir” fikrlar ortidan ergashish bo‘lib, dinda g‘uluvga ketishning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Din niqobi ostida yoshlarni zo‘ravonlikka va oilaviy qadriyatlarni yo‘qotishga undash yo‘li bilan jamiyatda radikal qarashlarni tarqatish avj olmoqda, ushbu tahdidlarning oldini olish va unga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozimdir.

Bu illat din, millat yoki irq tanlamaydi, balki u Yer yuzining istalgan nuqtasida, istalgan millatda topiladi. Radikalizm jamiyatning o‘ziga ham, uning a‘zolariga ham juda katta xavf tug‘diradi, bu maslak kishini jamiyatga qo‘sila olmaydigan shaxsga aylantiradi, odamlar u bilan ziddiyatga bormaslik uchun doimo o‘zlarini olib qochadilar. Radikalizm ijtimoiy hayotni izdan chiqaradi, sivilizatsiyalarni xarob qiladi, qon to‘kilishiga sabab bo‘ladi<sup>122</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki radikalizmga qarshi kurash choralarining ijtimoiy falsafiy asoslari shaxs va jamiyatni har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda ta’lim, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash,adolat va tenglikni ta’minalash, texnologiyalardan oqilona foydalanish va jamiyatning ijtimoiy birdamligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Radikalizmga qarshi kurashning muvaffaqiyati shaxs va jamiyatning o‘zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli, davlat va jamiyat o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat olib borishi zarur. Radikalizmning tarqalishi ko‘p omillarning birgalikdagi ta’sirida yuzaga keladi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, psixologik va madaniy zaifliklar, texnologik va siyosiy sharoitlar radikal g‘oyalari uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu omillarni bartaraf etish uchun davlat va jamiyat birgalikda harakat qilishi, shuningdek, ta’lim va axborot madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shunday qilib, radikalizmga qarshi kurash choralari ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash uchun chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy asoslarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mansour, A. “The Spread of Radical Ideas in Social Media: A Global Perspective”. Oxford Press. (2021).
2. Sunstein, C. “Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media”. Princeton University Press. (2017).
3. Abdurahmonov, R. "O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va xavfsizlik masalalari". “Ijtimoiy fanlar jurnali”, №3, 45-56-betlar. (2020).
4. Bukhari, M. “Social Media and Youth Radicalization”. Routledge. (2019).
- 5.<https://muslim.uz/uz/e/post/39654-yoshlarni-radikal-toifalardan-asrash-zarur?page=5&per-page=1>

## O‘ZBEK MILLIY AN’ANAVIY QO‘L SANATLARIDA MA’NAVIY QADRYATLARIMIZNI AKS ETISHI

Ergashev Maftunquli,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, milliy va ma’naviy qadryatlarimizning rivojlanishida, bardavomligida an‘anaviy san‘atlarning roli va ahamiyati, qadryatlarni kelajak avlodga uzatishda qanchalik qimmatga ega ekanligi, ularning roli haqida so‘z yuritilishi bilan birga globallashgan zamonda turli ma’naviy xurujlar paytida xalqning ayniqsa, yoshlarning ongida ma’naviy, milliy ruhni saqlab qolishda moddiy madaniy qadryatlarining o‘rnini haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:**ma’naviyat ,islomiy qadryat, tarixiy meros, an‘anaviy san‘at, tarixiy meros, san‘at.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi madaniy va ma’naviy sohalarda ham dolzarb islohotlar olib borilayotgani hech kimga sir emas. Globallashgan zamonaqiy dunyoda bir millatning, bir xalqning yoki mamlakatning o‘zligini, milliy qadryatlarini, ma’naviy barkamol-ligini saqlab qolish va uni davom ettirishi juda ahamiyatli hodisa ekanligi barchamizga ma’lum.

<sup>122</sup> <https://muslim.uz/uz/e/post/39654-yoshlarni-radikal-toifalardan-asrash-zarur?page=5&per-page=1>

Bunday jarayonda moddiy va ma'naviy qadryatlarimizni asrash, ularni qayta tiklash, yangilash dolzarbdir.

Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruahlaming manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qilishdagi erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik,xaqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, xalollik, burchga sadoqatli singari fazilatlar majmun tushuniladi. O'tmishdagi barcha falsafiy ta'limotlarda qadriyatlama qohiyati va ulaming jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berilib, ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning maxsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma'naviy boyliklar rivojining yakuni, inson kamolotining kelajak uchun ham katta ahamiyat kasb etadigan ijobiy maxsulidir<sup>123</sup>. Ma'naviy qadryatlar xalqning urf odatlari sanati, tarixida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, o'zbek xalqining ma'naviy qadryatlarining moddiy madaniyatimizga aks etishi keng qamrovli va ko'p qirrali ekanligini hisobga olib ,bu yerda o'zbek xalqining an'anaviy qo'l san'atlarida ma'naviy qadryatlarimizni etishi va ularning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalamiz. Ma'lumki , yurtimiz buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bo'lib,turli xalqlarni millatlarni bir nuqtada to'plagan hudud hisoblanadi. Bu yerda nafaqat turli xil mollarni ayriboshlashgan balki, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda ham almashish va yoki o'rganish jarayonlari ham jadal rivojlangan. Keyinchalik, VII-VIII asrlarga kelib ,yurtimizda islam fathi amalga oshirilgach xalqimiz musulmon madaniyati bilan tanishdi. Islomdan oldingi va islomdan keyingi davr madaniyatining uyg'unligida yuksak madaniy merosga ega bo'ldik. Bularning barchasi bizning san'atimizda: me'morchilik, tasviriy san'at, xattotlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalarda aks etgan. Bularning ichida an'anaviy qo'l san'atlari alohida e'tiborga molikdir.

"An'anaviy san'atlar kitoblarda aytigani kabi tor va chegaralangan emas, balki juda ko'p tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Biz ularni yo'li shaklda bayon eta olmasa-da quydagilatni sanashimiz mumkin:yog'ochga ishlov berish, sangtaroshlik, metallga ishlov berish, shidhasozlik,gilamdo'zlik, xattotlik, husni xat,miniatyura va boshqalar.“<sup>124</sup>

Ma'naviy qadryatlarimizni o'zida aks ettirgan san'at turlaridan biri bu metallga ishlov berish bo'lib ,haqli ravishda bu san'at taraqqiyotini ikkiga ajratish mumkin. Birinchi, davr islomgacha bo'lgan davr bo'lib, bu davrga xos xusudiyat shuki , metallarga shu jumladan, madanlarga ishlov berishda siyosiy, e'tiqodiy, ijtimoiy va boshqa omillar hisobga olgan holda turli xil: qushlar,hayvonlar,nabotiy borliqlar bilan bir qatorda hukumdar va ularning yaqinlarining tasvirlari bilan bezatilgan.Bunga dalil o'laroq , miloddan avvalgi VII hamda milodiy III-IX asrlardagi Xorazim davlatiga oid tanga va muhrlarni aytishimiz mumkin. Islom va undan keyingi davrga kelib esa madanlarga ishlov berish tubdan o'zgardi. Endi turli xil tasvirlar o'rniga Qur'on oyatlarini yoki arabiylar harflarni chekish boshlangan. Aynan shu davrlarda „...hukumdarlar ham o'z davlat muhrlariga „Laa ilaha illalloh“ kalimasini yozdirib olganlar“<sup>125</sup>.

An'anaviy san'at turlaridan yana biri bu miniatyura sa'natidir. Detallarga chuqur kirmasan mavzuni yoritishga, jarayonni ifodalashga etiborni qaratgan bu san'at turi islomdagi tasvir bilan bog'liq masalalar doirasida faoliyatda bo'lgan. Miniatyura san'ati yurtimiz hududida Amir Temur va temuriylar davrida rivojlandi. Bunda „Hirot maktabi“ asochisi Kamoliddin Behzodning xizmatlarni va qo'shgan hissasini e'tirof etish joiz. Bu davr miniatyurachiligidida dastlab Qur'ondag'i payg'ambarlar qissalari bilan bog'liq bo'lgan tasvirlar yoki tarxiy hodisalar aks ettirilgan bo'lsa, keyinchalik, adabiyotning g'azaliyot va dostonchilik kabi tarmoqlarining rivojlanishi natijasida kitoblarni asar mazmuniga mos ravishda turli xil rasmlar bilan bezash bilan bir qatorda tarixiy shaxislarni tasvirlash ham rivojlanib borgan. Bularga misol o'laroq, Kamoliddin Behzodning Alisher Navoiy, Lutfiy va boshqa mutafakkirlarning asarlariga chizgan rasmlar yoki Mahmud Muzahhibning „Navoiy“ portireti miniatyurasi shular jumlasidandir.

Diqqat qaratishimiz lozim bo'lgan yana bir an'anaviy san'at turi bu mato to'qish san'atidir. Eng avval teri va boshqa narsalani kiyim sifatida foydalangan insonlar zamon va madaniyat rivojlanishi natijasida matolar to'qishni va ularda madaniyatini, qadryatlarini aks ettirishni

<sup>123</sup> T.Alapov „Qadryatlar falsafasi“ Namangan -2023-y.5-bet

<sup>124</sup> Prof.Dr Ahmed Çayci „Geleneksel sanatlarda maneviyet simboller“ Ankara-2014.4-bet

<sup>125</sup> Prof.Dr Ahmed Çayci,,Geleneksel sanatlarda maneviyet simboller“ Ankara-2014.10-bet

boshladilar. Xususan, yurtimiz hududida rivoj topgan mato to‘qish san’ati o‘zining serjiloligi, rangbarangligi, yorqin ranglarning ustivorligi bilan ajralib turadi. Masalan, atas (adras) matosi o‘zining rangbarangligi, bir qancha ranglarning kombinatsiyasidan tashkil etishiga qaramay uyg‘uligi kishi e’tiborini tortishi bilan birga bu o‘zida xalqning ma‘naviy ruhini ham ifodalaydi. Yoki matolarimizda bezak sifatida tabiat unsirlaridan ko‘p foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘k to‘lqinli chiziqlar, yaproqlar, mayda gullar o‘zida xalqning moddiy ma‘naviy taraqqiyoti turmush tarzi hamda kayfiyatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, „modda ma‘no uchundir“. Ya’ni, bir shaxs yoki jamiyatning ma‘naviy ruhi, ma‘naviy kayfiyati moddiyatga tayangan holda zohir bo‘лади. Shuning uchun ham biz moddiy qadryatlarimizni asrashimiz o‘rganishimiz, ularni boyitishimiz shu bilan bir qatorda yosh avlodga buning ahamiyatini singdirmog‘imiz bir daraja muhim bo‘lsa, kelajak avlodga meros qilib qoldirish ikki karra ahamiyatidir. „Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ta’kidlanganidek, jamiyat ma‘naviyatini yanada yuksaltirish - mamlakatimizning rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Milliy qadriyatlarimizni tikiash va mazmunan boyitish jamiyatni ma‘naviy yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishini xayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Prof.Dr Ahmed Çayci „Geleneksel sanatlarda maneviyet simboller“ Ankara-2014.4-5-betlar
2. T.Alapov „Qadryatlar falsafasi“ Namangan-2023-yil. 5-bet
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostososada. - Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
4. Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini
5. shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild - Toshkent: O‘zbekiston,2011
6. Ziyonet.uz
7. Tutuz.com

## **O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARGA PSIXOLOGIK YONDASHUV SHAKLLARI**

**Ergasheva Muhayyo Jo‘rayevna,**

Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya  
va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

**Sunnatova Munisa,**

Xalqaro innovatsion universitet  
Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada o‘smyi yoshdagি bolalar psixologiyasini o‘rganishning turli yondashuvlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, shaxs, yoshlik, tarbiya, ta’lim, psixik jarayon, pedagogik psixologik omil.

Inson shaxsi dunyoga kelib o‘sib rivojlanar ekan uning yetuk barkamol inson bo‘lib yetishishida unga ta’sir etuvchi omillarning o‘rni beqiyos. Biz inson tug‘ilgandan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrga ko‘z tashlar ekanmiz unda har bir yosh bosqichida kechadigan jarayonlar o‘zgachadir. Farzandlarimizni ”Barkamol shaxs, barkamol inson” etib tarbiyalash har zamonda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Darhaqiqat inson bolasi ”inson“ darajasiga yetishi va undan insoniyat va jamiyat talab etayotgan majburiyatlarni bajara olishi, ham ilmiy ham tarbiyaviy jihatdan mukammallikni talab etadi. Shu o‘rinda sharq allomalaridan biri Abu Nasr Farobiy o‘zining ”Fozil odamlar shahri“ asarida farzand tarbiyasiga alohida urg‘u berib, шундай таъкидлайди, ”Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’molga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Shuningdek, ushbu asarda bunday kishilarni oqil deydilar“ kabi jumلالarni uchratishimiz mumkin. Shu o‘rinda dunyoviy ilmlar bilan birgalikda har bir farzand o‘zi tug‘lib voyaga yetayotgan vatani urf- odatlari ,tili,dini va tarixidan boxabar bo‘lishi,unga qo‘yilayatgan talablarni bajarishga zo‘r shijoat bilan kirishmog‘i lozimligi ta’kidlanadi.

Mana shunday milliy tarbiyamizga xos xususiyatlarni hisobga olgani holda ota-onalik har bir yosh bosqichida farzandida sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan holatlardan xabardor bo‘lishi zarur va aksincha psixologik bilimlarni yetarlicha o‘zlashtirilmaganligi oqibatida farzand va ota ona o‘rtasida tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa o‘smir o‘g‘il - qizlarda bu xolatlar ko‘proq kuzatilishiga amin bo‘lamiz. Gohida otalar tarafidan o‘smirlardagi muommolarni zo‘ravonlik bilan yechim topishga harakat sodir bo‘lmoqda.

O‘smirlilik- shunday davrki bu bolaning,bolalaikdan kattalik holatiga o‘tish jarayoni sodir bo‘ladi.O‘smirlarda psixik jarayonlari o‘zgaradi va aqliy faoliyatida ham bu holatlar ya’ni o‘zgarishlar yuzaga keladi. O‘smirlilik davrida shaxsiy qarashlar paydo bo‘lishi sababli, kattalarning, o‘qituvchilarining qayg‘urishlari, nasihatlariga qaramay o‘smirlarda o‘zlarining fikrlarini o‘tkazishga harakat boshlanadi.

Jahon psixologlari olib borgan tadqiqotlar tarbiyasi qiyin o‘smirlarning paydo bo‘lishiga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik psixologik omillar ham sabab bo‘lishi mumkin O‘smirlar harakatlarining izchil va uzlusiz o‘rganish ulardagi chetga o‘g‘ish ko‘rinishlari turlicha bo‘lishini ta’kidlamoqda . Oiladagi nosog‘lom muhit va sharoit ham , ota -ona e’tiboridan chetga qolish , o‘smirda chetga o‘gish xolati yuzaga keladi.

Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, xatti - harakatlarining vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy – tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O‘smirlilik davri taqlidchanligi yaxshi shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi tasirlarga beriluvchi o‘smir o‘g‘il – qizlarga alohida e’tibor berish zarur. Shuningdek, bugungi kunda har bir ota-onalik farzand tarbiyalar ekan quyidagilarga e’tibor berish talab etiladi.

### **O‘smirlar muammozi e’tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari :**

- 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat san’at va adabiyot , ijtimoiy - iqtisodiy shart -sharoitlar o‘zgarayotganligi;
- 2) ommabop axboratning kengligi
- 3) o‘g‘il -qizlarning dunyo voqealiklaridan , tabiat va jamiyat qonuniyatlaridan va tarixdan yetarli darajada xabardorligi
- 4) ularning jismoniy va aqliy kamolati jadallashgani
- 5) oshkoraliq,ijtimoiy hayotga chuqur kirib borgani
- 6) o‘smirlarga mustaqil bilim , ijodiy fikr yuritish ,o‘z-o‘zini boshqarish anglash va nazorat qilish imkoniyati yaratilgani
- 7)Shaxsiy rivojlanish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratilgani

Inson umrining o‘smirlilik bosqichida, asosan ikkita xatarli jihatlar paydo bo‘ladi. Uning bittasi -kattalarga taqlid qilish ,ikkinchisi- o‘smirning oilada va maktabda nazoratdan chetga qo‘lishi . Shu ikki jihat katta yoshdagagi odamlar e’tiboridan tashqari , o‘z oqimida maqsadga muvofiq tarzda kechadigan bo‘lsa , oqibatda tarbiyasi qiyin deb ataluvchi o‘smirlar paydo bo‘lishiga olib keladi

Birinchi jihatdan tahlil qilib ko‘raylik , chunonchi o‘smirlilik bosqichidagi o‘g‘il va qizlarda ilk “ kattalik ” hissi yuzaga keladi . Bu yoshdagagi o‘smir munosabat uslubi o‘zgaradi ,axloq mazmuni ham keskin o‘zgaradi. Kattalarni tashqi qiyofasi , yurish -turishi ,ko‘zga tashlanadigan ayrim tomonlari o‘smir shu davrga tezroq yetish istagini uyg‘otadi

Jumladan modaga qiziqish ,o‘ziga oro berish , o‘zgacha “madaniy” hordiq chiqarish , mulozamatga intilish kabilar. Ular ko‘pincha katta yoshdagagi kishilarga, telivizor va kinolarda ko‘rganlariga taqlid qiladilar. O‘z tasavvuriga nima ommabop deb hisoblasa , xuddi shu narsani namuna tarzida qabul qiladi. O‘smirda o‘z- o‘zini va o‘zgalarni baholash mezoni shu tariqa yuzaga keladi . Shuning uchun unda yangi his-tuyg‘ulari ,orzu-umidlar ,sevgi haqidagi kitoblarni solish tirish ko‘zga tashlanadi.

Endi ikkinchi jihatga diqqat qilsak , bunda eng xatarli tomon o‘smirning beqaror yigitchalar bilan muloqat kirishishidir . Bunday kishilar , uni notog‘ri egri yolga boshlaydi , o‘z shaxsiyatini ko‘zlab yashashga o‘rgatadilar . Bo‘sh vaqtini nazoratsiz o‘tkazgan o‘smir ko‘cha – kuyda bevaqt va behuda yuradigan bo‘lib qo‘ladi .

Tengdoshlari orasida o'smirning xulq-atvoridaagi o'zgarishlar yuzasidan atrofdagilardan berilayotgan bahoga qarab , agar o'smirda o'z xatti- harakatlariga nisbatan yetarli baho ololmasa o'smirda alamzadalik paydo bo'ladi .Doimiy e'tibor va xulq- atvorni boshqarishga o'rgatish orqali o'smirning tarbiyalanishi o'smir xulq-atvoridaagi o'zgarishlarni anglashiga yordam beradi. Zo'ra vonlik o'smir illatlariga qaratilgan bo'lsada buni o'smir shaxsiyatga qaratilgan xolda deb qabul qiladi. Shu sabali ham o'smirlar o'z shaxsiyatidagi illatlarni atrofga namoyish qilishga harakat orqali ko'rsatib qo'yishga urinadi.Doimiy bosim va oiladagi o'smirga nisbatan tanqidiy qarash, o'smir chiqaradigan qarorlarga ta'sir o'tkazib,ba'zida bu qarorlar oqibatida o'smir hayotiga xavf solishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish ota onadan e'tibor va quntni talab etadi. O'smir fikrlari inobatga olinib, uning bevosita amaliyotga kirishishi uning xulq – atvorida boshqa ruvchanlik, ma'suliyat hissi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Rag'bat va tanqidning teng olib borilishi o'smir o'zini anglashi,xatti- harakatlarini nazorat qilishiga sabab bo'ladi.

## **MA'RIFAT VA JAMIYAT KATEGORIYALARINI O'RGANISHNING IJTMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich,**

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma'naviyat asoslari

kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ma'rifat va jamiyat tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati o'rganiladi. Ma'rifat, insonning bilim va ong darajasini oshiruvchi omil sifatida jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif jamiyatda ma'rifatning o'rmini yoritib, uning insoniy qadriyatlar va madaniyatni shakllantirishdagi roli haqida chuqur tahlil beradi. Ma'rifat va jamiyatning bir-biriga ta'siri orqali ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillarini ochib beradi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda ma'rifatli inson va barkamol jamiyatning shakllanishi muam molari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, jamiyat, ijtimoiy-falsafiy tahlil, bilim, ong, qadriyatlar, madaniyat, taraqqiyot, insoniyat

O'zbekistonning global ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonga integratsiyalashuvi mamlakat ta'lim tizimini konseptual ravishda modernizatsiyalashni taqozo etadi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimini yanada isloh qilishning tamoyillari, yo'nalishlari va dasturlashtiriladigan parametrlari milliy iqtisodiyotning davom etayotgan bozor transformatsiyasi umumiy vektoriga mos kelishi strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Agar mehnatning yuqori darajada intellektuallashuvi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning innovatsion xususiyati, mehnat resurslariga bozor tomonidan qo'yiladigan talablar, shuningdek, umuman milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish zarurati hisobga olinadigan bo'lsa, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalgalashirishni kechiktirib bo'lmashining ahamiyati beqiyos darajada ortadi.

Aynan shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev hukumatning bosh vazifasini belgilashda alohida ta'kidlaganidek: "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur"<sup>126</sup>. Bizning fikrimizcha bu juda to'g'ri. Jadal islohotlar, ma'rifat va innovatsiyalar O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. Yuqori darajadagi ta'lim va malakaga ega bo'lgan tashabbuskor islohotchilarning yangi avlodini tarbiyalash bu maqsadga erishish yo'lidagi muhim qadamdir. Strategik fikrlash va o'zgarishga tayyorlik zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan birgalikda mamlakatning barqaror va innovatsion rivojlanishiga yordam beradi.

<sup>126</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020. <https://president.uz/ru/lists/view/5774>

Xo'sh, bugungi mavzumizning asosi "Ma'rifat va jamiyat kategoriyalarini o'rganishning ijtmoiy-falsafiy tahlili" deb nomlangan ekan, jamiyat nima? ma'rifat nima? u qanday tarixiy davrlarni boshidan o'tkazganligi borasida to'xtalib o'tamiz. Birinchi navbatda bilishimiz lozim bo'lган jihat ma'rifat va jamiyat tushunchasi shakllanishida qaysi falsafiy oqimlar ahamiyatli bo'lган?

Ma'rifat va jamiyat tushunchasi shakllanishida bir qancha falsafiy oqimlar muhim rol o'ynagan. Ularning har biri o'ziga xos g'oyalar va tamoyillarni ilgari surgan bo'lib, bu g'oyalar jamiyatning taraqqiyoti va insonning o'ziga bo'lган hurmatining oshishiga yo'naltirilgan edi. Shu sababdan biz birinchi navbatda "jamiyat" nima ekanligi, uning tarixiy evolyutsiyasiga to'xtalib o'tamiz.

Jamiyat masalasi juda qadim zamonlardan olimlarni qiziqtirib kelganva bu haqda juda ko'p fikrlar bildirilgan. Ularning barchasini tarixiy jihatdan o'rganib chiqish tadqiqotimizning vazifasiga kirganligi sababli tarixiy-nazariy fikrlarni falsafiy tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Falsafa ilmiga oid adabiyotlarda jamiyat – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, geografik, ma'naviy kategoriya bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi.

- Antik davr falsafasi: Sokrat, Platon va Aristotel kabi faylasuflar insonning aql-idrokini, bilim va ma'naviyatni yuksaltirishni ta'kidlashgan. Ularning g'oyalari insonni o'zining ichki dunyosi va tashqi dunyo haqida chuqur o'ylashga undagan, bu esa jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga turtki bo'lган.

- Uyg'onish davri falsafasi: Leonardo da Vinci, Mikelanjel, Rafael kabi san'atkorlar va faylasuflar o'rta asrlarning dogmatik qarashlaridan voz kechib, insonni va uning imkoniyatlarini ulug'lashgan. Ular ilmiy va badiiy ijodni rag'batlantirish orqali jamiyatni ma'rifatga intilishga undaganlar.

- Ma'rifat davri falsafasi: Jan-Jak Russo, Volter, Monteskye kabi faylasuflar inson huquqlari, erkinlik va tenglik g'oyalarni targ'ib qilishgan. Ular jamiyatni aqdan, bilim va tanqiddan foydalishga undaganlar, bu esa jamiyatning siyosiy va ijtimoiy tuzumini o'zgartirishga olib kelgan.

- Neomarksizm: Antonio Gramski, Herbert Markuz kabi faylasuflar ma'rifatli jamiyatning shakllanishida madaniy va ijtimoiy omillarni muhim deb hisoblashgan. Ular jamiyatdagи hukmon g'oyalarni tanqid qilib, insonning o'ziga bo'lган hurmatini va ijtimoiy adolatni ta'minlashga chaqirishgan.

Ushbu falsafiy oqimlarning g'oyalari ma'rifatli jamiyat tushunchasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ular insonning aql-idrokini, bilim va ma'naviyatni yuksaltirishga, jamiyatni taraqqiy ettirishga va insonning o'ziga bo'lган hurmatini oshirishga undaganlar.

"Jamiyat" so'zi arabcha "جَمِيعَةٌ" (jam'iyya) so'zidan olingan bo'lib, "birlashma", "guruh", "jamoa" ma'nolarini anglatadi. Bu so'z turli tillarga, shu jumladan o'zbek tiliga ham kirib, "jamiyat" ma'nosini oldi.

Jamiyat - bu o'zaro bog'liq bo'lган va o'zaro ta'sir qiluvchi odamlarning guruhi, ular umumiy qadriyatlar, qoidalar, an'analar va madaniyatni baham ko'radilar. Ular birgalikda yashash, ishslash va o'zaro ta'sir qilish uchun tashkil topganlar.

Jamiyatning paydo bo'lishining aniq vaqtini aniqlash qiyin, chunki u asta-sekin va bosqichma-bosqich rivojlandi. Biroq, tarixchilar odamlarning birlashishini va jamiyatlarning shakllanishini quyidagi davrlarga bo'lishadi:

Ovchi-yig'uvchilar davri: Bunda odamlar kichik guruhlarda yashaganlar va oziq-ovqatni ovlash va yig'ish bilan shug'ullanishgan. Bu davrda jamiyatlar juda kichik va oddiy edi.

Dehqonchilik davri: Odamlar o'simliklarni etishtirishni va hayvonlarni boqishni o'rganganlarida, ular bir joyda yashashni boshlaganlar va jamiyatlar kattalashgan. Dehqonchilik jamiyatlarning rivojlanishiga va murakkablashishiga olib keldi.

Shahar davri: Shaharlarning paydo bo'lishi bilan jamiyatlar yanada murakkablashdi va o'zaro bog'liqlik kuchaydi. Shaharlarda turli xil kasb-hunarlar, madaniyatlar va qadriyatlar paydo bo'ldi.

Millatlar: Umumiy til, madaniyat va tarixni baham ko'radigan odamlarning katta guruhlari.

Jamiyat doimo o'zgarib turadi va rivojlanadi. Yangi texnologiyalar, globalizatsiya va boshqa omillar jamiyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Biroq, jamiyatning asosiy maqsadi - odamlarning birgalikda yashashi va o'zaro ta'sir qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdir.

Xususan, yunon faylasufi Platon jamiyat tushunchasiga o'zining "Davlat" asarida "Adolat-bu jamiyat birligini saqlaydigan narsa"<sup>127</sup> degan ta'rifni bergan. Fikrimizcha, Platon keltirgan fikrlari juda to'g'ri va chuqur ma'noga ega. Adolat - bu jamiyat birligini saqlaydigan muhim omil, chunki u jamiyatda ishonch, hurmat, tenglik, barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Adolatlil jamiyatda odamlar bir-birlariga ishonadi va hurmat qiladi. Chunki ular qonunlar va qoidalar hamma uchun teng ravishda qo'llanilishiga va hech kimning huquqlari buzilmasligiga ishonishadi. Bu esa jamiyatda birlik va tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Yana bir yunon faylasufi Aristotel "Siyosat" asarida "Inson o'zining potensial imkoniyatlarini faqat jamiyat doirasida amalga oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi"<sup>128</sup>. Bizning fikrimizga ko'ra yuqorida bildirilgan gap juda to'g'ri va chuqur ma'noga ega. Inson o'zining potensial imkoniyatlarini faqat jamiyat doirasida amalga oshirishi mumkin, chunki: Inson o'zining potensial imkoniyatlarini amalga oshirish uchun boshqa odamlar bilan hamkorlik qilishi va ularning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj. Jamiyatda oila, do'stlar, hamkasblar va boshqa ijtimoiy guruhlar insonning rivojlanishiga yordam beradi, uni rag'batlantiradi va uning qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Jamiyat insonlarga turli xil imkoniyatlar va resurslarni taqdim etadi, bu esa ularning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, jamiyat ta'lim, sog'liqni saqlash, ish joylari va boshqa resurslarni taqdim etadi, bu esa insonlarning o'zlarini rivojlantirish va o'zlarining maqsadlariga erishishga yordam beradi. Shunday qilib, inson o'zining potensial imkoniyatlarini faqat jamiyat doirasida amalga oshirishi mumkin. Jamiyat - bu bilim, tajriba, qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar, o'zgarish va ma'naviy qadriyatlar manbai bo'lib, bu esa insonlarning o'zlarini rivojlantirish va o'zlarining potentsial imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Al-Farobiy jamiyat haqida "Fozil odamlar shahri" asarida "Mukammal jamiyat — bu fazilatga yo'naltirilgan jamiyat"<sup>129</sup> deb tarif bergan. Bizning fikrimizcha fazilatga yo'naltirilgan jamiyat - bu odamlarning axloqiy qadriyatlariga, fazilatlariga va ma'naviy boyligiga asoslangan jamiyatdir. Bunday jamiyatda odamlar bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi,adolat va tenglik qadriyatlariga amal qiladi, xayrixohlik va mehribonlikni ustuvor deb biladi. Mukammal jamiyat - bu odamlarning fazilatlariga asoslangan jamiyatdir. Bunday jamiyatda odamlar bir-birlariga yaxshilik qilishga, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga va birgalikda yaxshi hayot kechirishga intiladirlar. Fazilatlarga asoslangan jamiyatdaadolatsizlik, zo'ravonlik, yolg'onchilik va boshqa salbiy hodisalar yo'q.

Abu Rayhon Al-Beruniy jamiyat haqida "Hindiston" asarida "Jamiyat madaniyatlarning o'zaro ta'siri orqali rivojlanadi"<sup>130</sup> deb fikr bildirgan. Bu asarda Al-Beruniy madaniy xilma-xillikni va uning jamiyat rivojiga ta'sirini o'rganadi.

Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) jamiyat haqida "Kitob ash-shifo" asarida "Ta'lim jamiyat taraq-qiyotida muhim rol o'ynaydi"<sup>131</sup> degan. Ibn Sino ilm-fan va ta'limning jamiyat uchun ahamiyatini ko'rib chiqadi.

Ahmad Yasaviy jamiyat haqida "Devoni hikmat" asarida "Insonning ma'naviy yaxshilanishi jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi" deyilgan. Yasavi inson hayotining ma'naviy jihatlarini va ularning ijtimoiy tuzilmalarga ta'sirini o'rganadi. Bizning fikrimizcha ma'naviy yaxshilanish - bu insonning ichki dunyosining rivojlanishi, axloqiy qadriyatlarining yuksalishi, ma'naviy boyligining oshishi va ruhiy holatining yaxshilanishi. Bu insonning o'ziga va atrofidagilarga bo'lgan munosabatini, hayotga bo'lgan qarashlarini va xatti-harakatlarini o'zgartiradi. Insonning ma'naviy yaxshilanishi jamiyat farovonligiga katta hissa qo'shadi. Ma'naviy jihatdan rivojlangan odamlar jamiyatdaadolat, tenglik, hamkorlik, birdamlik, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va o'zlarini va boshqalarni baxtli va farovon his qilishga hissa qo'shadi.

Ingliz olimi Tomas Mor o'zining "Utopiya" asarida yozishicha "Utopiya orolida xususiy mulk yo'q va jamoat mulki hukmronlik qiladi"<sup>132</sup>. "Utopiya" da Mor barcha odamlar teng va uyg'unlikda

<sup>127</sup> Платон. "Государство". Перевод на русский язык: В. Н. Карпов. Москва: Эксмо, 2007. 19 с.

<sup>128</sup> Аристотель. "Политика". Перевод на русский язык: В. П. Зубов. Москва: Искусство, 1983. 84 с.

<sup>129</sup> Fozil odamlar shahri. – Т.: Xalq merosi, 1993. – В. 159

<sup>130</sup> Abu Rayhon Beruniy. "Hindiston". Tanlangan asarlar. I jild O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyotida. 2015 yili.

22 6

<sup>131</sup> Ибн Сина, "Книга исцеления", Издательство "Наука", 1985. 36 с.

yashaydigan ideal jamiyatni tasvirlaydi. Albatta Tomas Mor aytgan gap juda chiroyli va maqsadli! Barcha odamlar teng va uyg'unlikda yashaydigan ideal jamiyat haqida o'ylash juda yoqimli va ilhomlantiruvchi. Bunday jamiyatda har bir insонning qadr-qimmati, huquqlari va imkoniyatlari teng bo'ladi. Irqi, dini, jinsi, ijtimoiy holati, boyligi yoki boshqa farqlarga qaramasdan, hamma odamlar bir xil hurmat va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Qonunlar va qoidalar hamma uchun teng ravishda qo'llaniladi va hech kimning huquqlari buzilmaydi. Adolatli jamiyatda har bir inson o'zining xatti-harakatlari uchun javobgar bo'ladi va hech kimning huquqlari boshqa odamlarning manfaatlari uchun qurban qilinmaydi. Albatta, bunday ideal jamiyatni yaratish juda qiyin va uzoq muddatli jarayon. Biroq, bizning har birimiz o'z harakatlarimiz bilan bunday jamiyatga yaqinlashishga hissa qo'shishimiz mumkin. Hurmat, tushunish, hamkorlik va adolatni targ'ib qilish, bir-birimizga yordam berish va jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shish bizfamizdir.

Yana bir qancha sharq olim jamiyatga ta'rif bergan. Xususan, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida "Fazilat va adolat gullab-yashnayotgan jamiyatning asosidir"<sup>133</sup>, Abul-Hasan Ali Al-Masudi "Muruj az-zahab va maadin al-Javohir" asarida "o'tmishni bilish jamiyatning hozirgi va kelajagini tushunish uchun zarurdir"<sup>134</sup>, Umar Xayyom "Rubayat" asarida "hayot va o'lim haqidagi mulohazalar jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi"<sup>135</sup>, Nizomiy Ganjaviy "Hamsa" asarida "Adolat va fazilat jamiyatning asosiy tamoyillaridir"<sup>136</sup>, Abu Muhammad Al-G'azolliy "Ihyoi ulum ad-din"<sup>137</sup> asarida "Diniy ta'lif jamiyatning uyg'un rivojlanishiga hissa qo'shadi"

Tomas Xobbs o'zining "Leviafan" asarida "odam odamga bo'ri"<sup>138</sup> deb ta'rif beradi. Xobbsning ta'kidlashicha, kuchli davlat bo'lmasa, jamiyat "hammaga qarshi urush" holatiga tushib qoladi. Tomas Xobbs aytgan gapda chuqur haqiqat bor. Haqiqatan ham, kuchli davlat bo'lmasa, jamiyat "hammaga qarshi urush" holatiga tushib qolishi mumkin. Bu fikrni quyidagi jihatlardan sharhlab berish mumkin: kuchli davlat jamiyatda tartib, xavfsizlik, barqarorlik, adolat va tenglikni ta'minlash uchun zarurdir. Agar davlat zaif bo'lsa, jamiyatda "hammaga qarshi urush" holati yuzaga kelishi mumkin. Biroq, kuchli davlatning o'zi ham jamiyatga xizmat qilishi va odamlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi kerak. Davlatning vazifasi - jamiyatni rivojlantirish va barcha a'zolarining farovonligini ta'minlashdir.

Xulosa qilib aytganda ma'rifat va jamiyat toifalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ma'rifat zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishining ajralmas elementi hisoblanadi. Bu tanqidiy fikrlash, axloqiy qadriyatlar va fuqarolik javobgarligini shakllantirishga yordam beradi. Ta'lif va jamiyat toifalarining o'zaro bog'liqligi ta'lif dasturlari va jamoat institutlarini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari muhim amaliy ahamiyatga ega va uyg'un va adolatli jamiyatni yaratishga qaratilgan barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ishlatalishi mumkin.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Алишер Навои, "Махбуб ул-кулуб", Издательство "Наука", 1983 44 б
2. Абуль-Хасан Али аль-Масуди, "Мурудж аз-захаб ва маадин аль-джавахир", Издательство "Наука", 1982. 12 ст
3. Омар Хайям, "Рубайят", Издательство "Наука", 1975. 27 ст
4. Низами Гянджеви, "Хамса", Издательство "Наука", 1979. 230 ст
5. Абу Мухаммад аль-Газали, "Воскрешение наук о вере", Издательство "Наука", 1984. 49 ст
6. Томас Гоббс. "Левиафан". Перевод на русский язык: С. Л. Франк. Санкт-Петербург: Издательство "Наука", 2017 98 ст
7. Abu Rayhon Beruniy. "Hindiston". Tanlangan asarlar. I jild O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyotida. 2015 yili. 22 б
8. Ибн Сина, "Книга исцеления", Издательство "Наука", 1985. 36 ст
9. Томас Мор. "Утопия". Перевод на русский язык: Н. Я. Берковский. Ленинград: Гослитиздат, 1937. 56 ст

<sup>132</sup> Томас Мор. "Утопия". Перевод на русский язык: Н. Я. Берковский. Ленинград: Гослитиздат, 1937. 56 ст

<sup>133</sup> Алишер Навои, "Махбуб ул-кулуб", Издательство "Наука", 1983 44 б

<sup>134</sup> Абуль-Хасан Али аль-Масуди, "Мурудж аз-захаб ва маадин аль-джавахир", Издательство "Наука", 1982. 12 ст

<sup>135</sup> Омар Хайям, "Рубайят", Издательство "Наука", 1975. 27 ст

<sup>136</sup> Низами Гянджеви, "Хамса", Издательство "Наука", 1979. 230 ст

<sup>137</sup> Абу Мухаммад аль-Газали, "Воскрешение наук о вере", Издательство "Наука", 1984. 49 ст

<sup>138</sup> Томас Гоббс. "Левиафан". Перевод на русский язык: С. Л. Франк. Санкт-Петербург: Издательство "Наука", 2017 98 ст

## MEDIA TA'LIM KATEGORIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Ismoilov Najmiddin Boysoatovich,**

Termiz davlat Pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

“Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”

kafedrasи o‘qituvchisi

**Xudoyqulov Sunnat Ismatillo o‘g‘li,**

Termiz davlat Pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada media ta’lim kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili va uning metodologik asoslari yoritilgan. Media ta’limning jamiyatda axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida tutgan o‘rnii tahlil qilinib, uning tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot va axborot xavfsizligini rivojlantirishdagi roli ko‘rib chiqilgan. Metodologik tamoyillar sifatida tanqidiy tahlil, interaktiv yondashuv va integrativ o‘qitish usullari keltirilgan. Shuningdek, media ta’limning axloqiy va ijtimoiy masalalari, jumladan, axborot manipulyatsiyasi va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi muammolari ham muhokama qilingan. Maqola media ta’limni zamonaviy jamiyatning strategik zarurati sifatida talqin etadi.

**Tayanch so‘zlar:** Media ta’lim, Ijtimoiy-falsafiy tahlil, Tanqidiy fikrlash, Axborot texnologiyalari, Kompilyatsiya va manipulyatsiya, Metodologik asoslar, Integrativ yondashuv, Interaktiv usullar, Axborot xavfsizligi, Madaniyatlararo muloqot, Axborot savodxonligi, Digital kommunikatsiya, Axborot jamiyati, Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, Axborot etikasi.

“Mediata’lim” so‘zi MDH davlatlari hududiga o’tgan asrning 80 yillarda kirib keldi. Inglizcha “media education” so‘zini shunchaki so‘zma- so‘z tarjima qilish yaramaydi. U matndagi o‘rniga ko‘ra turli ma’nolarda qo’llanilishi mumkin. Shunga qaramay, medata’limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. A.A. Jurin ularni uch turga bo’lgan.

1. Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o’smirlarga ta’sirini o’rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta’lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan.

2. Bolalar va o’smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati.

3. Ta’limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyonи tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko’nikmasini shakllantiruvchi qismi.

O’zbekiston umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fani bilan mediata’limni integratsiyalash samarali bo’lishi mumkin. O’zbekiston uzlusiz ta’lim tizimida esa mediata’limdan foydalanish samaradorligini oshirishga maktabgacha ta’lim muassasasi — maktab — litsey, kasb-hunar kolleji, shuningdek, oliy o’quv yurtlarida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz qanday natija-larga erishishimiz mumkin.

1. Maktabgacha ta’lim muassasasida:

— Bolaning yoshi va rivojlanishidan kelib chiqib, mediani turlarga ajratishga o’rgatish;

A) Verbal — ko’rish va kuzatish: turli multfilmlar, bolalar uchun dasturlar va ko’rsatuvlarning asl mohiyatini tushuntirish;

B) Noverbal — eshitayotgan axborotlari: ertak, afsona, hikoya va she’rlarining mazmunini sharhlash;

V) Audiovizual — radiodasturlar, ovozli yozib olingan disklardagi ma’lumotlarni bolalarga tushunarli tarzda, real hayot bilan bog’lab sharhlab berish.

— ushbu media turlariga mansub axborotlarni tarbiyaviy ahamiyatini to’laligicha, soddalashtirilgan holda bola onggiga yetkazish, eng muhim bolani real hayot va vizual olamning farqini anglashga o’rgatish zarur.

2. Boshlang’ich va o’rta (5-6) sinflarda:

— media shakllari va vositalarini tanlay olish(masalan, fotografiya, rasmlar, jurnal illustrasiyalarini tanlash va farqlash);

— Vizual matn yoki qisqa syujet rejasini tuzish va aniqlash  
(fotografiya, video, komiks, ertak, kompyuter grafikasi va h.k)

— O'z medialoyihasi taqdimotini tayyorlash va taqdim etish. [8,51]

3. Maktabning yuqori sinflarida:

— surat asosida turli syujetlar yaratish(surat shakli va elementlarini o'zgartirgan holda);

— Mavjud mediashakllardan foydalanish yuzasidan qarorlar qabul qilish (fotografiya, video, matbuot va h.k), o'z qarorlarini muhokama qilish va asoslab berish;

— O'z medialoyihasini bajarish va taqdim etish.

4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda:

— Maxsus matnlar va "xabarlar" jo'natish shakllari va texnologiyalaridan foydalanish asosida tajribalar o'tkazish;

— Mediamatnlar tuzish va rejalashtirishda turli texnikadan foydalanish, natijani aniq va tanqidiy tahlil qilish;

— Maxsus auditoriyaga mo'ljallangan mediamahsulotlarni o'sha auditoriya qanday qabul qilishini oldindan ko'ra olgan holda yarata olish;

— O'z medialoyihasini bajarish va taqdim etish.

### **Media ta'lim tushunchasining ijtimoiy-falsafiy asoslari**

Zamonaviy dunyo media vositalari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon jamiyatni axborot oqimlariga bog'liq qilibgina qolmay, uning axloqiy, madaniy va ijtimoiy tuzilmalarini ham qayta shakllantirdi. Media ta'lim shunday sharoitda insoniyatning muhim zaruratiga aylandi. Media ta'lim – bu faqat texnik ko'nikmalarni rivojlantirish emas, balki axborotni tanqidiy tahlil qilish, media vositalari orqali etkazilayotgan fikrlarni anglash va ulardan mas'uliyatli foydalanishni o'rgatadigan ijtimoiy-falsafiy jarayondir.

#### *Ijtimoiy mohiyat*

Media ta'limning ijtimoiy mohiyati jamiyatdagi barcha qatlamlarning axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan. Har bir inson kundalik hayotida media orqali axborot olishga majbur. Biroq bu jarayonda noto'g'ri yoki buzilgan axborot tarqalishi ehtimoli ham yuqori. Media ta'lim jamiyat a'zolariga quyidagi ko'nikmalarni beradi:

Axborotning haqiqatligini tahlil qilish;

Noto'g'ri axborotning salbiy ta'sirini kamaytirish;

Jamiyatda tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish.

Bugungi kunda axborotning haddan tashqari ko'pligi "axborot charchoqligi" muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonni boshqarish va jamiyat a'zolarini himoya qilish uchun media ta'lim zaruriy mexanizm hisoblanadi.

#### **Falsafiy asoslari**

Media ta'limning falsafiy asoslari inson ongi va axborot vositalari o'rtaidiagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi. Falsafiy yondashuvlar media ta'limni chuqr tushunishga yordam beradi:

*Tanqidiy nazariya:* Ushbu yondashuv media orqali berilayotgan axborotning ijtimoiy va siyosiy ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Media vositalari ko'pincha jamiyatdagi kuchlar o'rtaidiagi tengsizlikni aks ettiradi yoki yanada kuchaytiradi.

*Konstruktivizm:* Axborot va media orqali insonning o'z bilimi va dunyoqarashini shakllantirishi muhimdir. Bu jarayon sub'ektivlikka asoslanadi va har bir inson media xabarini o'ziga xos tarzda qabul qiladi.

*Postmodernizm:* Media orqali haqiqatning turli talqinlari ko'rsatilishi postmodernistik yondashuvning asosiy elementlaridan biridir.

#### **Madaniy va Axloqiy O'rinni**

Media ta'lim shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim vositadir. Axloqiy nuqtai nazardan, media vositalaridan foydalanishda shaxsiy axborotning himoyasi va ma'lumotlarni boshqalarga zarar etkazmasdan ishlatalish tamoyillari muhimdir. Media ta'lim shaxslarni ma'lumotni tanqidiy qabul qilishga va undan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi, bu esa madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda ahamiyatlidir.

Media ta'lif zamnaviy jamiyatning asosiy zaruratlaridan biridir. U insonlarni axborot vositalari bilan ongli muloqot qilishga, axborot manipulyatsiyasidan himoyalanishga va jamiyatda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Falsafiy jihatdan esa media ta'lif insonning media orqali ong va dunyoqarashni shakllantirish jarayonini anglashda asosiy tamoyillarni taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lif maktablarida mediata'lifni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni bugun mustaqil shaxslar uchun turli-tuman mavzudagi gazeta журнallar soni ko'p. Bilimga tashna, oqni qoradan ajrata olmaydigan yoshdag'i bolalar uchun esa, narhi hamyonbop, mazmuni oltinga teng ilmlardan iborat bolalar davriy nashrlari esa sanoqli ekani eng dolzarb muammoning o'zidir. Bolalarni fikrlashga undash faqatgina badiiy adabiyot bilan cheklanmasligi lozim.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning, and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.
2. Jenkins, H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. MIT Press, 2009.
3. McQuail, D. Mass Communication Theory. Sage Publications, 2010.
4. Kress, G. & Van Leeuwen, T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. Routledge, 2006.
5. Qodirov, A. O'zbekistonning Axborotlashgan Jamiyatga O'tish Strategiyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO, 2013.
7. Alavi, H. & Shanin, T. Sotsiologik Metodologiya: Nazariya va Amaliyot. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
8. Чельшева.И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе. -М.: Директ-медиа, 2013. 135-с.
9. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. С. 32.
10. Qosimova N. Toshpo'latova N. O'zbekiston OAV da bolalar mavzusining yoritilishi. O'quv qo'llanma. -T.: 2014. B-36.
11. Бээлгэт К. Ключевые аспекты медиаобразование// доклад на российско-британском семинаре по медиаобразованию. — Москва, 1995 — 51с.

## **YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA'SIRI**

**Nazarov Ravshan Nazarovich,**  
Osiyo texnologiyalar universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlar dunyoqarshining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, jamiyat hayotidagi tutgan o'rni va roli hamda ijtimoiy tarimoqlar ijobiy va salbiy tomonlarining shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri tahliliy asosda o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, axborot olishning ahamiyati, axborotlarni ijtimoy tarimoqlar orqali uzatish borasida shakllangan qarashlar turli jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Ijtimoiy tarmoq, axborot xurujlari, buzg`unchilik, qabih maqsadlar, axloqsizlik, ma'naviyatsizlik va madaniyatsizlik, loqaydlik, axborot urushi, ma'naviy tahdid.

**"Farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o`tgan, yuksak ma'naviyat manbai bo`lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida yemas, balki biz uchun yot bo`lgan g`oyalarni yoshlarimiz ongigi singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman".[1]**

Bugun hayot tez suratlarda shakllananib tobora rivojlanib bormoqda bunda esa ijtimoiy tarmoqlarning o'rni benihoya katta ahamiyatga ega. Ayni paytda yoshlar dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham sezilarli darajada ko`zga tashlanib borayotganligini ko`rishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarimoqlar yoshlar dunyoqarashiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir qilayotganligini ko`rishimiz mumkin. Masalan ijobiy jihatlariga qaraydigan bo`lsak, ijtimoiy tarimoqlar yoshlarni ma'lum bir qobiqqa o`ralib qolimaslikka xizmat qilsa yana bir jihat esa o`z fikrini dunyo-qarashlarini bemalaol bayon qilishga xizmat qiladi.

Bugun dunyoda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan axborot texnologiyalaridan yer yuzidagi deyarli barcha insonlar foydalaniib kelmoqda. Bir tomondan bu yutuqlarning yoshlar dunyo-qarashiga

balki butun insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shib kelayotgani bo'lsa, ikkinchi tomondan insoniyatning milliy ma'naviyatiga va urf-odatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kelinayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki ijtimoiy tarmoqlar axborot xuruj-larining rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qilmoqda. Uning aksariyat qurbanlarini yoshlar tashkil qiladi. Chunki ular bu jarayonlarda eng faol hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ishlar osondek tuyuladi va buning ta'siriga tushib qolayotganlarning aksariyatida turli xil buzg'unchilik, qabih maqsadlar, axloqsizlik, ma'naviyatsizlik va madaniyatsizlik kabi illatlar ko`payib, jamiyatda tartibsizliklar kuchayib, bormoqda. Bundan tashqari terroristik harakatlarini keng targ`ib qilishga ijtimoiy tarmoqlar juda qulay va samarali vosita hisoblanadi. Shunisi juda achinarliki yoshlar umuman loqayd bo`lib bormoqda.

“ Loqaydlik tobora kuchayib, sekin –asta ijtimoiy ahamiyat kasb etishi ham mumkin. Kecha bolasining axloqsizligiga indamagan ota bugun jamiyat a'zolarining jinoyatlariga ham ko`z yumushi, o`g'lining odob – axloqi haqida qayg'urmagan oila boshlig'i bugun ayrim yurtdosh-larining adashgan oqimlar, missionerlar tuzog`iga osongina ilinayotganiga beparvo bo`lishi mumkin”[2].

Bugungi globallashuv jarayonlarida ma'naviy tahdidning xavfli jihatni tobora ortib bormoq-da. Ma'naviy tahdid umuman olganda til, din, millat tanlamaydi u hamisha ma'aviyati qashshoq, dunyoqarashi tor bo`lgan kishilarni o`z domiga tortib keladi. Internet tarmoqlari esa bu boradagi juda qulay, arzon va oson vosita hisoblanadi. Har qaysi millatning milliy ruhini, qadriyatini, urf-odatini va eng muhim milliy ma'naviyatini yo`qotsa, u millatni o`zligidan ayirsra o`sha jamiyatda o`zining g`arazli niyatlarini bemalol amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi. Lekin bunday salbiy jarayonlarga qarshi insonlarning ma'naviy olamini boyitib borish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunda esa oilaning o`rni juda katta I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Hammamizga ayon bo`lishi tabiiyki, oila sog`lom ekan – jamiyat musahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqa-rordir”[3]. Shuning uchun ham milliy ma'naviyatni oilalar rivojlantirib kelgan. Bunday salbiy hodisalarni oldini olish uchun eng avvalo oilalarda milliy ma'naviyatga bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakillantirish kerak bo`ladi. Globallashuv jarayonlarida axborot xurujlarining tobora kengayishi natijasida yoshlar o`rtasida jinoyatchilik darajasining yuqorligicha qolayotgani achinarli hol bo`lib qolmoqda. Bunday holatga sababchi bo`lib qolayotgan omil sifatida, odamlarning aksariyatida eski tafakkur qoliplaridan voz kechmayotganligi bilan bog`liq bo`lgan hodisadir. Mamlakatimizning birinchi prezidenti bu boradagi ishlar haqida ma'lumot berib o`tganlar “O`zining shak-shubhasiz haqliligiga, haqiqatni faqat o`zi bilishiga ishonech hissi so`ngi choralarga – zo`ravonlik harakatlariga moyilligibilan ajralib turadigan diniy ekstemizmning paydo bo`lishiga zamin yaratadi”[4] Bundan ko`rinib turibdiki jamiyatimizdagи barcha insonlarni milliy g`oyaga, milliy ma'naviyatga, milliy qadriyatga va milliy o`zlikni anglashga bo`lgan munosabatlarini, his tuyg`ularini shakillantirish eng ustuvor maqsadlarimizdan biri bo`lishi shart. Hozirgi vaqtida dunyo miqyosida global tahdid tobora kuchayib bormoqda. Buning oqibatida “Ommaviy madaniyat” ning ham rivojlanib borayotganligi achinarli hol bu esa axborotlashgan jamiyatda internet vositalarining o`rni juda katta. Bu bevosita milliy ma'naviyatga juda katta salbiy ta'sir ko`rsatadi. Muxtasar aytganda, hammamizga ayon bo`lishi tabiiyki, oila sog`lom ekan–jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir. Biz oldimizdagи eng oily maqsadimiz barcha ma'naviy tahdidlar va barcha axborot xurujlariga qarshi kurash olib borishimiz uchun bizda mafkuraviy immunitet shakilangan bo`lishi shart.

Ma'lumki bugun axborotga egalik qilish axborotni izlab, topib, yaratib ,tahlil etib, tarqata biladigan odam dunyoga ham egalik qiladi degan qarash haqiqat darajasiga ko`tarilgan . Ammo , aksariyat holatlarda ular ijobiy emas aksincha salbiy maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Axborot izlab topuvchilar , yaratib tarqatuvchilar o`z manfaatlari uchun qabih maqsadlarini amalga oshirib kelishyapti. Bu –dunyoda “Axborot urushi” demakdir. “Axborot urushi” u o`zi nima? U shunday narsaki ijtimoiy tarmoqlarga turli xil o`yinlar orqali insoniyatning ma'naviy olamiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Axborot olamida Fleshmob degan tushuncha tez-tez uchrab turadi. Bu so`zning lug`aviy ma`nosi “lahza “ “olomon” degan ma'noni anglatadi. Bundan ko`rinib turibdiki butun olomon orqali hammani tahlikaga solib qo`yish, olomon orqali turli maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari internet vositalarida turli xil kinolar ishlab charilmoqda bu esa yoshlar ongini va qalbini turli xildagi yod g`oyalar bilan to`ldirish orqali ham milliy ma'naviyatga juda katta ta'sir ko`rsatadi. Afsuski internet tarmoqlari orqali uzatilayotgan va targ`ib qilinayotgan kinolarning ko`pchilligi insonlarning xulqiga, ma'naviyatiga, madaniyatiga va albatta axloqiga ta'sir ko`rsatib kelayotganligi hech kimga sir emas. Buning natijasida yoshlarda xudbinlik kayfiyati shakillanib qolmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlari dunyoqarashiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda shaxslarning dunyoqarashi turlicha va xilma – xil ko`rinishga kelib qolayotganligi bilan ham izohlash mumkin. Bu esa o`z navbatida turli muammolarni keltirib chiqarishga xizmat qilib kelmoqda. Masalan: hamma o`zini aqli deb bilishi; o`zaro hurmat tushunchalarining yo`qolib borishi; o`zini hammadan ustun deb bilishi; hamma o`zini haq deb hisoblashi; kabi salbiy muammolar yuzaga chiqayot-ganligini kuzatish mumkin. Bundan ko`rinadiki, “manmanlik” kabi salbiy jarayon yuzaga kela boshlaydi va shaxs o`zining “men”ini hamma narsadan ustun qo`ya boshlaydi. Bunday jarayonlarda millat g`ururi, sha`ni, qadr-qimmati hattoki millat tili ham hech qanday ahamiyat kasb etmay qoladi. Jamiyatda tilga bo`lgan e'tibor nihoyatda ahamiyatsiz ko`rinishga kelib qoladi. Bu esa o`z navbatida jamiyatning porakanda bo`lishiga asos bo`lib xizmat qiladi va buning natijasida shaxs ma`naviyatida beqarorlik vujudga kelib qoladi.

Hozirgi vaqtida ijtimoiy tarmoqlarning juda ko`p ko`rinishlari paydo bo`lib borayotganligi yoshlari dunyoqarashiga juda katta ta'sir ko`rsatayotganligini ko`rshimiz mumkin. Buning natijasida ma`naviy qullik va dunyoqarashning nihoyatda torayib borishi va bunda inson o`zining butun umri mobaynida, o`z oldiga qo`yan maqsadlariga erishishda oson va hech qanday ma`suliyat hissini bilmaligi bilan izohlash mumkin. Aslida inson o`zini qurshab turgan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, turishi shart. Boshqacha aytganda, o`zining kamol topish jarayonida u doim ham sub'ekt, ham ob'ekt ekanligini his qilib turishi hamda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishi talab etiladi. Bu shaxsning o`z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo`lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev. Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq. Simpoziumlar saroyi. 2016-yil 24-noyabr.
2. Aydarbek Tulapov “Internetga in qurgan o`rgimchaklar” Toshkent-2014
3. Islom Karimov “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “Ma`naviyat” 2008
4. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T: “O`zbekiston” 1997

## MULOQOT SOTSIAL VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IFODASI SIFATIDA

**Qahhorova Sayyora Bahadirovna,**  
Xalqaro innovatsion universitet  
“Psixologiya va jismoniy ma`daniyat  
kafedrasasi o`qituvchisi

**Baxriyev Muhammad,**  
Xalqaro innovatsion universitet  
Psixologiya yo`nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada muloqot va uning shaxslararo munosabatdagi ahamiyati bilan bog'liq fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, shaxs, taraqqiyot, faoliyat, shaxslararo muloqot.

Shaxs-sotsial munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o`zaro ta'sir doirasida bo`lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo`-lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o`xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo`lishi; sub'yekt-sub'yekt tipi (dialogik, sheriklik) yoki sub'yektob'yeqtli (monologik) bo`lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o`zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o`rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo`lishgani sari, ular o`rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgani sari ular o`rtasida umumiylilik, o`xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo`ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo`ladigan bo`lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday

muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhit va undagi munosabatlar ana shunday tig‘iz munosabatlarga kiradi. Faqt bunday tig‘izlik oilaning barcha a’zolari o‘rtasida emas, uning ayrim a’zolari o‘rtasida bo‘lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h.k).

O‘zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko‘zlaydigan asosiy maqsadlari – o‘zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo‘lsa, «jozibasi», betakrorligi shundaki, o‘zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o‘ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo‘lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta’sir bo‘lgan bo‘lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko‘rismay qolgan do‘stingizni ko‘rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so‘radengiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma’qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo‘lgan va siz ikkinchi marta o‘sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o‘tib ketavergan bo‘lardingiz. Ya’ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo‘ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o‘ziga jalg etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimi, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma’naviy jihatdan rag‘batlantiriladilar.

Aslida har bir insonning sotsial tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning o‘zaro bir-birini tushunishlarini ta’minalashdir. Bu o‘zbeklarda samimi salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, xol-ahvol so‘raydi. Shunisi xarakterlik, ta’ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya’ni bu jihat milliy o‘ziga xoslikka ega.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘ziga manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko‘plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya’ni odamni yolg‘izlatib qo‘yishning uning ruhiyatiga ta’siri o‘rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg‘izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o‘zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o‘zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o‘rganishgan.

Lekin baribir har qanday yolg‘izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, qayg‘u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqliki, yolg‘izlikka mahkum bo‘lganlar ma’lum vaqt o‘tgach ovoz chiqarib gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko‘rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo‘lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo‘lar ekan. Masalan, Mishel Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g‘or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim».

Shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyojining to‘la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o‘zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko‘pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o‘tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operasiyalarda odamlar o‘z oldida turgan hamkasbiga qarab ko‘proq, tezroq ishlashga kuch va qo‘srimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim».

Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustakovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta’sir – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olishdir.

Sotsial psixologiyada psixologik ta’sirning asosan uch vositasi farqlanadi. Verbal ta’sir – bu so‘z va nutqimiz orqali ko‘rsatadigan ta’sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so‘zlardir. Ma’lumki, nutq – bu so‘zlashuv, o‘zaro muomala jarayoni bo‘lib, uning vositasi – so‘zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o‘zidagi barcha so‘zlar zahirasidan foydalanib, eng ta’sirchan so‘zlarni topib, sheringiga ta’sir ko‘rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta’sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do‘stimiz bizga biror narsani va’da berayotgan bo‘lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

No verbal ta’sirning ma’nosи «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o‘rtog‘ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko‘rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo‘lishganda, dastavval nima deyish, qanday so‘zlar vositasida ta’sir etishni o‘ylar ekan. Aslida esa, o‘sha so‘zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o‘ynarkan. Insonlar bilan muloqotni samimiy tashkil etish, bu, har qanday mavzu yuzasidan samarali hamkorlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

## **MULK EGALIGI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT: TADBIRKORLIK RIVOJIDAGI AHAMIYATLI OMILLAR**

**Raxmankulov Farxod Raximkulovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma’naviyat asoslari va  
huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada tadbirkorlik faoliyati jarayonida mulk egaligi tomonidan ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya qilishning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mulkdorlarning ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi, ekologik va ma’naviy qadriyatlarni qo’llab-quvvatlashi orqali jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikka erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar.** Mulkchilik, mulk egaligi, tadbirkor, mulkdor, ijtimoiy mas’uliyat, kompaniya, korporativ, jamiyat, davlat

Hozirgi globallashuv davrida tadbirkorlik va mulk egaligi masalalari nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy barqarorlik va milliy qadriyatlarning saqlanishida ham muhim omillardan biri bo‘lib qoldi. Mulk egalari, ayniqsa, tadbirkorlar, o‘z faoliyatlari davomida nafaqat iqtisodiy maqsadlarga, balki ijtimoiy manfaatlarga ham e’tibor qaratishlari kerakligi zamon talabi sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy mas’uliyatning bu jihatni, ya’ni mulkdorlarning jamiyat oldidagi majburiyatlari, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun dolzarb masalaga aylangan.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi — tadbirkorlik rivojlanishida mulk egaligi va ijtimoiy mas’uliyatning ahamiyatini ilmiy asosda tadqiq etish va ushbu mas’uliyatning turli jihatlarini yoritishdir. Mulk egalari va tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyat faoliyatlari nafaqat ularning obro‘sini oshiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikni ta’minalash, milliy qadriyatlarni

rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu mas’uliyat tamoyillari rivojlanayotgan mamlakatlarda biznes sohasidagi ma’naviy qiyofani shakllantirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyati bo‘yicha bir qancha olimlar tадqiqot olib borgan bo‘lib, ular ushbu masalaning nazari va amaliy jihatlarini turli nuqtai nazarlardan tahlil qilishgan.

Masalan Milton Fridman iqtisodiyot va ijtimoiy mas’uliyat masalalarini yoritishda taniqli olim hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, “kompaniyalar va mulkdorlarning asosiy mas’uliyati daromad olish va aksiyadorlarga foyda keltirishdir, ijtimoiy mas’uliyat esa davlat va boshqa ijtimoiy institutlarning vazifasi deb hisoblanadi” [1]. A.Kerrol esa o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy mas’uliyat piramidasini yaratgan. U “korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) konsepsiyasini kengaytirgan. A.Kerrolning modeli iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va xayriya majburiyatlarini qamrab oladi. “Mulkdorlar va tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyati jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy muam-molarni hal qilishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi” [2]. Edvard Friman – U “Steyholderlar nazariysi”ni ishlab chiqqan bo‘lib, “bunda tadbirkorlikda aksiyadorlardan tashqari boshqa manfaatdor tomonlar (mijozlar, xodimlar, mahalliy aholi) manfaatlarini ham e’tiborga olish kerakligini ta’kidlaydi”[3]. Frimanning tadqiqotlari mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyatini kengroq ko‘lamda tushunishga yo‘l ochgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlari ijtimoiy mas’uliyatni kengroq ko‘lamda o‘rganishga yordam beradi va mulkdorlarning jamiyat oldidagi vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshirishga xizmat qiladi.

Mulk tushunchasi, mulk egaligi va ijtimoiy mas’uliyat borasida o‘zbek olimlari ham qator tadqiqot ishlarini olib borishgan. “Mulk – moddiy va ma’naviy ne’matlarning muayyan kishilar egaligida bo‘lishi va ular tomonidan o‘zlashtirilishining tarixan belgilangan usuli; ishlab chiqarish vositalarini va ular yordamida yaratiladigan moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish yuzasidan odamlarning o‘zaro munosabatlari; muayyan shaxsga tegishli bo‘lgan ma’lum narsa” [4], “Mulk – moddiy va ma’naviy ne’matlarning muayyan kishilar egaligida bo‘lishi va ular tomonidan o‘zlashtirilishidir”[5], – deya ta’kidlangan. Tadqiqotchi I.Ubaydullayevning fikricha, mulkchilik tizimi – mulkiy munosabatlar natijasida vujudga kelgan muayyan mulklarning ishini tashkil qilish va amalga oshirish shakllari hamda tartib-qoidalari majmuidir. Bu tizim tarkibiy tuzilishiga ko‘ra bir tarkibli (monostrukturali) va ko‘p tarkibli (polistrukturali) tizimlarga bo‘linadi [6].

“Ijtimoiy mas’uliyat – shaxsdan boshlab, davlat va jamiyat qurilishi va uni boshqaruviga tomon tizim sifatida iyerarxik tarzda tavsiflanadi” [7]. Mazkur ta’rif tor doirada yozilgan bo‘lib, shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy mas’uliyat davlat va jamiyatni boshqarishga qaratilgan tizim sifatida tavsiflanishi mumkin. U shaxsdan boshlanadi va jamiyatning barcha darajalariga, shu jumladan, shaxslar, tashkilotlar va hukumatga tarqaladi. Ushbu tizim doirasida har kim o‘z mas’uliyati va jamiyatdagi rollaridan xabardor bo‘lishi, axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya qilishi, boshqa odamlarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Tashkilotlar va korxonalar o‘z harakatlari uchun jamiyat va atrof-muhitga ta’siri uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari shart. Davlat o‘z fuqarolarining ijtimoiy farovonligini, adolat bilan ularning huquqlarini himoya qilishni ta’minlashga majburdir. Umuman olganda, ijtimoiy javobgarlik adolat va barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq jamiyatni konstruktiv boshqarish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tadqiqotchi Z.Ashurovning fikriga ko‘ra “Kompaniyalarda ijtimoiy mas’uliyat uch darajada amalga oshirilishi mumkin: 1) Asosiy daraja quyidagi majburiyatlarni bajarishni taqozo qiladi: davlat soliqlarini hamda xodimlar ish haqlarini o‘z vaqtida to‘lab borish, imkoniyat darajasida yangi ish o‘rinlarini yaratish yoki shtatni kengaytirish; 2) Ijtimoiy mas’uliyatning ikkinchi darajasi ishlovchilarga nafaqat mehnat sharoitlari, balki turmush sharoitlari bilan ta’minlab berish, ishlovchilarning malaka darajasini oshirish, ularni profilaktik davolanishga yuborish, uy-joy qurish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va h.k.ni taqozo etadi; 3) Uchinchi daraja ijtimoiy mas’uliyatning oliy darajasi bo‘lib, xayriya faoliyati bilan shug‘ullanishni taqozo etadi” [8]. Yuqorida kelitrilgan fikrlarga qo‘silgan holda biz bu darajalarning barchasi mulkdorlar tashkil qilgan korxonalarda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, xodimlarning huquqlari to‘liq ta’minlanadi deb o‘ylaymiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki, tadqiqotda mulk egalari va tadbirkorlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish orqali jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlarini yoritib berildi. Mulk egalari tomonidan ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya qilish nafaqat ularning obro’si va iqtisodiy barqarorligini oshiradi, balki mahalliy hamjamiyatlarning muammolarini hal qilishga hissa qo‘sadi, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, ijtimoiy mas’uliyatning asosiy yo‘nalishlari sifatida ekologik barqarorlikka e’tibor, xayriya ishlari, ishchi-xodimlarning manfaatlarini himoya qilish, va mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash tadbirkorlik rivoji va jamiyat farovonligi uchun muhim omillar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mulkdorlar va tadbirkorlar ijtimoiy mas’uliyatlarini chuqur anglagan holda faoliyat yuritsalar, bu iqtisodiyotni mustahkamlash bilan birga jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda ham sezilarli natijalarga olib keladi.

Alohidha aytish zarurki, mulkdorlarning ijtimoiy mas’uliyatiga oid aniq va samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki tadbirkorlar va jamiyat o‘rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Milton Friedman “The Social Responsibility of Business Is to Increase Its Profits” The New York Times Magazine. 1970.
2. Archie B. Carroll “The Pyramid of Corporate Social Responsibility: Toward the Moral Management of Organizational Stakeholders” Business Horizons 1991 p 39-48.
3. Edward R. Freeman “Strategic Management: A Stakeholder Approach” Pitman Publishing 1984.
4. Saifnazarov I. Fanning falsafiy masalalari / I. Saifnazarov, B. Qosimov, G. Nikitchenko, A. Muxtorov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. –154-bet
- 5.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2003. –119-bet.
- 6.Ubaydullayev.I. “O‘zbekistonda mulkdorlar geoqtisodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari”.Falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertasiysi. – Toshkent: 2018. – 21 b.
7. Ergashev.I. “Shaxs ma’naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligi” Falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertasiysi. – Toshkent: 2011. – 62- b.
8. Ashurov Z. “Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida biznesning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish masalalari”. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti: ustuvor yo‘nalishlar va kelajak istiqbollari” mavzusidagi Ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami. Toshkent: IFMR, 2022. –95-bet.

## **MULKDORLAR QATLAMINI SHAKLLANISHINING TARIXIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

**Raxmankulov Farxod Raximkulovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa, ma’naviyat asoslari va  
huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mulkdorlar qatlaming shakllanish jarayonlari va unga ta’sir qiluvchi tarixiy hamda huquqiy asoslar keng yoritilgan. Mulkdorlik tushunchasi qadimgi davrlardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralgan bo‘lib, maqolada ushbu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishi va mulkka egalik qilish shakllarining o‘zgarishi tahlil qilinadi. Ushbu maqola mulkdorlar qatlaming shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga bag‘ishlangan bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda ularning o‘rnini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mulk, mulkdor, qonun, iqtisodiy-ijtimoiy, davlat, mulkdorlar qatlami.

Inson yer yuzida paydo bo‘lganidan toki hozirgi kungacha mulkdorlik hissi bilan yashab, mulk egasi bo‘lib, boy-badavlat bo‘lishga intilib kelgan. Bu jabha bilan bog‘liq masala va muammolar, ularning yechimlariga doir vazifalar olimlar va mutaxassislarining doimiy e’tiborida bo‘lgan. Xorijlik va yurtimiz olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, G‘arbda antik davr mutafakkirlari, ayniqsa, Platonning “Davlat”, Aristotelning “Siyosat” kabi asarlari, Aristotelning “egalik”, “foydalanish”, “mahrum etish” tushunchalarini tahlil

qilish mulk mohiyatini olib berishga yordam beradi. Aristotel birinchilardan bo‘lib mulk paydo bo‘lishining bosqichlarini, mulkning davlat tuzumida tutgan o‘rnini va shaxsning ma’naviy kamolotini belgilashda ham ilk qadamlarni qo‘yan. Mulkdorlar qatlami haqida T.Gobbs, J.Lokk, J. J. Russo, T.Jefferson kabi ma’rifatparvarlar tomonidan falasafiy qarashlarida o‘rganilgan. Sharqda ham bu masalaga nisbatan allomalarimizning o‘ziga xos qarashlari shakllangan. Ayniqsa, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya”, Alisher Navoiyning “Vaqfiya”, Ahmad Donishning “Novodir ul-voqiya” kabi asarlarida mulkchilikning mohiyati, u bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlar bilan bog‘liq masalalarga alohida ahamiyat qaratilgan.

Hozirgi vaqtida mulkdorlar qatlaming iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy jihatlari hamda milliy o‘zlikni anglash tushunchasining ontologik, ijtimoiy falsafiy, psixologik axloqiy muammolarini o‘rganuvchi olimlar tomonidan olib borilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining tadqiqotchilari “mulk” tushunchasini o‘rganayotganda, uni avloddan-avlodga o‘tadigan meros qilib olingen boylik deb hisoblashadi va mulkni birlamchi va ikkilamchi boyliklarga bo‘linishi ta’riflab, uni quyidagicha izohlaydi: birlamchi boylik tabiat tomonidan inson ishtirokisiz yaratilgan obyektlar, ikkilamchi boylik esa inson tomonidan o‘z mehnati bilan yaratilgan moddiy va ma’naviy obyektlardir. Odamlarning ijtimoiy mavqeyi ularning mulkiga ega yoki yo‘qligiga bog‘liq. Falsafa ilmiga oid adabiyotlarda “Mulk – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda ifodalananadi” [2], “Mulk – moddiy va ma’naviy ne’matlarning muayyan kishilar egaligida bo‘lishi va ular tomonidan o‘zlashtirilishining tarixan belgilangan usuli; ishlab chiqarish vositalarini va ular yordamida yaratiladigan moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish yuzasidan odamlarning o‘zaro munosabatlari; muayyan shaxsga tegishli bo‘lgan ma’lum narsa” [3], deya ta’kidlangan.

Tadqiqotchi I.Ubaydullayevning fikricha, mulkchilik tizimi – mulkiy munosabatlar natijasida vujudga kelgan muayyan mulklarning ishini tashkil qilish va amalga oshirish shakllari hamda tartib-qoidalari majmuidir. Bu tizim tarkibiy tuzilishiga ko‘ra bir tarkibli (monostrukturali) va ko‘p tarkibli (polistrukturali) tizimlarga bo‘linadi[4].

Kelib chiqishiga ko‘ra “mulkdor” so‘zi arab va fors tillaridan olingen bo‘lib, o‘zbek tilida “mulk egasi” degan ma’noni anglatadi. Falsafiy jihatdan mulkdor o‘zining moddiy boyligidan xabardor bo‘lgan va uni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Islohotlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatimizda mulkchilik tizimi shakllanib, “mulkdor” degan tushuncha ham shakllandi.

Mulkdor – bu ma’lum mulk yoki moddiy resurslarga ega bo‘lgan shaxs, tashkilot yoki shaxslar guruhi hisoblanib, qonuniy mulk huquqiga ega va qonun hujjatlariga muvofiq ushbu mulkdan foydalanish, nazorat qilish va tasarruf etish huquqiga ega shaxsga aytildi. Mulk huquqi doirasida mulkdor o‘z mulkidan foydalanish, tasarruf etish, sotish yoki boshqa shaxslarga berish huquqiga ega.

Tadqiqotchi I.A.Ubaydullayev tadqiqot ishida “mulkdor” tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berib o‘tadi: “Mulkdor deb jamiyat va davlat tomonidan o‘rnatalgan huquq va axloq normalari asosida mulk obyektlariga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishni qonuniy asosda yo‘lga qo‘yan mulk subyektiga aytildi”[4]. Tadqiqotchining fikriga qo‘silgan holda quydagи falsafiy ta’rifimizni ta’kidlab o‘tishimiz maqsadga muvofiqliр. “Mulkdor” tushunchasi shunchaki moddiy narsaga ega bo‘lgan shaxs uchun ishlataladigan atama emas. Ushbu kategoriya chuqr falsafiy ma’noga ega, chunki u nafaqat tashqi mulkka, balki shaxsning ichki dunyosiga ham tegishli hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, mulkdor o‘zining ichki qadr-qimmatini, mavjudligining o‘ziga xosligini anglaydigan kishidir. Bu o‘z hayoti uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda, shaxsiy fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlariga egalik qilishga qodir odam.

Mulkdorlar haqida adabiyotlarda turli xil talqinlar mavjud. Bular: “Mulkdorlar sinfi – biron-bir turdagи mulkka (ko‘chmas mulk, yer maydoni, kichik korxona, do‘kon va shu kabilarga) nisbatan to‘liq yoki qimmatbaho qog‘ozlar (aksiya, pay, sertifikat va h.k.) orqali qisman sohiblik huquqini amalga oshirayotgan kishilar guruhi” [5], “...Ijtimoiy qatlam, ayniqsa, ishlab chiqaruvchi mulkdorlar muayyan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi eng barqaror, uyushgan, ishlab chiqarish vositalariga munosabati tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan ijtimoiy guruhni tashkil

etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy sinf (mulkdorlar sinfi. – Muallif) bu qonun hujjatlari bilan rasmiy-lashtirilgan va mustahkamlangan mulkdorlarning katta, barqaror guruhidir” [6], degan fikrlar bor.

Istiqlol yillarda jamiyatimizda mulkdorlar qatlami yuzaga kelishi uchun shart-sharoitlar shakllandi, qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Tadqiqotning ushbu paragrafida mulkdorlar qatlaming shakllanishi davri ikki bosqichga bo‘lib o‘rganilgan. Uning birinchi bosqichi 2016-yilgacha bo‘lgan davrda tadbirkorlik va mulkchilikka oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkil etilgan organlar, amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar, O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy jihatlari sifatida tahlil qilingan. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitusiyasi ushbu jarayonning asosiy manbasi, fundamental asosi ekanligini aytib o‘tsak bo‘ladi. Mamlakatimizda keyingi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat jamiyatda haqiqiy mulkdorlar qatlaming shakllanishiga olib keldi [7]. Ushbu hujjat 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni edi. Qonun orqali dastlab jamiyatda “tadbirkor” degan huquqiy termin yuzaga keldi, tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy mustaqilligini kafolatlandi, tadbirkorlik shakllari, ya’ni yakka tartibdagi faoliyat, yollanma mehnatni jalg etish asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi yoki hamkorlikdagi tadbirkorlik yuzaga keldi.

Mulkdorlar qatlami shakllanishining ikkinchi bosqichi esa 2017-yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston 2030 strategiyasi” kabi muhim normativ-huquqiy aktlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muhim huquqiy asoslar yaratildi va mulkdorlarga qator imkoniyatlar yaratilganligi yoritib berilgan.

Tadqiqotimizda tahlil qilingan normativ-hujjatlarni o‘rganilish jarayonida shu masalalar aniq bo‘ldiki, mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi o‘n yilligida mulkchilik munosabatlari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, mamlakat aholisiga xususiylashtirib berish, mulkdorlar qatlamenti paydo bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi masalalar amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda esa tadbirkorlarning sonini oshirish, ularni jahon bozoridagi faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar bilan raqobat qilishlari uchun sharoit yaratish, turli xil jamoat fondlarini tashkil qilish, mulkdorlar qatlamida milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirish kabi masalalarga bag‘ishlangan .

O‘zbekiston qonunchiligi mulkdorlar va investorlarga kafolatlar berib, ularni huquqiy himoya qilmoqda va iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalarni rag‘batlantirishni amalga oshirmoqda. Mamlakatda mulk huquqlarini, ro‘yxatga olish tartib-qoidalarini va intellektual mulkni himoya qilishni tartibga soluvchi turli xil meyoriy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Umuman olganda, iqtisodiyotning o‘sishi va O‘zbekiston fuqarolarining farovonligini qo‘llab-quvvatlash uchun kelajakka olg‘a qadam tashlab, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2023– 80 b.
2. Falsafa: Qomusiy lug‘at / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. 284-bet.
- 3.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklo-pediysi” davlat ilmiy nashriyoti, 2003. –119-bet.
4. Ubaydullayev.I. “O‘zbekistonda mulkdorlar geoijtisodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari”.Falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2018. – 21 B (154 b)
- 5.Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Jalolov A. Xonazarov Q. umumiy tahriri ostida – Toshkent: Sharq, 2000. –148-b.
- 6.Saifnazarov I. Fanning falsafiy masalalari / I. Saifnazarov, B. Qosimov, G. Nikitchenko, A. Muxtorov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 152-b.
7. Raxmankulov, F. (2023). O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy asoslari. Obshestvenniye nauki v sovremennom mire: teoreticheskiye i prakticheskiye issledovaniya, 2(13), 58-61.

## **EKOTURIZM FENOMENI, UNING ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLARDA SHARHLANISH EVOLYUTSIYASI**

**Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa va ma’naviyat asoslari  
kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekoturizm fenomenining ilmiy-nazariy adabiyotlarda sharhlanish evolyutsiyasi o‘rganiladi. Ekoturizm atamasi va uning mohiyati, rivojlanish bosqichlari, shuningdek, ekologik va iqtisodiy omillar bilan aloqadorligi batafsil tahlil qilinadi. Maqola davomida ekoturizmning barqaror rivojlanish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va mahalliy jamoalar manfaatini himoya qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ekoturizmning zamonaviy ijtimoiy-madaniy tendensiyalar bilan uyg‘unligi va uning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ekoturizm, ilmiy-nazariy adabiyot, evolyutsiya, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, mahalliy jamoa, ekologiya, ijtimoiy-madaniy tendensiyalar, rivojlanish.

Bugungi dunyo xalqlari tabiiy resurslardan yanada barqaror foydalanishda shaxsiy mas’uliyatli bo‘lishga intilmoqda. Shu jihatdan qaraganda ekoturizm sohasi ilmiy jamoatchilik munosabatlarida tobora zamonaviy tadqiqotlaar obyekti sifatida trend darajasiga chiqib bormoqda.

Tadqiqot obyekтига (ekoturizm fenomeniga) subyektiv munosabat bildirishdan oldin, avvalo, ushbu tushuncha o‘zi qachon paydo bo‘ldi? Ilmiy muomalada qo‘llanilishida qanday obyekti zarurat mavjud! Bu kabi savollarga javob berish o‘rinli bo‘ladi. Demak, ekoturizm – bu ikkita muhim faoliyat sohasini birlashtiruvchi, ya’ni atrof-muhitni muhofaza qilish asnosida turizmni tashkillashtirishga qaratilgan tushuncha hisoblanadi.

Ekoturizm fenomeniga falsafiy kategoriya sifatida qarash, uning ijtimoiy mohiyatini to‘liq tushunish uchun, avvalo “ekologiya” va “turizm” atamalari haqida umumiylashtirish ega bo‘lish talab etiladi. Ma’lumki, ekologiya (yunoncha *oykos* – uy, turar joy, *logos* – ta’limot) terminiga ilk ishora Ch.Darvinnning “Turlarning kelib chiqishi” nomli asariga borib taqalib, keyinchalik ekologiya fani sifatida rivojlanishiga turtki bo‘lgan. “Ekologiya”ni fan darajasiga olib chiqishda nemis olimi Ernest Gekkelning xizmati alohida e’tirof etiladi. Uning “Organizmlarning umumiylashtirish” hamda “Tabiiy tarix” asarlarida ekologiyaning predmeti, murakkab tarkibiy tuzilishi, tabiiy evolyutsiyasi, tashqi voqelikka ta’sirchanligi, organizmlarning atrof-muhit bilan organik va noorganik munosabatga kirishi va boshqa asoslari ochib beriladi.

Turizm tushunchasi birinchi marta Buyuk Britaniyadagi yoshlar kontinentga o‘qishga ketgan vaqtidan boshlab qo‘llanilgan. Aniqrog‘i, bunday sayohat “grand tour” deb atalgan, sayohatchilarni esa turistlar, deb atashgan.<sup>139</sup>

Kengroq kontekstda “turizm” – go‘zal joylar, tarixiy hududlar, yangi shaharlar, arxitektura, landshaft, relyef va iqlim xususiyatlari bilan tanishish uchun kundalik hayotdagi cheklavlarni engib o‘tishdir. Ushbu elementlarning barchasi ahollining tabiiy joylarga vaqtincha harakatlanishini rag‘batlantiradi va bu sayohatchilar tomonidan tobora keng qo‘llanilmoqda.

Turizm va turist tushunchasi ilmiy adabiyotlarda XVIII asr oxirlarida paydo bo‘la boshladi. U fransuzcha “tour” – sayohat so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tor ma’noda – kishilarni turistik obyektlarga sayohatlaridir. Umumiylashtirish uchun kundalik hayotdagi cheklavlarni engib o‘tishdir. Ushbu elementlarning barchasi ahollining tabiiy joylarga vaqtincha harakatlanishini rag‘batlantiradi va bu sayohatchilar tomonidan tobora keng qo‘llanilmoqda. Bu ikki tushunchaning umumiylashtirishini ekoturizm kategoriyasini hosil etib, unga – zamonaviy sivilizatsiyaning afzalliklari bilan ongli ravishda cheklanishga intiladigan va tabiatning ichki olamiga sho‘ng‘ish, uning in’omlaridan haqli ravishda foydalanish va unga zarar etkazmasdan dam olishni o‘z ichiga olgan sayyohlik yo‘nalishi deb, ta’rif berish to‘g‘ri bo‘ladi.

<sup>139</sup> С.Р. Ердавлетов. Казахстан туристечиский. Алма-Ата, Кайнар, 1989 г

<sup>140</sup> Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана.- Т.: «Чинор», 2006.-С.18

Ekoturizmga yangi yo‘nalish sifatida qarash tendensiyasi ongimizga singib qolgan. Chunki, mamlakatimizning turistik salohiyatida bu yangi tarmoq hisoblanadi. Ammo uning tarixiy genezisi “turizm” nomi ostida ko‘hna tarixga borib taqaladi. Ushbu fikrimizni izohlash maqsadida ekoturizm sohasining rivojlanish evolyutsiyasini quyidagicha klassifikatsiya qilamiz:

**Birinchi bosqichda** tarixiy turizm sayohatining asosiy sabablari ta’lim, haj, savdo, davolanish, sport musobaqlari shaklida namoyon bo‘lgan. Ushbu turizmning shakllanish, rivojlanish davri asosan qadimgi Yunoniston va Rim tarixi bilan bog‘lanadi. Masalan, o‘sha davrda tashkil etilgan sayyohlar fonida asosan diniy maqsadlar ustuvorlik qilgan. Xususan, VII asrdan boshlab har 4 yilda bir marta o‘tkaziladigan Zevs sharafiga bayram Olimp tog‘iga o‘tkazilishi odat tusiga kirib, bu shu mavsumda sayohatlarning keng jalb etilishiga sabab bo‘lgan. Keyinchalik, ekoturistik sayohatning asosiy maqsadi sifatida shifobaxsh joylarga, mineral buloqlarga yoki muqaddas joylarga sayohatlar uyuştirish bo‘lgan. Ekoturizmning bu shakldagi rivojlanish jarayoni hanuz davom etib kelmoqda. Jumladan, bugungi zamonaviy sanatoriylar kabi obyektlarning qurila-yotganligi, shifobaxsh joylarda ekoturistik xizmatlarni tashkil etilayotganligi, ularda yaratilayotgan qulayliklar, davolanishdan tashqari turli o‘yin-kulgular maydoniga aylantirish siyosati qadimgi rimliklar davrida ham asosiy planda bo‘lgan.

Tarixchi Y.S. Krushkol keltirishicha “Olimp o‘yinlariga dunyosining juda turli-tuman shaharlaridan ko‘p xaloyiq yig‘ilib kelgan. Musobaqalarda yugurish, sakrash, disk irg‘itish, aravachalarda ot choptirish va boshqa ko‘pgina gimnastika mashqlari o‘tkazilgan. Bundan tashqari, dramaturglar, shoirlar, ashulachilar va sozandalar ham musobaqa qilishgan. Bu o‘yinlar jismoniy tarbiya uchun ham, aqliy va ma’naviy kamolot uchun ham birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan”.<sup>141</sup>

**Ikkinchi davri** milodiy va o‘rta asrlarga borib taqaladi. Bu vaqtga kelib turizm sayohatning asosiy motivlari sifatida qaror topgan bo‘lib, ko‘proq diniy turizm, ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirilgan turizm, aristokratik munosabatlarga xizmat etish ko‘zlangan siyosiy qarashlarga uyg‘un holda shakllangan. Shu bilan birga o‘rta asrlar sayyohlik harakatining sezilarli darajada sekinlashishi bilan ham ajralib turardi. Chunki, turli mintaqalarda xalqlar o‘rtasida kechayotgan tengsizliklar, ziddiyatlar, siyosiy boshboshoqliklar shunga olib kelgan. Faqat XVII va XVIII asrlarda diniy maqsadlar uchun faol sayohatlar tiklangan. Shu bilan bir qatorda, siyosiy xarakterdagi sayohatlar, ayniqsa, davlat rahbarlarining rasmiy elchilari tomonidan tobora ko‘proq amalgalashirilgan. Keyinchalik ilm-fanning rivojlanishi, universitetlarning tashkil etilishi, ilm izlashga qaratilgan migratsiya ta’sirida turistik sayohatlar oqimi oshib bordi.

**Uchinchi davrda** zamonaviy turizmning rivojlanish tendensiyalari sanoat inqilobi bilan hamohang bosqichda kechgan. Demak, XVIII-XIX asrlarda ilmiy tadqiqotlar va tabiatga qiziqish paydo bo‘lishi bilan ilmiy maqsadlar uchun ekspeditsiyalar va sayohatlar rivojiana boshladi. Ushbu davrdan boshlab ekologik ongni shakllantirish, tabiatni asrash, tabiat resurslariga ekoturistik maqsadlarda yondashish kabi qarashlar kuzatila boshladi. Shu tariqa tabiatni muhofaza qilish muammosini hal etishga qaratilgan sa‘yi-harakatlar fonida ekoturizm atamasini ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanila boshladi. Ammo ekoturizmga ta’rif va tasnif berishda bir biriga qarshi fikrlar, xulosalar ham shakllanib bordi.

Aslida, ekologik maqsadlarga yo‘naltirilgan turizm keng kontekstni o‘z ichiga olib, uni tushunish har doim ham manfaatli bo‘laman. Shu sababli, ko‘plab tadqiqotchilar ushbu atamani dastlabki tushunish noaniq bo‘lgan deb hisoblashadi. Chunki, “ekoturizm” atamasini kiritishda marketologlar tabiatga intilgan va uni saqlab qolishni istagan. Ammo bu fenomen birinchi marta paydo bo‘lgan paytda, ko‘pchilik uning ma’nosini tushunmagan va uni tabiatni muhofaza qilish jihatlariga etarlicha e’tibor bermasdan, tabiatga yo‘naltirilgan turizmning bir turi sifatida ko‘rgan. Bu turizm nazariyotchilarining uzoq vaqtdan beri bu atamaga qandaydir kinoya bilan munosabatda bo‘lishiga olib keldi. Shu sababli ekoturizmni birinchi bo‘lib o‘rgangan V.V. Xrebovchenko ekoturizm – qisqartirilgani, lekin uning ishlatilishi ekologiya fani nuqtayi nazaridan unchaliq to‘g‘ri emas<sup>142</sup> deb yozgandi.

<sup>141</sup> Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1975. –Б.72

<sup>142</sup> В.В.Храбовченко. Экологический туризм. Москва, Финансы и статистика, 2003 г 29 ст.

Ekoturizm tushunchasiga pessimistik yondashuvni ilgari surgan tadqiqotchilardan G.S. Gujin, M.Y. Belikov va E.V. Klimenkolar fikricha, ekoturizm asosida tabiatni muhofaza etish tashvishlari yotadi.<sup>143</sup> Bu kabi bir tomonlama qarash tendensiyasi yangi davr boshlariga kelib o'zgardi va bugungi qarashlar bo'yicha ekoturizm – tabiiy resurslarni muhofaza etish bo'yicha har turli loyihalarni amalga oshirish uchun qilinadigan ishlarga asos hisoblanib,<sup>144</sup> bunda tabiat zonalariga mas'ul sayohat uyuhshtirish, unda mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli ham muhofaza etilishiga erishish mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi: nega ekoturistik tarmoq rivoji mahalliy aholining turmush tarziga bog'lanmoqda? Chunki, tabiatda olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdi-ki, muhofaza ishlari er sharining turli regionlarida, ayniqsa, tog'li rayonlarda muhofaza ishlarini er bilan emas, odamlar bilan olib borish kerakligini ko'rsatadi.<sup>145</sup> Agar ushbu qoida buzilsa, ekoturizm bilan bog'liq sayyoohlarning so'rovlari qarama-qarshi xulosalarni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, ekoturistik salohiyatga qaratilgan islohotlarning davriy evolyutsiyasini umumlashtiradigan bo'lsak, zamonaviy ekoturizmning hozirgi bosqichga olib kelgan genezisini o'rgangan A.Nigmatov, N.Shomuratova kabi tadqiqotchilar, uning retrospektiv davriyligini quyidagicha keltiradi:

I. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr – ekoturizmning mahalliy va milliy mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish bilan izohlanadi.

II. 1990-2000-yillar mobaynida turizmning mintaqaviy miqyosda, ekoturizmning turizm industriyasи sifatida rivojlangan davri bo'ldi.

III. 2000-yildan keyingi bosqichda global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri yuzaga keldi.<sup>146</sup>

Bugungi kunda ham turizm sohasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Masalan, N.Tuxliyev va T.Abdullayevalarning ilmiy xulosalari bo'yicha shaxslarning doimiy yashash joylaridan muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashadirish, ma'rifiy-ma'naviy hordiq olish uchun chiqishiga<sup>147</sup> urg'u berilgan bo'lsa, boshqalar turizm keng ma'noda ma'lum vaqt davomida odamlarning doimiy yashash joyidan turli joylarga vaqtincha ko'chishini anglatadi deb, yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Bizning qarashlarimiz bo'yicha ekoturistik harakatlar dam olish, sport tadbirlari, sog'lomlashadirish va ta'lim, ma'naviy rivojlanish kabi turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Chunki, ko'pchilik odamlar kundalik shovqin-surondan chiqib, yangi tajribalardan bahramand bo'lishga intilishadi. Bu nafaqat madaniy xordiq olishga, balki salomatlikni tiklashga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ekoturizm orqali turli xil madaniyatlarni, tarixiy yodgorliklarni, tabiiy go'zalliklarni ko'rish imkoniyati yaratiladi, bu esa insonning dunyoqarash va bilim tajribasini kengaytirishga yordam beradi. Zero, P.S. Sultonov haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, insonda insoniy fazilatlarning kamol topishida tabiatning o'rni beqiyosdir. Ya'ni tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deyilganda – sof haqiqiy tabiatning kishilarda oliyjanoblik, xushfe'llik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, ulug'vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xislatlarni uyg'otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo'ynida tez-tez birga bo'lish insoniy fazilatlarning kamol topishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ekoturizm barqarorligini ta'minlashga qaratilgan xalqaro sa'yi-harakatlar olib borilmoqda. Ularning davriy ketma-ketligini quyidagicha tasniflash mumkin:

– 1963-yilda Rimda BMTning turizm va sayohat bo'yicha I konferensiysi bo'lib o'tdi, unda turistik muammolarning keng doirasi ko'rib chiqildi va odamlar o'rtasidagi muloqotning ushbu shaklini jadal rivojlantirishga yordam beradigan tavsiyalar ishlab chiqildi;

– Rim konferensiyasining muhim natijasi o'laroq turizmni rivojlantirishning umumiyo yo'nalishi, o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish mexanizmini ishlab chiqishda moddiy bazani yaratish, malakali kadrlar tayyorlash va rivojlanayotgan mamlakatlarga turizm sanoatini yaratishda yordam berish kabi masalalarni hal etishga xalqaro miqyosida kelishib olindi;

– JST-ushbu Ustavining 1-moddasi muvofiq maxsus vakolatlarga ega xalqaro tashkilot va hukumatlararo xarakterga ega tashkilotlar toifasi tuzildi. JSTning barcha faoliyati davlatlarning turizm

<sup>143</sup> Г.С.Гужин, М.Ю.Беликов, Б.В. Клименко. Менеджмент в иностранном и внутреннем туризма. Краснодар, Кубанский университет, 1977 г. Стр 18

<sup>144</sup> В.В.Храбовченко. Экологический туризм. Москва, Финансы и статистика, 2003 г стр 29

<sup>145</sup> А.С.Шестаков. Намерение проблемы российского законодательства об особо охраняемых природных территориях: видение всемирного фонда дикой природы – Охрана дикой природы. №3 (14), 1994 г. стр 12-15.

<sup>146</sup> A.Nigmatov, N.Shomurotova. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Turon-Iqbol, 2007. –B.27

<sup>147</sup> Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организatsия бизнеса в туризме Узбекистана.-Т.: «Чинор»,2006.-C.18.

sohasidagi xalqaro hamkorligini amalga oshirishga qaratilgan va zamonaviy huquq tamoyillariga to‘liq mos kelishi belgilab qo‘yildi;

– turistik talab tarkibini o‘zgartirish tendensiyasi shakllandi, jahon sayyoqlik bozori yanada xilma-xil bo‘ldi. Uning uch qismga bo‘linishi haqida ishonch bilan aytish mumkin: yoshlar turizmi, kattalar turizmi, qariyalar turizmi kabi toifalar paydo bo‘ldi. Ushbu davrdan boshlab, G‘arb mamlakatlari shahar aholisining o‘sishi turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega edi. Bu ichki va xalqaro turizm hajmini oshirishga yordam berdi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqot natijalarining qiyosiy, tipologik tahlili quyidagi paragraf xulosalarining shakllanishiga asos bo‘ldi:

**Birinchidan**, ekoturizm namoyon bo‘lish xususiyatiga ko‘ra tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarni, tabiiy-antropogen landshaftlarni, an’anaviy madaniyat va atrof-muhit bilan bir butun borliqni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan qaraganda ekoturizmga – tabiatni anglashga, uni qadrlash asnosida uning sofligini kelajak avlodga etkazish maqsadida tashkillashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim deyish mumkin.

**Ikkinchidan**, ekoturizm dunyodagi eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lishiga qaramay, tabiiy resurslar va madaniy merosni saqlash, turistik faoliyat uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, uning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qaratilgan xalqaro islohotlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmayapti. Chunki, sayyoqlar ko‘p tashrif buyuradigan joylarda ekologiya, madaniyat va ijtimoiy rivojlanish obyektlari bilan bog‘liq jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

**Uchinchidan**, tez va samarali foyda olish istagi tufayli turizmga iqtisodiy resurs sifatida qarash, uni nazoratsiz o‘sishiga yo‘l qo‘yib berish ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib keladi. Xususan, atrof-muhit musaffoligini asrashga bo‘lgan e’tiborni susaytirish insoniyatni tabiiy, tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlashga salbiy ta’sir etadi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 40-41.
2. Mamashokirov S. va boshq. Falsafa asoslari. –T: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005. – B. 209.
3. A.Nig‘matov, N.Shomurotova. Ekoturizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Turon-Iqbol, 2007. – B.27.
4. Abduvafo o‘g‘li A. A., Ashraf o‘g‘li A. A. O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil qilishning samarali yo‘nalishlari // ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 2023. –T. 3. –№ 5. – S. 379-386.
5. Alijonova M. Ekologik kompetensiya va ekoestetik kompetensiya tushunchalari, ilmiy sharhi, mohiyati // Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana. 2023. –T. 1. –№. 6. Part 2. – S. 58-64.
6. Sharafutdinovich, K. S. (2024). Implementation Of Modern Technologies In The Development Of The Sector Of Ecotourism. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 7-10.
7. Xamrayev.S. (2024). yangi O‘zbekistonda ekologik turizm sohasini rivojlantirishni asosiy jihatlari. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.
8. Sharafutdinovich, K. S. (2024). The concept of ecological tourism and its socio-philosophical significance in the development of society. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 4(2), 7-12.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARI

**Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich,**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Falsafa va ma’naviyat asoslari  
kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari va targ‘iboti bilan bog‘liq masalalarni yoritadi. Ekoturizm hozirgi kunda dunyoda va O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi atrof-muhitni asrab-avaylash, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholini jaib qilish orqali barqaror turizmni ta’minlashdir. Maqolada O‘zbekistonning tabiiy va madaniy resurslari asosida ekoturizm imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekoturizmni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, infratuzilmani yaxshilash, ekologik ma’rifatni oshirish kabi dolzarb masalalar ko‘rib chiqiladi. Maqolada turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslarni barqaror boshqarishning ahamiyati ta’kidlanadi. Ekoturizmni targ‘ib qilishda internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli, xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvni muhim omillar sifatida qayd etiladi. Ushbu maqola, asosan, O‘zbekistonning ekoturizm imkoniyatlarini kengroq targ‘ib qilish va xalqaro turizm bozori talablariga moslashish orqali ushbu sohani rivojlantirish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ekoturizm, ijtimoiy-falsafa, zamonaviy texnologiya, mobil ilova, veb-sayt, virtual haqiqat (VR), dronlar, geopozitsiya tizimlari (GPS), sun'iy intellekt.

Ekoturizm-bu faqat ochiq havoda dam olish yoki go'zal manzaralardan bahramand bo'lish imkoniyati emas. U tabiat bilan uyg'unlikni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shish imkoniyatini taqdim etadi. Bugungi kunda ekologiya va barqaror rivojlanish masalalari dolzarb bo'lib qolganligi sababli, ekoturizmga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tabiiy resurslarni saqlash va sayyoohlar uchun yanada chuqurroq va bilimliroq tajriba yaratishga imkon yaratmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarni ekoturizmga qo'llashning asosiy jihatlaridan biri-sayyoohlarga ekologik va barqaror jihatlarni hisobga olgan holda sayohatlarini rejalshtirishda yordam beradigan raqamlı platformalar va onlayn resurslarni yaratishdir. Mobil ilovalar, veb-saytlar va onlayn hamjamiyatlar ekologik toza sayohat yo'naliishlari, mahalliy tabiatni himoya qilish tashabbuslari va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi.

Hozirgi axborot-texnologiyalar asrida insonlarni ajablantirish tobora qiyinlashmoqda, chunki ko'plab odamlar o'z tarixini va asl qadriyatlarini unutib borishmoqda, ayniqsa bu hol yoshlar orasida sezilarli. Shu sababdan ota-onalar farzandlariga o'z tarixlarini va madaniyatlarini tushuntirib berishlari muhimdir. Bu jarayonda madaniyatni o'rganishga yordam beradigan turizm, xususan ekoturizm, katta ahamiyatga ega[1,4].

Ekoturizm zamonaviy turizm sanoatining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarni o'rganish va saqlashga qaratilgan sayohat turidir. So'nggi o'n yilliklarda texnologiyalar rivojlanishi bilan ekoturizm yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada ekoturizmni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini ko'rib chiqamiz[2,15].

Virtual haqiqat (VR), dronlar, geopozitsiya tizimlari (GPS) va sun'iy intellekt (AI) kabi zamonaviy texnologiyalar ekoturizmni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, ushbu texnologiyalarni qo'llash bir qator axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Virtual haqiqat texnologiyalari odamlarni jismoniy qatnashishsiz noyob ekologik tizimlar va madaniy diqqatga sazovor joylarni tajriba qilish imkonini beradi, bu esa turizm sohasida yangi ufqlarni ochadi. Bunday texnologiyalar ommaviy turizmning zaif ekotizimlarga salbiy ta'sirini kamaytirishi mumkin, ammo bu tajribalar haqiqiyligi va haqqoniyligi haqida savollarni keltirib chiqaradi.

Dronlar va GPS texnologiyalarining qo'llanilishi qo'riqlanadigan hududlarni nazorat qilish va boshqarishni osonlashtirishi mumkin. Bu texnologiyalar buzilishlarni tezda aniqlash, ifloslanish darajasini kuzatish va tabiiy resurslarning holatini monitoring qilish imkonini beradi. Biroq, ular shaxsiy hayotga ta'sir qilish va kuzatuv masalalarini ham keltirib chiqaradi[3,18].

Sun'iy intellekt barqaror ekoturizm modellarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Mashinani o'rganish algoritmlari orqali marshrutlarni optimallashtirish va tabiiy resurslarga yukni taqsimlash uchun davomat va atrof-muhit ko'rsatkichlarini tahlil qilish mumkin. Shuningdek, bu texnologiyalar mahalliy jamoalarning ijtimoiy-madaniy muhitiga qanday ta'sir ko'rsatishi va ularning turmush tarzini avvalgi holatda saqlash haqida savollarni keltirib chiqaradi. AI yordamida sayyoohlar oqimini boshqarish, sayyoohlilik ob'ektlariga tashriflar, hayvonlar harakati, iqlim o'zgarishi kabi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali optimal strategiyalar ishlab chiqish va zararli ta'sirlarni kamaytirish mumkin.

Mamlakatimizda ekoturizm salohiyatini oshirish strategik ahamiyatga ega masala sifatida ko'rilmoxda. Bu holatning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Obyektiv sabablarga ko'ra, ekoturizm orqali dunyo hamjamiyatidagi o'rnimizni mustahkamlash, moddiy va nomoddiy merosimizni, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni keng auditoriyaga tanitish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ekologik turizm — bu ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, tabiiy va madaniy merosni saqlash hamda muhofaza qilishni ta'minlaydigan, bioxilmassilik va mahalliy aholi o'rtasidagi sinergetik munosabatlarga asoslangan, tabiatga sayohat qilishni nazarda tutuvchi va turizmning innovatsion serdaromad yo'nalişidir[4,10].

Ekoturizm nafaqat ijtimoiy hayotimizni o'zgartiruvchi omil, balki iqtisodiyotimizni rivojlantiruvchi muhim kuch sifatida ham qaraladi. Bu borada yurtbosimizning ta'kidlashicha, "Yangi O'zbekistonni barpo etishda turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik vazifalar mavjud, jumladan:

- Turizm tarmog‘ini tezkor rivojlantirish va turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- Turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish jarayonlarini soddalashtirish;
- Xorijiy investitsiyalarini jalb qilish, jahon brendlarini faol ravishda o‘ziga tortish va turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- Yangi turizm yo‘nalishlarini ishlab chiqish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish va ularning jozibadorligini oshirish kabi masalalar davlatimiz uchun asosiy vazifa bo‘lishi kerak[5,27].

Mamlakatimiz ekoturistik salohiyat jihatidan katta imkoniyatlarga ega. Masalan, respublikada ekoturizmni rivojlantirish uchun 38 million gektardan ortiq ovchilik va baliqchilik yer maydonlari mavjud bo‘lib, ulardan 1 million gektarini suv fondi — ko‘llar, daryolar va suv omborlari tashkil etadi. O‘zbekiston faunasi 97 turdag‘i o‘txo‘r hayvonlar, 424 turdag‘i qushlar, 58 turdag‘i sudralib yuruvchilar va 83 baliq turlari bilan boy. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 24 ta o‘txo‘r hayvonlar, 48 ta qushlar, 10 ta sudralib yuruvchilar, 18 ta baliqlar va 78 turdag‘i umurtqasizlar kiritilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda tarixiy, madaniy, me’moriy va arxeologik jihatdan qiziqarli 7 mingdan ortiq obyekt mavjud. Bunga 545 ta me’morchilik, 575 ta tarixiy, 1457 ta san’at yodgorliklari, 5500 dan ortiq arxeologik jihatdan qadrli obyektlar kiradi. Biroq, turistik talabga ko‘ra ulardan faqat 140 tasi faol ravishda foydalilanadi[6,12].

O‘zbekistonda 200 dan ortiq obyekt ta’mirlanmoqda, yana 500 tasi ta’mirtalab. Bu obyektlarni saqlab qolish uchun har yili katta mablag‘ sarflash zarur. Boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadi, ta’mirlash jarayoni o‘zi ko‘plab turistlar uchun qiziqarli bo‘ladi. O‘zbekistonda minglab arxeologik obyektlar mavjud, shuningdek, 300 dan ortiq muzey va 1200 xalq ijodiyoti korxonalari mavjud. Toshkentda 144, Samarqandda 118, Buxoroda 221 va Xivada 310 dan ortiq turistik obyektlar mavjud. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonni ekoturizm uchun qulay va investitsiya uchun jozibali hudud sifatida ta’riflaydi[7,17].

Barqaror turizm bo‘yicha ta’lim dasturlari va xabardorlik kampaniyalari sayohatchilarga tabiatni saqlash va madaniy merosning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, mahalliy hamjamiyatlar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash ekoturizmni barqaror daromad manbai sifatida rivojlantirishga va tabiiy resurslarni himoya qilishga yordam beradi. Ekoturizmning asosiy jihatlaridan biri ta’lim komponentidir. Zamonaviy texnologiyalar ekologiya va barqaror rivojlanish bo‘yicha ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Virtual ekskursiyalar, interaktiv ta’lim dasturlari va onlayn kurslar atrof-muhit muammolariga oid xabardorlik va tushunishni oshiradi.

Texnologiya, shuningdek, tabiiy resurslar bilan bog‘liq madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishga hissa qo‘sishi mumkin. Arxivlarni raqamlashtirish, virtual muzeylar va interaktiv eksponatlarni yaratish an‘anaviy turmush tarzi va amaliyotlari to‘g‘risida qimmatli bilimlarni saqlab qolish va kelajak avlodlarga etkazish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ekoturizmni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, ularni amalga oshirish ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Faqat shu tarzda biz turizm, tabiat va jamiyatning barqaror va uyg‘un rivojlanishini ta’minlay olamiz[8,528].

Ekoturizmda zamonaviy texnologiyalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari ularni mas’uliyat bilan qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Texnologiya barqarorlikni, xabardorlikni va ta’limni qo‘llab-quvvatlash, kirish imkoniyatlarini va inklyuzivlikni oshirishda yordam berishi kerak. Shu bilan birga, axloqiy va falsafiy masalalarni hisobga olish zarur, chunki texnologiya tabiat bilan bevosita tajribani emas, balki uni to‘ldirishi lozim. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar barqaror va mas’uliyatli ekoturizmni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynashi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni ekoturizmga joriy etish inson va tabiat o‘rtasida barqaror va uyg‘un munosabatlar yaratish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli platformalar, sun‘iy intellekt, yashil texnologiyalar va ijtimoiy tashabbuslar ekoturizmni biologik xilma-xillikni saqlash, sayyohlarni jalb qilish va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fan, texnologiya va ta’lim sohalaridagi sa’y-harakatlarni birlashtirib, biz ekoturizm va atrof-muhit uchun barqaror kelajakni yaratishimiz mumkin. Ushbu metodlar va texnologiyalarni joriy etish nafaqat sayyohlarni O‘zbekistonning ekologik merosi haqida samarali xabardor qilish, balki ularni tabiatni saqlash va qo‘llab-quvvatlashga faol jalb etish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Zalatan A. and A. R. Gaston. Soft Ecotourism: the Substitution Effect. The Tourist Review, 4, 1996.
2. Djurakulov X.A. O‘zbekistonda zamona naviy ekoturizmni rivojlantirishda shaxs ekologik huquqiy ongini yuksaltirish zarurati / X.Djurakulov. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 15 b
3. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Menedžment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana.-T.: «Chinor»,2006.-C.18.
4. Sharafutdinovich, K. S. (2024). Implementation of Modern Technologies In The Development Of The Sector Of Ecotourism. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 7-10.
5. Xamrayev, S. (2024). YANGI O‘zbekistonda ekologik turizm sohasini rivojlantirishni asosiy jihatlari. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.
6. Sharafutdinovich, K. S. (2024). The concept of ecological tourism and its socio-philosophical significance in the development of society. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 4(2), 7-12.
7. Khamrayev, S. (2023). Historical periods of the formation of ecotourism in the world. Иновационные исследования в науке, 2(10), 15-17.
8. Xamrayev, S. S. (2022). O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligini ta’minlashda ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini integratsiyalash zarurati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 524-528.

## **YANGI AVLODNI TARBIYALASHDA QASHQADARYOLIK XOTIN-QIZLARNING 1941-1945-YILLARIDAGI FAOLIYATINING AHAMIYATI**

**Temirova Feruza Xudoyqul qizi**

**Xidirova Go‘zal Suyunjonovna**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

Qarshi filiali “Axborot ta’lim texnogoyalari

va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchilar

**Annotatsiya.** Ikkinci Jahon urushi insoniyat tarixidagi eng qiyin va og‘ir davrlardan biri bo‘lib, bu urushda millionlab odamlar, jumladan, O‘zbekiston xotin-qizlari ham o‘z jasoratlari va fidokorliklari bilan ajralib turdilar. O‘zbekiston, urush davrida front ortida muhim rol o‘ynagan, ko‘plab xotin-qizlar esa o‘z vatanini himoya qilishda faol ishtirok etganlar.Ushbu maqolada ikkinchi jahon urishida O‘zbekiston xotin qizlarining frontda va front ortida ko‘rsatgan jasoratlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sovet Ittifoqi, O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumi, Front, Qarshi shahar ijroiya qo‘mitasi, Ixtirochilik harakati, ixtirochilik taklifi.

Ikkinci jahon urushi respublika sanoat tarmoqlarining yo‘nalishini ham, sanoat xodimlarining ishini ham tubdan o‘zgartirdi. Ko‘pgina sanoat va qishloq xo‘jalik rayonlarining bosib olinganligi xalq xo‘jaligini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Urush boshlanishi arafasida ya’ni 1940-yilda respublikada sanoatning xalq xo‘jaligida egallagan ulushi 70 foizni tashkil etgan edi. Ana shunday sharoitda Volgabo‘yi,Ural, G‘arbiy Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo hududlari bo‘yicha 1941- yilning oxiri va 1942 -yilning boshida harbiy-xo‘jalik rejasi qabul qilindi. Bu rejada umum-ittifoq miqyosida mamlakat sharqining ahamiyati keskin ortganligi qayd qilindi va shu yerda nihoyatda qisqa muddatda sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlari bo‘ysundirildi. Front yaqinidagi hududlarda joylashgan sanoat korxonalarini O‘rta Osiyo va Qozoqiston respublikalariga evakuatsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu hududlarga keltirilgan 308 korxonaning 100 dan ortig‘i O‘zbekistonga joylashtirildi[1]. “Lentekstilmash”, “Rostselmash”, “Krasniy Aksay”, “Suma Kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari”, Moskva “Podmyomnik”, “Elektrostanok” zavodlari shular jumlasidandir. Keltirilgan korxonalarini nihoyatda qisqa muddatlarda ishga tushirishga erishildi. 1941- yilning oxirigacha shunday korxonalardan 50 tasi ishga tushirildi. 1942-yilning birinchi yarmida esa barcha sanoat korxonalari to‘liq quvvatda ishlab mudofaa uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Frontga safarbar etilgan askar va xizmatchilar o‘rnini to‘ldirish uchun: “Urushga ketgan safdoshlarimiz uchun ham ishlayman”, degan da‘vatlar ostida ko‘plab ayollar va bolalar turli sanoat

korxonalariga ishga qabul qilindi. Xususan, 595 nafar xotin-qiz oblastdagi korxonalarda og‘ir sharoitlarda mehnat qildi. Ulardan 322 nafari sex, smena va brigada rahbarlari vazifalarida faoliyat yuritdi[2]. Mazkur holatni Qashqadaryo oblastida ham kuzatish mumkin. 10835 nafar sanoat ishchilarining frontga safarbar etilishi, yengil va mahalliy sanoat tarmoqlarida kapital qurilish va ta’mirlash uchun ajratiladigan mablag‘ning 60 foizga qisqartirilgani mavjud murakkab ahvolning yanada og‘irlashuviga sabab bo‘ldi. Shusiz ham sanoati kam rivojlangan, amalda og‘ir sanoati urushga qadar umuman bo‘limgan Qashqadaryo oblastida yengil sanoat tarmoqlari ham harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Bu davrda Qashqadaryo oblastida asosan mahalliy yengil sanoat tarmoqlari keskin rivojlandi. 1941-yilda Qashqadaryo hududidagi sanoat artellari soni 22 tani tashkil etdi. Ular, asosan, Qarshi, Kitob, Beshkent va Shahrисabz rayonlarida joylashgan edi. O‘zbekiston hududiga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarining birortasi Qashqadaryo hududiga joylashtirilmadi.

1941- yilning oxiriga kelib respublika bo‘yicha 300 sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot bera boshladi[3]. Mazkur yilda O‘zbekiston sanoatida xotin-qizlar salmog‘i 29% ga oshdi. Mazkur yilda Qashqadaryo viloyatida ham urush sharoitidan kelib chiqib mahalliy sanoat tarmoqlarini qayta qurib, harbiy izga solish masalalari ko‘rib chiqildi. 1941- yilning 15-dekabrida Qarshi shahar ijroiya qo‘mitasining yig‘ilishida “Yangi hayot”, “Tikuvchi”, “Ittifoq”, “Uchqun”, “Mehnat” artellarining ish rejalari muhokama qilindi. Urushning og‘ir damlariga qaramay, shahardagi “Ittifoq” arteli jamoasi yillik rejani 112 foizga, “Uchqun” arteli 95 foizga, “Mehnat” arteli 88 foizga bajardilar<sup>[4]</sup>. Badiiy hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqaradigan “Ittifoq” arteli beqasam to‘qishni 228 foizga, palos gilamlar to‘qishni 109 foizga, “Guliston” arteli 132,2 foizga ado etdilar. Sanoat korxonalarida urushga ketgan erkaklar o‘rnini ayollar, yosh bolalar egalladilar.

1941-yilda Qashqadaryodagi 48 ta yirik sanoat korxonalarida 3015 kishi mehnat qildi. Ushbu korxonalarda 27763 ming so‘mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu korxonalarda mehnat qilganlarning asosiy qismi xotin-qizlar edi. Mazkur yillarda sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar orasida musobaqalar uyushtirildi. Musobaqa shartlarida kundalik normani bir necha marta ortig‘i bilan bajarish vazifasidan tashqari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatli bo‘lishi, tejamkorlik, ish vaqtini qisqartirish va boshqalar asos qilib olinди. Ixtirochilik harakati faqat erkaklar o‘rtasida emas, balki ayollar orasida ham keng yoyildi.

1942-yilda Qashqadaryo hududida 309 ta tegirmon, 408 ta moyjuvoz, 77 ta temirchilik ustaxonalari, 46 ta transport uchun ehtiyyot qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1943-yilga kelib tegirmonlar soni 352 tani, moyjuvozlar soni 408 tani tashkil etdi. Mazkur yilda faoliyat ko‘rsatgan sanoat korxonalari soni 68 tani tashkil etdi. Ammo urush sababli ularni xom-ashyo, elektr energiyasi bilan ta’mirlash borasida talaygina muammolar mavjud edi. Shunday bo‘lsa-da, davlat tomonidan sanoat korxonalari zimmasiga juda katta majburiyatlar yuklandi. Belgilangan rejalarни bajarish uchun katta mehnat kuchi, mablag‘ zarur edi. Sanoat korxonalarini qo‘ylgan rejalarни bajarish uchun asdoydil mehnat qilishib, mazkur yilda Qashqadaryo oblastida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish rejasini ortig‘i bilan bajargan artellar anchagina edi.

Qarshi shahrida faoliyat ko‘rsatgan Uchqun arteli ishlab chiqarish rejasini 113 foizga bajarib rejadan tashqari 10200 ta har-xil turdagи ust-bosh, 4280 juft paypoq va qo‘lqop, 5657 juft oyoq kiyimi va boshqa xil mahsulotlarni ishlab chiqardi. Koson rayonidagi “Kommuna” arteli is’temol mollari ishlab chiqarishni kengaytirib, oylik topshiriqni 475 foizga bajardi. Yakkabog‘ rayonidagi Kirov nomli artelda aravalarni ta’mirlash rejasini ham ortig‘i bilan bajardi. Shahrисabz sanoat korxonalari 69 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarib, davlat reja topshiriqlarini 104,6 foiz qilib bajardi. Rayondagi Oxunboboyev nomli artel 189 foizga, “Aravakashlik” arteli 130,5 foizga, “Hujum” va Stalin nomli artellar 109 foizga bajardi. Sanoat artellari tomonidan 140 tonna jun, 296.400 juft turli xildagi poyafzal, 37,6 tonna ip, 641800 metr har-xil gazlama, 105200 dona ustki, 47 ming dona ichki trikotaj kiyimlari, 194800 juft paypoq, 19600 juft piyma ishlab chiqarildi.

Frontdagi jangchilarini kiyim-kechak bilan ta’mirlash maqsadida viloyat markazida tikuv va poyabzal fabrikasini barpo etish boshlandi. 1943-yil 19- iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 3 soni “Qarshi tikuv va poyabzal fabrikasini tashkil etish to‘g‘risida” gi qaroriga asosan Qarshi shahrida tashkiliy ishlar qo‘mitasi o‘z faoliyatini boshladi. Korxona uchun qurilish materiallaridan 20 kub yog‘och ajratildi, ishlab chiqarish uskunalarini yasash uchun 16 kub taxta berildi. Viloyat maxalliy sanoati tomonidan fabrika uchun 52 dona taburetka , 8

dona 4 qavatli stelaj, 56 dona stul oyoqlari, 13 dona oyoq yopib turuvchilar tayyorlandi. Fabrika qisqa muddat ichida qurilib maxsulot ishlab chiqarish ikki ko‘rinishda oilaviy va yakka tarzda ishlab chiqarishga kirishildi. Fabrikada ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar asosini erkaklarning issiq kiyimi, kurtka, kastyum-shim, o‘zbek milliy kiyimlari, ichki kiyimlardan iborat bo‘lib ular tayyor maxsulot sifatida viloyat mehnatkashlariga va frontga yuborildi. Fabrika front yoqasidan ko‘chirib keltirilgan mashinalarni tiklash hisobidan qurildi. Korxona turli xildagi oyoq-kiyimlari, barcha yoshdagilar uchun kiyim-boshlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. 1943-yilning 15-sentabridan boshlab fabrika o‘z mahsulotlarini chiqara boshladi. Fabrika ishchi xizmatchilari qisqa vaqt ichida 125 turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Uning asosiy ishchi xodimlari xotin-qizlardan iborat edi. Fabrikada asosan erkaklar uchun issiq kiyimlar, kurtka, kostyum-shim, xotin-qizlar uchun turli xildagi kiyim-kechaklar ishlab chiqarildi.

Qarshi tikuv fabrikasi 1943-yilining 15-sentabridan boshlab mahsulot ishlab chiqarishga kirishdi. Fabrikada dastlabki 3 oy ichida 35 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Mazkur korxonada ham belgilangan reja ortig‘i bilan bajarildi. Fabrika jamoasi qisqa muddat ichida 125 turda mahsulot ishlab chiqardi. Korxona tashkil etilgan oylarda ilg‘orlar safi o‘sib borib, 1944-yilda 32,6 foizga, 1945- yilining boshlarida deyarli 50 foizga ko‘tarildi. Kunlik va oylik ishlab chiqarish rejalarini bajarmaydiganlar soni kamaydi. Ishchilardan Pogorelova, Konevskaya, Xarchenko, Vaysenberg kabi o‘nlab ishchilar ishlab chiqarish rejalarini 140-204 foizga oshirib bajardi. Ilg‘or ishchilardan Alekseyeva mahalliy millat qiz-juvonlaridan 20 tikuvchini tayyorladi. Poyafzal sexida mahalliy millat vakillaridan 22 kishiga kasb o‘rgatildi.

Qashqadaryo viloyati Buxoro viloyatdan ajralib chiqqandan so‘ng, sanoat sohasida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Mahalliy sanoat uchun kapital mablag‘ ajratish ko‘lami ortdi. Natijada Qashqadaryo viloyati mahalliy sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish miqdori ortishiga olib keldi. Ko‘kbo‘loq tumani markazida “Guliston” arteli, Qamashi tumanida arava yasovchi, etik tikuvchi,sovun ishlab chiqaruvchi sexlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 1943-yili Qashqadaryoda 68 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko‘rsatib, shundan 12 tasi shahar va tuman markazlarida joylashgan sanoat korxonalarini edi. Sanoat korxonalarining 29 tasini sanoat artellari, 10 tasini birlashgan artellar tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati tashkil etilishi viloyat hududidagi resurslarni ishga solish imkoniyatini yaratди. Qashqadaryo viloyatida yangidan “Uzzagatskot” va “Uzmolmasloprom” kabi idoralar tashkil qilindi. Viloyatda Miraki va Ko‘kbuloq tumanlari tashkil topgandan so‘ng, mazkur tumanlarda “Mnogoprommislovoy” arteli tashkil etildi.

1944-yilning yanvar oyi qarori bilan Qarshidagi Oxunboboyev jamoa xo‘jaligi hududida pivo zavodi qurish uchun 20 hektar yer ajratildi. Bu ishni amalga oshirish uchun maxsus brigada ishlab, non zavodi tashkil topadi va uni qurish ishlari avj oldirib yuboriladi. Mazkur yilda Qarshi shahridagi “Ittifoq” arteli oldida pillachilik sexi ishga tushirildi. Shahar ta’mirlash qurilish idorasi tomonidan ikki yilda ishga tushirilgan sex mahsulotlarini turli mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zavodlarga jo‘natib turdi.

Xullas, Ikkinchiji jahon urushi o‘zining murakkabligi va qiyinchiligi hamda ziddiyatlarga boyligi bilan har bir davlat tarixida o‘chmas iz qoldirdi. O‘zbekiston urush yillari g‘arbdan ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalari va aholini qabul qildi. Qashqadaryo viloyatiga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarining birontasi joylashtirilmadi. Viloyat sanoat korxonalarida asosan xotin-qizlar mehnat qildi. Sanoat korxonalarining front uchun va mahalliy aholiga zarur bo‘lgan mahsulotlarni etkazib berishda xotin-qizlarning faoliyati samarali bo‘ldi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. –Toshkent. QBT, 1997. – B. 173.
2. Irkayeva N. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Ikkinchiji jahon urushi yillarida. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2015. – B.26.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2001 B-144
4. Jo‘raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. Qarshi, „Nasaf“ 1996 B-44
5. Buyuk Jasorat // Qashqadaryo haqiqati. 1982. 8 may. – B. 1–2
6. Ergasheva Yu., O‘ljaboyeva N.K., O‘ljaboyev D.K. Fashistlar germaniyasini tor-mor etishda qashqadaryoliklarning qo‘sghan hissasi //“O‘zbekiston Respublikasi 1941-1945 urush yillarida. Ilmiy to‘plam. Qarshi, 1995. – B.56.

# MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

## “HALOLLIK VAKSINASI” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI, SHAKLLARI.

Hakim Mamanovich Rasulov	Jamoatchilik nazorati va boshqaruvda “halollik vaksinasini” real-likka aylantirish jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati tandemligini ta’minlanishning omili sifatida.....	5
Raxmankulov Farxod Raximkulovich, Zoirova Aziza Asomiddin qizi Raxmankulov Farxod Raximkulovich, Murodova Bibisora	Halollik vaksinasi - yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim sharti.....	8
Ahmedov H	Yangi avlodni halollik ruhida tarbiyalashning ustivor vazifalari.....	10
	Ma’naviy tarbiya fenomeni va “halollik vaksinasi” o’rtasidagi sinergetik aloqadorlik.....	12

## OLIY TA’LIM MUASSASASIDA “HALOLLIK VAKSINASINI” SHAKLLANTIRISH USULUBLARI VA AMALIYOT.

Bekmurodova Gulshoda Xayitovna	Oliy ta’lim muassasalarida halollik vaksinasini tatbiq qilish zaruriyati va yo’llari.....	16
Боймуродов Санжар Бекмуродович	Коррупсияга қарши курашда таълимни бошқаришнинг ўзига хос хусусиятлари.....	18
Раупова Рана Сойибовна	Кадровая коррупция и механизмы ее устранения. последствия коррупции в системе образования и науки.....	20
Dusyorova Klara Narmuminovna	“Ma’naviy ekspertiza” tushunchasi hamda halol o‘qituvchi ta’rifi.....	25
Элдор Боратов	Адолат мазмунини очища ҳалолликнинг ўрни.....	28
Yoqubboyeva Sevara Qurbondurdiyevna	Oliy ta’limda korrupsiyaning salbiy ta’sirini bartaraf etish: globallashuv va mintaqalararo integratsiyadagi zamonaviy yondashuvlar.....	30

## «HALOLLIK VAKSINASI» BILAN EMLANGAN YANGI AVLODNI TARBIYALASH USTUVOR VAZIFAMIZDIR.

Arolova Zarina Lochin qizi	“Korrupsiya: jamiyatimiz taraqqiyotining kushandası” .....	34
Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi,	Milliy yuksalish jarayinida barkamol avlod tarbiyasiga “halollik vaksinasi” ning ahamiyati.....	36
Boboqulov Nurmuhammad	Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish shartlari	38
Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi,	Korrupsiya – jamiyatning yashirin dushmani.....	39
Boymurodova Munisa Zaripova Gulnoza	Korrupsiya va milliy taraqqiyot: muammo va yechim.....	42
Zahreddin qizi	Korrupsiyaning jamiyatga psixologik ta’siri .....	43
Ibragimova Dilsora Ibragimova Zarnigor	Ma’naviy qadriyatlar orqali korrupsiyaga qarshi kurash: tarix va zamonaviylik uyg‘unligi.....	45
Orifjon qizi	Jamiyatni korrupsiyadan himoya qilishda aholi faolligi va iqtisodiy insentivlarning roli: O‘zbekiston tajribasi.....	47
Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li	Jamiyat va davlat rivoji uchun korrupsiyaga qarshi kurashning muhimligi: o‘zbekiston misolida tajribalar va strategiyalar.....	50
Matchanova Barno Irkinovna		
O’razmatova Fotima		
Matchanova Barno Irkinovna Atoxonova Dilfuza Botirboy qizi		

Maqtchanova Barno Saparbayeva Indira	Raqamli texnologiyalar va institutsiional o'zgarishlar orqali korrupsiyaga qarshi kurash: o'zbekistonning yangi strategiyasi.....	53
Otamurodov Doniyorbek Odilboy o'g'li	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash: o'zgarishlar va kelajak istiqbollari.....	56
Qarshiyeva Tamara Ibroximovna	Ta'lif tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish.....	59
Raxmatova Nargiza	Oilada farzandni tarbiyasi: halollik va to'g'rilik ruhida tarbiyalashning jamiyat yuksalishidagi ahamiyati.....	60
Usmonova Mohidil Б.Ғаниев Ш.Хонимқулов	Jamiyat rivojiga g'ov bo'luchchi illat.....	62
3. Фозиев	Олий таълим: адолатли ва шаффоф қабул жараёнлари.....	63
Р.Бойматов	Миллий ва умуминсоний ахлоқий қадриятларига эътибор-жамият маънавий покланиши ва ҳалолликнинг муҳим белгиси.....	66
Тонгатаров Миржалол Шермурод уғли	Жамият тараққиётининг кушандаси.....	69
Тўраева Азиза	Korruptioniga қарши курашиш соҳасида қонун ҳужжатлари тизими.....	70
Dilsora Rasulova Bekmurod qizi	Korruptioniga қарши курашда ҳалоллик фазилатини сингдириш зарурити.....	74
	O'zbekistonda "halollik vaksinasi" tushunchasining targ'iboti.....	76

### **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUAMMOLARI.**

Хажиева Максада Султановна	Korruption-taraqqiyet kushandasi.....	78
Xaitov Lazizbek Azamatovich	Korrupsiya: tushunchasi, genezisi, evolyutsiyasi va yashovchanlik tendensiyalari.....	80
Muxammadieva Oliya Narzullaevna	Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid huquqiy yondashuvlar.....	83
Rashidov Kamron		
Xolova Umida Umedovna	Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi.....	86
Kuziyev Nodir Abdusalimovich	Korruksianing turlari, shakllari, sabab va oqibatlar.....	89
Jurayev Shodmon Fayzullayevich	Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalar muammo va echimlar (Singapur va Shvetsiya davlatlari misolida) .....	91
Dehqonov Behzod Baxtiyorovich	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy taktik usul va strategik yo'nalishlar.....	93
Toshkentova Sharofatbonu	Korrupsiyaga qarshi kurashish davr talabi.....	96
Tohirova Javohira Samandar qizi	Korruksianing uzoq tarixi va ijtimoiy salbiy hodisa ekanligi.....	100
Qurbanov Asqar Bahodir o'g'li	Korrupsiyasiz hayot sari.....	102
Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich	Korrupsiya jamiyatimizda demokratik rivojlanish kushandasi.....	104
Qo'shshayeva Muhayyo Farxritdin qizi		
Nazarov Ravshan Nazarovich	Oliy ta'lif muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.....	106
Musatafeyeva Oydin	O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati.....	108
III.А.Эрматов	Korruptioniga қарши курашишнинг ҳалқaro ва миллий механизmlari.....	112
Imamov Bobir Xujanazarovich	Korrupsiyaga qarshi kurashishda O'zbekiston tajribasi.....	116

Sunatov Dilshod	Korrupsiya “botqog‘i” va unga qarshi kurashning dolzARB muammolari.....	119
Hoshimovich Tohirova		
Javohira Samandar qizi		
Xasanova Malika		
Rustambekovna		
Rustamova Shahzoda		
Ulubek қизи		
Srajidinova Nodira		
Shavkatovna		
Rustamov L		
Fazliddin Qodirov		
Yuldashevich Turopova		
Guljahan Sayfiddin qizi		
Mirabdullayeva Malika		
Maxmudjonovna		
Bekmurodova G Buxorova		
Noila Norboevna		
Bektoshev G‘iyosiddin		
Saxriddin o‘g‘li		
Nizomjonova Luiza		
Nizomjonova		
Safarov Nurbek		
Abdivaliyevich		
G’afforov Oybek		
Rustam o‘g‘li		
Boymurodova Sevinch		
Boymurodov Zohid		
Shokirovich		
Azamatova Mohira		
	Korrupsiyaga qarshi kurashishda amaliy tadbirlarning o‘rni.....	143
	Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzARB muommolari.....	146
	Yoshlar korrupsiyaga “yo‘q” deydi.....	148
	Rim imperiyasida korrupsiyaning avj olishi: davlat va jamiyatga ta’siri.....	150
	Коррупция – это болезнь, разрушающая государство и унижающая человека, угроза государству и обществу.....	152
	Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy ildizlari.....	155
	Sarmoya va ish o‘rinlari yaratishdagi to’siqlar.....	157
	Korrupsiya va yoshlar.....	160
	O‘zbekistonda korrupsiya va unga qarshi kurashning etnopsixologik xususiyatlari.....	162
	Korrupsiya ta’lim kushandas.....	166

## **KORRUPSIYANI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA’DANIY-MA’RIFIY MASALALARI**

Бозоров Сухроб Комилович	Vatanqa daxlidorlik hissini shakllantiruvchi ma’naviy-ahloqiy kadriyatlar.....	170
Yovqochediyeva Dilafro‘z Egamqulovna Nurmatova Nozima		
Xidirov Xolmamat Djo‘rayevich	Kichik mакtab yoshidagi bolalarda diqqatning shakllanishi.....	172
Бозоров Сухроб Комилович		
Shonazarov Jamol Umirzoqovich	O‘zbekistonda havo yo‘llari transportida amalga oshiriladigan harbiy tashishlar .....	173
Abdullahayeva Jongul G‘afforovna	Vatanqa daxlidorlik hissini shakllantiruvchi ma’naviy-ahloqiy kadriyatlar.....	178
Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich	Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va ma’naviy merosimizdan foydalishning o‘quv jarayoni bilan uzviyligi.....	180
Abduvohidova Diyora Norboy qizi	O‘smir bola psixologiyasining ta’lim jarayonidagi o‘rni.....	182
Baymatov Alisher Kaxramonovich		
Ergashev Maftunquli	Milliy istiqlol g‘oyasining O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi o‘rni va ahamiyati.....	184
Ergasheva Muhayyo Jo‘rayevna	Ijtimoiy tarmoqlar va unda radikal g‘oyalar xavfining namoyon bo‘lish xususiyatlari.....	188
Sunnatova Munisa	O‘zbek milliy an’anaviy qo‘l sanatlarida ma’naviy qadryatlarimizni aks etishi.....	190
	O‘smir yoshdagagi bolalarga psixologik yondashuv shakllari.....	192

Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich	Ma'rifat va jamiyat kategoriyalarini o'rganishning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	194
Ismoilov Najmiddin Boysoatovich Xudoyqulov	Media ta'lif kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili va uning metodologik asoslari.....	198
Sunnat Ismatillo o'g'li Nazarov Ravshan Nazarovich	Yoshlar dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri.....	200
Qahhorova Sayyora Bahadirovna, Baxriyev Muhammad	Muloqot sotsial va shaxslararo munosabatlarning ifodasi sifatida .....	202
Raxmankulov Farxod Raximkulovich	Mulk egaligi va ijtimoiy mas'uliyat: tadbirkorlik rivojidagi ahamiyatli omillar.....	204
Raxmankulov Farxod Raximkulovich	Mulkdorlar qatlagini shakllanishining tarixiy va huquqiy asoslari.....	206
Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich	Ekoturizm fenomeni, uning ilmiy-nazariy adabiyotlarda sharhlanish evolyutsiyasi.....	209
Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich	Yangi O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari va targ'ibot texnologiyalari.....	212
Temirova Feruza Xidirova Go'zal	Yangi avlodni tarbiyalashda qashqadaryolik xotin-qizlarning 1941-1945- yillaridagi faoliyatining ahamiyati.....	215

## ILMIY NASHR

“YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM  
MUASSASALARING YOSHLARGA “HALOLLIK VAKSINASI”NI  
SINGDIRISHDAGI AHAMIYATI”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami

Qarshi, 2024-yil 23-dekabr

Texnik muharrir:  
Musahhih:

J. Raxmatov  
M. Primova

Terishga 19.12.2024-yilda berildi. Bosishga 21.12. 2024-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/8. Nashr bosma tabog‘i 27.6  
№ 25-buyurtma. 40 nusxada. Erkin narxda.

Qarshi davlat universiteti kichik  
bosmaxonasida bosildi.

Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.